

N1 32029
3q1



«KAMOLOT»
KUTUBXONASI

Karlo Kollodi
Aleksey Tolstoy

Pinokkioning boshidan kechirganlari Buratino va uning sarguzashtlari





Karlo Kollodi
Aleksey Tolstoy

Pinokkioning boshidan kechirganlari

Buratino va uning sarguzashtlari



МАЖБУРИЙ
НУСХА



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2015

821.131.1 - Uta mif. agad. uetru

821.161.1 - Pyc. agad. uetru

K 61

UO'K: 821.161.1-1

KBK: 84(4 Ita)

84(2Ros=Rus)

K-62

T-64

Kollodi, Karlo

Tolstoy, Aleksey

Pinokkioning boshidan kechirganlari. Karlo Kollodi/ Buratino va uning sarguzashtlari. Aleksey Tolstoy. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. - 348 b.

ISBN 978-9943-27-489-1

Yog'och bolalar... Dunyoda shunaqa bolalar ham bormikan, deya hayratga tushayotgandirsiz. Bor va bir kuni ularga duch kelib qolsangiz aslo ajablanmang. Bunday bolalar uchraydi - agar ularning ismi Pinokkio va Buratino bo'lsa... Topiladi - agar ularning otalari oqko'ngil Jepetto va Karlo bo'lsa... Ular aslo yer yuzidan yo'qolib ketishmaydi - agar ikkisini ham zangori sochli qizlar Pari-yu Malvina qo'llasa...

Yog'och bolalar ham oddiy bolalar singari o'ynaydi, kula-di, yig'laydi, eng asosiysi, sho'xlik qilishni jonlaridan ham ortiq ko'rishadi. Ularning birgina kamchiligi vaqtida ilm o'rganishni istashmaydi va ko'pgina quloqsiz bolalar singari uydan qochib, birtalay sarguzashtlarni hamda ko'ngilsiz voqealarni boshdan kechiradilar. Masalan, Pinokkio Taralabedod mamlakatiga borib, eshakka aylanib qoladi. Ahmoqlar mamlakati ahli ham Buratinoni quchoq ochib kutib olmaydi. Xo'sh, bu ikki yog'och bola qanday qilib qiyinchiliklarni yengib ketisharkin? Bu savolga javobni kitobni o'qish jarayonida bilib olasiz.

UO'K: 821.161.1-1

KBK: 84(4 Ita)

84(2Ros=Rus)

Tarjimonlar:

Qodir Mirmuhamedov

Sulton Muhammadjonov

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

ISBN 978-9943-27-489-1

© Karlo Kollodi, «Pinokkioning boshidan kechirganlari». Aleksey Tolstoy, «Buratino va uning sarguzashtlari». «Yangi asr avlodi», 2015.

Ko'makchi fond

Karlo Kollodi

Pinokkioning

boshidan kechirganlari

Pinokkioning boshidan kechirganlari quloqsiz bolalarga chinakam saboq. Qiyinchiliklar – mehnatdan qochadiganlarni tarbiyalaydi. Ushbu asar kitobxonni ilm va mehnat insonni ulug'lashiga ishonтиради. Bosh qaliramoning bir-biridan ajoyib hamda g'aroyib sarguzashtlari bolajonlarga zavq-shavq ulashiishi bilan bir qatorda, ularni mushohadaga chorlaydi.



I. Usta Olchaning qo'liga xuddi kichkina boladek bir kulib, bir yig'lovchi g'o'la tushib qoladi

Bor ekan, yo'q ekan... «Bir qirol bo'lgan ekan!» – deb shu zahoti luqma tashlashadi mening jajji kitobxonlarim.

Yo'q, bolalar, topa olmadingiz. Bor ekan-u yo'q ekan, bir g'o'la bo'lgan ekan. G'o'la bo'lgandayam, unaqangi asil nav daraxtning g'o'lasini emas, balki qish paytida pechka yo kamininga qalab, uyni isitishdan boshqa narsaga yaramaydigan shunchaki o'tinbop bir g'o'la ekan.

Qanday bo'lganini aytolmayman-u, lekin kunlarning birida o'sha yog'och g'o'la bir keksa duradgorning ustaxonasiga tushib qolibdi. Bu duradgor cholning ismi aslida Antonio bo'lsa ham, odamlar uni «Usta Olcha» deb atashardi, nimaga desanglar, burnining uchi g'arq pishgan olchaga o'xshab, doim qip-qizil, yaraqlab turardi. Usta Olcha g'o'lani ko'rib, judayam xursand bo'ldi, xursand bo'lganidan qo'llarini bir-biriga ishqab, o'zicha:

– Juda vaqtida ko'rib qoldim-da, bu g'o'lani. Endi stolga oyoq yasayman undan, – dedi. Shunday dedi-yu, ishga kirishdi. U g'o'lani po'stloqdan tozalamoqchi, keyin undan stolga bejirim oyoq yasamoqchi bo'lib, darhol qo'liga o'tkir boltasini oldi. Lekin uning bolta ushlagan

qo'li ko'tarilganicha taqqa to'xtab qoldi, chunki g'ola ichidan allakimning yolboruvchi chiyildoq ovozi eshitilgan edi:

– Voy, urmang meni!

Oqko'ngil usta Olchanning qay ahvolga tushganini ko'z oldingizga keltirayotgan bo'lsangiz kerak. U tamoman esankirab qoldi, tovush qayoqdan kelganini bilish uchun, olazarak bo'lib, ustaxonaning har tomoniga ko'z yugurtirib chiqdi. Biroq ustaxonada hech zog' yo'q edi. Dastgoh ostiga mo'raladi – hech kim yo'q. Odatda doim qulflog'liq turadigan javonni ochib qaradi – u yerda ham hech kim yo'q. Qipiq, payraha to'kiladigan savatni titkilab ko'rdi



– hech zog‘ yo‘q. Axiri deraza qopqog‘ini ochib, ko‘chaga mo‘raladi – ko‘chada ham hech kim yo‘q edi. Balki...

– Ha-a, bo‘ldi, tushundim, – deb hirlingladi u yasama sochi ostiga qo‘l tiqib ensasini qashlarkan. – Qulog‘im shang‘illagan bo‘lsa kerak. Qani, ishga kirishaylik! Shundan keyin u yana qo‘liga boltani oldi-yu, g‘o‘lani chopdi.

– Voy, og‘ritib yubordingiz-ku! – deb chinqirdi yana boyagi tanish ovoz.

Usta Olcha uchun bu endi dahshatning o‘zginasi edi. Qo‘rqqanidan ko‘zining paxtasi chiqib ketdi, og‘zi lang ochilib, tili iyagigacha osilib tushdi, xullas, chol qadim zamonlarda favvoralarni bezash uchun yasalgan g‘aroyib haykallardan biriga o‘xshab dong qotib qoldi.

Birozdan keyin u yana o‘ziga kelib, hamon duduqlanib bo‘lsa ham, tovush chiqarib, o‘zi-cha fikr yurita boshladi:

– Har nechuk, «voy-voy»lagan kim bo‘ldiykin-a? Axir bu yerda bironta ham tirik jon yo‘q-ku. Nahotki oddiy bir yog‘och g‘o‘la go‘dak boladek yig‘lab, voy-voylasa? Yo‘q, o‘lsam ham ishonmayman bunga! Axir bu hamma g‘o‘lalariga o‘xshagan oddiy bir g‘o‘la-ku. O‘choqqa qalasang, bir qozoncha loviya pishadi. Bordi-yu, g‘o‘la ichiga bironta jonzod kirib olgan bo‘lsa-ya. E, o‘ziga qiyin. Hozir uning dodini beraman!

Usta shunday deb, sho‘rlik g‘o‘lani ikki qo‘llab ushladi-da, hech ayamay ustaxona devoriga zarb bilan ura boshladi. Keyin boyagi ingragan, dodlagan ovoz yana eshitilmasmikin,

deb quloq sola boshladi. U ikki daqiqa kutdi – «tiq» etgan tovush eshitilmadi; besh daqiqa kutdi – jimjit; o'n daqiqa kutsayam hech qanday tovush eshitilmadi.

– Bo'ldi, tushundim, – dedi chol nihoyat, so'ng o'zining qo'rqqoqligidan xijolat bo'lib, tirjayib qo'ydi-da, yasama sochini qashlab paxmaytirdi. – Darhaqiqat, qulog'im shang'illagan-u, xuddi go'dak chiyillab, «voy-voy»lagandek tuyilgan. Qani, ishga! Lekin u boyagi qo'rquv ta'siridan hali tamoman qutulmagan edi, endi o'zini tetik tutish uchun doimiy odati bo'yicha, qo'shiq xirgoyi qila boshladi.

Usta g'o'lani silliq qilib randalash niyatida boltani chetga qo'yib, qo'lga randa oldi. Lekin randani g'o'la ustida yurgazishi bilanoq, yana qulog'iga o'sha chiyildoq ovoz eshitildi:

– Voy, tegmang axir menga! – dedi u ovoz qiqir-qiqir kulib. – Hamma yog'imni qitiqlab tashladingiz-ku!

Bu gal endi usta Olcha xuddi yashin urgandek «gurs» etib, yerga yiqildi. Birozdan keyin hushiga kelib, ko'zini ochsa, haliyam yerda cho'zilib yotipti.

Afti jin chalgandek qiyshayib ketgan, burnining to'q qizil uchi endi qo'rqqanidan, to'q zangori rangga kirgan edi.

**II. Usta Olcha g'olani do'sti Jeppettoga
sovg'a qiladi, Jeppetto u g'oladan
raqs tushishni, qilichbozlik qilishni,
shuningdek, umbaloq oshishni
biladigan alomat yog'och bola
yasamoqchi bo'ladi**

Shu mahal eshik taqillab qoldi...

– Kiravering, – dedi duradgor zo'rg'a, lekin o'rnidan turishga majoli yetmadi.

Ustaxonaga Jeppetto ismli bir odam kirdi; u ancha keksayib qolgan bo'lishiga qaramav, hali dadil edi. Qo'shni Bolalar bu cholning jig'iga tegish uchun unga «Zog'ora non» deb laqab qo'yishgan edi, chunki uning boshidagi sap-sariq yasama sochi zog'ora nonga judayam o'xshab ketardi.

Jeppetto judayam jahldor chol edi. Uni «Zog'ora non» deb aytgan odamning sho'ri qurirdi! Bunday paytda shunaqangi jig'ibiyroni chiqib ketardiki, hatto ko'plashib ham uni jahlidan tushirish mushkul edi.

– Salom, usta Antonio, – dedi Jeppetto. – Nega yerda o'tiripsiz?

– Chumolilarga to'rt amaldan dars beryapman.

– Omad tilayman!

– Xush ko'rdik, Jeppetto amaki. Menikiga nima ish bilan keldingiz?

– O'zim shunday... To'g'risini aytsam, usta Antonio, huzuringizga bir iltimos bilan keldim.

– Bemalol, so'rayvering, – deb javob qildi duradgor o'rnidan turarkan.

– Bugun ertalab miyamga bir fikr kelib qoldi.

– Qani, eshitaylik.

– Bironta yog‘och topib, undan alomat yog‘och odam yasasam chakki bo‘lmasdi, deb ko‘nglimdan o‘tkazdim. Lekin u yog‘och odam judayam antiqa xislatga ega bo‘lishi kerak: raqs tushishni, qilichbozlik qilishni, umbaloq oshishni bilishi kerak. Keyin o‘sha yog‘och odamni olib, jahonni kezsam, shunda bir burda non bilan bir qadah mayga pul ishlab topib, qarigan chog‘imda bir amallab kunimni o‘tkazarmidim. Shunga siz nima deysiz?

– Barakalla, Zog‘ora Non! – deb chinqirdi boyadan beri allaqayoqdan eshitilayotgan haligi ovoz.

Jeppetto amaki o‘zini «Zog‘ora non» deb atashganini eshitdi-yu, g‘azabdan achchiq qalampirday qizarib ketdi, jahl bilan duradgorga o‘shqirdi:

– Meni haqorat qilishga qanday jur‘at etdingiz?

– Kim sizni haqorat qilipti?

– Siz meni «Zog‘ora non» deb atadingiz.

– Men aytganim yo‘q.

– Bo‘lmasa kim aytdi, o‘zim aytibman-da?

Yana qaytaraman, o‘sha so‘zni siz aytdingiz!

– Yo‘q!

– Aytdingiz!

– Yo‘q!

– Aytdingiz!

Ular qizishgandan qizishib, axiri dahanaki jangdan amaliy jangga o‘tishdi, bir-birlariga yopishib, goh tishlasha, goh timdalasha bosh-

lashdi. Nihoyat jang tugab, ular bir-birlaridan ajralishganida, Jeppettoning sariq yasama sochini usta Antonio changallab olgan, duradgorning oq yasama sochini esa Jeppetto tishlab turar edi.

– Ber sochimni! – deb baqirdi usta Antonio.

– Senam ber sochimni, keyin yarashamiz.

Chollar yasama sochlarni ayirboshlab olishgach, bir-birlarining qo'lini siqishib, umrbod qadrdon do'st bo'lib qolishga so'z berishdi.

– Xo'sh, Jeppetto amaki, – dedi duradgor yarashib olishganini namoyish qilish maqsadida, – nima iltimos qilmoqchi edingiz mendan?

– Siz menga bironta g'o'la bersangiz-u, men undan yog'och bola yasasam devdim. Shu fikrimga qanday qaraysiz?

Usta Antonio xursand bo'lib ketib, shu zahoti dastgohi tomon otildi-yu, u yerda yotgan boyagi shum g'o'lani qo'lga olib, uni ikki qo'llab do'stiga uzatdi. Biroq shu payt g'o'la bir silkinib, ustaning qo'lidan chiqib ketib, to'ppa-to'g'ri bechora Jeppettoning chillakdek ingichka oyog'iga borib tushdi.

– Voy! Odamga juda nazokat bilan sovg'a qilarkansizmi, usta Antonio! Siz meni bir umrga cho'loq qilib qo'ydingiz, shekilli.

– O'lay agar, g'o'lani tushirib yuborgan men emasman!

– Bundan chiqdi, men ekanman-da?

– Hamma balo g'o'lada.

– Buni o'zim ham bilaman, lekin uni oyog'imga siz tushirib yubordingiz-ku.

– Men tushirmadim!

– Yolg'onchi!

– Jeppetto, meni haqorat qilmang, bo'lmasa sizni Zog'ora non deb atayman!

– Eshak!

– Zog'ora non!

– Ho'kiz!

– Zog'ora non!

– Ahmoq maymun!

– Zog'ora non!

Jeppetto «Zog'ora non» so'zini uchinchi mar-ta eshitganidan keyin, jahli chiqib, aqldan ozgandek, duradgorga tashlandi, ikki chol yana jiqqamusht bo'lib rosa olishishdi.

Bu olishuv natijasida usta Antonioning bur-nidagi timdalangan tirnoq izlari ikkitaga ortdi, do'stining kamzulidagi tugmalar ikkitaga ka-maydi.

Ular shu zaylda bir-birlaridan o'ch olib, xu-mordan chiqishgach, ikkovlari yana qo'l siqi-shib, o'la-o'lguncha qadrdon do'st bo'lib qolish-ga so'z berishdi.

Shundan keyin Jeppetto shumtaka g'o'lani qo'ltig'iga qistirib, oqsoqlangancha uyiga jo'nadi.

III. Jeppetto uyiga kelgan zahoti g'o'ladan yog'och bola yasashga kirishadi va unga Pinokkio deb nom qo'yadi. Yog'och bolaning dastlabki qadamlari

Yerto'ladagi kichkina bir hujra Jeppettoning uyi edi: uning bitta-yu bitta derazasi bo'lib, u ham zina tagiga ochilardi. Uydagi faqirona jihozlar: bitta liqildoq stul, shalog'i chiqqan

karavot-u bir oyog'i kalta eski stoldan iborat edi. Devor tagida jajjigina kamin bo'lib, unda olov yonib turardi. Lekin bu olov ham, uning ustiga osilgan qozoncha ham – surat edi: qozoncha biqirlab qaynab, undan pag'a-pag'a bug' ko'tarilayotgandek edi. Bularning hammasi xuddi haqiqiyga o'xshardi.

Jeppetto uyiga yetib kelishi bilan darhol qo'liga asbob-uskunalarini oldi-yu, g'o'fani yo'nib, yog'och bola yasashga kirishdi. «Nima deb nom qo'ysam ekan unga? – deb o'ylanib qoldi Jeppetto. – Pinokkio deya qolay. Bu ism unga baxt keltiradi. Bir vaqtlar Pinokkiolar oilasi bo'lardi: otasining oti Pinokkio, oyisi – Pinokkiya, bolalarining ismi – Pinokki edi, hammalari doim xushchaqchaq kun kechirishardi. Ichlarida eng badavlati tilanchilik qilib kun ko'rardi».

Chol bo'lg'usi yog'och bolasiga ism topganidan keyin, hafsala bilan ishlay boshladi. Eng oldin u yog'och bolaning sochini, keyin peshanasini va nihoyat ko'zlarini yasadi. Shunda chol bu yog'och ko'zlarning pirpirab uchayotganini ko'rди-yu, ajablanganidan og'zi lang ochilib qoldi. Jeppetto yog'och qo'g'irchoqning ko'zlari o'ziga tikilib turganini ko'rib, o'kinch bilan:

– O, tentak yog'och ko'zlar, nega menga bunchalik baqrayib qoldingiz? – dedi.

Lekin hech kim unga javob qaytarmadi.

Shundan keyin Jeppetto yog'och bolaning burnini yasashga kirishdi. U burunni endigina yasab bo'lgan ham ediki, u o'zidan-o'zi birdan kattalashib, o'saverdi, o'saverdi, hash-pash deguncha salkam bir quloch bo'lib ketdi.

Bechora Jeppetto burunni qisqartirmoqchi boʻlib, dam kesib, dam yoʻnib koʻrdi, lekin shilqim burun borgan sari battar kattalashaverdi.

Shunda chol burunni oʻz holiga qoʻyib, ogʻiz yasashga kirishdi. Lekin yogʻoch ogʻiz hali chala boʻlishiga qaramay, dam qiqirlab kular, dam qiyshayib cholni masxara qilardi.

– Kulavermay, jim tur! – dedi Jeppetto achchiqlanib.

Lekin gapi zigʻircha ham taʼsir qilmadi.

– Kulgini bas qil, dedim senga! – deb jahl bilan baqirib berdi Jeppetto. Yogʻoch ogʻiz shu zahoti kulishdan toʻxtadi, lekin bir qarich keladigan tilini chiqarib, masxara qildi. Jeppetto kayfiyatini buzmaslik uchun, yogʻoch bolaning



alamat qiliqlariga parvo qilmay qo'ydi, u ishini davom ettirdi. Qo'g'irchoqning og'zini yasab bo'lgach, uning engagini, keyin bo'ynini, yelkalarini, gavdasini qo'llarini yasadi.

Jeppetto yog'och bolaning qo'llarini yasab bo'lganini biladi, shu payt kimdir uning boshidan yasama sochini yulib oldi. U boshini bundoq ko'tarib qarasa... nimani ko'rdi deng? Yog'och bola uning sariq yasama sochini qo'li-da ushlab turardi.

– Pinokkio! Hoziroq yasama sochimni ber, bo'lmasam...

Lekin Pinokkio yasama sochni cholga qaytarib berish o'rniga, o'z boshiga kiyib oldi, kiydi-yu, bir zumda dimiqib, nafasi qaytib ketdi. Pinokkioning odobsizligi, shilqimliklari Jeppettoning ko'nglini shunaqangi qattiq ranjitdiki, u shuncha yashab, hali bunchalik xafa bo'lmagan edi.

– Qanaqa betartib bolasan o'zing? – dedi u.
– Hali tayyor bo'lmasingdan o'z otangni behurmat qilyapsan, keyin nima bo'ladi? Yaxshimas, bolam, yaxshimas!

Shunday deb, chol ko'z yoshini artdi.

Shundan keyin u Pinokkio uchun oyoq yasashga kirishdi. Jeppetto yog'och bolaning oyoqlarini yasab bo'lishi bilan, shu zahoti burniga tepki yedi.

«Ayb o'zimda, – deb ko'nglidan o'tkazdi chol va xo'rsinib qo'ydi. – Hammasini oldindan puxta o'ylab, keyin ishga kirishishim kerak edi, endi kech bo'ldi».

Keyin u yog'och bolaning qo'ltig'idan ko'tarib, yerga qo'ydi. Pinokkioni yurishga o'rgat-

moqchi edi-da. Lekin Pinokkioning oyoqlari hali bukilmas, beo'xshov edi, shuning uchun, u oyog'ini zo'rga sudrab bosardi. Shunda Jeppetto bolaning qo'lidan yetaklab, unga qanday qadam qo'yishni o'rgata boshladi.

Bora-bora, yog'och oyoqlarning chigili yozilib, Pinokkio endi ancha erkinroq qadam qo'ya boshladi. Oradan bir necha daqiqa o'tgach esa yog'och bola uy ichida bemalol yura boshladi. Yurib-yurib u birdan ostona hatlab, ko'chaning qoq o'rtasiga chiqib oldi. Chiqdi-yu, shataloq otgancha chopqillab ketdi.

Sho'rlik Jeppetto Pinokkioning orqasidan quvib ketdi, lekin qancha yugursa ham unga sira yeta olmadi: shumtaka Pinokkio yog'och yotqizilgan ko'cha o'rtasidan xuddi quyonga o'xshab dik-dik sakrab borarkan, yog'och oyoqlarining ovozi, yog'och kavush kiygan yigirma nafar dehqonning qadam tovushidek taraqlardi.

Biroq ko'chadagi o'tkinchi odamlar, naq tozi itdek g'izillab borayotgan yog'och bolani ko'rib, taqqa to'xtashar va uning orqasidan tomosha qilib, butun ko'chani boshlariga ko'tarib, xaxolab kulishardi.

Yaxshiyamki, shu payt politsiyachi paydo bo'ldi. U avvaliga, bironta odamning toychoqi qochib ketipti-da, deb o'yladi. So'ng bu dovyurak, zabardast politsiyachi biron falokat yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun toychoqni tutishga ahd qilib, ko'chaning o'rtasiga turib oldi.

Pinokkio politsiyachi yo'lni to'sib turgani ni uzoqdan ko'rди-yu, chap berib uning oyog'i

ostidan «lip» etib o'tib ketmoqchi bo'ldi. Lekin omadi kelmadi.

Politsiyachi chaqqonlik qilib, Pinokkioning burnidan shartta ushlab oldi (ma'lumki, uning burni judayam uzun bo'lib, go'yo politsiyachilarning qo'liga tushish uchun ataylab shunaqa yaratilgandek edi). Keyin uni Jeppetoning qo'liga topshirdi. Chol shu zahoti, shu yerning o'zida bevosh Pinokkioning qulog'idan cho'zib, uydan qochgani uchun adabini berib qo'ymoqchi bo'ldi. Lekin buni qarangki, u bolasining qulog'ini topa olmay, hang-mang bo'lib qoldi! Bilasizlarmi, nega bunaqa bo'ldi? Chunki, chol ishga berilib ketib, yog'och bolaga quloq yasashni unutib qo'ygani edi.

Natijada u Pinokkioning hiqildog'idan olib, shu alpozda uyga qaytarib olib ketdi... Jeppetto uni yetaklab borarkan, boshini chayqab, bolaga po'pisa qilardi:

– Hozir uyga borib olaylik. Keyin o'sha yerda o'zim boplab dodingni beraman, ko'ngling to'q bo'lsin!

Pinokkio bu po'pisani eshitdi-yu, darrov ko'channing o'rtasiga cho'zilib yotib oldi. Ularning atrofiga tomoshatalab bekorchi odamlar yig'ila boshladi. Zum o'tmay atrofni tumonat odam bosdi.

Har kim har xil mulohaza yuritardi:

– Bechora yog'och bola, – deb achinardi birov.
– Uyiga bormay, juda to'g'ri qilyapti. Toshzurak Jeppetto rosa ta'zirini beradi borsa.

Boshqa birovlar g'azablanib, shunday deydishardi:

– Bu Jeppetto bir qaraganda binoyiday odamga o'xshaydi-yu, lekin aslida o'lgudek qo'pol, bolalarga rahm-shafqat qilmaydigan johil odam. Agar biz sho'ring qurg'ur yog'och bolani uning qo'liga topshiradigan bo'lsak, uyiga borganda, bechorani burda-burda qilib tashlaydi.


Odamlar shu zaylda biri olib, biri qo'yib, hangamalashib turishganda, politsiyachi kelib, ularning gapini eshitdi-da, Pinokkioni bo'shatib yuborib, uning o'rniga bechora Jeppettoni mahkam ushladi. Bu kutilmagan holdan chol o'zini yo'qotib qo'ydi, bir og'iz ham gapira olmay, yig'lab yubordi va qamoqxonaga keta turib, yo'l-yo'lakay piqillab yig'lagancha o'ziga-o'zi bunday dedi:

– Yaxshilikni bilmagan bola! Men bo'lsam, seni odobli yog'och bola qilib tarbiyalamoqchi edim-a! Ayb o'zimda. Buni oldinroq o'ylab ko'rish kerak edi!

Shundan keyin juda g'aroyib voqealar sodir bo'ldiki, ular to'g'risida men navbatdagi boblarda hikoya qilmoqchiman.

IV. Pinokkio bilan gapiruvchi qora chigirtka voqeasi. Bu voqeadan johil bolalar o'zidan aqlli roq kimsaning tanbehini yoqtirmasligi ma'lum bo'ladi

Shunday qilib, bolalar, men sizlarga aytсам, Jeppettoni begunohdan begunoh qamoqqa olishgan paytda, uyatsiz bola Pinokkio politsiyachining panjasidan qutulib chiqdi-yu, ekinzor dalani tikka kesib o'tib,



di. U do'ngliklardan, qalin butalar, suv to'la ariqlardan xuddi tozi itlar quvlagan yovvoyi taka yo quyondek sakrab-sakrab chopib borardi. U uyga yetib kelib, qulflanmagan eshikni «taraq» etib ochib ichkariga kirdi-yu, eshik zulfinini surib qo'yib, yerga uzala tushib yotib oldi, so'ng xuddi yelkasidan tog' ag'darilganday chuqur bir tin oldi.

Lekin uning halovati uzoqqa cho'zilmadi – birdan xona ichida bir nima chirillay boshladi:

– Chirr-chirr-chirr...

– Kim meni chaqiryapti? – dedi qo'rqib ketgan Pinokkio.

– Men!

Pinokkio o'girilib, devorda asta-sekin o'rmaylayotgan kattakon qora chigirtkani ko'rdi.

– Hoy, qora chigirtka, kimsan o'zing?

– Men gapiruvchi qora chigirtkaman. Bu xonada yuz yildan beri yashayman.

– Endi bu mening xonam, – dedi yog'och bola.

– Qani, marhamat qilib, bu yerdan bir tuyog'ingni shiqillatib qol-chi. Iloji boricha tezroq jo'na!

– Men, – dedi qora chigirtka, – senga buyuk bir haqiqatni aytmagunimcha bu yerdan hech qayoqqa ketmayman.

– Bo'lmasam, gapir o'sha buyuk haqiqatingni, faqat tezroq bo'l.

– Ota-onalarini mensimay, ahmoqlik qilib, o'zi tug'ilib o'sgan uyidan bosh olib chiqib ketgan bolalarning holiga voy! Unday bolalarning hayoti juda yomon bo'ladi, ular o'zlarining bemulohaza qilmishlari uchun ming-ming afsus qiladilar.

- Chirilla-ya, chirilla, qora chigirtka, armoning qolmasin! Lekin shaxsan menga kelsak, ertaga tong pallasida bu yerdan bosh olib chiqib ketaman. Men shunday ahd qilganman. Agar bu yerda qolsam, boshimga boshqa bolalarning kuni tushadi: hamma bolalarga o'xshab diqqi-nafas bo'lib yashayman, meni maktabga yuborishadi, xohlasam-xohlamasam, o'qish-yozishni o'rganishga majbur qilishadi. Lekin senga ochig'ini aytsam, maktabda o'qishga sirayam xohishim yo'q. Kapalaklarni quvlab, daraxtga chiqib, qushlarning uyasidan poloponlarini o'g'irlashning gashti boshqacha bo'ladi.

- Bechora tentak bola! Nahotki tushunmasang, bunaqada g'irt eshakning o'ziga aylanib, bir chaqalik ham qadring qolmaydi-ku!

Pinokkioning jahli chiqib ketdi.

- O'chir ovozingni, qari jodugar! - deb baqirdi u.

Lekin sabr-u qanoatli donishmand qora chigirtka boladan xafa bo'lmadi, gapini davom ettirdi:

- Agar maktabga borishni yoqtirmasang, unda nima uchun bironta hunar o'rganib, halol mehnat bilan kun kechirishing mumkin emas?

- Nimagaligini aytaymi senga? - dedi Pinokkio tobora ko'proq toqati toq bo'lib. - Nimagaki, dunyodagi hamma hunarlar ichida menga faqat bittasi yoqadi.

- Xo'sh, u qanday hunar ekan?

- Yeyish, ichish, uxlash, har kuni ertalabdan kechgacha sandiroqlab yurish.

– Yodingda bo'lsin, – dedi gapiruvchi qora chigirtka o'z fe'liga xos xotirjamlik bilan, – bu hunar bilan shug'ullanganlarning baribir kun emas bir kun, yo kasalxonada, yo qamoqxonada o'lib ketadi.

– Og'zingga qarab gapir, hey, qari jodugar... Agar shunaqa jahlimni chiqaraversang, do-dingni berib qo'yaman!

– Bechora Pinokkio, men chindanam ah-volingga achinaman!

– Nimaga endi menga achinasan?

– Nimagaki, sen yog'och bolasan, usti-ga-ustak, kallang ham yog'ochdan – aqling yo'q!

Pinokkio shu oxirgi so'zni eshitdi-yu, g'aza-bi qaynab, sakrab o'rnidan turib ketdi, uzun kursi ustida yotgan yog'och bolg'ani olib, uni gapiruvchi qora chigirtkaga otdi.

Balki u, mo'ljalga tekkiza olmayman, deb o'ylagan bo'lsa kerak, lekin baxtga qarshi bolg'a uchib borib, qora chigirtkaning naq boshiga tegdi, bechora oxirgi marta «chir-chir-chir» de-di-yu, o'ligi devorga yopishgancha qoldi.

V. Pinokkioning qorni ochadi, u bitta tuxum topib, quymoq pishirmoqchi bo'ladi, lekin shu payt birdan quymoq uchib ketib, derazaga borib qo'nadi

Bu orada, kech kirib, qorong'i tushdi. Pinokkio hali shu mahalgacha tuz ham totmaganini eslab, qornida ishtahaga o'xshagan qandaydir quldirash boshlanganini sezdi. Odatda, bolalarda ishtaha judayam tez rivojlanadi, mana,

oradan bir necha daqiqa o'tar-o'tmas, o'sha ishtaha ochlikka aylandi, ochlik esa hash-pash deguncha, shunaqangi zo'rayib ketdiki, natijada, bolaning ishtahasi xuddi och bo'rinikidek karnay bo'lib ketdi.

Boyaqish Pinokkio qozoncha qaynab turgan kamin tomonga otildi, qozonchada nima pishayotganini ko'rish uchun uning tuvog'ini ko'tarmoqchi bo'ldi. Lekin kaminning ham, qozonchani ham oddiy surat ekanini payqagan Pinokkioning shu paytdagi ahvolini bir tasavvur qilib ko'ring-a! U hayron bo'lganidan, shundoq ham juda uzun burni, yo'q deganda, yana to'rt enlik uzaydi.

U hech bo'lmasa bir burdagina qoq non, yoki nonning kuyugi, yo it g'ajib tashlagan suyak, bir burdagina mog'or bosgan zog'ora, yo baliqning qiltanog'imi, olchani dana-gimi – qisqasi, og'izga tiqsa bo'ladigan biron nima qidirib topish niyatida xonaning hamma joyini: qutilar-u burchak-burchaklarni titib chiqdi. Lekin hech nima, mutlaqo hech narsa topmadi.

Ochlik bo'lsa borgan sari avjga chiqardi, shunda Pinokkio ochlik azobini yengillatish uchun, esnay boshladi. U shunaqangi jon-jahdi bilan esnardiki, har esnaganda og'zi qulog'igacha kappa-kappa ochilardi.

Nihoyat u hamma narsadan umidini uzib, piq-piq yiglaganicha shunday dedi:

– Gapiruvchi qora chigirtka to'g'ri aytgan ekan. Otamni xafa qilib, uydan qochib ketganim yaxshi bo'lmadi. Axir hozir otam uyda

bo'lganida, men ochlikdan bunaqa o'lar darajada esnab o'tirmasdim. Voy, bu ochlik – judayam og'ir kasal bo'larkan-u!

Shu payt u birdan axlat uyumi orasida tovuq tuxumiga o'xshagan dum-dumaloq, oppoq bir narsa yotganini ko'rib qoldi. Ko'z ochib yumguncha vaqt o'tmay u axlat oldida paydo bo'ldi va darrov o'sha oq narsaga chang soldi. U narsa chindanam tuxum ekan.

Yog'och bolaning qanchalik xursand bo'lganini yozish uchun qalam ham ojizlik qiladi. Pinokkio o'z ko'zlariga ishonmas, bu tuxumni u hozir tushida ko'rayotganday edi. U tuxumni qo'lida aylantirib, salmoqlab ko'rar, dam silar, dam o'parkan shunday derdi:

– Seni qanday pishirsam ekan? Seni suvda pishiraman... Yo'q, yaxshisi, ilita qolaman... Undan ko'ra tovada qovurganim yaxshimasmi? Yo, balki sal-pal ilitib, tezroq ichib yubora qolsammikin? Yo'q, seni likopcha yo tovaga chaqaman-u, yeyman-qo'yaman – shunisi eng tez bo'ladi. Axir qornim tatalab ketyapti, seni tezroq yemasam o'lib qolaman!

Mana, u tovani laqqa cho'g' to'la manqal ustiga qo'ydi, tovaga yog' o'rniga ozgina suv quydi, suvdan bug' chiqa boshlagach, tuxumni bir urib chaqdi-yu, uni tova ustiga ag'dardi.

Lekin tuxumdan uning oqi bilan sarig'i oqib tushish o'rniga, tirik, buning ustiga, ancha odoblikkina bir jo'ja chiqdi. U nazokat bilan ta'zim qilib:

– Sizga mingdan-ming rahmat, janob Pinokkio! Meni tuxum po'chog'ini tumshug'im bilan

teshishdan xalos qildingiz. Salomat bo'ling, yaxshi qoling! – dedi.

Jo'ja shu gapdan keyin qanotlarini yoydi-da, derazadan tashqariga uchib chiqib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Sho'rlik yog'och bola og'zi lang ochilib, ko'zlari baqraygancha, qo'lida tuxum po'choq bilan turgan yerida toshdek qotib qolaverdi. Keyin sal o'ziga kelgach, piq-piq yig'lab alamidan yer tepina boshladi.

– Gapiruvchi qora chigirtka to'g'ri aytgan ekan, – dedi yig'i aralash. – Agar uydan qochib ketmaganimda, otam hozir shu yerda bo'lganida, men ochlikdan sulayib o'lar holga tushmagan bo'lardim. Oh, bu ochlik degani – judayam yomon kasal bo'larkan!

Natijada, qornining quldirashi borgan sari zo'rayib, bu azobni yengillatish yo'lini topa olmagan Pinokkio uydan bosh olib chiqib ketmoqchi va shu yaqin atrofdagi qishloqqa borib, tilanchilik qilmoqchi bo'ldi: «Bironta rahm-shafqatli odam topilib, mendan bir burdagina nonini ayamasa axir», – deb o'yladi u.

VI. Pinokkio oyoqlarini cho'g' to'la manqal ustiga qo'yib, uxlab qoladi va ertalab uyg'onganida oyoqsiz qolganini ko'radi

Tashqarida qahraton qish kechasi. Momaqaldiroq vahimali gumburlar, dam-badam chaqmoq chaqar, butun osmonni go'yo o't olgandek edi. Nihoyatda shiddatli sovuq shamol chang

quyunini osmon-u falakka uchirib, dala-dasht-dagi dov-daraxtlarni dam ayanchli ingratib, dam yig'latib, shafqatgiz uvillardir.

Pinokkio momaqaldiroq va chaqmoqdan judayam qo'rqar, ammo ochlik qo'rquvdan ham kuchliroq edi. U eshikning yoniga berkindi-da, kuchini yig'ib turib, bir yugurishda qishloqqa yetib oldi, to'g'ri, endi yuguraverib halloslaganidan tili tozi itnikidek osilib qolgan edi.

Qop-qorong'i qishloq huvillab yotardi. Do'konlar yopiq, uylarning eshik va derazalari berk edi. Ko'chalarda, hatto sayoq it ham ko'rinmasdi.

Butun qishloqda bironta ham tirik jon yo'qdek tuyilardi.

Qorni ochligidan ruhi tushib ketgan Pinokkio bir uyning oldiga yaqin borib: «Zora bironta odam derazadan mo'ralasa», – degan niyatda eshik qo'ng'irog'ining ipidan tortdi.

Darhaqiqat, derazadan boshiga tungi qalpoq kiygan bir chol ko'rindi.

– Shunday bemahalda nima kerak sizga? – deb so'radi u jahl bilan.

– Iltimos, menga bir burdagina non bersangiz.

– Bo'пти, meni kutib tur, hozir olib kelaman, – dedi chol.

Chol Pinokkioni kechalari ermakka eshik taqillatib, diyonatli odamlarning uyqusini harom qiladigan bevosh sayoqlardan bittasi bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi.

Yarim daqiqadan keyin deraza yana ochilib, cholning chinqirgan ovozi eshitildi:

– Deraza tagiga kelib, qalpog‘ingni tutib tur!

Pinokkio shosha-pisha qalpog‘ini yechdi. Shu payt uning ustidan sharsharadek muzday suv quyilib, uni boshdan-oyoq shalabbo qildi.

Yog‘och bola xuddi hozirgina tarnov ichidan tortib olingan mushukdek jiqqa ho‘l holda sillasi qurib, ochlikdan o‘lar holga kelib, uyiga qaytdi. U kursiga o‘tirib olib, ho‘l va loy oyoqlarini laqqa cho‘g‘ to‘la manqal ustiga uzatdi.

Shu alpozda u uxlab qoldi. Pinokkio uxlayotganida, yog‘och oyoqlari kuyib, oldin qora ko‘mirla, keyin esa kulga aylandi.

Pinokkio bo‘lsa, parvoyi falak, hurrak otib uxlardi. Ertalab tong pallasida u birdan cho‘chib uyg‘onib ketdi: kimdir eshikni taqillatardi.

– Kim? – deb so‘radi Pinokkio esnab va ko‘zlarini ishqalab.

– Menman, – degan ovoz eshitildi tashqaridan. Bu Jeppettoning ovozi edi.

VII. Jeppetto uyiga qaytadi. Bechora ota o‘zi uchun nonushtaga topib kelgan yegulikning hammasini Pinokkioga beradi

Baxti qora Pinokkio hamon uyqusirardi, shuning uchun oyoqlari kuyib qolganini payqamadi. U otasining ovozini oshitgan zahoti o‘ylab-netib o‘tirmay, kursidan sakrab tushdi-yu, eshikning zulfinini surish uchun yugurdi. Lekin zo‘rg‘a ikki-uch qadam qo‘yib, yerga yuztuban yiqildi. Beshinchi qavatdan tushib ketgan bir

qop yog'och qoshiq qanday sharaqlab ketsa, Pinokkio yiqilganida ham xuddi shunaqa ovoz chiqdi.

– Och eshikni! – deb qichqirdi tashqarida turgan Jeppetto.

– Dada, ocholmayman, – deb yig'lab yubordi yog'och bola va alamdand yerdada u yoqdan-bu yoqqa ag'anay boshladi.

– Nega ocholmaysan?

– Nega desangiz, kimdir oyog'imni yeb qo'yipti.

– Kim yeyishi mumkin?

– Mushuk, – dedi Pinokkio.

Chunki Pinokkio bu payt bir mushuk payrahani o'ynayotganini ko'rib qolgan edi.

– Och deyapman senga, – deb takrorladi Jeppetto, – bo'lmasa, o'zim ochib kirib, mushuk qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman senga!

– Gapimga ishoning, dada, rostdanam, oyo-g'imda turolmayman. Voy, sho'rim qurib qoldi! Endi men o'la-o'lgunimcha emaklab kun kechiraman!..

Jeppetto bu oh-vohlarni yog'och bolaning navbatdagi nayrangida deb o'yladi va bunga barham berish uchun devorga tirmashib chiqib, derazadan uyga tushdi.

U paysalga solib o'tirmay, hozirning o'zida odobsiz bolaning adabini berib qo'ymoqchi bo'lgan edi, ammo Pinokkiosining yerdada ag'anab yotganini, uning oyoqlari chindan ham kuyganini ko'r-di-yu, bechoraga rahmi keldi. U darhol Pinokkioni ko'tarib olib, bag'riga bosdida, ketma-ket o'paverdi. Jeppettoning ko'zidan duv-duv yosh oqarkan, piqillagancha:

– O, bolaginam, qanday qilib oyogʻingni kuydirib qoʻyding? – dedi.

– Oʻzimam bilmayman, dada. Lekin sizga rostini aytsam, bugun kechasi judayam qoʻrqinchli boʻldi, bu qoʻrqinchli tunni oʻla-oʻlgunimcha esimdan chiqarmayman. Momaqaldiraq gumburlab, tinmay chaqmoq chaqdi, mening boʻlsa qornim judayam och edi. Gapiruvchi qora chigirtka gʻashimga tegib: «Hali sen koʻp baxtsizliklarga uchraysan, chunki yomon bolasan – qilmish-qidirmish», – dedi menga. Shunda men unga: «Xap senimi, shoshmay tur, qora chigirtka!» – dedim. Keyin u menga: «Sen yogʻoch bolasan, kallang ham yogʻochdan», – degan edi, yogʻoch bolgʻachani otib, uni oʻldirdim. Axir ayb oʻzimda-da, nimaga desangiz, men uni oʻldirmoqchi emasdim, keyin men kichkina tovanani choʻgʻ toʻla manqal ustiga qoʻydim, lekin joʻja pir etib uchib chiqib: «Salomat boʻling... yaxshi qoling!» – deb uchib ketdi. Qornim ochgandan ochaverdi, ochaverdi, shuning uchun tungi qalpoq kiygan chol derazadan boshini chiqarib: «Deraza tagiga kelib, qalpogʻingni tutib tur», – dedi. Shundan keyin men boshimga toʻkilgan bir togʻora suvdan shiltayi-shalabbo boʻlib (nima, bir burda non soʻrash shunaqa uyatmi-a?), darrov uyga qaytdim. Qornim ochligidan oʻzimni qoʻyarga joy topa olmay, hech boʻlmasa, oyogʻimni quritay, deb manqal ustiga qoʻydim. Shu oʻtirganimcha uxlab qolibman. Siz kelib eshikni taqillatganingizda, qarasam, ikkala oyogʻim yonib, kul boʻlipti. Mana,

oyog'ından ham judo bo'ldim, lekin ochlik haliyam azob beryapti menga! U-u-u-u!..

Shundan keyin, bechora Pinokkio shunaqa uv tortib yig'lay boshladiki, uvlagani, hatto besh chaqirim nariga ham eshitildi.

Yog'och Bolaning tuturuqsiz gapidan Jeppetto faqat bir narsani, ya'ni uning ochlikdan o'lar holga kelganini tushundi, tushundi-yu, darhol cho'ntagidan uchta nok chiqarib, Pinokkioga uzatarkan:

– Ochig'i, bu noklar mening nonushtam edi, lekin bajonidil senga beraman. Ol, yeya qol, osh bo'lsin, – dedi.

– Agar shu noklarni yeyishimni xohlasangiz, iltimos, po'chog'ini artib bering.

– Artib beraymi? – dedi hayron bo'lib qolgan Jeppetto. – Sening bunchalik ipakoyim, injiq ekanligingni bilmagan ekanman, o'g'lim. Yaxshi emas! Bu dunyoda kishi go'daklik chog'idan har qanday ovqatni yeyishga odatlanishi kerak, chunki odamzodning boshiga ne-ne savdolar tushmaydi hayotda. Kishi umrida har qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin!

– To'g'ri, gapingizga qo'shilaman, – deb otasining so'zini bo'ldi Pinokkio, – lekin men po'chog'i artilmagan mevani yemayman. Chunki, po'choq desa ko'nglim ayniydi!

Oqko'ngil Jeppetto yonidan pakkisini chiqarib, sabr-toqat bilan uchala nokni artib, po'chog'ini stolning bir chekkasiga qo'ydi.

Pinokkio hash-pash deguncha birinchi nokni yeb bo'lib, urug'i bor joyini otib yubormoq-

chi bo'lgan edi, Jeppetto uning qo'lidan ushlab qolib, bunday dedi:

– Otma. Bu dunyoda hamma narsa ham asqatib qolishi mumkin.

– Nima, siz hali meni shu po'choqni yeydi deb o'ylayapsizmi? – dedi istehzo bilan yog'och bola.

– Kim bilsin! Hamma narsa bo'lishi mumkin, – deb e'tiroz bildirdi Jeppetto bamaylixotir.

Harqalay, uchala nokning urug'i bor joyi derazadan ko'chaga otilmadi, balki stol chetida yotgan po'choqlar yoniga qo'yib qo'yildi.

Pinokkio uchta nokni yeb bo'ldi, aniqrog'i, yamlamay yutib yubordi, keyin shirin bir esnab, yig'lamsirab dedi:

– Haliyam qornim to'ymadi!

– Lekin boshqa hech narsam yo'q, o'g'lim.

– Rostdanam hech narsa yo'qmi?

– Ana, nokning po'chog'i bilan urug'i bor joyi qolgan, xolos.

– Iloj qancha, – dedi Pinokkio, – boshqa hech nima bo'lmasa, mayli, bir bo'lak po'choq yesam yebman.

Shunday deb, u po'choq chaynay boshladi. Oldiniga u aftini burushtirdi, lekin keyin po'choqning hammasini, uning ketidan nokning urug'i bor joyini ham bir zumda yeb tashladi. Ovqatlanib bo'lgandan keyin huzur qilib qornini silab qo'yib, quvnoq ohangda:

– Mana endi, o'zimni rostakamiga juda yaxshi his qila boshladim! – dedi.

– Ana, ko'rdingmi, – dedi Jeppetto, – injiq bo'lish kerakmas, deb senga to'g'ri aytgan

edim! Azizim, bu dunyoda boshimizga ne kunlar tushishini hech qachon bilib bo'lmaydi. Hayotda har xil hollar sodir bo'lishi mumkin...

VIII. Jeppetto Pinokkio uchun bir juft yangi oyoq yasaydi va unga alifbe sotib olish uchun kamzulini sotadi

Yog'och bola qornini to'ydirgach, yana xarxasha qilib yig'lay boshladi: endi u Jeppettodan yangi oyoq yasab berishni talab qildi.

Biroq Jeppetto nayranglari uchun uning bir ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldi, shuning uchun to tush paytigacha Pinokkioning yig'i-sig'isiga parvo qilmay o'tiraverdi. Axiri bo'lmagach, o'g'liga:

– Nega endi senga yangi oyoq yasab berishim kerak? Yana uydan qochib ketishing uchunmi? – dedi.

– So'z beraman sizga, – dedi yog'och bola inqillab, – endi men yaxshi bola bo'laman.

– Hamma bolalar ham biror narsani so'ramoqchi bo'lishsa, shunaqa so'zamol bo'lib qolishadi, – dedi Jeppetto.

– Men maktabga borib, tirishib o'qishga so'z beraman.

– Hamma bolalar ham biror nima so'raydigan bo'lishsa, shunaqa cho'pchak to'qishadi.

– Lekin men hamma bolalardaka bola emasman! Men ulardan yaxshiroqman, undan keyin, men faqat rost gapiraman. So'z beraman sizga, dada, men hunar o'rganib, qarigan chog'ingizda yoningizga kirib, sizga yupanchiq bo'laman.

Jeppetto jahli chiqqanday yuzini burishtirdi, lekin ko'zlari g'ilt-g'ilt yosh, yurak-bag'ri bechora Pinokkioning ayanchli ahvolidan ezilib ketgan edi. Shuning uchun u boshqa hech nima demay, qo'liga duradgorlik asbobi va ikkita yaxshi quritilgan yog'ochni olib, jon-jahdi bilan ishga kirishdi.

Salkam bir soat deganda bir juft oyoq tayyor bo'ldi: ikkoviya bejirim, chayir, quruq oyoq edi. Eng mohir haykaltarosh ham bundan yaxshiroq yasay olmasdi.

Keyin Jeppetto yog'och bolaga:

– Ko'zingni yumib uxla! – dedi.

Pinokkio ko'zini yumib, o'zini uxlaganga solib yotdi. U uxlaganday bo'lib yotgan paytda Jeppetto qittakkina duradgorlik yelimini tuxum po'chog'ida qorib, bolaning ikkala oyog'ini hech bir nuqsonsiz, zo'r mahorat bilan yopishtirdiki, ularning yelimlangan yerini ming titkilagan bilan topib bo'lmadi.

Yog'och bola oyoqlari yana butun bo'lganini sezgan zahoti, o'zi yotgan stol ustidan «dik» etib sakrab tushdi-da, suyunib ketganidan, xuddi aqldan ozganday, dam irg'ishlab, dam umbaloq osha boshladi.

– Menga qilgan bu yaxshiligiz uchun, – dedi Pinokkio otasiga, – hoziroq maktabga borishga tayyorman.

– Barakalla, o'g'lim!

– Lekin maktabga boradigan bo'lsam, meni bir amallab kiyintirish kerak-ku.

Shunda cho'ntagida sariq chaqasi ham bo'lmagan qashshoq Jeppetto Pinokkio uchun

qog'ozdan kostyum bichdi, daraxt po'stlog'idan bir juft poyabzal tikdi va nonning yumshoq yeridan qalpoqcha yasadi.

Pinokkio bularni kiyib olib, g'izillagancha tog'orachadagi suvning tepasiga bordi-da, xuddi o'zini ko'zguga solgandek, suvdagi aksiga tikildi. Tashqi qiyofasi o'ziga judayam yoqdi, shunda u tovusdek kekkayib:

– Haqiqiy janobga o'xshab ketibman! – dedi.

– Gaping to'g'ri! – deb javob qildi Jeppetto, – lekin esingda bo'lsin: chinakam janoblik belgisi – yangi kiyim emas, ozoda kiyim bo'ladi.

– Shunday bo'lgandayam, – deb yana gap boshladi yog'och bola, – men baribir maktabga bora olmayman, nimaga desangiz, maktabga borishim uchun yana bitta narsa, bitta bo'lgandayam asosiysi yetishmayapti.

– Nima kerak?

– Alifbe kitobim yo'q.

– Gaping to'g'ri. Lekin qayerdan olsak ekan u kitobni?

– Buning yo'li juda oson: do'konga borib, sotib olish kerak, vassalom.

– Xo'sh, pul bormi?

– Menda yo'q.

– Menda ham yo'q, – dedi chol qayg'uli ohangda.

Hatto shu paytgacha yengiltak bola bo'lgan Pinokkio ham xomush bo'lib qoldi, chunki, agar odamning boshiga tushgan tashvish haqiqiy tashvish bo'lsa, uni hamma, hatto bolalar ham tushunadi.

– E, bir urinib ko‘ray-chi! – dedi birdan Jeppetto va o‘rnidan dik etib turdi. Keyin u qirq yamoq bo‘lgan, eski duxoba kamzulini kiydi-da, uydan tez chiqib ketdi.

Saldan keyin u qo‘lida alifbe bilan qaytdi, lekin endi egnida boyagi kamzuli yo‘q edi.

Sho‘rlik chol ko‘ylakchan kirib keldi – bu paytda tashqarida qor yog‘ayotgan edi.

– Kamzulingiz qani, dada?

– Sotdim.

– Nega endi sotdingiz?

– Nega desang, juda isib ketdim.

Pinokkio nima gapligini oldiniga tushunmadi va quvonchi ichiga sig‘maganidan, cholning bo‘ynidan quchoqlagancha, uning yuz-ko‘zini cho‘pillatib o‘paverdi, o‘paverdi.

IX. Pinokkio qo‘g‘irchoq teatriga kirish uchun alifbe kitobini sotadi

Qor tinishi bilan Pinokkio alifbeni qo‘ltig‘iga qistirib, maktabga yo‘l oldi. Yo‘lda ketayotganida, uning mushtdekkina boshida ming xil fikr, biri-biridan ajoyib ming xil xomxayol g‘ujg‘on o‘ynadi. U o‘zicha bunday deb borardi:

– Bugun maktabga borib, o‘qishni o‘rganib olaman, ertaga – yozishni, indinga – hisoblashni o‘rganaman. Keyin, epchil harakat qilib, juda ko‘p pul ishlab topaman, o‘z aqlim, o‘z kuchim bilan ishlab topgan ana shu pulga, hammadan oldin dadamga movut kamzul olib beraman. E, movut ham gapmi! Hamma yog‘i oltin-u kumushdan tikilgan, tugmalari gavhar

toshlardan bo'lgan kamzul olib berishga ham qurbim yetadi. Mehribon dadamga qancha yaxshilik qilsam ham kam, hozir bechora bit-ta ko'ylakda diydirab yuripti, nimaga desangiz, kitob qo'ltiqlab maktabga borishim uchun u kamzulini ham ayamadi... Shunday qahraton sovuqda-ya! Bunaqa fidoyilik faqat otalarning qo'lidan keladi!

U o'zicha shunday ta'sirlanib gapirib ketayotganida, uzoqdan nay va do'mbiralarning ovozi eshitila boshladi: «Tu-tu-tu, tu-tu-tu, bo'm-bo'm-bo'm! Bo'm!»

U to'xtab quloq soldi. Bu ovozlari oxiri ko'rinmaydigan uzundan-uzun yo'lning narigi boshidan eshitilayotgan edi: bu yo'l dengiz bo'yidagi kichik bir qishloqqa olib borar edi.

– Bu qanaqa musiqa bo'ldi? Essiz, maktabga borishim kerak-da, bo'lmasa...

Bir zumda miyasidagi boyagi shirin xayollar ostin-ustun bo'lib ketdi. Bir qarorga kelish kerak edi: yo maktab, yo musiqa.

– Bugun, musiqa eshitay, maktabga ertaga bora qolaman. Maktab qochib ketmaydi, – degan qarorga keldi bizning shumtaka va yelkasini qisib qo'ydi.

Masala hal. U o'sha o'zini rom qilgan uzun yo'lga burildi-yu, g'izillagancha yugurib ketdi. U chopgan sari nay va do'mbiralarning ovozini aniqroq eshitila boshlandi.

Hademay u bir maydonga yetib keldi, bu yerda tumonat odam olachipor matodan parda qilib to'silgan kattakon yog'och tomoshaxona oldida uymalashardi.

– Bu qanaqa tomoshaxona? – deb so‘radi Pinokkio kichkina bir qishloqi boladan.

– Afishada yozilgan so‘zlarni o‘qisang, bilib olasan!

– Jon-jon deb o‘qigan bo‘lardim-a, lekin xuddi shu bugun o‘qiy olmayman.

– Qoyilman, to‘nka! Unday bo‘lsa, senga o‘qib beraman. Mana, eshit, afishaga qip-qizil harflar bilan: **Katta qo‘g‘irchoq teatri**, deb yozilgan.

– Tomoshaning boshlanganiga ancha bo‘ldimi?

– Hozir boshlanadi.

– Kirish uchun qancha to‘lash kerak?

– To‘rt soldo¹.

Sinchkovligi qo‘ziganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmayotgan Pinokkio andishani ham unutilib qo‘ydi. U uyalmay-netmay kichkina boladan:

– Menga ertagacha to‘rt soldo berib turolmaysanmi? – deb so‘radi.

– Jon-jon deb berardim-a, – deb istihola bilan javob qildi bola, – lekin xuddi; shu bugun berolmayman.

– Xohlasang, kamzulchamni to‘rt soldoga sotaman, – dedi yog‘och bola.

– Nima qilaman ola-bula qog‘ozdan bo‘lgan kamzulchangni? Agar sal yomg‘ir tegsa, o‘sha zahoti ivib, adoyi tamom bo‘ladi.

– Bo‘lmasa, poyabzalimni sotib ol.

– Poyabzaling juda o‘choqqa tutantiriqbop ekan-da.

– Unda qalpog‘imga qancha berasan?

– Qalpog‘ingni sotib olgan odam rosa baraka toparkan! Nonning yumshog‘idan yasalgan! Uni boshimda turganidayoq sichqonlar yeb ketishadi!

¹ Soldo – Italiyada chaqa, pul.

Nima ham qila olardi! Pinokkio tilini tishlab qoldi. U oxirgi taklifini aytishga og'iz juftladi-yu, lekin yuragi dov bermadi. U ikkilanib, o'ylanib qoldi-da, u yoq-bu yoqqa yurdi. Nihoyat, ahd qilib:

– Yangi alifbe kitobimga to'rt soldo berasanmi? – deb so'radi.

– Men bolaman, shuning uchun boshqa bolalardan hech nima sotib olmayman, – deb javob qildi Pinokkioga nisbatan anchagina aqlli bo'lgan kichkina hamsuhbati.

– Alifbeyingni to'rt soldoga men olaman! – deb qichqirdi suhbatni boshidan oxirigacha eshitib turgan eskifurush.

Shunday qilib, kitob ko'z ochib yumguncha sotilib ketdi.

Esingizda bo'lsa, bolalar, bu payt bechora Jeppetto uyda ko'ylakchan sovuqdan diydirab o'tirardi, chunki u kamzulini alifbega ayirboshlagan edi.

X. Qo'g'irchoqlar o'z ukalari – Pinokkioni tanib qolib, uni zo'r tantana bilan qarshi oladilar, lekin shodlik ayni avjiga chiqqan paytda teatrning xo'jayini Manjafoko kirib keladi-yu, Pinokkio dahshatli xavfga uchraydi

Pinokkioning qo'g'irchoq teatriga kelishi sal kam inqilobga aylanib ketdi. Parda ochilgan, tomoshabinlar qarsak chala boshlagan edi.

Sahnada faqat Arlekin bilan Pulchinella bo'lib, ular urishib, bir-birlarini haqoratlashar va har safargidek hademay bir-birlarini bir juft shapaloq yoki bir shoda musht bilan «mehmon» qilishga shaylanishardi.

Tomoshabinlar bu ikki qo'g'irchoqning qiliqlari, gaplaridan qotib-qotib kulishardi: qo'g'irchoqlar, biri yo'g'on, biri ingichka ovozda rostakamiga o'kinishardiki, ularni qo'g'irchoq emas, balki haqiqiy ongli jonzod, ya'ni bu dunyoning odamlari deb o'ylash mumkin edi.

Shu payt birdan Arlekin tomoshani taqqa to'xtatib, qo'llarini zal tomonga cho'zganча, tomoshabinlarga hayajonli ovoz bilan murojaat qildi:

– O, samoviy quvvatlar! Men uyg'oqmanmi yo tush ko'ryapmanmi? Harqalay, huv orqa qatorida, menimcha, Pinokkio o'tiripti!

– To'g'ri, Pinokkio-ku! – dedi Pulchinella.

– Ha, o'sha! – dedi Rozaura xonim, parda orqasidan boshini chiqarib.

– Pinokkio! Pinokkio! – deb qichqirishdi hamma qo'g'irchoqlar va dikir-dikir sakrashganча sahnaga yugurib chiqishdi.

– Pinokkio! Ukajonimiz Pinokkio! Yashasin, Pinokkio!

– Pinokkio, qani, sahnaga, mening oldimga chiq! – deb chinqirdi Arlekin. – Kela qol, o'zingni yog'och akalaring quchog'iga ot.

Mana shu samimiy taklifdan so'ng, Pinokkio bir sakragan edi, zalning orqa qatoridan sahna oldiga kelib tushdi. Keyin yana bir sakrab, dirijyorning boshiga chiqdi-da, u yerdan sahnaga hatlab o'tdi.

Pinokkioning qo'g'irchoqlar quchog'ida necha marta bo'lgani, qanchadan-qancha do'stona niqtashlarga, erkalab chertishlarga dosh berganini, hatto tasavvur ham qilish qiyin: bu

xatti-harakatlarning hammasi yog'och artist va aktrisalar truppasining eng samimiy va buzilmas birodarligidan dalolat beradi.

Shubhasiz, bu nihoyatda hayajonli spektakl edi, lekin zalda o'tirgan tomoshabinlarning toqatlari toq bo'la boshladi, chunki ular komediyaning davomini ko'rishni istashardi. Shuning uchun:

– Komediyaning ko'rsatinglar! Komediyaning! – deb baqira boshlashdi.

Tomoshabinlar bekorga baqirishardi, chunki qo'g'irchoqlar tomoshani davom ettirishni xayollariga ham keltirishmasdi, aksincha – yana ham qattiqroq baqirib-chaqirishib, Pinokkioni yelkalariga ko'tarishdi-da, tantanali vaziyatda uni sahna oldiga olib kelishdi.

Lekin, shu payt tomoshaxonaning xo'jayini – qo'g'irchoqboz kelib qoldi; bu judayam bahaybat, badbashara janob bo'lib, shu qiyofasining o'ziyoq odamni dahshatga solardi. Uning paxmaygan soqoli xuddi siyoh dog'iga o'xshash tim qora va shunaqangi uzun ediki, uchi yerga tegar, yurganida, soqolini tez-tez bosib olardi. Uning og'zi xuddi pechkaning og'zidek kattakon edi, ko'zlari bo'lsa, ichida sham yonib turgan bir juft qizil jin chiroqni eslatardi. Qo'lga tulki dumlari va ilonlardan eshilgan yo'g'on qamchi ushlab olgan edi.

Teatr xo'jayinining dabdurustdan paydo bo'lganini ko'rib, hamma gung bo'lib qoldi. Hatto chuqurroq nafas olishga ham hech kim jur'at etolmadi. Pashsha uchsa eshitilardi. Bechora

qo'g'irchoqlar xuddi terak bargidek, dir-dir tit-ray boshlashdi.

– Sen nega teatrimda tartibni buzyapsan?
– dedi qo'g'irchoq teatrining xo'jayini Pinokkioga o'girilib, uning ovozi shamollab qolgan odamxo'rning ovoziga o'xshab xirillab chiqdi.

– Zoti munavvarlari, o'lay agar, ayb menda emas.

– Ha, bo'пти. Hozircha yetar! Bugun kech-qurun sen bilan o'zim hisoblashaman.

Tomosha tugagach, xo'jayin oshxonaga kirib semizgina bir qo'zichoq go'shtidan o'ziga kechki ovqat pishira boshladi. U go'shtni butunicha sixga tortib, o't ustida hafsala bilan aylantirdi. Lekin go'sht yaxshi qovurilib, kasir-kusur bo'lib pishishi uchun o'tin yetmay qoldi, shunda u Arlekin bilan Pulchinellani chaqirdi.

– Qani, borib qoziqqa ilib qo'yilgan Pinokkioni olib kelinglar! – deb buyurdi ularga. – Nazarimda, bu yog'och bola asil nav, quruq yog'ochdan yo'nilgan ko'rinadi, uni o'tga qalab, go'shtni pishirib olaman.

Arlekin bilan Pulchinella nima qilishni bilmay ikkilanib turib qolishdi, lekin xo'jayinning o't chaqnab turgan ko'zi ularni dahshatga solgan edi. Shundan so'ng, ular buyruqni bajargani chiqib ketib, biroz o'tgach oshxonaga Pinokkioni yetaklab kirishdi. U sho'rlik xuddi qumga tashlangan baliqday pitirlar, jon-jahdi bilan:

– Dadajon, meni qutqaring! Men o'lishni xohlamayman, xohlamayman o'lishni! – deb chinqirardi.

XI. Manjafoko to'xtovsiz aksira boshlaydi va Pinokkioni kechiradi. Pinokkio bo'lsa, shundan keyin do'sti Arlekinni o'limdan qutqarib qoladi

Qo'g'irchoq teatrining xo'jayini Manjafoko juda qo'rqinchli ko'rinsa ham (uning butun ko'kragi va oyoqlarini xuddi qalqondek to'sib turuvchi hurpaygan qora soqoli, ayniqsa, qo'rqinchliroq edi), aslida u yomon odam emas edi. Uning oldiga, jon holatda pitirlab, nuqul «o'lishni xohlamayman», deb chinqirayotgan Pinokkioni (sudrab kelishganida, birdan bu bolaga rahmi kel... Manjafoko qalbidagi rahm-shafqat tuyg'usini daf qilishga biroz vaqt urinib ham ko'r-di-yu, lekin bo'lmadi hissiyotga taslim bo'lib, baralla aksa ura boshladi.

Shu tobgacha xuddi majnuntoldek qaddini bukib, mutlaqo g'amga botib turgan Arlekin aksa ovozini eshitishi bilan suyunib ketdi va engashib, Pinokkioning qulog'iga pichirladi:

– Xushxabar, birodar! Xo'jayin aksira boshladi, demak uning rahmi kelipti senga, endi qutulding.

Shuni aytib qo'yish kerakki, boshqa odamlar biron kishiga achinishganda, yig'lab ko'z-yoshlarini artishsa, Manjafoko birovga rahm qilganida, doim aksa ura boshlardi. U o'z mehribonligini shu yo'sinda namoyish qilardi.

Teatr xo'jayini to'yguncha aksa urib bo'lgach, Pinokkioga yana avvalgidek dag'dag'a qila boshladi:

– G'ingshima! G'ingshishingdan qornim og'riyapti... Shunaqa burab og'riyaptiki... xuddi...

xuddi... Apshu! Apshu! – u gapini tugata olmay, ketma-ket yana ikki marta aksirdi.

– Sog' bo'ling, – dedi Pinokkio.

– Rahmat. Ota-onang bormi? – deb so'radi Manjafoko.

– Otam bor. Lekin onamni hech qachon ko'rmaganman.

– Agar seni o'tga qalasam otang rosa xafa bo'lardi-da. Bechora cholga rahmim kelyapti!.. Apshu! Apshu! Apshu! – U yana ustma-ust uch marta aksa urdi.

– Sog' bo'ling, – dedi Pinokkio.

– Rahmat. Lekin menga ham rahming kelsinda. O'zing ko'rib turibsan, qo'zi go'shtini kabob qilish uchun o'tin yetmay qoldi, sen – agar ochig'ini aytsam – judayam asqatgan bo'larding. Lekin seni ayadim. Hay, iloj qancha! Bas, shunday ekan, sening o'rningga truppamdagi qo'g'irchoqlardan birontasini o'tga qalayman endi. Hoy, politsiyachilar!

Huddi qamishdek ozg'in, bo'yi daroz ikki yog'och politsiyachi o'z xo'jayinlarining buyrug'ini eshitishgan hamonoq qilich yalang'ochlab, yugurib kelishdi.

Shunda teatr xo'jayini ularga dag'al ovoz bilan buyurdi:

– Qani, Arlekinni ushlab, chandib bog'langlar-da, o'tga tashlanglar. Qo'zi go'shti yaxshi qovurilib, kasir-kusur bo'lib pishishi kerak.

Bechora Arlekinning ahvolini ko'z oldingizga keltiring-a! U qattiq qo'rqib ketganidan, tizzalari o'z-o'zidan bukilib, «gurs» etib yerga yiqildi.

Bu yurakni ezadigan ahvolni ko'rgan Pinokkio qo'g'irchoqbozning oyog'iga yiqilib, achchiq-achchiq faryod chekdi va ko'z yoshi bilan Manjafokoning uzundan-uzun soqolini shalabbo qilib yubordi.

– Shafqat qiling, janob Manjafoko! – deb yolvordi u.

– Bu yerda hech qanaqa janob yo'q, – deb o'shqirdi qo'g'irchoq teatrining xo'jayini.

– Rahm qiling, janob kavaler!

– Bu yerda hech qanaqa kavaler yo'q.

– Shafqat qiling, janob komandor!

– Bu yerda hech qanaqa komandor yo'q.

– Rahm qiling, janobi oliylari!

Teatr xo'jayini «janobi oliylari» degan martabani eshitib, og'zi qulog'iga yetdi, shu zahotiyoq ko'ngli yumshab, darhol gapga ko'nadigan bo'lib qoldi.

– Xo'sh, nima istaysan? – dedi u yuzini Pinokkioga o'girib.

– Bechora Arlekinga rahm qilishingizni so'rayman.

– Rahm-shafqatga o'rin yo'q endi. Seni ayadimmi, demak o'rningga uni olovga qalashim shart, chunki men qo'zi go'shtining yaxshi pishganini yoqtiraman.

– Unday bo'lsa, – dedi Pinokkio boshini mag'rur ko'tarib, nondan yasalgan qalpoqchasini otib yuborarkan, – unday bo'lsa, nima qilish kerakligini, mana, men bilaman. Qani, olg'a, janob politsiyachilar! Mening oyoq-qo'limni bog'lab, o'tga tashlanglar. Chunki mening o'rnimga jonajon do'stim bechora Arlekinning

o'tda yonishini aslo istamayman! Bu baland-parvoz, mardona gaplar shu yerda bo'lgan qo'g'irchoqlarning hammasiga qattiq ta'sir qildi. Hatto politsiyachilar ham, yog'ochdan yasalgan bo'lishlariga qaramay, xuddi endi onadan tug'ilgan ikki qo'zichoqdek bo'zlab yig'lab yubordilar. Manjafoko bir daqiqacha bo'sh kelmay bardosh berib turdi-yu, lekin keyin asta-sekin uning ham qalbi yumshab, birdan aksa ura boshladi. U to'rt yo besh marta aksa urgach, qulochini ochib:

– Sen juda yaxshi bola ekansan! Qani, kel, meni bir o'pib qo'y, – dedi.

Pinokkio ham shu zahoti Manjafoko tomonga otilib, uning soqolidan xuddi olmaxondek tirmashib chiqdi va qo'g'irchoqbozning burni uchini chin yurakdan o'pdi.

– Demak, men ozodmanmi? – deb so'radi sho'rlik Arlekin eshitilar-eshitilmas ovoz bilan.

– Seni kechirdim, – deb javob qildi Manjafoko. Keyin bir xo'rsinib qo'yib, boshini sarak-sarak qilgancha qo'shib qo'ydi: – ha, mayli!

Buguncha chala pishgan go'sht yesam yeya qolay. Lekin agar yana shunaqa mashmasha ko'taradigan bo'lsalaring, o'zlaringdan ko'rlaring – ayab-netib o'tirmayman!

Qo'g'irchoqlar bu xushxabarni eshitishgach, hammalari sahnaga otilib chiqishib, xuddi bayram tomoshasini ko'rsatishmoqchi bo'lganday, hamma chirog'-u shamlarni yoqib yuborishdi, dik-dik sakrab, raqs tusha boshlashdi. Ular to ertalab quyosh chiqqunga qadar o'yin-kulgi qildilar.

**XII. Qo'g'irchoqboz Manjafoko, dadang
Jeppettoga olib borib ber, deb Pinokkioga
beshta oltin tanga beradi, lekin Pinokkio
tulki bilan mushukning gaplariga laqqa
ishonib, ular bilan jo'nab ketadi**

Ertasi kuni Manjafoko Pinokkioni bir chetga chaqirib oldi.

– Otangning ismi nima? – deb so'radi u.

– Jeppetto.

– Kasbi nima?

– Kambag'allik.

– Ko'p pul topadimi?

– Topganda qandoq: cho'ntagida sariq chaqa ham bo'lmaydi. Bitta misol aytsam tushunib olasiz: dadam menga alifbe kitobini sotib olish uchun kiyib yurgan bitta-yu bitta kamzulini sotdi. U kamzul sho'rlik ham kiyilaverib titilib ketgan, qirq yamoq kamzul edi.

– Sho'rpehana ekan, unga achinyapman. Sen manavi beshta oltinni olgin-da, hoziroq otangga olib borib ber, yana mendan do'stona salom ayt unga.

Turgan gapki, Pinokkio qo'g'irchoqbozga qayta-qayta minnatdorchilik izhor qildi, truppadagi qo'g'irchoqlarning hammasi bilan, shu jumladan, politsiyachilar bilan ham birma-bir quchoqlashib xayrlashdi-da, sevinganidan og'zi qulog'iga yetib, uyiga jo'nadi.

Lekin hali bir chaqirim ham yo'l bosmagan edi, ko'chada bir oyog'i cho'loq tulki bilan ikkala ko'zi ko'r mushukka ro'para keldi. Ular xuddi ikki qalin o'rtoqdek bir-birlariga yordam-

lashib, yurib kelishardi. So'qir mushuk cho'loq tulkini suyab olgan, cho'loq tulki bo'lsa, so'qir mushukka yetakchilik qilardi.

– Yaxshimisan, Pinokkio, – dedi tulki va nazokat bilan ta'zim qildi.

– Mening ismimni qayoqdan bilasan? – deb so'radi Pinokkio.

– Dadangni yaxshi taniyman.

– Qayerda ko'rding dadamni?

– Uni kecha uyi oldida turganini ko'ruvdim.

– Nima qilayotgan edi?

– U sovuqda ko'ylakchan diydinib turgan edi.

– Bechora dadam! Hechqisi yo'q, endi, Xudoga shukr, bundan buyon sirayam sovuqdan diydinmaydi.

– Nimaga endi?

– Nimaga desang, endi men mo'tabar zotman.

– Sen-a, mo'tabar zotmisan? – dedi tulki kesatib va baralla hiringlab kuldi. Mushuk ham miyig'ida kulib qo'ydi. Lekin kulganini sezdirmaslik uchun panjasi bilan mo'ylovini silab qo'ydi.

– Buning hech kuladigan yeri yo'q! – dedi Pinokkio achchiqlanib. – Ikkovlarning hasaddan yorilib o'lmasanglar edi, deb qo'rqaman, lekin, mayli, mana, ko'ringlar, buning nima ekanligiga tushunasizlarmi-yo'qmi – bilmayman, lekin ayta qolay, bular besh dona ajoyib oltin tanga bo'ladi.

U kaftini ochib, qo'g'irchoq teatrining xo'jayini sovg'a qilgan oltin tangalarni ko'rsatdi.

Oltin tangalar jarangini eshitgan zahoti tulkinining qiyshiq oyog'i o'z-o'zidan to'g'rilandi, mushuk bo'lsa, ikkala ko'zini baqraytirgan edi, xuddi qo'sh ko'k chiroq charaqlab ketganday bo'ldi. Lekin u ko'zlarini darrov yumib oldi, shuning uchun Pinokkio hech nimani payqamadi.

– Xo'sh, bu tangalarni nima qilmoqchisan? – deb so'radi tulki.

– Birinchi galda, – deb javob qildi yog'och bola, – dadamga chiroyli kamzul olib beraman, agar iloji bo'lsa, oltin, kumushdan tikilgan, tugmalari chaqnoq toshligidan. Undan keyin alifbe sotib olaman.

– Alifbe – o'zinggami?

– Ha, o'zinga. Gapning qisqasi, men maktabga borib, qunt bilan o'qimoqchiman.

– Mana, meni ko'r! – dedi mushuk. – O'sha bema'ni o'qish deb, ikkala ko'zimdan ayrilib o'tiribman.

Bu payt yo'l yoqasidagi daraxt shoxiga qo'nib o'tirgan mayna o'zining odatiy qo'shig'ini sayrab bo'lib, bunday dedi:

– Pinokkio, quloq solma, bu yaramas maxluqlarning gapiga, bo'lmasa, rosa ta'ziringni yeysan.

Bechora mayna! Indamasa-ku bo'lardi-ya! Mushuk bir sapchishda sho'rlik qushga chang solib, hash-pash deguncha uni pati-yu, terisi bilan yamlamay yutib yubordi. Sho'rlik «voy» deyishga ham ulgurolmadi.

Mushuk maynani yeb bo'lib, labini yaladi, keyin yana avvalgidek ko'r bo'lib oldi.

– Bechora qush! – dedi Pinokkio mushukka.
– Nega bunday qilding?

– Bu unga yaxshi saboq boʻladi. Keyingi safar begonalarining suhbatiga aralashmaydi.

Ular yoʻlning yarmini bosib oʻtishgan edi, shunda birdan tulki toʻxtab, yogʻoch bolaga oʻgirildi:

– Menga qara, oltining ikki hissa koʻp boʻlishini xohlaysanmi?

– Nima?

– Oʻsha arzimagan besh tangangni yuzta, mingta, ikki mingta oltinga aylanishini xohlaysanmi?

– Boʻlmasam-chi! Lekin qanday qilib?

– Bu juda oson. Uyingga bormay, biz bilan yur, vassalom.

– Meni qayoqqa olib borasizlar?

– Galvarsiston mamlakatiga.

Pinokkio bir daqiqacha oʻylanib qoldi, keyin keskin ohangda:

– Yoʻq, bormayman. Uyimga yetib qoldim, yaxshisi, uyimga boraman, dadam meni koʻzi toʻrt boʻlib kutib oʻtirgandir. Shoʻrlik qariya, kecha uyga bormaganimdan rosa xavotir olgan boʻlsa kerak. Afsuski, men shu tobga cha quloqsiz bola edim, oʻzi gapiruvchi qora chigirtka: «Quloqsiz bolalarning bu dunyoda ahvoli voy boʻladi», – deb juda toʻgʻri aytgan ekan. Men buni oʻzimda sinab koʻrdim, chunki koʻp falokatlarni boshimdan kechirdim. Mana, masalan, kecha kechqurun Manja-fokonikida oʻlib ketishimga sal qoldi... U-u...

o'ylasam, hozir ham a'zoyi badanim dag'-dag' titraydi! – dedi.

– Demak, – dedi tulki. – Chindanam uyingga borishga ahd qildingmi? Ha, mayli, boraver, bizga nima, o'zingga qiyin qilasan!

– O'zingga qiyin qilasan! – deb takrorladi mushuk ham.

– Yaxshilab o'ylab ko'r, Pinokkio, axir sen baxtingni o'z oyog'ing bilan toptayapsan.

– Toptayapsan! – deb takrorladi mushuk ham.

– O'sha besh tillang bugun emas, ertaga ikki ming tillaga aylanishi mumkin edi.

– Ikki ming tillaga! – deb takrorladi mushuk.

– Axir qanday qilib? – deb so'radi Pinokkio va hayron bo'lganidan og'zi lang ochilib qoldi.

– Senga tushuntirib berishim mumkin, – deb javob qildi tulki. – Xabaring bo'lsa kerak, albatta, Galvarsiston mamlakatida bir dala bor, uni hamma «Sehrli dala» deb ataydi. Sen o'sha dalaga borib, kichkina bir chuqur qaziysan-da, unga, misol uchun, bitta oltin tanga qo'yasan. Keyin chuqurni tuproq bilan ko'mib, ustidan ikki chelak quduq suvidan quyasan, keyin ustidan ozgina tuz sepasan-u kechqurun bamaylixotir o'rningga kirib yotasan. Oltining kechasi unib chiqib gullaydi, sen ertasi kuni quyosh chiqqandan keyin borib qarasang, xo'sh, ko'z oldingda nima paydo bo'ladi, bilasanmi? Shoxlarida barg o'rnida g'uj-g'uj oltin bo'lgan daraxtni ko'rasan. Daraxt xuddi iyul oyida ayni donga to'lishgan salmoqli boshhoqqa o'xshab ketadi.

– Demak, – dedi Pinokkio borgan sari ko‘proq ajablanarkan, – agar o‘sha dalaga bitta emas, beshta oltin tanga eksam, ertasiga ertalab qancha oltin topaman?

– Buning hisobi juda oson, – deb javob qildi tulki, – o‘zing barmoqlaringda sanab ko‘rishing mumkin. Aytaylik, har bir oltin besh yuz oltindan iborat to‘pga aylandi: demak, besh yuzni beshga ko‘paytirasan, natijada, ertasi kuni ertalab ikki ming besh yuzta jarangdor, yaraqlagan, yap-yangi oltin sening cho‘ntagingda-da.

– Voy, qoyil-ku! – deb chinqirib yubordi Pinokkio va suyunganidan bir oyog‘ida chirpirak bo‘lib aylandi. – Men shu oltin hosilini yig‘ib olganimdan keyin, ikki mingini o‘zimga olib qolib, besh yuzini sizlarga sovg‘a qilaman.

– Bizga sovg‘a qilasan! – achchiqlanib dedi tulki va juda qattiq ranjib qo‘shib qo‘ydi:

– Bu ishdan seni Xudo saqlasin.

– Xudo saqlasin! – deb takrorladi mushuk.

– Biz, – deb gapini davom ettirdi tulki, – jirkanch foydani ko‘zlab ishlamaymiz. Biz boshqalarni boyitish uchun savob ish qilamiz.

– Savob ish qilamiz! – deb takrorladi mushuk.

«O, judayam diyonatli janoblar ekan!» – deb o‘yladi Pinokkio. Shu zahoti u otasini ham, yangi kamzulni ham, alifbeni ham, o‘ylab qo‘ygan hamma yaxshi niyatlarini ham unutdi-yu, tulki bilan mushukka yuzlanib:

– Bo‘lmasa, tezroq ketdik! Sizlar bilan boranim bo‘lsin, – dedi.

XIII. Qizil qisqichbaqa mehmonxonasi

Ular ketaverishdi, ketaverishdi, axiri qosh qorayganda, Qizil qisqichbaqa mehmonxonasi-ga yetib borishdi.

– Mana shu yerga bir kirib o‘taylik, – deb taklif qildi tulki, – biron nima tamaddi qilib, bir-ikki soat dam olamiz. Yarim kechada yana yo‘lga tushamiz-da, ayni tong saharda sehrlı dalaga yetib olamiz.

Ular mehmonxonaga kirib, uchovlari bir stol atrofiga o‘tirishdi. Lekin birontalarida ham ishtaha yo‘q edi.

Qorin og‘rig‘i dardiga muhtalo bo‘lgan bechora mushuk pomidor solib, pishirilgan o‘ttiz beshta baliq bilan pishloq aralashtirib pishirilgan ichak-chavoqdan atigi to‘rt kosani yedi, xolos. Ichak-chavoq bemazaroq tuyildi, shekilli, u yana uch taqsimcha sariyog‘ bilan qirg‘ichdan o‘tkazilgan pishloq buyurdi.

Tulki ham biron nima yeb olishga qarshi emas edi. Lekin tabib qattiq parhez qilishni buyurgani uchun, u yaxshilab qovurilgan barra quyon go‘sh-ti bilan cheklanishga majbur bo‘ldi, bu go‘sh-ti xushxo‘r qiluvchi ziravor sifatida u – bo‘rdoqiga boqilgan bir juft tovuq bilan bir juft jo‘jaxo‘roz so‘radi. Tulkining ishtahasi yo‘q edi, shunga ko‘ra, u ishtahasini ochish uchun yana kaklik, makiyon karqur, quyon, qurbaqa, kaltakesak va uzumdan tayyorlangan qovurdoq so‘radi. Shulardan boshqa hech nima yegisi kelmadi boyaqishning.

– Ovqat shunchalik jonimga tekkanki, – dedi u, – ko‘rsam ko‘nglim ayniydi.

Pinokkio boshqalardan kamroq ovqat yedi. U o'ziga bir palla yong'oq bilan bir burda non buyurdi, keyin, shu ovqatgayam qo'l urmadi. Sehrli dala haqidagi shirin xayolga g'arq bo'lgan bechora bolani oltin tangalar to'ydirib qo'ygani edi.

Hammalari ovqatlanib bo'lishgach, tulki oshxona xo'jayiniga:

– Bizga ikkita yaxshi xona bering – bittasi janob Pinokkioga, ikkinchisi men bilan do'stinga. Safarni davom ettirish oldidan biroz mizg'ib olmoqchimiz. Lekin yodingizda bo'lsin, rop-pa-rosa yarim tunda bizni uyg'otasiz, chunki biz yo'lga chiqishimiz zarur, – dedi.

– Xizmatigingizga tayyorman, janoblar, – dedi oshxona xo'jayini va tulki bilan mushukka mug'ombirona ko'z qisib qo'ydi, bu ko'z qisish:

«Xotirjam bo'ling, gapingizga tushundim», degan ma'noni bildirardi.

Pinokkioning boshi yostiqa tegar-tegmas dong qotib uxlab qoldi. U tush ko'rdi. Tushida hamma yog'iga daraxt nihollari o'rnatilgan bir dalaning qoq o'rtasida turganmish, nihollarining shoxlarida shoda-shoda oltin tangalar osilganmish-u shamol esganida, bu tangalar go'yo: «Bizni uzib oling, uzib oling!» – degandek «jarang-jurung, jarang-jurung, jarang-jurung» qilarmish. Lekin Pinokkio chiroyli, yaraqlagan oltin tangalardan bir siqimini uzib olish uchun endi qo'llarini uzatgan edi, kimdir eshikni uch marta qattiq gursillatib urib, uni uyg'otib yubordi.

Bu oshxona xo'jayini edi.

– Yarim kecha bo'ldi, – dedi u.

– Hamrohlarim o'tlanib bo'lishdimi? – deb so'radi yog'och bola.

– O'tlanish ham gapmi! Bundan ikki soat bu-run jo'nab ketishdi.

– Buncha shoshilishmasa?

– Kutilmaganda, mushukka: to'ng'ich o'g'li panjalarini sovuq oldirib, o'lim to'shagida yot-gani haqida xabar keldi.

– Kechlik ovqat haqini to'lab ketishgandir, bo'lmasa?

– Iy-ye, qo'ysangiz-chi! Ular juda odob-axloq-li zotlar, siz janobi oliylariga nisbatan bunday beadablik qilishni o'zlariga ep ko'rmaydilar.

– Attang! Qaytaga, shunaqa beadablik qi-lishgani yaxshi edi, men hech xafa bo'lmasdim, – dedi Pinokkio va qulog'ining orqasini qashib qo'ydi.

– Ayting-chi, mo'tabar do'stlarim meni qayer-da kutishlarini aytib ketishdimi? – deb so'radi u birozdan keyin.

– Ertaga ertalab quyosh chiqishi oldidan sehrlil dalada kutisharmish.

Pinokkio o'zi va hamrohlari yegan kechki ovqat uchun bir oltin tanga to'lab, mehmonxo-nadan chiqib ketdi.

U har qadamini paypaslab qo'yardi, chunki atrof shu qadar zim-ziyo qorong'i ediki, hatto u o'z qo'lini ham ko'rmasdi. «Tiq» etgan tovush eshitilmasdi. Faqat allaqanday bahaybat qush-lar yo'lning dam u, dam bu chetiga patillab uchib o'tisharkan, har gal Pinokkioning burni-ga tegib ketishardi. U cho'chib ketib, orqaga ti-sarilarkan: «Kim u?» – deb chinqirardi, atrofda-

gi tepaliklar esa, uning savolini takrorlab, aks sado berardi: «Kim u, kim u, kim u...»

Oradan ko'p o'tmay, u bir to'nka ustida xiragina miltillab turgan bir hasharotni ko'rib qoldi, u tiniq chinni chiroq ichidagi mitti pilikdek hazin nur sochar edi.

– Kimsan? – deb so'radi undan Pinokkio.

– Men gapiruvchi qora chigirtkaning arvo-himan, – deb javob qildi mitti jonzod, uning ovozi xuddi narigi dunyodan kelayotganday, juda zaif edi.

– Mendan nima istaysan? – deb so'radi yog'och bola.

– Senga maslahat bermoqchiman. Hoziroq orqangga qaytib, qolgan to'rt oltinni sho'rpesha-na otangga olib borib ber: u sho'rlik sening yo'qolib qolganingdan g'amga botib, kecha-yu kunduz to'xtovsiz yig'lab o'tiripti.

– Ertaga otam badavlat janobga aylanadi, nega desang, mana shu to'rt oltin birdaniga ikki mingtaga ko'payadi.

– Sen sehr-jodu bilan boyimoqchi bo'lganlar-ga aslo ishonma, bo'tam. Unaqalar, odatda, yo telba bo'ladi yo firibgar. Gapimga kirib, darhol uyingga qayt!

– Men yo'limdan qaytmayman.

– Axir hozir vaqt yarim kecha!..

– Boraveraman!

– Tun zim-ziyo...

– Boraveraman!

– Yo'l xatarli...

– Baribir, boraveraman!

– Yodingda bo'lsin, doim o'zboshimchalik qil-gan bolalar bir kun emas, bir kun, qilmishlari-ga pushaymon bo'ladilar.

– Yana o'sha eski gapmi! Xayrli tun, qora chigirtka.

– Xayrli tun, Pinokkio. Seni falokat-u bosqinchilardan samoning o'zi asrasin!

Gapiruvchi qora chigirtka gapini tugatgach, xuddi puflab o'chirilgan shamdek, birdan so'nib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Endi yo'l avvalgidan ham battar qorong'lashdi.

**XIV. Pinokkio bosqinchilar qo'liga
tushib qoladi. Chunki u gapiruvchi
qora chigirtkaning foydali maslahatiga
quloq solmagan edi**

«Hayot shunaqa ekan», – deb yo'l-yo'lakay o'ylab borardi yog'och bola, – biz bechora bolalarga hech tinchlik yo'q. Hamma bizni koyiydi, nimalardandir ogohlantiradi, bizga foydali maslahatlar bermoqchi bo'ladi. Agar qo'yib bersang, hamma, hattoki gapiruvchi qora chigirtka ham, sen bilan do'st tutinishga urinadi, senga murabbiylik qilmoqchi bo'ladi. Mana, hozirgi voqeani olaylik: haligi ovsar qora chigirtkaning gapiga kirmaganim uchun, men, e'tibor bering-a, allaqanday baxtsizliklarga duch kelarmishman. Hatto, tavba qildim, qaroqchilar bilan ham to'qnasharmishman! Yaxshiyamki, qaroqchining o'zi yo'q, kechasi ko'chaga chiqaman, deb xarxasha qiluvchi bolalarni qo'rqitish uchun otalari to'qib chiqarishgan qaroqchi degan so'zni. Boring, ana, o'sha qaroqchilar hozir ro'paramdan chiqib qoldi ham deylik, nima, ulardan qo'rqarmidim? Zig'ircha

ham qo'rqmasdim. Men ularning qarshisiga turib olib: «Janob qaroqchilar, – deb qichqirardim, – mendan nima istaysizlar? Bilib qo'yinglar, men pachakilashib o'tirmayman! Shuning uchun, yaxshilikcha yo'limdan qochinglar», – derdim. Bunaqa jiddiy gapdan keyin, o'ylaymanki, sho'rlik qaroqchilar bu yerdan shataloq otib, qochib qolsalar ajab emas. Mabodo, ular aksiga olib, beadablik qilishsa-yu, yaxshilikcha yo'limdan qochishmasa, unda o'zim tiraqaylab qochaman-u, shu bilan mojaroga barham beraman-qo'yaman».

Pinokkio shunday xayolga berilib, asta ketib borarkan, birdan orqa tomonda xazon barglarning shitirlaganini eshitib qoldi.

U orqasiga o'girilib, zim-ziyo qorong'ida ikkita dahshatli qiyofani ko'rdi, u sharpalar ustlariga ko'mir qolipni kiyib olib, xuddi arvohek oyoq uchida tovush chiqarmay, Pinokkioning orqasidan izma-iz kelishardi.

«Qaroqchilar!» – deb o'yladi Pinokkio va oltinlarini qayoqqa yashirishni bilmay og'zini ochib, tili tagiga tashladi.

Shundan keyin ura qochmoqchi bo'lib, endi bir qadam qo'ygan edi hamki, o'zining qo'lga tushganini sezdi, qulog'iga ikki xirqiroq xunuk ovoz eshitildi:

– Yo molingni ber, yo joningni!

Pinokkio hech nima deb javob bera olmasdi – chunki oltin tangalarni og'ziga solib olgan edi-da, – shu sababdan u aftini har ko'yga solib burishtirib, qo'llari bilan turli ishoralar qila

boshladi: bu bilan u qop teshiklaridan faqat ko'zlarigina chaq nab turgan ikki niqoblangan yo'lto'sarga, o'zining bor-yo'g'i bir bechora yog'och bola ekanini, cho'ntaklarida, hatto sariq chaqa ham yo'qligini tushuntirmoqchi bo'lardi.

– Ha, bo'пти, bo'пти! Gapni kalta qil! Pulni chiqar! – deb dag'dag'a qildi ikkala bosqinchi baravariga.

Yog'och bola boshini sarak-sarak qildi, qo'llarini silkitdi. Bu ishora, menda pul yo'q, degan ma'noni bildirishi kerak edi.

– Yo pulni cho'z, yo joningdan umidingni uz! – dedi bo'yi balandroq bosqinchi.

– Umidingni uz! – deb takrorladi ikkinchisi.

– Seni o'ldirganimizdan keyin, otangni ham gumdon qilamiz!

– Gumdon qilamiz.

– Yo'q, yo'q, yo'q, bechora dadajonimni o'ldirmanglar! – deb jon holatda chinqirib yubordi Pinokkio.

Shunda og'zidagi tangalar jaranglab ketdi.

– Voy, yaramas-ey! Hali pulni og'zingga yashirgan ekansan-da! Qani, bo'l, darrov tuffla!

Pinokkio o'jarlik qilib, miq etmay turaverdi.

– Qulog'ing tom bitganmi, nima balo? Shoshmay tur, hozir pullarni tuflab tashlashga majbur qilamiz.

Shu gapdan keyin Pinokkioning og'zini ochish uchun qaroqchilarning biri uning burnidan torta boshladi, ikkinchisi – jon-jahdi bilan uning engagini pastga bosa boshladi. Lekin butun urinishlari bekor ketdi. Yog'och bolaning

og'zi xuddi chegalab qo'yilgandek, lablari tikib tashlangandek chippa yopishib qolgan edi.

Shunda qaroqchilarning pakanasi yonidan kattakon pichoq chiqarib, uni iskanaga o'xshatib, Pinokkioning tishlari orasiga tiqmoqchi bo'ldi. Lekin Pinokkio chaqqonlik qilib, uning qo'lini g'archcha tishlab uzib oldi-da, tuf lab tashladi. Lekin, yo tavba, tuflab tashlagan narsasi qo'l emas, mushukning panjasi bo'lib chiqdi: bu holni ko'rgan Pinokkioning qanday hang-mang bo'lib qolganini o'zingiz bir tasavvur qiling-a, bolalar!

Bu birinchi g'alabadan qanotlangan Pinokkio, qaroqchilarni timdalay boshladi, keyin bir siltanib, ularning qo'lidan chiqdi-yu, panjara devor osha hatlab o'tib, dalani tikka kesib, yugurib ketdi. Qaroqchilar xuddi quyon oviga chiqqan tozi itlardek uning orqasidan quvdilar.

Pinokkio shu yugurishda o'n besh chaqirimdan oshiqroq yo'l bosib, butunlay holdan toydi. U jon saqlab qolishdan umidini uzgan bir paytda birdan ulkan qarag'ay daraxtini ko'rib qoldi-yu, shosha-pisha uning qir uchiga tirmashib chiqib oldi. Yo'lto'sar qaroqchilar ham daraxtga chiqmoqchi bo'lishdi, lekin uning yarmigacha chiqishganda, qo'l-oyoqlari qonab, og'riqqa chiday olmay, birdan yerga gursillab yiqilib tushishdi.

Ammo ular hali ham o'z niyatlaridan qaytmagan edilar. Bu ikki qaroqchi daraxt tagiga shox-shabbalarni tog' qilib uyib, uni yoqib yubordi. Bir zumda qarag'ay o't oldi, u xuddi shamol alanga oldirgan mash'aladek gurillab

yona boshladi. Alanganing tobora balandlab kelayotganini ko'rgan Pinokkio tustovuqdek o'tda qovurilib o'lishni xohlamadi, u daraxtning uchidan ajoyib bir sakrash qilib, yerga uchib tushdi-yu, ekinzor va tokzorlar oralab shataloq otib yugura ketdi. Yo'lto'sar qaroqchilar ham uning orqasidan yana quva boshladilar.

Bu orada tong ham otib qoldi, lekin qaroqchilar hamon yog'och bolani quvib borardilar. Shu payt birdan Pinokkio bo'tana iflos suv to'la keng va chuqur bir zovur labiga borib qoldi. Nima qilsa ekan?

– Bir, ikki, uch! – deb chinqirdi Pinokkio va g'izillab yugurib kelib, bir sakrashda zovurning narigi betiga o'tib oldi.

Yo'lto'sar qaroqchilar ham yugurib kelib, uning orqasidan sakrashdi, lekin mo'ljalni to'g'ri ololmay, «shalop» etib, suvga tushib ketishdi.

Pinokkio suvning shaloplaganini eshitdi, lekin chopishdan to'xtamay, sho'x ohangda chinqirdi:

– Maza qilib cho'milavering, janob yo'lto'sarlar! Qushday yengil bo'lasiz!

Pinokkio ularni suvga cho'kib ketdi deb o'ylagan edi, lekin orqasiga o'girilib qarab, yana o'sha boshiga qop kiygan yo'lto'sar qaroqchilarni ko'rdi. Ular shiltayi shalabbo bo'lib, Pinokkioni quvib kelishardi.

XV. Yo'lto'sar qaroqchilar Pinokkioni ta'qib qilib, axiri tutib oladilar va katta eman daraxtining shoxiga osib qo'yadilar

Yog'och bolaning ruhi tushib ketdi. Endi u o'zini yerga otib, taslim bo'lishga ham rozi edi, ammo shu mahal uning ko'ziga uzoqda, quyuq daraxtlar orasidan qordek oppoq, bir uycha ko'rindi.

«Agar shu uygacha yetib ololsam, qaroqchilardan qutulib qolaman», dedi o'zicha Pinokkio.

Shundan keyin u o'ylab-netib o'tirmay o'rmonni tik kesib yugurib ketdi. Qaroqchilar esa hamon uning orqasidan quvib kelardilar.

Ikki soat muttasil jon achchig'ida chopib, o'lar holga kelgan Pinokkio axiri uycha oldiga yetib kelib, uning eshigini taqillatdi.

Lekin ichkaridan «tiq» etgan tovush ham eshitilmadi.

U eshikni yanada qattiqroq taqillata boshladi, chunki bu payt uni quvib kelayotgan qaroqchilarning hansiragani uzoqdan eshitila boshlagan edi. Ichkaridan hamon hech kim ovoz bermasdi.

Shunda Pinokkio taqillatishdan foyda yo'qligini tushunib, jon achchig'ida eshikka kalla qo'yib, uni oyog'i bilan gursillatib tepa boshladi. Shu mahal derazadan zangori sochli chiroyli bir qiz ko'rindi.

– Oh, zangori sochli chiroyli qiz, – deb yolvordi Pinokkio, – o'tinaman sendan, eshigingni och! Men bechora bolaga rahming kelsin, orqamdan yo'lto'sar qaroq...

Biroq bola bechoraning og'zidagi og'zida qoldi: bu payt qaroqchilar yetib kelib, uning to-mog'idan xippa bo'g'ib olgan edilar: ularning vahimali tanish ovozlari Pinokkioning qulog'i ostida dag'dag'a bilan yangradi:

– Endi bizdan qochib qutulib bo'psan!

Pinokkio derazaga mo'ltirab qaradi, lekin zangori sochli qiz xuddi tushga kirgandek g'o-yib bo'lgan edi.

Yog'och bola o'zining ajali yetganini ko'rib, dag'-dag' titray boshladiki, hatto yog'och oyoqlarining bo'g'inlari shaqillab ketdi, tili ostiga yashirgan to'rt oltin tanga bo'lsa, baralla jaranglay boshladi.

– Xo'sh! – deb baqirishdi qaroqchilar. – Endi yam ochmaysanmi og'zingni? Ah-ha, biz bilan gaplashgilari kelmayaptimi!.. Shoshmay tur, ilgari ocholmagan bo'lsak ham, endi ochmay qo'ymaymiz og'zingni!

Shunday deb ular ustaradek o'tkir ikkita kat-takon pichoqni Pinokkioning biqiniga sanchdilar.

Lekin yog'och bolaning baxtiga, u metindek qattiq, asil nav yog'ochdan yasalgan edi. Qaroqchilarning pichoqlari chil-chil sinib, qo'llarida faqat pichoqning bandlarigina qoldi, shunda ular hang-mang bo'lishib, bir-birlariga baqrayib qolishdi.

– Menga hammasi ravshan, – dedi bir qaroqchi, – uni osish kerak. Demak, biz uni osamiz!

– Biz uni osamiz! – deb takrorladi ikkinchisi.

Shundan keyin ular yog'och bolani o'rmon-ga sudrab ketishdi, keyin uning qo'llarini orqa-

sigaga bogʻlab, boʻyniga sirtmoq solishdi-da, tevarak-atrofdagi odamlar «Katta eman» deb nom qoʻygan azim tup daraxtning shoxiga arqonning ikkinchi uchini tashlab tortib bogʻlashdi.

Keyin ular maysa ustiga oʻtirib, yogʻoch bolaning tipirchilashdan toʻxtab, jon berishini kuta boshladilar. Lekin oradan uch soat oʻtibdiyamki, Pinokkioning koʻzi ochiq, ogʻzi yumuq edi, qaytaga endi u avvalgidan ham qattiqroq pitirlardi.

Nihoyat, kutib oʻtiraverish qaroqchilarning joniga tegdi, ular oʻrinlaridan turib, Pinokkioni mazax qilib bunday deyishdi:

– Xoʻp, boʻlmasa, ertagacha xayr! Ertaga kelganimizda, sen bir yaxshilik qilib, bizni chiroylikkina boʻlib kutib olasan, ogʻizchang ham lang ochilgan boʻladi.

Shunday deb ular joʻnab ketishdi.

Koʻp oʻtmay kuchli shimol shamoli turdi. Shamolning shiddatli uvillashidan dorga osilgan bola bechora xuddi bayram kuni chalingan cherkov qoʻngʻirogʻidek tinmay tebranaverdi. Bu tebranish uni qattiq azobga solar, sirtmoq esa, boʻynini tobora qattiqroq siqib, nafas olishiga imkon bermasdi.

Uning koʻzlari xiralasha boshladi. Garchi u oʻlimi yaqin ekanligini sezayotgan boʻlsa ham, shoyad, daraxt tagidan bironta saxovatli zot oʻtib qolsa-yu, ahvolimni koʻrib, meni sirtmoqdan ozod qilsa, deb umidvor boʻlardi. Lekin hanuz hech kim koʻrinmayotganidan ruhi tushib, u otasini oʻylay boshladi.

– Oh, dadajon!.. Qaniydi hozir yonimda boʻlsangiz... – dedi u zoʻr-bazoʻr, joni uzilayotganini sezib.

Bor-yo'q aytgan gapi shu bo'ldi. U ko'zlarini yumdi, og'zini ochdi, oyoqlarini uzatib yuborib, qimir etmay osilib qoldi.

**XVI. Zangori sochli chiroyli qizcha
yog'och bolani dordan tushirishni
buyuradi. Uni to'shakka yotqizib, tirik
yo o'likligini bilish uchun birvarakayiga
uch tabibni chaqirtiradi**

Qaroqchilar tomonidan katta eman shoxiga osilgan bechora Pinokkioning o'lishiga bir bahya qolganda zangori sochli chiroyli qizcha yana deraza oldida paydo bo'ldi. U boyaqish yog'och bolaning shimol shamolining shiddatidan xuddi soat kapgiridek tebranib yotganini ko'rgan zahoti, unga rahmi kelib, uch karra chapak chaldi.

Shunda qush qanotlarining patillagani eshilib, saldan keyin kattakon bir lochin o'qday uchib tushib, derazaga qo'ndi.

– Amringizga muntazirman, sohibjamol Pari!
– dedi lochin va ehtirom bilan tumshug'ini pastga egdi (kezi kelganda shuni aytib qo'yish kerakki, zangori sochli bu qizcha saxovatli Pari bo'lib, o'rmon yoqasidagi bu sayhonlikda yashay boshlaganiga ming yildan oshgan edi).

– Katta eman shoxiga osilgan yog'och bolani ko'ryapsanmi?

– Ko'ryapman.

– Yaxshi. Hozir o'sha yerga uchib borib, o'tkir tumshug'ing bilan uni sirtmoqdan ozod qilgin-da, eman tagidagi maysa ustiga avaylab yotqizib qo'y.

Lochin uchib ketdi. Ikki daqiqadan keyin qaytib kelib bunday dedi:

– Hamma aytganlaringizni qildim.

– Xo'sh, senga u qanday ko'rindi? Tirikka o'xshadimi yo o'likkami?

– Ko'rinishidan o'likka o'xshaydi, lekin butunlay joni chiqib bo'lgan deb aytish ham qiyin, chunki uning bo'ynidagi sirtmoqni bo'shatganimda, u bir ingrab qo'ydi-da, zo'rg'a: «Mana endi, sal yengil tortdim», – dedi.

Pari ikki marta chapak chalgan edi, ajoyib bir baroq it paydo bo'ldi. U xuddi odamga o'xshab ikki oyoqda kirib keldi.

Baroq it egniga izvosh haydovchilarning yenglariga uqa tutilgan bayram kamzuli, boshiga serkokil oq yasama soch qo'ndirib, yasama soch ustidan zar hoshiyali uch qirrali jajjigina qalpoqcha kiygan edi. Yasama sochining uzun kokillari yelkasiga tushib turar edi. Bundan tashqari, u egniga ikki yonida ikkita katta-katta cho'ntagi bo'lgan (ovqat vaqtida o'z sohibasi in'om qilgan suyaklarni u shu cho'ntaklariga solardi) gavhar tugmalar qadalgan to'q jigar-rang uzun kamzul, qizil duxobadan tikilgan kalta shim, ipak paypoq va yuzi ochiq tufli kiygan edi, orqasida bo'lsa, zangori shoyidan tikilgan cho'zinchoq g'ilof bo'lib, yog'ingarchilik paytida u dumini shu g'ilof ichida asrardi.

– Gapimni diqqat bilan eshit, Medoro, – dedi Pari baroq itga. – Darhol mening eng yaxshi izvoshimni olgin-da, o'rmonga yo'l ol.

U yerda katta eman tagida maysa ustida yotgan chalajon bir bechora yog'och bolani ko'rasan. Sen uni avaylab ko'tarib, aravadagi yostiqchalar ustiga ohista yotqizgin-u, to'g'ri mening oldimga olib kel. Gapimga tushundingmi?

Baroq it «tushundim» demoqchi bo'lgandek, zangori shoyi g'ilofni to'rt martacha likillatib qo'yib, xonadan o'qday otilib chiqib ketdi. Oradan sal vaqt o'tar-o'tmas otxonadan jajjigina chiroyli zangori izvosh chiqdi: uning o'rindig'i va suyanchig'iga kanareyka pati solib qavilgan bo'lib, bu yerda qaymoq, murabbolar solingan shisha idishchalar, non-naychalarga o'ralgan nisholda-yu, shirin kulchalar terib qo'yilgan edi. Jajji izvoshni unga qo'shilgan yuzta oq sichqon tortib borardi, baroq it bo'lsa, baland o'rindiqqa o'tirib olib, xuddi haqiqiy abjir izvoshchiga o'xshab, qo'lidagi uzun qamchisini tinmay sharaqlatardi.

Oradan chorak soat vaqt o'tar-o'tmas izvosh qaytib keldi. Uy ostonasida kutib turgan Pari bechora yog'och bolani izvoshdan ohista ko'tarib olib, sadaf devorli xonaga olib kirdi va darhol dong'i ketgan eng mashhur tabiblarni chaqirib kelishni buyurdi.

Tabiblar ham zum o'tmay birin-ketin yetib kelishdi. Bular: qarg'a, yapaloqqush va gapiruvchi qora chigirtka edi.

– Sizlarning fikringizni bilmoqchi edim, janoblar, – dedi Pari Pinokkio yotgan to'shak atrofida turgan uchta tabibga yuzlanib. – Bu sho'rpehana yog'och bola tirikmi yo o'lganmi? Shu haqda sizlar nima deysizlar?

Parining savoliga javob berish uchun birinchi bo'lib qarg'a oldinga chiqdi. U Pinokkioning tomirini, burnini, keyin oyog'ining jimjilog'ini ushlab ko'rdi. Bu ishni u nihoyatda sinchkovlik bilan bajargach, salobat bilan:

– Mening fikrimcha, yog'och bola o'lgan. Biroq, agar u baxtsiz tasodif taqozosi bilan hali chalajon bo'lsa, u holda bu – shubhasiz uning hali tirik ekanligidan dalolat beradi, – dedi.

– Ming afsuski, – dedi yapaloqqush, – men muhtaram do'stim va hamkasabam qarg'aning fikriga qo'shila olmayman. Mening fikrimcha, yog'och bola hali tirik. Biroq, agar baxtsiz tasodif taqozosi bilan u hozir jonsiz bo'lsa, u holda bu – shubhasiz, uning chindanam o'lganidan dalolat beradi.

– Siz nega indamayapsiz? – deb Pari gapiruvchi qora chigirtkaga yuzlandi.

– Mening bilishimcha, bir qarorga kelolmagan dono tabib, yaxshisi, gapirmagani ma'qul, shunga qaramay, aytmoqchimanki, bu yog'och bola menga tanish. Men uni ko'pdan buyon bilaman.

Shu choqqacha qovjiragan bir g'ola singari qimir etmay yotgan Pinokkio birdan dag'-dag' qaltiray boshladi, buning natijasida butun karavot qisirlab, harakatga keldi.

– Bu yog'och bola, – deb gapini davom ettirdi gapiruvchi qora chigirtka, – uchiga chiqqan bezori...

Pinokkio ko'zini ochdi-yu, yana darrov yumib oldi.

– Muttaham, ishyoqmas, sayoq...

Pinokkio choyshab bilan boshini burkab oldi.

– Bu – mutlaqo quloqsiz bola, u bir kun emas, bir kun baxti qora sho‘rlik otasini, albat-ta, go‘rga tiqadi!

Shu mahal allakimning piqillab yig‘lagani es-hitildi. Bu yerda hozir bo‘lganlar hamma yoqqa bir-bir ko‘z yugurtirib chiqib, axiri choyshab-ni ko‘tarib qarashdi: buni qarangki, piqillab yig‘layotgan Pinokkio ekan. Bu holdan hamma shunaqangi hang-mang bo‘lib qoldiki, buni siz hatto, tasavvur ham qila olmasiz!

– Agar o‘lik yig‘lay boshlasa, bu – uning tirilayotganidan dalolat beradi, – dedi qarg‘a dabdabali ohangda.

– Ming afsuski, men muhtaram do‘stim va hamkasabamning fikriga qo‘shilolmayman, – deb e‘tiroz bildirdi yapaloqqush, – zero, o‘lik yig‘lay boshlagan ekan, demak bu – uning o‘lishni istamaganidan dalolat beradi.

XVII. Pinokkio qandni jon-jon deb yeydi-yu, lekin surgı dori ichishni xohlamaydi. Biroq, uni olib ketgani tobut ko‘tarib kelgan quyonlarni ko‘rib, darrov dorini ichib yuboradi. U yolg‘on gapiradi, natijada shu yolg‘onchiligi jatiga burni uzaya boshlaydi

Tabiblar jo‘nab ketishgandan keyin Pari Pinokkioning tepasiga borib, kaftini uning peshanasiga qo‘ydi, bemorning isitmasi baland edi.

Pari bir stakan suvga oq kukun solib, uni yog‘och bolaga uzatarkan, muloyim ovozda:

– Qani, ichaqol, ichsang, bir necha kundan keyin sog‘ayib ketasan, – dedi.

Pinokkio stakanga qarab, aftini burishtirdi-da, ayanchli ovoz bilan so'radi:

– Doringiz shirinmi yo achchiq?

– Achchiq, lekin sen uchun foydali.

– Achchiq bo'lsa ichmayman.

– Gapimni qaytarma, icha qol darrov.

– Axir achchiq narsani yomon ko'raman!

– Ich! Ichganingdan keyin, senga bir chaqmoq qand beraman, og'zing yana shirin bo'ladi.

– Qani o'sha qandingiz?

– Mana, – dedi Pari va qanddondan bir chaqmoq qand olib ko'rsatdi.

– Oldin menga o'sha qandingizni bering, keyin achchiq, doringizni ichaman.

– So'z berasanmi?

– Ha.

Pari unga qand uzatdi. Pinokkio hash-pash deguncha qandni qasir-qusur chaynab yutib yubordi. Keyin tili bilan lablarini yalab:

– Judayam zo'r ekan! Qaniydi, doriyam qandga o'xshagan shirin bo'lsa! O'shanda har kuni surgu dorini jon-jon deb ichaverardim! – dedi.

– Endi bergan va'dangni bajarib, doridan bir qultumgina ichib yubor, keyin otdek bo'lib ketasan.

Pinokkio stakanni istar-istamas qo'lga olib, unga burnining uchini tiqib ko'rdi, keyin stakanni og'ziga yaqin olib kelib, yana unga burnini tiqdi-da, nihoyat:

– Bu dori men uchun achchiqlik qiladi. Judayam achchiq ekan. Men uni icholmayman, – dedi.

– Voy, nega unday deysan, axir hali tatib ham ko'rmading-ku!

– Achchiqligini shundoq ham sezib turibman. Hidlab koʻrdim-ku! Oldin yana bir chaqmoq qand yeb yuborsam devdim... keyin dorini ichaverardim.

Pari mehribon onaga xos sabr-u bardosh bilan yogʻoch bolaning ogʻziga yana bir chaqmoq qand tiqdi. Shundan keyin unga yana stakanni uzatdi.

– Men bu dorini icholmayman, – dedi yogʻoch bola aftini ming koʻyga solib bujmaytirarkan.

– Nima uchun?

– Nimaga desangiz, oyogʻim ostiga qoʻygan yostigʻingiz halaqit beryapti.

Pari yostiqli olib qoʻydi.

– Baribir, foydasi yoʻq. Men haliyam icholmayman.

– Yana nima halaqit beryapti ichishingga?

– Eshik, ana, qiya ochiq turipti.

Pari borib eshikni yopib keldi.

– Yoʻq, – deb chinqirdi Pinokkio va hoʻngrab yigʻlab yubordi, – xohlamayman achchiq dori ichishni, yoʻq, sira, sira ichmayman!

– Keyin pushaymon boʻlasan, tasadduq.

– Menga baribir!

– Kasaling juda ogʻir axir.

– Menga baribir!

– Shu bezgak tutishing boʻlsa, nari borsa, yana ikki soat yashaysan!

– Menga baribir!

– Nima, sen oʻlimdan qoʻrqmaysanmi?

– Men-a? Men dunyoda hech nimadan qoʻrqmayman! Bunaqa baytalmon dorini ichganimdan oʻlganim yaxshi!

Xuddi shu payt eshik lang ochilib, xonaga to'rt nafar qop-qora quyon kirib keldi. Quyonlar yelkalariga kichkinagina tobut ko'tarib olgan edilar.

– Mendan nima istaysizlar?! – deb chiyilladi Pinokkio va qo'rqqanidan dik etib, o'rnidan turib oldi.

– Biz seni olib ketgani keldik, – deb javob qildi quyonlar ichida eng norg'uli.

– Meni-ya?.. Axir men sirayam o'lgan emasman-ku!

– Hozircha o'lmagansan. Lekin yana bir necha daqiqadan keyin o'lasan, chunki sen kasalingni tuzatuvchi dorini ichmayapsan.

– Oh, Pari, jon Pari! – deb faryod qildi yog'och bola. – Tezroq bera qoling stakanni! Iltimos, tezroq bo'ling, chunki men o'lishni xohlamayman. Yo'q, sirayam xohlamayman o'lishni!

Shundan keyin u stakanni ikki qo'li bilan changallab olib, bir ko'tarishda dorining bir tomchisini ham qoldirmay ichib yubordi.

– Hay, nachora, – deyishdi quyonlar, – bu safar bekorga ovora bo'ldik. Ular kichkina tobutni yana yelkalariga ko'tarib, jahl bilan to'ng'illab-to'ng'illab xonadan chiqib ketishdi.

Pinokkio bo'lsa, yana bir necha daqiqadan keyin soppa-sog'ayib, karavotdan dik etib sakrab tushdi. Men sizlarga aytsam, bolalar, yog'och odamchalarda ajoyib bir xususiyat bor: ular juda kamdan-kam kasal bo'lishadi, kasal bo'lib qolishgan taqdirda ham bir zumda tuza-lib ketishadi.

Pari Pinokkioning uy ichida xuddi toychoqdek dik-dik sakrab, yugurib yurganini ko'rib:

– Bundan chiqdi, dori foyda qilipti-da, senga? – dedi.

– Foyda qilgan-da qandoq! U meni o'limdan asrab qoldi.

– Bo'lmasa, nega shuncha vaqt tixirlik qilib, meni yalinishga majbur etding?

– Nimaga desangiz, biz, bolalar, o'zi shunaqa injiqmiz. Kasal bo'lib qolishdan ham ko'ra, dori ichishdan ko'proq qo'rqamiz.

– Uyat! O'z vaqtida ichilgan yaxshi dori eng og'ir darddan, hattoki o'limdan ham asrab qolishi mumkin – buni bolalar unutmazligi kerak.

– To'g'ri aytasiz! Bundan keyin sirayam injiqlik qilmayman. Endi men yelkalariga tobut ko'targan qora quyonlarni doim yodimda saqlayman... Ana unda, agar kasal bo'lsam, darrov stakanni olaman-u... o'ylab o'tirmasdan, «qult-qult» qilib, ichib yuboraman.

– Qani, endi yonimga kelib, qaroqchilar qo'liga qanday tushib qolganingni gapirib ber.

– Voqea bunday bo'lgan edi: qo'g'irchoq teatrining egasi Manjafoko menga bir nechta oltin tanga berib: «Bularni dadangga olib borib ber», -- deb aytdi. Lekin men uyga ketayotib, ko'chada ikki muhtaram janobni: tulki bilan mushukni uchratib qoldim. Ular menga: «Shu besh oltining ikki mingta oltinga aylanib qolishini xohlaysanmi? – deyishdi. – Agar xohlasang, yur biz bilan. Seni sehrli dalaga boshlab boramiz», – deyishdi. «Bo'пти, ketdik», – dedim ularga. Shundan keyin ular: «Qizil qisqichbaqa mehmonxonasiga kirib dam olamiz, vaqt

yarim kechadan ogʻanida, yana yoʻlga tushamiz», – deyishdi. Keyin, uyqudan uygʻonib qararam, ular allaqachon joʻnab ketishipti. Men bir oʻzim yoʻlga tushdim, kechasi qop-qorongʻi, shunaqangi qorongʻi ediki, qanaqaligini aytolmayman ham, shuning uchun boshiga koʻmir qopi kiyib olgan ikki qaroqchiga birdan duch kelib qoldim, ular: «Pulni choʻz», – deyishdi, men boʻlsam: «Menda pul yoʻq», – dedim, nimagadesangiz, qolgan toʻrt oltin tangani ogʻzimga solib olgandim, shundan keyin qaroqchilarning biri qoʻlini ogʻzimga tiqishga urinib koʻrdi, men boʻlsam uning qoʻlini gʻarchcha tishlab, uzib oldim-da, tuflab tashladim, lekin tuflaganim qoʻl emas, mushukning panjasi boʻlib chiqdi, keyin qaroqchilar orqamdan quvishni boshlashdi, men ham oyogʻimni qoʻlimga olib qochdim. Qochaverdim, qochaverdim, lekin ular baribir meni tutib olishib, boʻynimga sirtmoq solishib, oʻrmondagi bir daraxtga osib qoʻyishdi-da: «Biz ertaga qaytib kelamiz, oʻshanda sen oʻlgan boʻlasan, oʻlganingda ogʻzing ochilib qoladi, shundan keyin biz tilingning tagiga berkitgan toʻrt tangangni olamiz», – deyishdi.

– Hozir qayerda oʻsha oltin tangalaring?

– Yoʻqotib qoʻydim, – deb javob qildi Pinokkio.

Lekin u yolgʻon gapirgan edi, negaki, pullari uning choʻntagida edi.

Pinokkio shu yolgʻon gapni aytib ulgurmasidan, shundogʻam uzun burni, birdan yana ikki enlik uzaydi...

– Qayerda yoʻqotib qoʻyding?

– O‘rmonda shekilli.

Bu ikkinchi yolg‘ondan keyin Pinokkioning burni yana ozgina uzaydi.

– Agar pulingni o‘rmonda yo‘qotgan bo‘lsang, – dedi Pari, – biz uni, albatta, qidirib topamiz, chunki o‘rmonda yo‘qolgan narsalarimizni topmay qo‘ymaymiz.

– E-e, mana endi esimga tushdi, – dedi yog‘och bola xijolat bo‘lib: – pulimni yo‘qotganim yo‘q, siz bergan dorini ichayotganimda, bexosdan yutib yubordim.

Bu uchinchi yolg‘on gapdan keyin Pinokkioning burni shunaqangi uzayib ketdiki, sho‘rlik endi boshini u yoq-bu yoqqa burolmay ham qoldi. U boshini o‘ng tomonga bursa, burni borib karavotga yo derazaga qadalar, chap tomonga bursa, devorga yo eshikka borib tiralardi; boshini yuqoriga ko‘tarmoqchi bo‘lgan edi, burni Parining ko‘ziga kirib ketishiga sal qoldi.

Pari bo‘lsa, unga qarab qotib-qotib kulardi.

– Nega kulasiz? – deb so‘radi yog‘och bola, u burnining haddan tashqari cho‘zilib ketganidan qattiq ranjigan va qo‘rqib ketgan edi.

– Yolg‘on gapirganing uchun kulyapman.

– Qayerdan bilasiz yolg‘on gapirganimni?

– E-e, erka bolam-ey, yolg‘on gap darrov bilinadi-qoladi. Sirasini aytsam, yolg‘on ikki xil bo‘ladi: birinchisiniig oyog‘i kalta bo‘ladi. Ikkinchi xil yolg‘onning burni uzun bo‘ladi. Sening yolg‘on gaping – uzun burunli yolg‘on.

Pinokkio uyalganidan o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay, uydan qochib ketmoqchi bo‘ldi.

Lekin buni eplay olmadi. Chunki burni judayam cho'zilib ketganidan, hatto eshikka ham sig'may qolgan edi.

**XVIII. Pinokkio yana tulki bilan
mushukni uchratadi va to'rt oltin
tangasini sehrli dalaga ekish uchun ular
bilan birga jo'nab ketadi**

Men sizlarga aytsam, bolalar, Pari Pinokkioning oh-zori, dod-voyiga yarim soatcha parvo qilmay o'tirdi. U yog'och bolaning yaxshilab ta'zirini berib qo'ymoqchi, yolg'on gapirish odatini tashlashga majbur qilmoqchi bo'lgan edi. Negaki, yolg'onchilik dunyoda eng jirkanch illat hisoblanadi-da. Lekin, baribir u Pinokkioning alamdand o'zini qo'yarga joy topolmayotganini, yuragi taka-puka bo'lib, ko'zlari kosasidan chiqib ketgudek chaqchayganini ko'rdi-yu, unga achindi. Pari bir marta chapak chalgan edi, uyga bir gala qush uchib kirdi. Qushlarning hammasi qizilishtonlar edi. Ular Pinokkioning burniga qo'nib olib, zo'r hafsala bilan uni cho'qilay boshlashdi, natijada oradan bir necha daqiqa o'tar-o'tmas, yog'och bolaning tar-novsimon beso'naqay burni yana avvalgi holiga kelib qoldi.

– Siz g'oyat saxovatlisiz, o muhtarama Pari,
– dedi yog'och bola ko'z yoshlarini artarkan, –
men sizni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman!

– Men ham seni yaxshi ko'raman, – deb javob qildi Pari, – agar xohlasang, shu yerda, men bilan qol, menga uka bo'lasan, men – sening mehribon opang bo'laman.

– Men-ku, jon-jon deb qolar edim-a... lekin dadam shoʻrlikning holi nima kechadi?

– Men buni allaqachon oʻylab qoʻyganman. Otangga xabar yubordim. Bugun kech kirguncha yetib keladi bu yerga.

– Rostdanmi? – deb chinqirib yubordi Pinokkio va xursand boʻlganidan umbaloq oshib sakradi. – Bunaqa ekan, hurmatli Pari, agar ijozat bersangiz, dadajonimni oʻzim kutib olsam. Men dadamni judayam sogʻinib ketdim, oʻzim ularni tezroq koʻrib, boʻynilaridan quchoqlamoqchiman. Dadam bechoraga men juda koʻp tashvish orttirdim.

– Mayli, bora qol, lekin ehtiyot boʻl, tagʻin adashib-netib qolma. Sen oʻrmon ichidagi soʻqmoqdan bor, shunda, albatta, otang bilan toʻqnashasan.

Pinokkio uydan oʻqday otilib chiqib, gʻizillagancha oʻrmonga bordi va u yerda xuddi qoʻzichoqdek dikir-dikir sakray boshladi. Lekin u katta eman tagiga yetganida, birdan taqqa toʻxtab qoldi – chakalakzor ichidan allakimlarning gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozi eshitilayotgandek tuyildi unga. Chindan ham, shu payt yoʻl oʻrtasiga... kimlar chiqdi, deng? Tulki bilan mushuk... Ha, ha. Pinokkioning kechagi hamrohlari, Qizil qisqichbaqa mehmonxonasida u bilan birga ovqatlangan oʻsha tulki bilan mushuk yogʻoch bolaga roʻpara keldilar.

– Iy-ye, oʻzimizning Pinokkio-ku! – deb chinqirib yubordi tulki yogʻoch bolani bagʻriga bosib oʻparkan. – Bu yoqlarga qanday kelib qolding?

– E, asti soʻramang, – dedi yogʻoch bola. – Payti kelganda, bir boshdan gapirib beraman.

Hozir, sirasini aytadigan bo'lsam, sizlar meni musofirxonada yolg'iz qoldirib ketgan kechasi men yo'lda qaroqchilarga duch keldim.

– Qaroqchilarga? Voy, sho'rlik bola-yey! Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

– Ular mening oltin tangalarimni tortib olmoqchi bo'lishdi.

– Voy, ablahlar-ey! – dedi Tulki.

– Ablahlar-ey, – deb takrorladi Mushuk.

– Lekin men qochib ketdim, – deb hikoyasini davom ettirdi yog'och bola, – ular bo'lsa orqamdan quvishni boshlashdi, keyin, baribir, tutib olib mana shu eman daraxtiga osib qo'yishdi.

Pinokkio qarshisida qad ko'targan katta eman daraxtiga ishora qildi.

– Axir dunyoda bundan ham achinarliroq voqea bo'lishi mumkinmi? – dedi tulki. – Qanday dahshatli zamonda yashayapmiz o'zi! Bizdek diyonatli kimsalar bu bedodliklardan qanday qutuladi-yu, qayerdan panoj topadi endi?

Ular shunday gaplashib turishganda, Pinokkio birdan mushukning oldingi o'ng oyog'i oq-sayotganini payqab qoldi – mushukning butun panjasi tirnoq-pirnoqlari bilan birga yo'q edi.

– Panjangga nima qildi? – deb so'radi Pinokkio mushukdan.

Mushuk javob qaytarmoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, lekin gap topolmay gangib qoldi. Shunda tulki uning joniga ora kirib, gapni ilib ketdi:

– Do'stim judayam kamsuqum, shuning uchun gapirgani uyalyapti. Uning o'rniga men javob bera qolay. Gap shundaki, bundan bir soatcha burun biz yo'lda ochlikdan sillasi qurib o'lar holga borib qolgan bir qari bo'rini uchrat-

dik. U bizdan sadaqa so'radi. Lekin aksiga olib, unga bergani, hatto baliq suyagi ham yo'q edi yonimizda. Shunda mana bu mehridaryo, dovyurak do'stim nima qildi degin? O'zining panjasini g'archcha tishlab uzib, boyaqish bo'rining oldiga tashladi, shu bilan uni ochlikdan sirilib, o'lishiga yo'l qo'ymadi.

Tulki shu gapni ayta turib, ko'z yoshini artib qo'ydi. Pinokkio ham bu gapdan qattiq ta'sirlanib ketdi. U mushukka yaqin borib, uning qulog'iga:

– Agar hamma mushuklar senga o'xshashgandami, sichqonlarga havas qilsa bo'lardi! – dedi.

– Xo'sh, nima qilib yuribsan bu yoqlarda? – deb so'radi shunda tulki yog'och boladan.

– Men dadamni kutypaman. U hademay bu yerga yetib kelishi kerak.

– Oltin tangalaringni nima qilding?

– Tangalar cho'ntagimda, faqat endi bitta kam: Qizil qisqichbaqa mehmonxonasida olib qolishdi.

– Eh, attang, o'sha to'rt tillang ertaga ming tillaga, hattoki ikki ming tillaga aylanishi mumkin edi-ya! Nega endi maslahatimga kirmayapsan? Nega tillalaringni sehrli dalaga olib borib, ekishni xohlamayapsan?

– Bugun sira ilojim yo'q. U yoqqa boshqa safar borarman.

– Boshqa safar butunlay kech bo'ladi, – dedi tulki.

– Nimaga?

– Nimaga desang, bir mansabdor janob o'sha dalani sotib oldi, endi ertadan boshlab, hech kim u yerga pul eka olmaydi.

– Bu yerdan uzoqmi o‘sha sehrli dala?

– Ikki chaqirim ham kelmaydi. Xohlasang, biz bilan yur! Yarim soatda o‘sha yerda bo‘lasan. Darrov to‘rt tangangni ekasan-u, bir necha daqiqadan keyin hash-pash deguncha ikki ming tangadan iborat hosilni yig‘ib, shu bugun kechqurunoq cho‘ntaklaring liq-liq pul bilan yana bu yerga qaytib kelasan. Xo‘sh, qalay, ketdikmi?

Pinokkio biroz ikkilanib turib qoldi, chunki u saxovatli Parini, kekxa Jeppettoni va gapiruvchi qora chigirtkaning tanbehlarini o‘ylar edi. Lekin keyin u baribir, hamma esi yo‘q, toshbag‘ir bolalar singari ish ko‘rdi – bosh irg‘ab, tulki bilan mushukka qarab:

– Bo‘pti! Sizlar bilan boraman, – dedi.

Shundan keyin uchovlon yo‘lga tushishdi. Ular yarim kun yo‘l yurib, nihoyat bir shaharga kirib bordilar. Shaharning nomi Ahmoqkon edi. Pinokkio bu shaharning ko‘chalarida ochlikdan og‘izlarini kappa-kappa ochib esnab yotgan, tullagan itlarni, sovuqdan qalt-qalt titrayotgan yungi olingan qo‘ylarni; bir siqim jo‘xori so‘rab tilanchilik qilayotgan toji-yu soqoli yulingan xo‘roz va tovuqlarni; rang-barang qanotlarini sotib yuborib, endi hech ucholmay qolgan katta-katta kapalaklarni; dumlaridan ayrilib, endi uyalganlaridan o‘zlarini qo‘yarga joy topa olmayotgan tovuslarni va yaltiroq oltin patlarini garovga qo‘yib, endi ularni qaytarib ololmasliklariga ko‘zlari yetganidan xijolat bo‘lib, boshlarini quyi eggancha goh u, goh bu tomonga ohista yurgan g‘amgin qirg‘ovullarni ko‘rdi.

Tilanchilik qilayotgan bu uyatchan faqir jonivorlar yonidan dam-badam hashamatli izvoslar o'tib turardi: bu izvoslarda yo tulki, yo o'g'ri zag'izg'on, yo bo'lmasa yana bironta vahshiy parranda o'tirardi.

– Sehrli dala qayerda? – deb so'radi Pinokkio.

– Bu yerdan bir necha qadam narida.

Ular shahar chekkasiga chiqishib, shahar devori yaqinidagi huvillagan bo'm-bo'sh bir dalada to'xtashdi.

– Yetib keldik, – dedi tulki. – Endi sen cho'kka-lab olib, qo'llaring bilan chuqurcha kavlaginda, oltin tangalaringni shu chuqurchaga ko'm. Pinokkio tulkining aytganlarini qildi: chuqurcha qazib, o'zining to'rt tangasini unga tashlab, ustidan tuproq tortdi. – Endi, – deb maslahatini davom ettirdi tulki, – anavi yerdagi zovurdan bir chelak suv olib kelgin-da, pul ekan yeringga quy.

Pinokkio zovur bo'yiga bordi, lekin chelak yo'qligidan poyabzalini yechib, shu poyabzalida suv olib kelib, pul ko'mgan yeriga quydi.

Keyin u:

– Yana nima qilishim kerak? – deb so'radi.

– Hech nima, – deb javob qildi tulki, – ketaverishing mumkin. – Lekin yigirma daqiqadan keyin bu yerga qaytib kel. Shunda sen bu yerda shoxlari g'ij-g'ij tilla tanga bo'lgan daraxtchani ko'rasan.

Bechora yog'och bola suyunganidan esi og'ib qolayozdi, u tulki bilan mushukka qayta-qayta minnatdorchilik bildirdi, ularga ajoyib sovg'alar va'da qildi.

– Bizga sovg‘a kerakmas, – deb e‘tiroz bildirdi ikki muttaham. – Senga mehnat qilmay boyish yo‘lini o‘rgatib qo‘ydik – shuning o‘zi biz uchun katta mukofot.

Shundan so‘ng ular Pinokkioga mo‘l hosil tilab, u bilan xayrlashdilar-da, o‘z yo‘llariga ravona bo‘ldilar.

XIX. Pinokkio oltin tangalaridan judo bo‘ladi, ustiga-ustak, yana to‘rt oyga qamoqqa tashlanadi

Yog‘och bola shaharga qaytib, sabrsizlik bilan daqiqalarni sanay boshladi. Nihoyat, yigirma daqiqa vaqt o‘tgan bo‘lsa kerak, deb yana sehrli dalaga yo‘l oldi. U shoshib-pishib borarkan, yuragi nuqul oldin ketib qoladigan osma soatga o‘xshab, «gup-gup», «gup-gup» urardi. U yo‘l-yo‘lakay shunday xayol surib borardi. Mabodo, hozir borib o‘sha daraxt shoxlarida mingta emas, ikki mingta tanga ko‘rsam-chi? Bordi-yu, tangalar ikki mingtamas, besh mingta bo‘lsa-ya? Lekin daraxt besh ming emas, o‘n ming tanga hosil bergan bo‘lsa-ya? Voy, bo‘-o‘! U holda men mamlakatda eng mo‘tabar janob bo‘laman! O‘zimga hashamatli qasr qurdiraman, otxonalarimda minglab yog‘och otlar gijinglab turadi, yerto‘lalarimda sariq, qizil rangli shirin ichimliklar qalashgan bo‘ladi, kutubxonamdagi taxta tokchalarda nuqul shakarga belangan mevalar-u tortlar, shirin kulchalar-u mag‘izlik shirinliklar, qaymoqqa qorilgan pishiriqlar bo‘ladi».

Pinokkio shunday shirin xayollar bilan yo'lni bosib o'tib, nihoyat sehrli dalaga yaqin borib to'xtadi. U shoxlari shovul oltin tanga bo'lgan daraxt qaniykin, deb har tomonga olazarak bo'lib qaray boshladi: lekin ko'ziga hech nima ko'rinmadi. U yana yuz qadam yurib, dalaga yaqinlashdi. Hech nima ko'rinmadi. U dalaning o'ziga kirib borib, nihoyat oltinlarini ko'mgan chuqurcha tepasida to'xtadi. Hech vaqo yo'q edi. Shunda u kitoblarda yozilgan yaxshi xulq-atvor qoidalarini ham unutib, cho'ntagidan qo'lini chiqardi-da, ensasini qirtillatib qashigancha o'ylanib qoldi.

Shu mahal uning qulog'iga allakimning xandon tashlab kulgani eshitildi, u o'girilib siyrak patlarini tozalayotgan kattakon to'tiqushni ko'rdi.

– Nega kulyapsan? – achchig'i chiqib so'radi Pinokkio.

– Patlarimni tozalayotganimda, tumshug'im qo'ltig'imga tegib, qitig'im kelib ketdi, shunga kuldim.

Yog'och bola to'tiqushga boshqa hech nima demay zovur tomon ketdi, poyabzalida suv olib kelib, uni oltin tangalari ko'milgan yerga qo'ydi.

Shu payt bu sukutga cho'mgan dalada yana kulgi eshitildi – bunisi endi avvalgisidan ham battar g'ashga teguvchi kulgi bo'ldi.

– Hoy, to'ti, bundoq tushuntirib aytsang-chi, – dedi Pinokkio xunob bo'lib, – nima uchun bunchalik surbetlik qilib, xandon tashlab kulyapsan?

– Men qalang‘i-qasang‘i, muttaham-firibgarlarning har xil yolg‘on-yashiq gaplariga laqqa ishonadigan ahmoqlar ustidan kulyapman.

– Bu gaping bilan menga shama qilyapsan, shekilli?

– Ha, senga, o sho‘rpushana Pinokkio. Sen o‘taketgan tentaksan, shuning uchun, pulni xuddi loviya yo qovoq urug‘idek ekib, undan hosil olish mumkin degan safsataga ishoniding. O‘zim ham bir vaqtlar shunga o‘xshash safsataga ishonib, rosa pand yegan edim, haligacha pushaymonman. Mana endi, kechikib bo‘lsa ham tushundim: faqat o‘z kuching bilan, o‘z aqlingni ishlatibgina halol pul topish mumkin ekan.

– Gapingga tushunmayapman, nima deyapsan o‘zing? – dedi yog‘och bola.

Shunday deyishga dedi-yu, qo‘rquvdan dag‘dag‘ qaltiray boshladi.

– Ha, yaxshi, bo‘lmasa, gapimni tushuntirib beraman, – deb davom etdi to‘tiqush. – Sen shahardaligingda tulki bilan mushuk bu yerga qaytib kelib, oltin tangalarini kavlab olishdi-da, oyoqlarini qo‘llariga olgancha, shataloq otib qochib qolishdi. Endi ularni quvib yetolmaysanam, topolmaysanam...

Pinokkio to‘tiqushning ganlarini og‘zini ochgancha tinglarkan, uning aytganlariga hech ishongisi kelmay, hozirgina suv quygan yerini shosha-pisha tirnoqlari bilan tirnab, kavlay boshladi. U kavlayverib, kavlayverib, axiri bir g‘arampichan sig‘adigan chuqur o‘ra qazidi. Lekin shunda ham oltin tangalarini topolmadi.

Keyin u butun orzu-umidlari puchga chiqqanini sezib, g'izillaganicha orqasiga, shaharga yugurdi, shaharga kirib borgan zahoti, oltin tangalarini o'g'irlab ketgan ikki tovlamachi haqida xabar qilgani qozixonaga chopdi.

Shu shaharning qozisi bahaybat gavdali, munkillab qolgan gorilla-maymun bo'lib, o'zining keksaligi, oppoq soqoli, eng muhimi oltin gardishli ko'zoynagi tufayli juda mo'tabar zotga o'xshab ko'rinardi. To'g'ri, uning ko'zoynagi shishasiz edi, lekin maymun usiz hech ish qila olmasdi, chunki qartayib, ko'zlari ojiz bo'lib qolgan edi-da.

Pinokkio hamma bo'lgan voqeani: tovlamachilar uni qanday laqillatgani bormi, ularning ismlari-yu laqablari bormi, shuningdek qarochilarning maxsus belgilari bormi – hammasini bir boshdan butun tafsiloti bilan gapirib berib, qozidan odil hukm chiqarishni iltimos qildi.

Qozi uning gaplarini chuqur xayrixohlik va o'ta hamdardlik bilan tinglarkan, juda qattiq hayajonlangandek, ta'sirlanib ketgandek ko'rindi, yog'och bola hamma gapni aytib bo'lgach esa qozi stol ustida turgan qo'ng'iroqqa qo'l cho'zib, uni chaldi.

Shu zahoti qozixonaga mirshablarga xos kiyingan ikki ko'ppak yugurib kirdi.

Qozi barmog'i bilan Pinokkioni ko'rsatib, ko'ppaklarga:

– Manavi sho'rlikning to'rt oltin tangasini o'g'irlab ketishibdi. Shunga ko'ra, uning oyoq-qo'lini bog'lab, darhol qamoqqa tashlanglar, – dedi.

Yog'och bola bu kutilmagan hukmni eshitib, jahli chiqib ketdi va qozining ustidan shikoyat yozmoqchi bo'ldi. Lekin mirshablar shu zahotiyoq bola bechoraning og'zini ochirmay olib borib, zindonga tashlashdi.

Pinokkio qamoqda to'rt oy yotdi. Bu yerda o'tgan har bir kun naq bir yilday uzun edi. Agar bir kun kelib, bir baxtli voqea yuz bermaganida edi, Pinokkio qamoqda hali yana yotavergan bo'lardi. Yaxshiyamki, Galvarsistonning hukmdori yosh qirol jangda dushmanlar ustidan zafar qozonib qoldi-yu, shu munosabat bilan butun mamlakatda ommaviy bayram o'tkazishni amr etib, hamma yoqqa chiroqlar yoqish, mushakbozlik, ot va velosiped poygasi uyushtirish haqida jar soldirdi. Bulardan tashqari, shu shod-u xurramlik munosabati bilan hamma qamoqxonalarning eshiklari ochilib, barcha jinoyatchilar ozod qilindi. Hammani ozod qilayotgan ekansiz, unda meni ham qamoqdan chiqarib yuborishingiz kerak, – dedi Pinokkio qamoqxona noziriga.

– Siz yotaverasiz, – deb javob qildi nozir, – chunki bu amnisiya faqat jinoyatchilarga taalluqli.

– Meni kechirasiz, – deb e'tiroz bildirdi Pinokkio, – axir men ham jinoyatchiman-ku!

– O, unday bo'lsa, siz ming karra haqsiz, – deb uzr so'radi qamoqxona noziri va ehtirom bilan boshidan furajkasini olib, qamoqxona darvozasini ochdi-da, Pinokkioni ozodlikka chiqarib yubordi.

XX. Qamoqdan ozod qilingan Pinokkio Parining uyiga qaytib bormoqchi bo'ladi, lekin yo'lda juda dahshatli ilonga duch keladi. Keyin qopqonga tushib qoladi

Ozodlikka chiqqan Pinokkioning qanday xursand bo'lganini bir tasavvur qilib ko'ring-a, bolalar! U vaqtni bir zum ham paysalga solmay, shaharga orqa o'girdi-yu, to'g'ri Parining uychasiga olib boradigan yo'ldan jadal yurib ketdi.

Shu kunlarda yomg'ir surunkasiga sharros quyganidan yo'l chilp-chilp loy edi. Yog'och bolaning oyoqlari tizzasigacha loyga botgan bo'lsa ham, u parvo qilmay g'izillab borardi. Birdan-bir orzusi otasi bilan zangori sochli opasini tezroq ko'rish bo'lgan Pinokkio xuddi tozi itdek sakrab, chopib borarkan, oyog'i ostidan sachragan loy boshidan ham balandga sachrardi. U yugurib borarkan, o'ylardi: «Boshimga ne-ne ko'ngilsiz voqealar tushmadi!.. O'z qilmishimga yarasha ta'zirimni yedim, chunki men o'lgudek qaysar, jizzaki yog'och odamman... Mendan ming karra aqlliroq bo'lgan, meni jon-u dilidan yaxshi ko'rganlarning gapiga quloq solmay nuqul o'z bilganimdan qolmaslikka harakat qildim. Lekin endi shu daqiqadan boshlab itoatli, yaxshi bola bo'lishga so'z beraman. Bildim: tarbiyasiz bolalar doim chuv tushishar ekan, ular hech qachon biron ishni qoyillata olmas ekanlar. Dada-jonim haligacha meni ko'zlari to'rt bo'lib kutib o'tirgan bo'lsa-ya? Uni Parining uyida ko'rar-

mikinman? Sho'rlik dadam! Uni ko'rmaganingayam ming yil bo'ldi, hozir uning bo'ynidan quchoqlab biram o'pib-o'pib olgim kelyaptiki... Lekin Pari qilgan beboshliklarim uchun meni kechirarmikin?.. Axir u menga qanaqa mehribonlik, yaxshilik qilgan edi-ya, faqat shu Pari tufayli shu paytgacha o'lmay tirik yuribman! Menga o'xshagan noshukr, bemehr bola butun dunyodayam topilmasa kerak!»

Pinokkio shunday xayolga cho'mib borarkan, birdan qo'rqib ketib, taqqa to'xtadi, to'xtadi-yu, shu zahoti to'rt qadam orqaga tisarildi.

U nimadan cho'chib ketdi?

Bahaybat bir ilon yo'lda ko'ndalang bo'lib cho'zilib yotardi. Ilonning terisi yam-yashil, ko'zlaridan o't chaqnar, dumining uchi esa, xuddi mo'rkonga o'xshab tutab turardi.

Yog'och bolaning o'takasi yorilib, shartta orqasiga burildi-yu, ura qochib qoldi, shu yuguranicha yarim chaqirim yerga borib, bir to'n tosh ustiga o'tirdi-da, qachon ilon yo'lni bo'shatarkin, deb kuta boshladi. U bir soat kutdi, ikki soat, uch soat kutdi, lekin ilon hamon joyidan qimirlamas, ko'zlaridan o't chaqnayotgani, dumining uchidan tutun burqsab chiqayotgani, hatto shu yerdan ham yaqqol ko'rinib turardi.

Nihoyat, Pinokkio yurak yutib, ilonga yaqin bordi va chiyildoq ovoz bilan xushomad qilib:

– Meni lutfan afv etgaysiz. Ilon xonim, bir himmat ko'rsatib, salgina chetga surila olmay-sizmi, o'tib ketardim? – dedi.

Lekin Pinokkio xuddi devorga gapirganday bo'ldi: ilon qimir etmadi.

Shundan keyin yog'och bola yana boyagi ohangda iltimosini takrorladi:

– Ijzatingiz bilan, ilon xonim, sizga shuni bayon qilmoqchimanki, ko'pdan beri otamni ko'rmadim, hozir u bilan diydor ko'rishgani uyimga ketyapman... Shu munosabat bilan o'tib ketishinga imkon bersangiz.

U iltimosimga javoban ilon biron ishora qilar, deb kutgan edi, ammo ilondan hech qanday sado chiqmadi. Bu ham yetmagandek, hozirgina xuddi tirikdek to'lg'anib turgan ilon birdan toshdek qotib, «qilt» etmay qoldi. Ko'zining nuri so'ndi, dumidan tutun chiqmay qo'ydi.

«O'likmi deyman?» – deb ko'nglidan o'tkazdi Pinokkio va ko'ngli yorishib, kaftlarini bir-biriga ishqadi. Shu zahoti u ilonning ustidan hatlab o'tmoqchi bo'lib, endigina oyog'ini ko'targan edi, ilon birdan jonlanib, xuddi bo'sh qo'yilgan prujinadek qaddini tikladi. Buni ko'rgan Pinokkio qo'rqib ketib, qochib qoldi-yu, yo'lda loyga toyg'anib, «gurs» etib yiqildi. Yiqilgandayam juda beo'xshov yiqildi: boshi chilp-chilp loyga kirib, oyoqlari xuddi bir juft shamdek osmonga tikkayib qoldi.

Yog'och bolaning boshi bilan balchiqqa sho'ng'ib, oyoqlari havoda xuddi velosiped haydayotgandek pitirloyotganini ko'rgan ilon shunaqa qotib-qotib kula boshladiki, axiri uning ko'krigidagi nozik tomiri uzilib ketib, bu gal endi rostakamiga o'lib qoldi.

Pinokkio yana g'izillab yugurib ketdi. U Pari-ning uychasiga qosh qopaymasdan yetib olmoqchi edi. Lekin yo'lda birdan qattiq ochqagani-dan qorni tatalay boshladi. Shunda u bir-ikki shingil uzum uzgani yo'l yoqasidagi bir boqqa kirdi. Voh, attang, kirmasa yaxshi bo'lardi!

«Falokat oyoq, ostida», deganlaridek, u endi-gina bir bosh uzumga qo'l cho'zgan edi, birdan «taraq» etgan tovush eshitildi-yu, temir qopqon-ning ikki o'tkir jag'i bola sho'rlikning ikkala oyog'ini shunaqa qattiq siqib qo'ydi, og'riqdan ko'zlaridan tirqirab, yosh chiqib ketdi.

Sho'rpehana yog'och bola, tevarak-atrof-dagi tovuqlar kushandasi bo'lgan suvsarlarga dehqonlar qo'ygan qopqonga ilingandi.

XXI. Pinokkioni dehqon tutib oladi va uni tovuqxonasi oldiga it o'rniga bog'lab qo'yadi

Turgan gapki, og'riqqa chidolmagan Pinokkio, ovozinig boricha chinqirib dod soldi. Lekin u ming ko'z yosh to'ksin, ming chinqirsin, bari-bir hech qanday foyda bo'lmadi, chunki bu ya-qin atrofda hech kim yashamas, bog' yoqalab o'tgan yo'lda ham «qilt» etgan jonzod ko'rinmas-di. Bu orada kech kirib, qorong'i tushdi.

Lekin shundoq ham yog'och bolaning ko'zi-ga hech narsa ko'rinmas, chunki o'tkir tishlari bilan oyog'iga botgan temir qopqon unga qattiq azob berardi, buning ustiga u judayam qo'rqib ketgan edi: axir zim-ziyo tunda yolg'iz o'zi bego-na yerda yotardi-da. Shu mahal u birdan boshi

uzra girdikapalak bo'layotgan bir yaltiroq qurt-ni ko'rib qolib, unga qichqirdi:

– Oh, yaltiroq qurt! Bir yaxshilik qilib, meni bu azobdan qutqar, do'stim.

– E, bechora bola, – dedi yaltiroq qurt unga rahmi kelib. – Qanday qilib bu temir qopqonga ilinib qolding-a?

– Men bu boqqa bir-ikki shingil uzum uzgani kiruvdim, birdan...

– Bu uzumlar o'zingnikimi?

– Yo'q...

– Bo'lmasa, kim senga, birovning uzumini uz deb aytdi?

– Qornim och edi-da.

– O, aziz do'stim, birovning uzumiga chang solish uchun ochlik aslo bahona bo'la olmaydi.

– Bu gaping to'g'ri, to'g'ri aytding! – deb qo'shilishdi Pinokkio piq-piq yig'lar ekan. – Endi hech qachon bunday qilmayman.

Shu payt kimningdir oyoq, tovushi eshitildi-yu, hamsuhbatlar jim bo'lib qolishdi. Kelayotgan shu uzumzorning egasi edi: u o'zi qo'yg'an qopqonga tovuq o'g'risi – suvsarlardan birontasi ilinmaganmikin, deb oyoq uchida asta yurib kelardi.

Lekin u yaqin kelib, uzun yaktagi ostidan fonus chiqardi-yu, qopqonga ilingan suvsar emas, bir bola ekanini ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi.

– Ah-ha! Bundan chiqdi, har kuni kechasi tovuqlarimni o'g'irlab ketayotgan sen ekan-san-da! – dedi dehqon darg'azab bo'lib.

– Men emas, men emas! – deb faryod qildi Pinokkio. – Men faqat ikki shingilgina uzum uzgani kiruvdim bog‘ingizga!

– Birovning uzumini o‘g‘irlagan, tovug‘ini ham o‘g‘irlashdan qaytmaydi. Shoshmay tur, shunaqangi ta‘ziringni berayki, umrbod esingdan chiqmaydigan bo‘lsin!

Shunday deb u qopqonni ochdi-da, yog‘och bolaning hiqildog‘idan ushlagancha, xuddi qo‘zichoqdek uyiga ko‘tarib olib ketdi.

Dehqon Pinokkioni uyi oldiga xirmonga olib kelib, uni yerga otdi va oyog‘ini uning bo‘yniga qo‘yib turib:

– Hozir kech bo‘lib qoldi. Uxlagani kirib ketyapman. Sen bilan ertaga gaplashaman. Hovlimni qo‘riqlab turgan itim o‘lib qoldi. Shuning uchun, sen uning o‘rniga qo‘riqchi itim bo‘lib xizmat qilasan! – dedi.

Bog‘bon shunday deb, Pinokkioning bo‘yniga gir aylanasiq mis pistonlar qadalgan qayish kiydirib, uni kallasi sig‘maydigan qilib siqib qo‘ydi. Shu qayish uzun zanjirga bog‘langan edi. – Agar kechasi yomg‘ir yog‘ib qolsa, dedi bog‘bon, – ana, it uyasiga kirib yotishing mumkin – u yerga poxol to‘shalgan. Sho‘rlik itim to‘rt yildan beri shu poxol ustida yotardi. Mabodo, Xudo ko‘rsatmasin, o‘g‘ri kelsa, esingda tut, qulog‘ing doim ding bo‘lsin, sen o‘sha zahoti vovullashing kerak.

Bog‘bon shu yo‘l-yo‘riqlarni aytgandan keyin uyiga kirib, eshigini ichidan tanbalab oldi, bechora Pinokkio bo‘lsa, xirmonda ochlikdan, sovuqdan va qo‘rqqanidan xuddi o‘likdek cho‘zilib yotaverdi. Vaqti-vaqti bilan u bo‘ynini

qattiq siqib, azob berayotgan qayish ostiga barmog'ini tiqib, uni sal bo'shatmoqchi bo'lardi.

– Ayb o'zimdami! – deb zorlanardi u. – Ha, to'g'ri, qilmish-qidirmish! Men dangasa, ishyoqmas bo'lishni xohlagan edim, ana shuning uchun ham nuqul baxtsizlikka uchraganim-uchragan. Agar boshqa bolalarga o'xshagan odobli bo'lganimdami, hafsala bilan o'qiganimda, mehnat qilganimdami, uyda, bechora dadamning oldida o'tirganimdami, mana bunaqa xilvat joylarda, begona bir dehqonning hovlisida it o'rnida qo'riqchilik qilmagan bo'lardim! Oh, qaniydi boshqatdan tug'ilsam!.. E, kech bo'ldi endi: bu haqda o'ylagandan foyda yo'q. Chidashim kerak, vassalom.

Pinokkio qisqagina, ammo chin dildan aytgan mana shu nutqidan keyin, itning uyasiga kirib yotdi-da, uxlab qoldi.

XXII. Pinokkio o'g'rilarni tutishda ko'maklashadi va bu sadoqatli xizmati uchun ozodlikka chiqadi

Pinokkio ikki soatcha qotib uxladi. Vaqt yarim kechaga borganda, uni xirmondan eshitilayotgan allaqanday pichir-pichir, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari uyg'otib yubordi. U it uyasidan burnining uchini chiqarib qaragan edi, terisi tim qora to'rtta kichkina-kichkina hayvonga ko'zi tushdi. Hayvonlar g'uj bo'lib olishib, allanima to'g'risida maslahatlashishardi, ko'rinishidan ular mushukka o'xshashardi. Lekin aslida ular mushuk emas, suvsarlar

edi. Suvsarlar – kichkina vahshiy hayvon, ular, ayniqsa, tuxum bilan jo‘jalarga o‘ch bo‘lishadi. Mana, suvsarlardan biri to‘dadan ajralib, it uyasi oldiga yaqin kelib pichirladi:

– Yaxshimisan, Melamio!

– Men Melamio emasman, – deb javob qildi yog‘och bola.

– Iy-ye, bo‘lmasa, kimsan?

– Pinokkioman.

– Bu yerda nima qilib yotibsian?

– It o‘rnida hovlini qo‘riqlayapman.

– Melamio qani? Mana shu uyada qorovullik qiladigan qari ko‘ppak bor edi, qani u?

– Bugun ertalab o‘lib qopti.

– O‘lib qopti? Voy bechora-yey! U judayam ko‘ngli keng, saxiy ko‘ppak edi! Sen ham qopag‘on itga o‘xshamaysan.

– Afv etasiz-u, lekin men it emasman.

– Bo‘lmasam, kimsan?

– Men yog‘och bolaman.

– Endi it o‘rniga sen qo‘riqchilik qilyapsanmi?

– Afsuski, shunday. Bu – menga berilgan jazo.

– Ha, mayli, unday bo‘lsa, senga ham Melamio bilan tuzgan shartimizni taklif qilaman. Keyin xursand bo‘lasan.

– U qanaqa shart ekan?

– Biz, boyagi-boyagidek, haftada ikki marta kechasi kelib, tovuqxonaga kirib, sakkizta tovuq olib chiqamiz. Keyin, ularning yettita-sini o‘zimiz yeb, bittasini senga beramiz, faqat shu shart bilanki, sen vovullab dehqonni uyg‘otish o‘rniga, o‘zingni uxlaganga solib, jim yotaverasan.

– Melamio ham shunaqa qilarmidi? – deb so‘radi Pinokkio.

– Ha, xuddi shunaqa qilardi. Biz u bilan doim juda yaxshi til topishib ishlardik. Bo‘pti bo‘lmasa, sen bemalol yotib uxlayver. Ko‘ngling to‘q bo‘lsin, ketar chog‘imizda uyangning oldiga patlari yulingan bitta shiringina tovuqni tashlab ketamiz – nonushta qilasan. Bir-birimizni yaxshi tushundik deb o‘ylayman?

– Haddan tashqari yaxshi tushundim, – deb javob qildi Pinokkio va: «Ko‘ramiz hai!» – degandek boshini chayqab qo‘ydi.

Hech qanday xavf yo‘qligini sezgan to‘rtta suvsar, it uyasi yoniga joylashgan tovuq katagi oldiga yugurib borib, uning kichkinagina yog‘och eshikchasini tishlari va tirnoqlari bilan ochishdi-da, birin-ketin hammalari katak ichiga «lip-lip» kirib ketishdi. Ular tovuqxonaga endigina kirib ulgurishgan ham ediki, orqalari-dan eshikcha «qars» etib yopildi.

Eshikchani Pinokkio yopgan edi. Buning ustiga, yana eshik orqasiga bitta xarsangtosh ham tirab qo‘ydi.

Keyin u vovullay boshladi, vovullaganda ham naq soqchi itdek: «Vov, vov-vov-vov», – deb jon-jahdi bilan vovulladi.

Buni eshitgan dehqon «dik» etib, o‘rnidan turib ketdi va qo‘liga miltig‘ini olib, deraza oldiga keldi:

- Ha, nima bo‘ldi? – deb so‘radi u.
- O‘g‘ri tushdi, – deb javob qildi Pinokkio.
- Qani?

- Tovuq katagida.
- Hozir tushaman.

Bogʻbon zum oʻtmay hovliga tushib, tovuq-xona tomon otildi, toʻrttala suvsarni tutib, qopga tiqdi-da, juda xursand boʻlib:

- Axiri qoʻlinga tushdinglar-a! Boplab taʼzirlaringni berardim-u, lekin men unaqa kekchi odam emasman-da. Yaxshisi, ertaga senlarni qoʻshni qishloqdagi traktir¹ xoʻjayiniga olib borib topshiraman, u terilaringni shilib olib, xuddi quyonnikiga oʻxshagan muloyim goʻshtingizdan ishtaha ochadigan qovurma tayyorlaydi. Garchi sizlar bunday izzatga loyiq boʻlmasangiz ham, saxovatli odamman: bunaqa ikir-chikirlarga eʼtibor berib oʻtirmayman, - dedi.

Shundan keyin u Pinokkioning tepasiga kelib, bir necha marta uning boshini siladi.

- Qanday sezib qolding bu oʻgʻrilarni? - deb soʻradi u. - Itim Melamio, vafodorim Melamio biron marta ham sezmagan edi oʻgʻri tushganini!

Bu savolga javoban yogʻoch bola oʻzi eshitgan ancha-muncha gaplar, yaʼni it bilan suvsarlar oʻrtasida tuzilgan rasvo shartnoma toʻgʻrisida gapirib berishi mumkin edi, albatta. Lekin itning oʻlib ketganini eslab: «Oʻlganlarni yomonlashdan nima foyda? Oʻlgan oʻldi-ketdi, yaxshisi, uni tinch qoʻyish kerak», degan xulosaga keldi.

- Suvsarlar xirmonga kelishganida, uxlab yotuvdingmi yo uygʻoqmiding? - deb soʻradi dehqon.

¹ Traktir - mehmonxonasi boʻlgan oddiy yemakxona.

– Uxlab yotuvdim, – dedi Pinokkio, – lekin suvsarlarning pichirlashib gaplashganidan uygʻonib ketdim. Ulardan bittasi, hatto uya oldiga kelib: «Agar vovillab, xoʻjayiningni uygʻotmaslikka soʻz bersang, senga ham nonushtaga biqiqdakkina bitta tovuqning patini yulib sovgʻa qilamiz», deyishdi. Buni qarang! Kelib-kelib, uyalmay-netmay menga shunday taklif qilishdi-ya! Men yogʻoch odam boʻlsam ham, garchi kamchiliklarim juda koʻp boʻlsa ham, hali oʻgʻrilarga dastyorlik qilib, pora oladigan darajada pastkash boʻlganimcha yoʻq.

– Sen yaxshi bola ekansan! – dedi dehqon va Pinokkioning yelkasiga qoqib qoʻydi. – Bunday fikrlashing bilan zoʻr hurmatga loyiqsan. Shunga koʻra, muruvvat qilib, hoziroq uyingga yuboraman.

Shunday deb u Pinokkioning boʻynidan boʻyinbogʻni yechib oldi.

XXIII. Pinokkio zangori sochli chiroyli qizning oʻlganini bilib, unga aza tutib yigʻlaydi. Keyin kaptarga minib, dengiz boʻyiga boradi va otasi Jeppettoni qutqarish uchun dengizga kalla tashlaydi

Pinokkio boʻynidagi mashʼum va manfur tasmadan ozod boʻlgani hamonoq, biron yerda bir zum ham toʻxtamay, poyoni yoʻq dalalardan oʻqday uchib ketaverdi va axiri Parining uyiga olib boruvchi katta yoʻlga chiqib oldi.

Bola shu yoʻl yoqasida toʻxtab, qarshisidagi poyonsiz kenglikka koʻz tashladi. U tulki bilan

mushukka to'qnash kelib, boshiga falokat orttirgan o'sha o'rmon bu yerdan yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Pinokkio o'rmondagi hamma daraxtlardan balandroq qad ko'targan katta eman daraxtini ham tanidi: uni o'sha daraxtning shoxiga osishgan edi. Lekin yog'och bola qancha tikilib qaramasin, zangori sochli chiroyli qizning uychasini ko'rmadi.

Oqibat uning yuragi allanimadan g'ash bo'laverdi. Shunda u zing'illagancha yugurib ketdi va bir necha daqiqadan keyin, ilgari jajji uycha turgan maysazorga yetib oldi, afsus, endi uycha yo'q edi bu yerda. Uning o'rnida uncha katta bo'lmagan marmar tosh turardi. Toshga quyidagi qayg'uli so'zlar o'yib yozilgan edi:

*Bu yerga zangori sochli qizcha dafn etilgan.
U Pinokkio ismli ukasi qochib ketganidan keyin
g'am chekaverib, olamdan ko'z yumdi.*

Pinokkio bu so'zlarni zo'r-bazo'r hijjalab o'qib chiqqanidan keyin o'zini qanday his etganini tasavvur qilayotgan bo'lsangiz kerak, bolalar. U yerga muk tushib, qabr toshini ketma-ket o'paverdi, o'paverdi, keyin shunaqangi ho'ng-rab yig'lab yubordiki, eshitgan odamning yuragi ezilib ketardi. U kechasi bilan to'xtovsiz yig'lab chiqdi, tong otganida ham u yig'idan to'xtamadi, lekin endi uning ko'zlarida yosh qolmagan edi. Yog'och bola shunaqa achchiq-achchiq, astoydil faryod chekib yig'lardiki, faryodi tevarak-atrofdagi barcha tepaliklardan aks sado bo'lib eshitilardi. U yig'i aralash shunday derdi:

– O, mening jajjigina suyukli Parim, nega axir o'lding? Sendek yaxshi qiz o'lgandan ko'ra, men – yomon bola o'la qolsam bo'lmasmidi?.. Dada-jonim qayoqda endi? O, mening aziz Parim, ayt, qayerdan qidiray dadamni? Endi men umrbod dadam bilan birga yashayman, hech qachon uni yolg'iz tashlab ketmayman... O, mening suyukli kichkina Parim, o'tinaman sendan, o'lgan emasman, deb ayt! Agar meni, ukangni «haqiqatdanam yaxshi ko'rsang, tirilib, yonimga qayt! Dunyoda yakka-yu yolg'iz qolganimni ko'rib, menga rahming kelmayaptimi?.. Mana, qaroqchilar kelib, meni yana daraxtga osishadi, ana unda butunlay o'lib qolaman. Dunyoda yolg'iz qolib, boshimni qayoqqa uraman endi? Sendan, dadamdan judo bo'lganimdan keyin kim ham menga rahm qilib bir burda non berardi? Qayerdan o'zimga boshpana topaman? Kim menga yangi kamzul tikib beradi? Oh, bu kunimdan o'lganim ming marta yaxshi edi! Ha, o'lganim yaxshi!.. A-a-a!..

Shundan keyin u oh urib, sochlarini yulish niyatida, changalladi, biroq uning sochi ham yog'ochdan bo'lgani uchun, panjalarini hecham sochi orasiga tiqa olmadi.

Ayni shu mahal uning boshi ustidan kattakon bir kaptar uchib o'tdi. U qanotlarini yoygancha havoda taqqa to'xtab, Pinokkiodan so'radi:

– Hoy, oshna nima qilyansan u yerda?

– Ko'rmayapsizmi? Yig'lab o'tiribman! – deb javob qildi Pinokkio boshini ko'tarib, kamzuli-ning yengi bilan ko'z yoshini artarkan.

– Ayt-chi menga, – deb yana savol berdi Kaptar – sening tanish-bilishlaring orasida Pinokkio ismli yog‘och bola yo‘qmi?

– Pinokkio?.. Pinokkio dedingmi? – deb takrorladi yog‘och bola va «dik» etib, o‘rnidan turib ketdi. – Pinokkio – menman!

Kaptar bu javobni eshitib, darrov uchib tushib, yerga qo‘ndi. U kurkadan ham baland edi.

– Bundan chiqdi, sen Jeppettoni tanir ekan-san-da? – deb so‘radi u yog‘och boladan.

– Voy, bo‘lmasam-chi! Axir u mening bechora dadam-ku! Demak, u men to‘g‘rimda gapirib beribdi-da, senga? Meni dadamning oldiga olib borasanmi? U tirikmi ishqilib? O‘tinib so‘rayman sendan, javob ber: dadam tirikmi?

– Men uni oxirgi marta bundan uch kun burun dengiz bo‘yida ko‘ruvdim.

– U yerda nima qilayotgan edi?

– U ummondan suzib o‘tish uchun kichkina bir qayiq yasayotgan edi. Sho‘rlik dadang, mana to‘rt oydirki, hamma yoqni kezib, seni qidirib yuripti, lekin bu tomonlarda seni topa olmagach, endi olis Yangi Dunyo¹ mamlakatlari-ga borib qidirmoqchi bo‘ldi.

– Dengiz bu yerdan uzoqmi? – deb so‘radi qo‘rqib ketgan Pinokkio.

– Ming chaqirimdan ko‘proq kelarov.

– Ming chaqirim? Oh, kaptar, qaniydi sening qanotlaring menda bo‘lsa!

– Xohlasang, seni dengiz bo‘yiga eltib qo‘yaman.

– Qanday qilib?

¹ Yangi Dunyo – Amerika qit‘asi shunday deb atalardi.

– Yelkamga minib olasan. Unchalik og‘ir emasmi?

– Be, qayoqda? Pardek yengilman. Pinokkio gapni cho‘zib o‘tirmasdan kaptarning yelkasi-ga xuddi chavandozlardek minib oldi va sho‘x ohangda chinqirdi:

– Cho‘, cho‘, tulporim, men shoshyapman!

Kaptar havoga ko‘tarildi, oradan bir necha daqiqa o‘tar-o‘tmas, baland-balanddagi bulutlarga yetib oldi. Shu choq yog‘och bolaning sinchkovligi tutib, pastga qaragan edi, qo‘rqqa-nidan yuragi orqasiga tortib ketdi, boshi aylanib, qanotli otining bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldi.

Ular kun bo‘yi dam olmay uchishdi. Kech kirganida kaptar:

– Judayam chanqab ketdim! – dedi.

– Mening esa o‘lgudek qornim ochdi, – dedi Pinokkio.

– Hov anavi kaptarxonaga qo‘nib, bir necha daqiqa dam olamiz-da, keyin yana uchamiz: biz to kun chiqqunicha dengiz bo‘yiga yetib olishimiz kerak.

Ular tashlandiq bir kaptarxonaga qo‘nishdi, bu yerda bitta likopchada suv va bir savatcha liq-liq so‘k turgan edi.

Yog‘och bola, umri bino bo‘lgandan buyon so‘kni xush ko‘rmasdi, chunki so‘k yesa, ko‘ngli aynir ekan. Lekin bugun kechqurun u qorni qappayguncha rosa miriqib so‘k yedi. U so‘kning hammasini yeb bo‘lib, kaptarga:

– So‘kning bunchalik shirin bo‘lishini hecham o‘ylamagan edim! – dedi.

– Sen bundan shunday xulosa chiqarishing kerak, bolam, – deb tushuntira boshladi kaptar, – qorning ochgan chog‘da, yeydigan hech nima topilmasa, so‘k ham eng shohona taomga aylanadi. Aytmoqchimanki, ochlik hech qanaqa injiqliq-u tantiqlikni yoqtirmaydi.

Ular biroz tamaddi qilib olib, hordiq chiqarishgach, yana yo‘lga tushishdi. Ertasi kuni ertalab ular dengiz sohiliga yetib borishdi, kaptar Pinokkioni yerga tushirdi-yu, uning tashakkurini ham eshitib o‘tirmay, shu zahoti ko‘kka parvoz qilib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Sohilda bir to‘da odamlar uymalashib turishar, dengiz tomonga qarab, bir nimalar deb qichqirishar, qo‘llarini silkitishardi.

– Nima bo‘lyapti bu yerda? – deb so‘radi Pinokkio bir kampirdan.

– Bolasini yo‘qotib qo‘ygan bir sho‘rpeshana ota kichkinagina qayiqda dengizda suzib ketdi, chunki u o‘g‘lini buyoqlardan topa olmagach, dengiz ortidan qidirmoqchi bo‘ldi. Lekin dengiz bugun notinch – qayiqni ag‘darib yuborishi mumkin.

– Qani u?

– Hov ana, – dedi kampir uzoqdan xuddi yong‘oq po‘chog‘iday bo‘lib ko‘rinayotgan kichkinagina qayiqchani barmog‘i bilan ko‘rsatib. – Qayiqda kichkinagina yolg‘iz odam o‘tirardi.

Pinokkio o‘sha qayiq tomonga tikilib qarab turib, birdan ovozining boricha chinqirib yubordi:

– Voy, u mening otam-ku!

Bu payt dengiz to'liqlari qayiqchani goh u, goh bu tomon otar, u dam ko'zdan yo'qolib, dam yana paydo bo'lardi. Pinokkio bo'lsa, baland qoya cho'qqisida turib, bu holni kuzatardi.

Garchi oraliq masofa juda uzoq bo'lsa ham, Jeppetto o'g'lini tanidi shekilli – u ham boshidan qalpog'ini olib, silkita boshladi: bu bilan u, jon-jon deb orqamga qaytardim-u, lekin quturgan dengiz qayiqni boshqarishimga, sohil tomon suzishimga imkon bermayapti, demoqchi bo'lardi.

Shu payt birdan tog'dek bahaybat to'liq ko'tarildi-yu, qayiq ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sohildagilar qayiqning yana paydo bo'lishini uzoq kutishdi, lekin u boshqa ko'rinmadi.

– Voy, bechora! – deyishdi qirg'oqdagi baliqchilar, keyin g'o'ldirab duo o'qishdi-da, uy-uy-lariga tarqay boshlashdi.

Lekin shu payt ular kimningdir jon holatda chinqirganini eshitib, orqalariga o'girildilar va qoya cho'qqisidan o'zini dengizga otgan kichkina bolani ko'rdilar.

– Otamni o'zim qutqaraman! – deb chinqirgan edi u.

Pinokkio yog'ochdan yasalgan bo'lgani uchun cho'kmadi, xuddi baliqqa o'xshab suzib ketaverdi. Ana, dengiz to'liqini uni qamrab oldi-yu, u ko'zdan g'oyib bo'ldi, keyin yana suv betiga qalqib chiqdi. Pinokkio tobora sohildan uzoqlasharkan, suv betida uning goh qo'li, goh oyog'i ko'rinib qolardi. Nihoyat, qirg'oqda turgan odamlar ko'ziga u butunlay ko'rinmay qoldi.

– Bechora bola! – deyishdi baliqchilar va g'oldirab duo o'qishib, uy-uylariga tarqalishdi.

XXIV. Pinokkio mehnatsevar asalarilar oroliga suzib chiqadi va u yerda yana Parini topadi

Otasini qutqarish niyatida o'zini dengizga otgan Pinokkio butun tun to'xtovsiz suzdi. Bu tun judayam dahshatli bo'ldi! Yomg'ir go'yo butun olamni suvga bostirmoqchi bo'lganday sharillab quyar, yirik-yirik do'lyog'ar, momaqal-diroq dahshatli gumburlab, chaqmoqlar ko'zni qamashtirar edi!

Nihoyat tong ota boshlaganda, Pinokkio o'zidan sal nariroqda cho'zinchoq quruqlikni ko'rdi. Bu – dengiz o'rtasidagi orol edi.

Bola quruqlikka chiqib olish uchun bor kuchini ishlatib suza boshladi, lekin urinishlari bekor ketdi. Chunki ketma-ket yopirilib kelayotgan to'lqinlar uni xuddi cho'pday, pista po'chog'iday goh u, goh bu tomonga uloqtirardi. Pinokkioning baxtiga, shu payt tog'dek ulkan to'lqin bostirib keldi-yu, bir hamlada uni qirg'oqqa chiqarib tashladi.

Pinokkio toshloq sohilga shunday qattiq urildi, oyoq qo'li cho'rt sinib ketishiga sal qoldi. Lekin u: «Xayriyat, tirik qoldim!» – deb o'ziga-o'zi taskin berdi.

Bu orada osmon yorishib, quyosh charaqlab chiqdi, dengiz ham tinchib, sathi moydek sip-silliq bo'lib qoldi.

Pinokkio shalabbo kiyimlarini quritgani yerga yoydi va bu bepoyon dengiz sathida bittagina odami bo'lgan yakka qayiq ko'rinmasmikin, deb tevarak-atrofnii diqqat bilan kuzata boshladi. Lekin qancha tikilib qaramasin, osmon-u dengizdan bo'lak, yana juda-juda olisda nuqtadekkina bo'lib ko'rinayotgan ikki-uchta yelkanli kemadan boshqa hech nimani ko'rmadi.

– Hech bo'lmaganda, bu orolning nomini bilsam edi! – dedi Pinokkio oh urib. – Bu yerning odamlari qanaqa ekan-a? Ishqilib, yaxshi odamlarmikin, ya'ni, aytmoqchimanki, bu yerlik odamlarda bolalarni daraxtga osish odati yo'qmikin? Lekin buni kimdan so'rab bilaman? Undan keyin, biron bir jonzod bormikin o'zi bu orolda?

Pinokkio bu poyonsiz va kimsasiz orolda o'zidan boshqa bironta ham tirik jon yo'qligi haqida o'yladi-yu, ruhi tushib ketib, ho'ngrab yuborishiga sal qoldi. Shu payt birdan u sohil yaqinida suzib yurgan kattakon bir baliqni ko'rib qoldi. Yog'och bola bu baliqning otini bilmas edi, shunga qaramay ovozing boricha uni chaqirdi:

– Hoy! Janob baliq! Ijzatingiz bilan sizdan bir narsani so'ramoqchi edim.

– Marhamat, so'rayvering, – dedi baliq, chunki bu – dunyoda eng iltifotli delfin edi.

– Aytolmaysizmi: bu orolda qishloqlar bormi, agar bo'lsa, odamlaridan yegulik biron nima so'rab olsa bo'ladimi, ishqilib, yegulik berish o'rniga, o'zimni yeb qo'yishmaydimi?

– Qishloqlar bor, – deb javob qildi delfin. – Aytganday, bittasi judayam yaqin!

– O'sha qishloqqa qanday borsam bo'ladi?

– Agar chapga ketgan torgina so'qmoqdan o'z burningga ergashib ketaversang, hech adashmay to'g'ri kirib borasan o'sha qishloqqa.

– Iltimos, yana bir savolimga javob bersangiz! Siz kecha-yu kunduz dengizda suzib yurasiz, mabodo, kichkina bir qayiqni ko'rmadingizmi? Ichida otam bor edi.

– Otang kim?

– Otam – dunyoda eng yaxshi ota, men bo'lsam, buning aksiman – dunyoda eng yomon bolaman.

– Kichkina qayiq ekan, ehtimol, tungi bo'ron paytida cho'kib ketgandir.

– Otam-chi?

– Uni dahshatli nahang yutib yuborgan bo'lsa ajab emas: u kasofat bu yerlarda yaqindan beri paydo bo'lib, hamma jonzodlarni qiyratib yotipti.

– O'sha nahang deganingiz kattami o'zi? – deb so'radi Pinokkio, qo'rqqanidan dag'-dag' titrab.

– Judayam bahaybat, – deb javob qildi delfin.

– Uning qanchalik kattaligini senga aniqroq, tasvirlab beradigan bo'lsam, u besh qavatli imoratdan ham baland, og'zi shunaqangi keng va chuqurki, ichiga bir eshelon poyezd parovozi bilan birga bermalol kirib ketadi.

– Voy! – deb chinqirib yubordi qo'rqib ketgan yog'och bola va apil-tapil kiyinib, yana delfinga murojaat qildi: – Xayr, yaxshi qoling, janob baliq! Kechiring, sizni yo'ldan qoldirdim,

ko'rsatgan iltifotingiz uchun mingdan-ming rahmat sizga.

Shundan keyin Pinokkio yo'lga tushib, g'izil-lagancha yurib ketdi. «Tiq» etgan tovush eshit-sa, darrov orqasiga o'girilib qarardi, chunki besh qavatli imoratday bahaybat nahang og'zi-ga bir eshelon poyezdni solib olib, orqamdan quvib kelayotgan bo'lsa-ya, deb qo'rqardi.

Yarim soat deganda u bir qishloqqa kirib bordi. Bu «Mehnatsevar asalarilar qishlog'i» deb atalar ekan. Uning ko'chalarida odamlar g'ij-g'ij edi. Hamma shoshib-pishib u yoqdan-bu yoqqa yurar, hamma ish bilan band edi. Bu yerda bi-ronta ishyoqmas yo dangasani kunduzi chiroq yoqib ham topib bo'lmas edi.

«Tushunarli, – dedi o'ziga o'zi tanbal Pinokkio, – bu qishloq menga to'g'ri kelmaydi: bu yerda non yeyolmayman. Chunki men mehnat uchun tug'ilmaganman».

Lekin bu payt ochlik unga azob bera bosh-lagan edi, negaki, yigirma to'rt soatdan beri hech nima, hattoki so'k bo'tqayam yemagandi. Nima qilsin?

Ochlikka barham berish uchun faqat ikkita yo'l bor edi: yo ish qidirishi, yo bo'lmasa, tilan-chilik qilib, oz-moz pul yoki bir burda-yarim burda non topishi kerak.

U gadoychilik qilishga uyalandi, chunki otasi, faqat qari-qartanglar-u mayib-majruhlar tilan-chilik qilishi mumkin, qolgan hamma odamlar ishlashga majbur, deb ta'lim bergan edi unga.

Iy-ye, ana, muyilishda ko'mir ortilgan ikkita aravani sudrab kelayotgan bir odam ko'rindi, u qora terga botgan, hansirab nafas olar edi.

«Ko‘rinishidan, yaxshi odamga o‘xshaydi», deb o‘yladi Pinokkio va unga yaqin borib, uyalganidan yerga qaragancha past ovoz bilan qimtinibgina:

– Ochlikdan o‘lib qolmasligim uchun, menga bir tanga xayr qila olmaysizmi? – dedi.

– Bir tanga emas, – dedi ko‘mirchi, – agar menga yordamlashib, shu ikki aravani uyimgacha olib borishsang, to‘rt tanga beraman senga.

– Iy-ye, qiziq ekansiz! – dedi yog‘och bola ranjib. – Bilmasangiz, bilib qo‘ying: men hech qachon yuk tashiydigan eshak ham bo‘lmaganman, arava ham sudramaganman.

– Unday bo‘lsa, judayam yaxshi-da! Agar qorning rostdanam ochgan bo‘lsa, bolakay, o‘z takabburligingning biqqa semiz yeridan ikki-uch bo‘lak kesib yeya qol, lekin ehtiyot bo‘l, tag‘in tomog‘ingga tiqilib qolmasin.

Bir necha daqiqadan keyin ko‘chada bir usta paydo bo‘ldi, u bir quti ohak orqalab kelardi.

– Hurmatli zot, ochlikdan og‘zi katta-katta ochilib esnayotgan men bechoraga bir tangagina xayr qila olmaysizmi?

– Mayli. Manavi ohakni ko‘tarishsang, bir emas, besh tanga olasan.

– Axir ohak juda og‘ir-ku, – dedi Pinokkio, – o‘zimni urintirishni yomon ko‘raman.

– Agar o‘zingni urintirishni xohlamasang, bolam, ko‘nglingga siqqancha esnayver, osh bo‘lsin.

Salkam yarim soat ichida Pinokkioning yonidan yana yigirmatacha odam o‘tdi. Yog‘och bola

ularning har biridan sadaqa so‘rab ko‘rdi, lekin ularning hammasi shunday javob qilishdi:

– Tilanchilik qilgani uyalmaysanmi? Sen ko‘chada bekorga sanqib yuribsan. Yaxshisi, nonga pul topish uchun o‘zingga yarasha ish qidir.

Nihoyat, ko‘chada bir saxovatli ayol paydo bo‘ldi, u ikki ko‘za suv ko‘tarib kelardi.

– O, saxovatli xonim, ko‘zangizdagi suvdan bir qultumgina ichsam maylimi?

– Icha qol, o‘g‘lim, – dedi ayol va ikkala ko‘zani yerga qo‘ydi.

Pinokkio suvni xuddi zamburug‘dek simirib, og‘zini qo‘li bilan artdi va:

– Tashnalikdan qutuldim. Endi, shu zaylda qornimni ham to‘ydirib olsam zo‘r bo‘lardida, – dedi o‘zicha.

Saxovatli ayol bu gapni eshitib, darhol unga javob qildi:

– Agar bir ko‘za suvimni uyimgacha ko‘tarishib olib borib bersang, senga bir burda non berardim.

Pinokkio ko‘zaga tikilib qarab, na «ha» dedi, na «yo‘q».

– Nondan tashqari yana sirkada o‘ldirilib, ustidan yog‘ quyilgan bir tovoq gulkaram ham berardim, – deb gapini davom ettirdi saxovatli ayol.

Pinokkio yana ko‘zaga tikilib qaradi-yu, lekin «ha» ham, «yo‘q» ham demadi.

– Gulkaramni yeb bo‘lganingdan keyin, ichi murobboli chiroyli shirinlik ham berardim.

Bu taklifdan Pinokkioning nafsi vasvasaga tushib, oldinga otilib chiqib, chinqirib yubordi:

– Bo‘pti! Ko‘zangizni uyingizga olib borib berganim bo‘lsin.

Ko‘za juda og‘ir, yog‘och bolaning qo‘llari esa nimjon edi. Shuning uchun u noiloj ko‘zani boshiga qo‘yib borishga majbur bo‘ldi.

Saxovatli ayol Pinokkioni dasturxonga taklif qilib, uning oldiga bir bo‘lak non, gulkaram va shirinlik qo‘ydi.

Pinokkio ovqatni yemadi, balki yamlamay yutdi. Chunki uning qorni bir yildan beri hech kim yashamaydigan xonaga o‘xshab bo‘m-bo‘sh edi.

Yog‘och bolaning qorni asta-sekin to‘yib, ko‘ngli biroz taskin topgach, mehribon ayolga minnatdorlik bildirish uchun boshini ko‘tardi. U ayolning yuziga qaradi-yu, birdan cho‘zib: «Vo-o-o-oy», deb yubordi va gulkaram bilan non to‘la og‘zini lang ochgancha, ko‘zlarini baqraytirib, hayratdan o‘tirgan joyida toshdek qotib qoldi.

– Nega buncha hayron bo‘lib qolding? – deb so‘radi saxovatli ayol va kulib yubordi.

– Siz... – deb g‘o‘ldiray boshladi Pinokkio, – siz... siz... siz judayam... siz menga bir qizni eslatyapsiz... Ha, ha, ha, ovozingiz ham... sochlaringiz ham... juda o‘xshaydi... ha, ha, ha... sochingiz... o‘sha qiznikiga o‘xshagan... zangori... Oh, azizim jajji Pari, o, mening kichkina suyuqli Parim!.. Tezroq ayta qoling, bu rostdanam sizensiz-a? Ha, sizensiz! O, qanday yig‘laganlarimni, qanday qayg‘uraganlarimni bilsangiz edi!..

Shu so'zlardan keyin, u ko'zlaridan dud-dud yosh to'kib, yerga «gurs» yiqildi-yu, bu sirli ayolning tizzalaridan mahkam quchib oldi.

XXV. Pinokkio: «Endi yaxshi bola bo'laman, o'qiyman», – deb Pariga so'z beradi, chunki yog'och odam bo'lib yashash uning joniga tekkan va u haqiqiy bola bo'lishni istaydi

Saxovatli ayol avvaliga o'zining zangori sochli kichkina Pari ekanligini bo'yniga olmadi. Lekin siri fosh bo'lganini sezgach, bolani ortiq qiynamay o'sha Pari ekanligiga iqror bo'ldi.

– Xo'sh, shumtaka yog'och bola, meni qanday qilib taniy qolding? – deb so'radi u Pinokkiodan.

– Buni sizga bo'lgan zo'r mehr-u muhabbatim oshkor qildi menga.

– Esingdami? Meni tashlab ketganingda – kichkina qiz bola edim, endi ko'rib turibsanki, men ayolman, demak sening onang bo'lishim ham mumkin.

– Voy, judayam yaxshi bo'lardi-da, unda men sizni onajon debmas, oyijon deb chaqirgan bo'lardim. Hamma bolalar singari mening ham oyim bo'lishini ko'pdan beri orzu qilaman. Lekin, ayting-chi, qanday qilib bunchalik tez katta bo'lib qoldingiz?

– Bu sir.

– Siringizni ayting, mening ham sal-pal bo'yim cho'zilsa devdim. Nima, payqamadin-

gizmi? O'z bo'yim hali ham o'sha-o'sha bir kalla qand bilan teng.

– Sen esa o'lmaysan, – deb tushuntirdi Pari.

– Nima uchun?

– Chunki yog'och odamlar o'sishmaydi. Ular yog'och odam bo'lib dunyoga kelishadi, yog'och odam bo'lib yashashadi, shu yog'och odamligicha dunyodan ko'z yumishadi.

– Oh, yog'och bola bo'lish jonimga tegib ketdi!

– dedi Pinokkio va boshiga bir musht tushirdi.

– Men ham endi odam bo'lishim kerak.

– Agar shunga loyiq bo'lsang odam bo'lasan.

– Rostdanmi? Nima qilsam, odam bo'lishga loyiq bo'laman?

– Bu judayam oson. Sen hamisha yaxshi bola bo'lishga odatlanishing kerak.

– Nima, men yaxshi bola emasmanmi?

– Afsuski, yo'q. Yaxshi bolalar gapga quloq solishadi, sen bo'lsang...

– Men quloqsizman.

– Yaxshi bolalar tirishqoqlik bilan o'qishadi, ishdan bo'yin tovlashmaydi, sen bo'lsang...

– Men ishyoqmas, sayoq bolaman.

– Yaxshi bolalar doim rost gapirishadi...

– Men doim yolg'on gapiraman.

– Yaxshi bolalar maktabga jon-jon deb borishadi...

– Men bo'lsam, «maktab» so'zini eshitsam, ko'nglim ayniy boshlaydi. Lekin bugundan e'tiboran men yangicha hayot boshlayman.

– So'z berasanmi?

– So'z beraman. Yaxshi bola bo'laman, otamning yupanchig'i bo'laman. Aytganday, hozir bechora dadam qayoqdaykin-a?

– Buni bilmayman.

– Bir kun emas, bir kun yana dadajonimni ko‘rib, bo‘yinidan quchoqlash nasib qilarmikin menga?

– Shunday bo‘lsa kerak. Men bunga qat‘iy ishonaman.

Bu javobni eshitib, Pinokkioning ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi, u Parining qo‘lini o‘pa boshladi. Keyin boshini ko‘tarib, unga qaradi-da, mehri to‘lib so‘radi:

– Bundan chiqdi, aziz oyijon, siz chindanam o‘lmagan ekansiz-da?

– Shunaqaga o‘xshaydi, – deb javob qildi Pari tabassum bilan.

– O‘sha: *«Bu yerda... dafn qilingan»*, degan so‘zlarni o‘qiganimda qanday azobga tushganimni, yuragim qanday ezilib ketganini bil-sangiz edi...

– Bilaman. Bilganim uchun ham seni kechirdim-da. Sening astoydil qayg‘urgingni ko‘rib, qalbingning pokligiga ishonдим. Qalbi pok bolalar, garchi ular biroz qo‘pol, tarbiya-siz bo‘lishsa ham bora-bora to‘g‘ri yo‘l topib, yaxshi odam bo‘lishlariga ishonish mumkin. Shuning uchun ham, orqangdan izma-iz bu yoqqa keldim. Endi senga oyi bo‘laman...

– Voy, qoyilmaqom-ku! – deb chinqirib yubordi Pinokkio va xursand bo‘lganidan umbaloq oshib sakradi.

– Endi doim aytganlarimga quloq solib, nima ish buyursam, hammasini so‘zsiz bajargin.

– Jon-jon deb bajaraman, jon-jon deb!

– Ertadan boshlab, – deb gapida davom etdi Pari, – maktabga qatnay boshlaysan.

Pinokkioning boyagi quvonchi ancha-muncha pasaydi.

– Sen o‘z xohishing bilan biron hunar yoki kasbni tanlashing mumkin.

Pinokkioning chehrasi jiddiylashdi.

– Nima deb ming‘irayapsan? – deb so‘radi Pari.

– Men, – dedi mujmallanib yog‘och bola, – maktabga borishga kechikdim deb o‘ylovdim...

– Yo‘q, tasadduq. Shuni yaxshi bilib qo‘yki, hech qachon ilm olishning erta-kechi yo‘q!

– Axir men hech qanaqa kasb ham, hech qanaqa hunar ham o‘rganishni xohlamayman-ku!

– Nega?

– Negaki, ish odamni judayam charchatadi, deb o‘ylayman.

– O‘g‘lim, – dedi shunda Pari, – bunaqa fikr yuritganlarning umri, albatta, yo qamoqxonada, yo kasalxonada chirydi. Sen shu gapni qulog‘ingga quyib olginki, har bir odam bironta foydali ish qilishi kerak, biron yumush bilan mashg‘ul bo‘lishi, ishlashi kerak. Ishyoqmas bo‘lib o‘sgan odamning holiga voy! Ishyoqmaslik – judayam yomon dard, bu dardga chalingan odamni bolalik chog‘ida davolamasa, katta bo‘lganida, undan aslo qutulib bo‘lmaydi!

Parining bu so‘zlaridan Pinokkio qattiq ta‘sir lanib ketdi. U ko‘zlarini Pariga tikkancha, chin yurakdan gapira boshladi:

– Men o‘qib ilm olaman, ishlayman, siz, nima ni buyursangiz, hammasini bajaraman, chunki ochig‘ini aytsam, yog‘och odam bo‘lib yashash o‘lgudek jonimga tegdi, endi har qanday qilib

bo'lsa ham, haqiqiy bola bo'lishni istayman. Axir siz va'da beruvdingiz-ku, to'g'rimi?

– Ha, va'da berganman. Endi buyog'i senga bog'liq.

**XXVI. Pinokkio dahshatli nahangni
ko'rish uchun o'rtoqlari bilan dengiz
bo'yiga boradi**

Ertasi kuni Pinokkio oddiy xalq bolalari o'qiydigan maktabga yo'l oldi. O, yog'och bolaning maktabga kelganini ko'rgan zumrasha bolalarning hayron bo'lganini ko'rsangiz! Ular rosa qotib-qotib kulishdi. Har bir bola Pinokkioning jig'iga tegish niyatida biron shumlik qilmoqchi bo'lardi: ana, bittasi uning qo'lidan qalpog'ini tortib oldi, ikkinchisi yog'och bolaning orqasidan kelib, kamzulinging etagidan tortdi, uchinchisi uning burni ostiga siyoh bilan mo'ylov chizmoqchi bo'ldi, yana bittasi, hatto Pinokkioni qo'g'irchoqqa o'xshatib o'ynatish uchun uning oyoq-qo'llariga ip bog'lashga ham harakat qilib ko'rdi.

Avvaliga Pinokkio bu sho'xliklarga parvo qilmay, jimgina o'qish bilan shug'ullanaverdi. Lekin bora-bora toqati toq bo'lib, uni ko'proq kalaka qilmoqchi bo'lgan qitmir bolalarga sovuqqina qilib:

– Sal evi bilan-da, bolalar! Sizlarga masxara bo'lgani kelgan emasman bu yerga. Hammalaringni hurmat qilaman, shuning uchun meni ham hurmat qilishlaringni talab etaman, – dedi.

– Yashavor, galvars! Gapniyam do'ndirar ekansan! – deb chug'illashdi zumrasha bolalar

ichaklari uzilgudek qotib-qotib kulishib. Bit-ta uchiga chiqqan bezori bola, hatto yog'och bolaning burnini chimchilamoqchi bo'lib qo'l cho'zdi.

Lekin bu niyati puchga chiqdi, chunki yog'och bola shu zahoti parta ostidan uning tizzasiga boplab tepdi.

– Voy, oyog'i toshday qattiq ekanmi! – deb chinqirib yubordi shumtaka bola va yog'och bola tepib, momataloq qilgan tizzasini silay boshladi.

– Voy, tirsagi... tirsagini aytmaysanmi, oyo-g'idan ham battar qattiq ekan! – deb ingra-di boshqa bola: u Pinokkioni masxara qilgani uchun qornidan zarba yegan edi. Qisqasi, Pi-nokkio bir bolani tepib, yana bir bolani tirsagi bilan niqtaganidan keyin zum o'tmay, mak-tabdagi hamma bolalarning hurmatiga sazovor bo'ldi. Hamma unga yon bosib, u bilan apoq-chapoq bo'lib ketdi.

O'qituvchi ham yog'och bolani maqtardi. Chunki uning ziyrak, tirishqoq va farosatli o'quvchi ekanini, hamisha maktabga hamma-dan erta kelib, tanaffusga qo'ng'iroq chalin-ganida, hammadan keyin o'rnidan turishini kuzatib kelayotgan edi.

Pinokkioning bitta-yu bitta kamchiligi bor edi: u maktabdagi o'qishni ham, boshqa bi-ron ish qilishni ham xohlamaydigan uchiga chiqqan takasaltang bolalar bilan og'iz-burun o'pishgudek inoqlashib olgan edi.

O'qituvchisi uni har kuni ogohlantirar, saxovatli Pari ham bir emas, bir necha marta unga tanbeh bergan edi:

– Ko'zingni och, Pinokkio! Maktabda yomon bolalar bilan o'rtoq bo'lgansan, ammo bir kun emas, bir kun ular seni shunday yo'lga boshlashadiki, oqibat ilm olishdan hafsalang pir bo'ladi. Hattoki, ular seni biron mash'um falokatga duchor qilishlari ham mumkin.

– Hayronman, nimadan xavotir olasiz? – dedi yog'och bola yelkalarini uchirib, so'ng ko'rsatkich barmog'i bilan o'z peshanasiga do'qillatib urib qo'ydi, bu bilan u: «Kallamda, Xudoga shukr, miyam liq-liq!» – demoqchi bo'lsa kerak.

Mana, nihoyat, kunlarning birida u maktabga keta turib, bir gala o'rtoqlariga ro'para keldi.

– Yangilikni eshitgandirsan? – deb so'rashdi bolalar.

– Yo'q.

– Sohil yaqinida, dengizda xuddi tog'dek keladigan bahaybat bir nahang paydo bo'lganmish.

– Rostdanmi?.. Bechora otam suvga cho'kkan paytda shu atrofda bir nahang suzib yurgan ekan. Bu – o'sha nahang bo'lsa-ya?

– Bo'lsa bordir. Biz nahangni tomosha qilgani ketyapmiz. Sen ham borasanmi?

– Yo'q, maktabga borishim kerak.

– E, qo'ysang-chi, o'sha maktabingni! Ertaga borsak ham bo'laveradi. Bir kun ko'p o'qidik nima-yu, kam o'qidik nima... baribir, hozir qanday to'nka bo'lsak, keyin ham shu to'nka ligimizcha qolaveramiz!

– O‘qituvchimiz nima derkin?

– O‘qituvchi nima desa deyaversin. U har kuni bizni koyigani uchun maosh oladi.

– Oyim bilsalar-chi?

– Oying hech nimani bilmaydi, – deyishdi Pinokkioning yomon o‘rtoqlari.

– Bo‘lmasa, men bunday qilaman: nahangni men, ba‘zi sabablarga ko‘ra, albatta, ko‘rishim kerak... lekin darsdan keyin.

– Voy, manavi galvarsni qaranglar! – deb shang‘illashdi zumrasha bolalar.

– Nima, shunday kattakon baliq, qachon yog‘och bola kelarkin, deb kutib o‘tirarmidi seni? Bir yerda turish joniga tekkan zahoti uyi-ga suzib ketadi-yu, keyin uni tushingda ham ko‘rolmaysan!

– Dengiz uzoqmi bu yerdan?

– Bir soatda borib kelsa bo‘ladi.

– Bo‘lmasam, diqqat, bolalar! Qani, olg‘a! Kim o‘zarga chopdik! – deb chinqirdi Pinokkio.

Pinokkioning birgina shu da‘vati bilan hamma zumrashalar kitob, daftarlarini qo‘ltiqlash-gancha keng dalani tikka kesib, g‘izillab yugurib ketishdi, Pinokkio bo‘lsa, hammadan oldinda xuddi qanot bog‘lagandek uchib borardi.

U ahyon-ahyon orqasiga o‘girilib, ancha keyinda qolib ketgan o‘rtoqlarini mazax qilib kulardi. Ularning boshdan-oyoq changga botib, tillarini osiltirib, halloslagancha qora terga botib, kelayotganini ko‘rib huzur qilib kulardi. Lekin bu sho‘rpehana bola qanday mudhish va ko‘ngilsiz voqealar sari yelib borayotganini hali o‘zi ham bilmas edi.

**XXVII. Pinokkio o'rtoblari bilan
mushtlashadi, buning natijasida
bolalardan biri yaralanadi. Politsiya
Pinokkioni qo'lga oladi**

Pinokkio sohilga yetib borgan zahoti, dengizga ko'z yugurtirdi. Lekin dengizda hech qanday nahang ko'rinmas edi. Uning sathi osoyishta – ulkan billur ko'zgudek sip-silliq edi.

– Qani aytgan nahanglaring? – deb so'radi Pinokkio o'rtoblariidan.

– Nonushta qilayotgan bo'lsa kerak, – dedi bolalardan biri miyig'ida kulib.

– Yo bo'lmasa, biroz mizg'ib, dam olayotgandir, – deb hiringladi ikkinchi bola.

Pinokkio bu tuturuqsiz javob va bema'ni hiringlashlardan, o'rtoblariim qo'pol hazil qilib, meni laqillatishipti-da, degan xulosaga bordi. Achchig'i chiqib, ularga o'dag'aylay ketdi:

– Xo'sh? Yo'q nahang haqida bema'ni cho'pchak to'qishning nima keragi bor edi?

– Buning sababi bor, – deb javob qilishdi bolalar bir og'izdan.

– Qanaqa sabab?

– Mana, sen darsni qoldirib, biz bilan buyoqqa kelding. Nima, bir kunni ham kanda qilmay nuqul maktabga qatnagani uyalmaysanmi? Darslarni hadeb tirishqoqlik bilan o'qiyvergani uyalmaysanmi?

– Mening qanday o'qishim bilan nima ishlarig bor?

– Nega ishimiz bo'lmas ekan? Sen tufayli o'qituvchimiz bizni yomon ko'rib qoldi.

– Nima uchun?

– Chunki tirishqoq o'quvchilar bizga o'xshagan o'qishni yomon ko'radigan bolalarni hamisha tang ahvolga solib qo'yadi. Biz bo'lsak, tang ahvolga tushishni istamaymiz: bizning ham o'zimizga yarasha g'ururimiz bor!

– Bo'lmasam, men nima qilishim kerak?

– Sen ham o'quvchilarning uchta eng ashaddiy dushmanidan, ya'ni maktab, dars va o'qituvchidan nafratlanishing kerak.

– Bordi-yu, men bundan keyin ham tirishqoqlik bilan o'qiyversam-chi?

– Unda sen bilan xafalashib qolamiz keyin, payti kelganda boplab qasdimizni olamiz.

– Bo'lmagan gap, – dedi yog'och bola va boshini chayqab qo'ydi.

– Ehtiyot bo'l, Pinokkio, – deb chinqirdi zumrashalar orasida eng bo'ydori, – kekkayishingga ham, chaqimchi bo'lishingga ham yo'l qo'ymaymiz! Bizdan qo'rqmasang, biz ham sendan sira qo'rqmaymiz. Bilib qo'y: sen bir o'zingsan, biz yetti o'rtoqmiz.

– Yetti qaroqchi, – dedi Pinokkio va xaxolab kuldi.

– Eshitdinglarmi, bolalar? U bizlarni haqorat qildi? Hammamizni qaroqchi deb mazax qildi.

– Pinokkio, so'zingni qaytib ol, bo'lmasa, holingga maymunlar yig'laydi!

– He-he! – dedi yog'och bola va o'rtoqlarini masxara qilib, barmog'ini burnining uchiga qo'ydi.

– Pinokkio, o'zingga yomon bo'ladi!

- Hi-hi!
- Hozir po'stagingni qoqamiz!
- Hi-hi!
- Burningni pachaqlab tashlaymiz!
- Hi-hi!

- Mana senga hi-hi! - deb baqirdi tanbal bolalar ichida eng dovyuragi. - qulog'ingning tagida bir shavla qaynatayki, ertaga nonushta qilishingga ham yetsin. - Shunday deb u Pinokkioning boshiga musht tushirdi.

Lekin bu zarbaga yog'och bola shu zahotiyuq mushtlarini ishlatib, javob qaytardi: ayovsiz jang boshlandi.

Pinokkio yolg'iz bo'lsa ham, o'zini xuddi sherdek himoya qilardi. U asil nav yog'ochdan ishlangan metindek qattiq oyoqlarini shunaqa epchillik bilan ishga solar ediki, dushmanlari o'zlarini undan ancha nariroqqa olib qochishga majbur bo'lardilar. Chunki Pinokkioning oyog'i tekkan joy ko'karib, momataloq bo'lardi. Yog'och bolaga yaqin kelolmaganlari bolalarga alam qilib, endi ular olisdan «o'q» otishga o'tdilar: ular o'zlarining alifbe, grammatika, matematika darsliklari bormi, «Jannettini», «Minusoli» degan kitoblari bormi, Tuarning hikoyalari-yu, Bachinining «Pulchino»si bormi - xullas hamma darslik kitoblarni yog'och bola ustiga yog'dira boshladilar. Lekin epchil va abjir Pinokkio uchib kelayotgan kitobga har safar chap berib qolar, natijada, hamma kitoblar uning tepasidan uchib o'tib, to'ppa-to'g'ri dengizga borib tushardi.

Buni ko'rib, dengizdagi baliqlar nima qildi deng! Ular kitoblarni mazali ovqat deb o'ylashib, gala-gala bo'lishib, suv betiga suzib chiqa boshlashdi. Lekin kitobning biron varag'ini yo muqovasini tatib ko'rishlari bilan darrov tuflab tashlab: «Biz bunaqa bemaiza ziyofatga o'rganmaganmiz!» – demoqchi bo'lishganday og'izlarini qiyshaytirishdi. Jang esa tobora avjga chiqaverdi. Bu payt suvdan kattakon qisqichbaqa o'rmalab chiqdi: u sohil tomon asta tisarilib kelarkan, xuddi tumov bo'lgandek do'rilladi:



– Hey, esi past tanballar, qani, darhol bas qilinglar olishuvni! Bolalarning bunaqa olishuvi, odatda, yaxshilik bilan tugamaydi. Biron falokatni boshlab o'tirmanglar, tag'in!

Sho'rlik qisqichbaqa! Uning bu tanbehlari huddi shamol yo to'lqinlarga aytilganday, bolalarga zig'ircha ham ta'sir qilmadi. Behayo Pinokkio unga o'qrayib qarab, o'dag'aylab berdi:

– O'chir ovozingni, mijg'ov qisqichbaqa! Yaxshisi, bir juft shirinlik yeb ol – yo'talingga dori bo'ladi, zora shu bilan xirqiroq ovozing sal ochilsa. Yo bo'lmasa, karavotga yotib yaxshilab terla!

Shu payt otishga boshqa kitoblari qolmagan bolalar yog'och bolaning sal nariroqda yotgan papkasini ko'rib qolishdi va hash-pash deguncha uni qo'lga kiritishdi.

Pinokkioning kitoblari orasida qirralari va istiga charm qoplangan qalin muqovali kitob bor edi. Bu matematika darsligi edi. Bu kitobning qanday og'irligini sezayotgan bo'lsangiz kerak, bolalar!

Takasaltang bolalardan biri shu zilday og'ir kitobni ko'tardi-da, Pinokkioning kallasini mo'ljalga olib, kuchining boricha qulochkashlab turib otdi. Lekin kitob yog'och bolaga emas, sheriklaridan birining boshiga borib tegdi. Zarba yegan bola dokaday oqarib ketib:

– Oyijon... oyi... yordam bering, o'lyapman! – deya oldi, xolos.

Shundan keyin «gurs» etib, qumga yiqildi.

Cho'zilib yotgan o'likni ko'rgan bolalar qo'rqib ketishib, har tomonga tiraqaylab qochishdi,

bir necha daqiqa ichida hammalarining qorasi o'chdi-qoldi.

Biroq Pinokkio ketmadi. Garchi qo'rquv va dahshatdan joni chiqayozgan bo'lishiga qaramay dastro'molini dengiz suviga ho'llab, sho'rlik sinfdoshining peshanasiga qo'ydi. Keyin uning nomini aytib, yum-yum yig'lay boshladi:

– Ejenio, o bechora, do'stim Ejenio!.. Ko'zingni ocha qol, o'rtoqjon, menga bir qara!.. Nega gaplarimga javob bermayapsan? Axir seni men urganim yo'q-ku! Gapimga ishon, men emas seni urgan!.. Ko'zingni och, Ejenio! Agar ko'zingni ochmasang, men ham o'laman... E, Tangrim! Endi uyimga qanday qaytib boraman? Mehribon oyijonimning ko'ziga qanday ko'rinaman?.. Endi holim nima kechadi? Qayoqqa bosh olib ketay? Qayerga yashirinib jon saqlayman?.. O, bu yoqqa kelgandan ko'ra maktabga borsa yaxshi bo'lmasmidi... Ming marta yaxshi bo'lardi! Nega endi men, kelib-kelib, boshimga balo bo'lgan shu o'rtoqlarimning gapiga kirdim! O'qituvchim axir bu haqda ogohlantirgan edi-ku, meni! Oyim ham hamisha: «Yomon o'rtoqlaringdan o'zingni chetga olib yur!» – deb tanbeh berar edilar. Lekin men g'irt ahmoqning o'zginasiman. Boshqalar aytgan gapga quloq solaman-u, lekin o'z bilganimcha ish tutaman. Keyin, shu o'zboshimchaligim uchun ta'zirimni yeyman... Butun hayotim davomida aqalli o'n besh daqiqagina ham tinch-xotirjam yashamabman-a. E Xudo, endi holim nima kechadi? Endi nima degan odam bo'ldim, nima degan odam bo'ldim endi?

Shundan keyin Pinokkio yana uv tortib, dod solib yig'lay boshladi, mushtlari bilan boshiga «gurs-gurs» urarkan, nuqul sho'rlik Ejenioning otini atab sannardi. Birdan uning qulog'iga yaqinlashib kelayotgan oyoq tovushi eshitildi.

U orqasiga o'girilib, bu tomonga kelayotgan ikki politsiyachini ko'rdi.

– Nima uchun yerda cho'zilib yotibsanz? – deb so'rashdi ular Pinokkiidan.

– Maktabdosh o'rtog'imga yordam qilyapman.

– Nima, mazasi yo'qmi?

– Shunaqaga o'xshaydi.

– Iy-ye, «mazasi yo'q» ham gapmi! – deb politsiyachilardan biri Ejenioning tepasiga kelib engashdi va uni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. – Bu bolaning chakkasi jarohatlanibdi-ku. Kim qildi buni?

– Men emas! – deb chiyilladi yog'och bola: qo'rqqanidan uning yuragi orqasiga tortib ketgan edi.

– Xo'sh, sen bo'lmasang, unda kim?

– Men emas, – deb takrorladi Pinokkio.

– O'zi nimadan yaralandi u?

– Manavi kitob tegib ketdi. – Yog'och bola qirralariga charm qoplangan qalin muqovali matematika kitobini yerdan olib politsiyachiga ko'rsatdi.

– Xo'sh, kimning kitobi bu?

– Meniki.

– Shuning o'zi kifoya. Boshqa hech qanday dalilning hojati yo'q. Qani, o'rningdan tur darrov, biz bilan ketasan!

- Axir men...
- Ketskik!
- Lekin menda ayb yo'q...
- Yur, deyaqman!

Politsiyachilar sohil yoqalab qayiqda suzib o'tayotgan baliqchilarni chaqirib, ularga bunday deyishdi:

- Manavi bolani sizlarning ixtiyoringizga qoldiramiz. U boshidan yaralangan. Uni uyinigizga olib borib, parvarish qilib turing. Biz ertaga qaytib kelib, u bilan shug'ullanamiz. Keyin ular yana Pinokkioga yaqin borib, uning ikki qo'lidan ushlarshdi-da, harbiychasiga og'zaki buyruq berishdi:

- Olg'a! Shaxdam-shaxdam! Bo'lmasa, ta'ziringni yeysan!

Yog'och bola ham buyruqning takrorlanishini kutib o'tirmay, qishloqqa olib boruvchi torgina yo'ldan pildirab yurib ketdi. Bechora bolaning ahvoli nihoyatda tang edi. Uning hayoti xuddi tushga, tush bo'lgandayam, yomon tushga o'xshab ko'rinardi! U butunlay esankirab qoldi. Uning ko'z oldi xiralashgan, oyoqlari qaltirar, tili tanglayiga yopishib qolib, biron so'z aytishga ham majoli qolmagan edi. Lekin shunday ahvolda ham o'zining saxovatli Pari turgan uy oldidan ikki politsiyachi kuzatuvida o'tishini o'ylab, vijdon azobidan qattiq qiynalardi. «Bu kunimdan o'lganim ming marta yaxshi edi», deb o'ylardi u.

Mana ular qishloq chekkasiga yetib kelishdi, shu mahal birdan «g'uv» etib, esib kelgan shamol Pinokkioning boshidagi qalpog'ini uchirib, o'n qadamcha nariga olib borib tashladi.

– Ruxsat eting, – deb murojaat etdi yog‘och bola politsiyachilarga, – qalpog‘imni olay.

– Mayli, bora qol, faqat tezroq.

Yog‘och bola chopib borib, qalpog‘ini yerdan oldi. Lekin uni boshiga kiyish o‘rniga, tishlab oldi-da, orqasiga, dengiz tomonga xuddi miltiqdan otilgan o‘qday uchib ketdi.

Politsiyachilar bu bolani quvib yetish oson bo‘lmasligini tushunishib, uning orqasidan xirsdan keladigan bir izquvar ko‘ppakni qo‘yib yubordilar. Bu ko‘ppak itlar uchun uyushtirilgan hamma musobaqalarda yugurish bo‘yicha doim birinchi sovringa sazovor bo‘lardi. Pinokkio tez chopib borardi, lekin ko‘ppak undan ham tezroq yugurardi. Bu vahshiyona poyganing nima bilan tugashini ko‘rish uchun qishloq ahli derazalar oldiga to‘plangan, ba‘zilar, hatto ko‘chaga otilib chiqishgan edi. Lekin tomoshani kuzatib bo‘lmadi, chunki Pinokkio bilan ko‘ppak yo‘lni shunaqangi changitib yuborishgandiki, bir necha daqiqadan keyin yo‘lda hech nima ko‘rinmay qoldi.

XXVIII. Pinokkioni baliq deb o‘ylab, tovada qovurmoqchi bo‘ladilar

Mana shu dahshatli poyga ishida Pinokkio bir soniya, atigi bir zungina jonidan umidini uzdi, chunki bu payt Alidoro (izquvar ko‘ppakning oti shunaqa edi) unga yetay-yetay deb qolgan edi.

Yog‘och bola orqasida dahshatli hayvonning harsillashini eshitdi, hatto uning issiq nafasini ham his qila boshladi.

Yaxshiyamki, u sohilga yetib qolgan edi, bir necha qadam narida dengiz mavjlanib yotardi.

Yog'och bola qirg'oqqa yetib borgan zahoti, xuddi sho'rtan baliqqa o'xshab, juda alomat bir sakrash qildi va qirg'oqdan ancha nariga shaloplab tushdi. Alidoroning-ku, sira ham suvga tushgisi yo'q edi lekin tez yugurib kelayotganidan o'zini to'xtata olmay, u ham «shalop» etib, suvga tushib ketdi. Qarangki, sho'rlik suzishni bilmas ekan. U cho'kmaslik uchun jon holatda oyoqlarini pitirlata boshladi, lekin u suvni qancha shaloplatgan sari shuncha tezroq cho'ka boshladi.

Mana, u boshini bir suvdan chiqarganida, ko'zlari ola-kula bo'lib akilladi:

– Cho'kyapman, cho'kyapman!

– Cho'ksang, sadqayisar! – dedi unga ancha narida suzib yurgan Pinokkio, endi u falokatdan qutilgan edi.

– Jon Pinokkio, menga yordam ber!.. Qutqar meni o'limdan!..

– Pinokkio, aslida rahmdil bola emasmi, ko'ppakning ayanchli iltijosini eshitib unga:

– Agar qutqarsam, orqamdan quvmaslikka, meni tinch qo'yishga so'z berasanmi? – deb qichqirdi.

– So'z beraman! So'z beraman! Faqat, tezroq kel, iltimos! Yana yarim daqiqaga kechiksang adoyi tamom bo'laman!

Pinokkio bir zum o'ylanib qoldi. So'ng otasining: «Birovga yaxshilik qilsang, hech kam bo'lmaysan», – deganini eslab, Alidoro tomon

suzib ketdi va uning dumidan ushlab olib, eson-omon qirg'oqqa tortib chiqardi.

Boyaqish it oyog'ida tura olmas edi. Ichiga bir olam sho'r suv kirganidan, xuddi pufakdek shishib ketgan edi. Pinokkio bo'lsa, bari-bir bu itga unchalik ishonmaganidan, vaqt borida, yana dengizga sakrashni afzal ko'rdi. U qirg'oqdan ancha nariga suzib borgandan keyin, hozirgina o'zi suvdan olib chiqqan ko'ppakka:

– Xayr, Alidoro! Oq yo'l tilayman senga, salomat bo'! – deb qichqirdi.

– Xayr, Pinokkio! – deb javob qildi ko'ppak ham. – Meni o'limdan qutqarib qolganing uchun ming rahmat senga! Sen menga juda zo'r yaxshilik qilding, yaxshilik hamisha taqdirlanadi. Kim bilsin, balki hali yana uchrashib qolarmiz.

Pinokkio sohil yoqalab, suzib ketdi. Nihoyat u bexavotir yerga keldim deb o'ylab, atrofiga ko'z yugurtirarkan, bir qoya ostidagi g'orga ko'zi tushdi: g'ordan buruqsab tutun chiqayotgan edi.

«Bu g'orda, – deb o'yladi u, – gulxan yoqayotganga o'xshaydi. Judayam yaxshi-da! Isinib, kiyim-boshimni quritib olaman, keyin... bo'lganicha bo'lar».

Shunday qarorga kelib, qoya tomon suzib ketdi. U endigina o'sha qoyaga tarmashib chiqmoqchi bo'lganida, birdan suv ostidan bir nima ko'tarildi-yu, uni ham sudrab ketdi. U qochishga urinib ko'rdi, ammo kech bo'lgan edi, chunki u jon holatda pitirlab, dumlari bilan suvni tinmay shapillatayotgan bir dunyo har xil toifadagi katta-kichik baliqlar bilan bir-

ga kattakon to'rga tushib qolgan edi. Bu hol uni qattiq hayratga soldi, albatta.

Shu payt u boyagi g'ordan chiqib kelayotgan baliqchini ko'rdi, baliqchi shunaqangi badbasha... shunaqangi xunuk, bedavo ediki, xuddi dengiz alvastisiga o'xshardi. Boshidan soch o'rniga bir tutam yam-yashil o't o'sib chiqqan, umuman, boshidan oyog'igacha hamma yog'i yam-yashil edi, ko'zlari ham, uzundan-uzun soqoli ham yashil rangda edi. Go'yo ikki oyog'ida tik turgan bahaybat kaltakesakka o'xshardi.

Baliqchi to'rni suvdan tortib olib, judayam xursand bo'lib:

– Baxtim bor ekan! Bugun baliqqa rosa to'yadigan bo'ldim! – dedi.

«Yaxshiyam, baliq emasman», – deb o'yladi Pinokkio va biroz ko'ngli joyiga tushdi.

Baliqchi baliq to'la to'rni orqalab, is bosgan, qop-qorong'i g'orga olib kirdi. G'or o'rtasida tovada dengiz hayvonlarining badbo'y yog'i dog' bo'lib vijirlardi.

– Qani, endi ko'raylik-chi, to'rimizga qanaqa baliqdar ilingan ekan, – dedi yashil baliqchi. U kurakdek keladigan kattakon qo'lini tiqib, to'rdan bir nechta qizilsoqol baliqni oldi. – O, g'oyat ajoyib qizilsoqollar! – deb u baliqlarni huzur bilan hidladi.

Baliqchi hidlab bo'lib, ularni yonida turgan bo'sh xumchaga tashladi.

U bu harakatini bir necha marta takrorladi. Har safar baliqchi to'rdan baliq olarkan, o'zini o'zi hali qanday ziyofat qilishini ko'z oldiga keltirib, og'zi qulog'ida derdi:

- Qanday ajoyib treska¹ balig‘i!
- Qanday latofatli kefal² balig‘i!
- Qanday go‘zal qalqonbaliq!
- Qanday noyob dengiz olabug‘asi!
- Qanday bejirim sardinalar!»³

Lekin men sizlarga aytsam, bolalar, treska ham, kefal ham, qalqonbaliq ham, olabug‘a-yu sardinalar ham – hammasi boya qizilsoqol baliqlar solingan xumchaga tashlandi.

To‘rdan eng oxirida olingani – Pinokkio bo‘ldi.

Baliqchi uni ko‘rdi-yu, yirik-yirik yashil ko‘zlarini baqraytirganicha hang-mang bo‘lib qoldi. So‘ng qo‘rqa-pisa:

– Vo ajab, bu qanaqa baliq bo‘ldi? Ilgari bunaqa baliqni yeganmanmi-yo‘qmi, hech eslolmayapman! – dedi.

Shunday deb u Pinokkioni diqqat bilan ko‘zdan kechira boshladi. Nihoyat uni boshdan-oyoq kuzatib bo‘lgach:

– Bo‘ldi, tushundim. Bu, nazarimda, dengiz qisqichbaqasi bo‘lsa kerak, – dedi.

Pinokkio, o‘zini qisqichbaqaga o‘xshatganlaridan xafa bo‘lib, jahl bilan:

– Iy-ye, qisqichbaqa deganingiz nimasi? Nega menga bunday muomala qilyapsiz? Bilmasangiz, bilib qo‘ying: men yog‘och bola bo‘laman, – dedi.

– Yog‘och bola? – deb takrorladi baliqchi. – Ochig‘ini aytsam, hali shu paytgacha bunaqa

¹ Treska – Shimol dengizidagi baliq.

² Kefal – g‘oyat mayda baliqlar oilasiga mansub suv jonivori.

³ Sardina – seldlarga tegishli mayda baliq.

baliqni ko'rmagan edim. Qaytaga, yaxshi bo'ldi – seni yangilik sifatida, zo'r ishtaha bilan yeyman.

– Meni yeysizmi?.. Men hech qanaqa baliq emasman axir, nahotki tushunmayotgan bo'lsangiz? Nima, ko'rmayapsizmi, axir men ham xuddi sizga o'xshab gapiryapman-ku?

– Juda to'g'ri gapirding, – deb tasdiqladi baliqchi. – Mayli, sen ham menga o'xshab gapiradigan, fikr yuritadigan baliq ekansan, o'z martabangga yarasha e'zozlayman.

– Qanday e'zozlaysiz?

– Senga bo'lgan do'stona hurmatim haqi, qay usulda pishirilishingni mayli, o'zing tanlay qol. Xo'sh, ayt-chi, tovada qovuraymi yoki mo'ndida pishirib, ustingdan pomidor qovurib quyaymi?

– Agar vijdonan, «o'g'il bola» gap qiladigan bo'lsak, – deb javob berdi Pinokkio, – tanlash huquqi menga berildimi, demak, yaxshisi, meni qo'yib yuboring, uyimga ketay.

– Hazillashyapsan shekilli? Shunday kamyob baliq qo'linga tushadi-yu, uni tatib ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'laymi? Yog'och odam turiga mansub bo'lgan baliqlar bizning suvimizda har kuni uchrayvermaydi. Xo'p desang, seni hamma baliqlarga qo'shib, tovada qovura qolay – keyin xursand bo'lasan. Ko'plashib qovurilish ko'ngilliroq bo'ladi hamisha.

Bechora Pinokkio qovurilish daragini eshitib, yum-yum yig'lab, nola cheka boshladi. U duv-duv ko'z yosh to'kib, bunday dedi:

– Maktabga borsam bo'lmasmidi... Men ahmoq o'rtoqlarimning gapiga kirib, mana, oqibat, adabimni yeyapman. U-u-u, u-u-u!..

U yashil baliqchining panjasidan qutulish uchun ilondek to'lg'anib, pitirlayvergach, baliqchi bir tutam chayir qamish olib, Pinokkioning oyoq-qo'lini chandib bog'ladi-da; xumchadagi baliqlar ustiga tashladi.

Keyin un solingan kattakon yog'och laganni ro'parasiga qo'yib, xumchadagi baliqlarning hammasini shu laganga ag'dardi. Endi har bir baliq unga belanib, ketma-ket tovaga tusha boshladi.

Vijirlab qaynab turgan yog'da eng avval sho'rlik qizilsoqol baliqlar qovurildi, ulardan keyin jajji olabug'alar, ulardan so'ng, birma-bir treska, kefal, sardina baliqlari yoqqa tushdi. Nihoyat, navbat Pinokkioga keldi. O'zining ajal yoqasida (ajal bo'lgandayam, eng dahshatli ajal yoqasida) turganini ko'rib, vahimaga tushgan bola bechora bir og'iz ham gapirolmadi...

Faqat ko'zlari shafqat so'rayotganday mo'ltirardi. Lekin yashil baliqchi bunga parvo ham qilmadi. U Pinokkioni besh-olti marta unga bulg'ab oldi, shunda yog'och bola xuddi gipsdan yasalgan qo'g'irchoqdek boshdan-oyoq oppoq bo'ldi-qoldi.

Keyin yashil baliqchi uning boshidan ushlab, endi tovaga...

**XXIX. Pinokkio Parining uyiga qaytadi.
Pari unga, ertadan boshlab yog'och bola
emas, haqiqiy o'g'il bola bo'lasan, deb
so'z beradi. Bu muhim voqea sharafiga
uyushtirilgan katta ziyofat**

Baliqchi Pinokkioni endigina tovaga tash-lamoqchi bo'lib turganida, birdan g'orga kat-takon ko'ppak kirib keldi: uni qovurilayotgan baliq hidi boshlab kelgan edi bu yerga.

– Tur, ket! – deb o'dag'ayladi unga hali ham Pinokkioni qo'lida ushlab turgan baliqchi. Lekin qorin o'lgudek och it xuddi: «Ozgina qovurilgan balig'ingdan bersang, seni tinch qo'yaman», demoqchi bo'lganday irillar va hadeb dumini likillatar edi.

– Tur, ket! – deb takrorladi baliqchi va uni tepib, haydamoqchi bo'ldi.

Lekin it bunday qo'pol muomalaga odat-lanmagan edi. U qattiqroq irillab, baliqchiga dahshatli tishlarini ko'rsatdi.

Shu payt g'orda kimningdir ingichka zaif ovozi zo'rg'a eshitildi:

– Alidoro, meni qutqar! Agar qutqarmasang, o'laman!

Ko'ppak Pinokkioning ovozini darrov tanidi, lekin bu ovoz baliqchining mushtidagi bir zu-vala xamirdan chiqayotganini ko'rib, hayron bo'lganidan og'zi ochilib qoldi.

Xo'sh, ko'ppak nima qildi deng? U bir sakrab o'sha zuvalani ohista tishlab oldi va g'ordan o'qday otilib chiqib ketdi.

Baliqchi o'zi yeyishga shaylangan baliqni olib qochib ketishganidan fig'oni chiqib, ko'ppak orqasidan quvib ketdi. Lekin bir necha qadam yugurgach, yo'tali tutib qoldi-yu, orqasiga qaytishga majbur bo'ldi.

Alidoro bo'lsa, bu payt qishloqqa boriladigan yo'ldan zing'illab borardi. Mana, u yo'l yoqasida to'xtab, Pinokkioni ohista yerga qo'ydi.

– Senga qanday minnatdorchilik bildirsam ekan! – dedi Pinokkio.

– Minnatdorchilikning hech keragi yo'q, – deb javob qildi it. – Sen meni bir marta o'limdan qutqarib qolding. Shuni bilki, yaxshilik hech qachon unutilmaydi. Dunyodagi jamiki jonzodlar bir-birlariga yordam qilishlari kerak.



– G'orga qanday borib qolding o'zi?

– Men shu choqqacha qirg'oqda yerparchin bo'lib, sulayib yotgan edim, birdan shamol esib, dimog'imga qovurilayotgan baliqning xushbo'y isini olib keldi. Shu isdan ishtaham karnay bo'lib, g'orga borib qolibman. Agar bir daqiqa kechikkanimda bormi...

– E, asti gapirma! – deb chinqirdi Pinokkio, dahshatdan qora terga botib, – sira-sira tilingga olma! Agar bir daqiqa kechikib borganingdami, men allaqachon yog'da qovurilib, shu paytgacha baliqchining qornida hazm bo'lib ketgan bo'lardim. U-u-u!.. Shu haqda o'ylasam a'zoyi badanim dag'-dag' titraydi!

Alidoro jilmayib, yog'och bolaga oldingi o'ng panjasini uzatdi. Pinokkio uning panjasini do'stona siqdi.

Shundan so'ng ular xayrlashdilar.

It uyiga jo'nab ketdi, yana bir o'zi so'ppayib qolgan Pinokkio uzoqda ko'rinib turgan kulba tomon yo'l oldi. Kulba ostonasida bir qariya o'zini oftobga solib o'tirardi.

– Muhtaram zot, – deb murojaat qildi uyaga Pinokkio, – boshidan yaralangan Ejelio ismli bir bechora bola haqida hech nima eshitmadingizmi?

– U bolani baliqchilar kulbalariga olib ketishgan edi, endi u...

– O'ldimi?.. – deb ayancli ovoz bilan cholingning so'zini bo'ldi Pinokkio.

– Yo'q. Endi u soppa-sog', hozir uyida.

– Rostdanmi? Shu gapingiz rostmi? – deb chinqirdi yog'och bola va sevinib ketganidan

umbaloq oshib sakradi. – Bundan chiqdi, yarasi xavfli emas ekan-da?

– Yarasi judayam xavfli edi, hatto o'lib qolishiyam mumkin edi, – deb javob qildi chol, – nega desang qalin muqovali kattakon kitob bilan urishgan ekan uning boshiga.

– Kim uripti o'sha kitob bilan?

– Maktabdosh o'rtoqlaridan Pinokkio degan bir bola.

– Kim ekan o'zi o'sha Pinokkio? – deb so'radi yog'och bola o'zini go'llikka solib.

– O'lguday bemaza, yalqov, uchiga chiqqan bezori bir nusxa, deyishadi.

– Bo'lmagan gap, qip-qizil tuhmat-ku bu!

– Nima, o'sha Pinokkioni taniysanmi?

– Bir marta ko'rgan edim, – deb javob qildi yog'och bola.

– Xo'sh, sen qanday fikrdasan o'sha Pinokkio to'g'risida? – deb so'radi chol.

– Menimcha, u yaxshi bola, tirishqoq, mo'min-qobil, undan keyin, u otasini, yana butun oila a'zolarini juda hurmat qiladi...

Yog'och bola uyalmay-netmay, shuncha yolg'onni qatorlashtirib tashladi-yu, birdan esiga tushib, burnini ushladi – burni bir enlik uzaygan edi. Shunda u qo'rqib ketib, chinqira boshladi:

– Pinokkio haqida aytgan yaxshi gaplarimning birontasiga ham ishonmang, o muhtaram zot! Men o'sha Pinokkioni juda yaxshi bilaman, sizni ishontirib aytamanki, u chindan ham bemaza bola, buning ustiga tarbiyasiz, ishyoqmas ham. U maktabga borib, ilm olish

o'rniga, to'polon qilib, mushtlashgani dengiz bo'yiga borgan edi. Pinokkio shu gaplarni aytib bo'lishi bilan, burni yana avvalgi holiga tushdi.

– Sen nega bunaqa oppoqsan? – deb dabdurustdan so'radi chol.

– Bilasizmi... sizga ochig'ini aytsam, men bilmasdan yangi oqlangan devorga suyangan ekanman, – deb javob qildi yog'och bola.

Chunki u, meni baliqqa o'xshatib tovada qovurish uchun unga bulg'ashdi, deb aytishga istihola qilgan edi.

– Xo'sh, unda kiyim-boshing: kamzuling, ishtoning, qalpog'ing qani?

– Yo'lda o'g'rilarga duch kelib qoldim, o'shalar meni tunashdi... O, marhamatli bobo, uyimga yetib olish uchun sizda mabodo bironta eski-tuski kiyim topilmaydimi?

– Bo'tam, menda kiyim-kechak yo'q, lekin bitta loviya xaltam bor. Xohlasang, olishing mumkin. Hov ana.

Pinokkio bu javobni eshitgani hamonoq, g'izillab borib, xaltani qo'lga oldi-da, uni qaychi bilan qiyib, tubi hamda ikki yonidan teshik ochdi va ko'ylak o'rniga kiyib oldi. So'ng mana shu g'aribona libosda qishloq tomon yo'l oldi.

Lekin keta turib, yo'lda u vijdon azobidan qiynala boshladi. U oldinga bir qadam qo'ysa, o'zicha mulohazaga borib, yana orqasiga tisarilar-di.

– Qay betim bilan saxovatli Parining ko'ziga ko'rinaman? – derdi u o'ziga-o'zi. Meni shu ahvolda ko'rsa nima derkin?.. Ikkinchi marta gunohimni kechirarmikin?.. Yo'q, turgan gap,

kechirmaydi, yo‘q, sira kechirmaydi! To‘g‘ri qiladi, negaki, men yaramas bolaman. Nuqul so‘z beraman-u, hech so‘zimning ustidan chiqmayman!

U qishloqqa yetib borganida, zim-ziyo tun edi. Havo aynib, jala quya boshladi, lekin Pinokkio Parining eshigini taqillatishga qaror qilib shaxdam-shaxdam ketib borardi.

Biroq eshik oldiga yetib borganida, birdan boyagi dovyurakligi g‘oyib bo‘ldi, natijada u eshikni taqillatish o‘rniga, yana yigirma qadamcha orqaga tisarildi. Keyin yana eshik tagiga keldi, lekin uni taqillatishga yuragi dov bermadi. Uchinchi marta ham shunday bo‘ldi. Nihoyat, u to‘rtinchi marta yurak yutib, qaltiroq qo‘li bilan eshik halqasidan ushlab, bir marta ohistagina taqillatdi.

Shundan so‘ng, u kutaverdi, kutaverdi, nihoyat oradan yarim soatcha vaqt o‘tganida, yuqori qavatdagi (uy to‘rt qavatli edi) derazalardan birida chiroq yonib, kattakon bir shilliq qurt boshini tashqariga chiqardi. Uning boshiga yonib turgan sham o‘rnatilgan edi.

– Bemahalda eshik qoqayotgan kim? – deb so‘radi shilliq qurt.

– Pari uydami? – deb so‘radi yog‘och bola.

– Pari uxlayapti, tunda bezovta qilmanglar, deb aytgan. O‘zing kimsan?

– Menman.

– Men deganing kim?

– Pinokkio.

– Pinokkio deganing kim?

– Yog‘och bolaman. Parining uyida yashayman.

– Ha-a, endi tanidim, – dedi shilliq qurt. – Hozir tushib, eshikni ochaman.

– Iltimos, tezroq bo‘ling, bo‘lmasam, sovuqdan o‘lib qolaman!

– Bo‘tam, men shilliq qurtman, shilliq qurtlar hech qachon shoshmaydilar.

Oradan bir soat, keyin ikki soat o‘tdi, ammo eshik hamon ochilmadi. Ham sovuqdan, ham qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrab turgan Pinokkio endi sal dadillashib, eshikni qattiqroq taqillatib boshladi. U ikki marta taqillatgandan keyin uchinchi qavatdagi deraza ochilib, yana o‘sha shilliq qurt ko‘rindi.

– Jon shilliq qurt, – deb chinqirdi Pinokkio ko‘chadan turib, – eshik ochishingizni ikki soatdan buyon kutyapman! O‘zingiz bilasiz, bunaqa ob-havoda ikki soat xuddi ikki yildek tuyiladi. Iltimos, tezroq bo‘la qoling!

– O‘g‘lim, – deb javob qildi shilliq qurt nihoyatda xotirjamlik va sovuqqonlik bilan, – o‘g‘lim, men shilliq qurtman, shilliq qurtlar hech qachon shoshilmaydilar.

Shundan keyin deraza yana yopildi.

Shu payt yarim kechaga jom chalindi, undan keyin, soat birga, so‘ng soat ikkiga ham jom chalindi-yu, ammo yopiq eshik hanuz yopiqlicha turaverdi.

Pinokkioning toqati toq bo‘ldi. U jahl ustida eshik halqasini ushlab, butun uyni larzaga keltirgudek qattiq taqillatmoqchi bo‘ldi. Ammo temir halqa birdan tirik ilonbaliqqa aylandi-yu,

«shilt» etib, uning qo'lidan sirg'alib chiqdi-da, shu yerdan o'tgan ariqqa tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Ah-ha! – deb chiyilladi xunobi chiqqan Pinokkio. – Eshik halqasi yo'qoldimi, unda endi oyog'im bilan tepib taqillataman!

Shundan keyin u biroz orqasiga tisarildi-da, yugurib kelib kuchining boricha eshikni tepdi. Zarbning zo'rligidan, oyog'i yarmigacha taxta eshikni teshib kirib qisilib qoldi. Yog'och bola oyog'ini tortib olishga shuncha urinsa ham, hech uddalay olmadi. Oyog'i xuddi qoqilgan mixday qimir etmasdi.

Boyaqish Pinokkioning ahvolini tasavvur qilayotgan bo'lsangiz kerak! U kechasi bilan bir oyog'i yerda, bir oyog'i eshikka tiqilgan holda «qilt» etmay turishga majbur bo'ldi.

Nihoyat tong otib, kun yoyilib ketganida, eshik ochildi. Saxovatli shilliq qurtning to'rtinchi qavatdan ko'cha eshikkacha tushib kelishi uchun bor-yo'g'i to'qqiz soat vaqt ketgan edi. Shuni ham aytish kerakki, bu vazifani bajarish uchun u jonini jabborga berib harakat qilgan edi!

– Nega endi oyog'ingni eshikka tirab turibsan? – deb so'radi u yog'och boladan va kulib yubordi.

– Falokat yuz berdi. Iltimos, muhtaram shilliq qurt, bir urinib ko'ring, zora meni bu azobdan qutqara olsangiz...

– Chirog'im, bu ish faqat duradgorning qo'lidan keladi, lekin men hali shu paytgacha duradgorlik bilan sira-sira shug'ullanmaganman.

– Bo'lmasa, mening nomimdan Paridan iltimos qiling...

– Pari uxlayapti, bezovta qilmanglar, deb aytgan.

– Unda nima qilay? Nahotki, kun bo‘yi oyog‘im eshikka qisilganicha turaversam?

– Biron ish bilan shug‘ullan. Masalan, ko‘chada o‘rmlab yurgan chumolilarni sana.

– Hech bo‘lmasa, menga yegulik biron nima olib keling, ochlikdan sillam qurib ketdi-ku.

– Mana, hozir-da! – deb va‘da qildi shilliq qurt.

Darhaqiqat, oradan rosa uch yarim soat o‘tganida, u boshida kumush patnis bilan Pinokkioning oldida paydo bo‘ldi. Patnisda: bo‘lka non, butun tovuq va to‘rt dona hil-hil pishgan o‘rik bor edi.

– Bu nonushtani Pari sizga yubordi, – dedi shilliq qurt.

Bu noz-ne‘matlarni ko‘rgani hamonoq, Pinokkioning dili yorishib ketdi. Lekin ularni yemoqchi bo‘lganida, birdan nonning yog‘ochdan, tovuqning – qalin qog‘ozdan, o‘riklarning – ganchdan yasalganini ko‘rdi-yu, ta‘bi tirriq bo‘ldi. Holbuki, ularning hammasi ko‘rinishdan xuddi haqiqiyga o‘xshardi!

U alam qilganidan sal bo‘lmasa, yig‘lab yuboray dedi va patnisdagi ovqatni uloqtirib yubormoqchi bo‘ldi. Lekin bu ishni eplay olma-di. Chunki yo qattiq iztirob chekkanidanmi, yo bo‘lmasa qornida hech vaqo bo‘lmaganidanmi – harqalay, hushidan ketib yiqildi.

U hushiga kelib, o‘zini oppoq, yumshoq to‘shakda ko‘rdi. Pari uning tepasida turardi.

– Bu safar ham seni kechiraman, – dedi Pari, – lekin yana bir marta shunaqa bema‘nilik qiladigan bo‘lsang, sho‘ring quriydi.

Pinokkio, endi hamisha yaxshi o'qiyman, odobli bola bo'laman, deb so'z berdi, ont ichdi. Haqiqatan ham, yilning oxirigacha qasamini buzmedi, so'zining ustidan chiqdi. Ta'til oldidan o'tkazilgan imtihonlarda esa u, hatto maktabning eng yaxshi a'lochi o'quvchisi sifatida maqtaldi. Uning xulqi ham, umuman, zo'r maqtovg'a sazovor bo'ldi. Natijada xursand bo'lgan Pari unga:

– Mana, nihoyat, ertaga sening istagingni bajaraman, – dedi.

– Qanaqa istagimni?

– Ertaga sen endi yog'och bola emas, balki haqiqiy bola bo'lasan.



Bu xushxabarni eshitgan Pinokkioning qanday xursand bo'lganini tasvirlashga til o'jiz. Uning hamma do'stlari, o'rtoqlari shu kunlarda Parining uyida uyushtiriladigan tantanali marosimga taklif qilindilar. Pari mehmonlar uchun ikki yuz finjon sutli qahva qaynatmoqchi, to'rt yuz dona kulcha non yopib, ustiga non orasiga saryog' surmoqchi bo'ldi. Shu kun nihoyatda ajoyib va shodiyona kun bo'lishi kepak edi, lekin...

Afsuski, yog'och odamlar hayotida doim hamma narsani ostin-ustun qilib yuboradigan bironta «lekin» chiqib turadi.

XXX. Pinokkio haqiqiy bola bo'lish o'rniga do'sti Pilik bilan Taralabedod mamlakatiga jo'naydi

Shundan keyin, turgan gapki, Pinokkio hamma o'rtoqlarini ziyofatga taklif qilgani shaharga borish uchun Paridan ruxsat so'radi. Pari ham bunga rozi bo'lib tayinladi:

– Mayli, borib o'rtoqlaringni ertangi kunga taklif qilib kel, lekin esingda bo'lsin. Uyga qosh qoraymasdan burun qaytib kelishing kerak. Gapimga tushundingmi?

– Va'dam qat'iy: bir soatda qaytib kelaman, – deb javob qildi yog'och bola.

– Ehtiyot bo'l, Pinokkio! Bolalarning va'da qilishi oson, lekin ko'pincha va'dalarining ustidan chiqishmaydi.

– Lekin men boshqa bolalarga o'xshamayman. Va'da qildimmi, o'lsam ham uni bajarmay qo'ymayman.

– Ko‘ramiz. Agar quloqsizlik qilsang, o‘zingga yomon bo‘ladi.

– Nimaga?

– Nimagaki, o‘zidan aqlliroq odamlarning gapiga kirmagan bolalar doim biron falokatga yo‘liqadilar.

– Buni men ko‘p marta o‘z boshimdan kechirdim, – dedi Pinokkio. – Endi sirayam falokatga uchramayman.

– Ko‘ramiz. Ishqilib, gaping rost bo‘lsin-da.

Pinokkio boshqa gap sotib o‘tirmay, ona o‘rniga onalik qilayotgan saxovatli Pari bilan xayrlashdi-da, hushtak chalib, dik-dik sakragancha uydan chiqib ketdi.

Oradan bir soat o‘tar-o‘tmas, u hamma o‘rtoqlarini ziyofatga taklif qilib bo‘ldi. Ba‘zi bolalar taklifni jon-jon deb qabul qilishdi; boshqa bir xillari sal-pal tarang qilgan bo‘lishdi, lekin sutli qahvaga botirib yeyish uchun maxsus yopilgan kulchalarning orasiga ham, ustiga ham saryog‘ surilishi daragini eshitishgach, ular ham darrov:

– Albatta, seni xursand qilish uchun boramiz, – deb rozi bo‘la qolishdi.

Pinokkio hamma maktabdosh o‘rtoqlari orasida Romeo degan bir bola bilan judayam qalin do‘st edi. Romeoning laqabi «Pilik» edi. Bu cho‘pday ozg‘in, rangpar, ramaqijon bola bo‘lib, mum shamning yangi piligiga o‘xshab ketardi.

Pilik butun maktabda eng yalqov, eng surbet bola bo‘lishiga qaramay, Pinokkio uni jonidan ortiq yaxshi ko‘rar edi. Mana, u shu Pilikni ham ziyofatga taklif qilgani uyiga bordi, lekin u uyi-

da yo'q edi. Pinokkio ikkinchi, uchinchi marta uning uyiga so'rab bordi, lekin uni uchratmadi.

Qayerdan qidirsa ekan? Pinokkio Pilikni qidirib, hamma teshikka, hamma pastqam joylarga kirib chiqdi, nihoyat uni bir dehqonning bostirmasidan topdi.

– Bu yerda nima qilyapsan? – deb so'radi Pinokkio.

– Yarim kecha bo'lishini kutyapman. Shunda sayohatga jo'nayman.

– Qayoqqa?

– Bu yerdan juda-juda uzoq tomonga.

– Men bo'lsam, seni qidirib uyingga uch marta borib keldim!..

– Nimaga qidirding?

– Iy-ye, zo'r xushxabarni eshitmadingmi hali? Ertaga meni katta baxt kutyapti-ku, bexabarmisan?

– Qanday baxt ekan?

– Ertadan boshlab, men endi yog'och bola emas, senga, boshqa bolalarga o'xshagan haqiqiy bola bo'laman.

– Ha, yaxshi, tabriklayman.

– Xullas: seni ertaga bo'ladigan ziyofatga taklif qilaman.

– Aytdim-ku senga, bugun kechasi jo'nab ketyapman, deb.

– Soat nechada?

– Yaqinda.

– Qayoqqa?

– Men shunday ajoyib mamlakatga ketyapmanki... dunyoda boshqa bunaqa quling o'rgil-

sin mamlakat yo'q. Haqiqiy huzur-halovat, bekorchilik mamlakati!

– Oti nima ekan o'sha mamlakatning?

– Uni «Taralabedod mamlakati» deyishadi. Ketmaysanmi men bilan?

– Yo'q, borolmayman.

– Chakki qilasan, Pinokkio! Keyin, attang, deb yurma tag'in. Biz, bolalar uchun judayam mos-da u mamlakat. U yerda maktablar ham, o'qituvchilar ham, kitoblar ham yo'q. U mamlakatda hech kim o'qimaydi. Payshanba – dam olish kuni. Haftada oltita payshanba-yu, bitta yakshanba bor. Bir tasavvur qilgin-a, u yerda kuzgi ta'til birinchi yanvardan boshlanib, o'ttiz birinchi dekabrda tugaydi. Rosa menbop mamlakatda o'ziyam. Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda shunaqa bo'lishi kerak!

– Har holda, o'sha Taralabedod mamlakatining aholisi biron nima bilan shug'ullanar?

– Ertalabdan kechgacha o'yin-kulgi bilan shug'ullanishadi. Kechqurun yotib uxlashadi, ertasi kuni ertalabdan yana o'yin-kulgi. Xo'sh, sen nima deysan bunga?

– Him!.. – deb bosh irg'atib qo'ydi Pinokkio, bu ishorasi «Bunaqa hayot bo'lsa, men ham yo'q demas edim!» – degan ma'noni bildirardi.

– Shunday qilib, borasanmi men bilan? «Ha» de, yo «Yo'q!» Gapir!

– Yo'q, yo'q, yo'q! Men saxovatli Pariga, yaxshi bola bo'laman, deb so'z berganman, shu so'zimning ustidan chiqmay qo'ymayman. Ana, kun ham botay deb qoldi. Men uyga qaytishim kerak. Xo'p, bo'lmasa, omon bo'l, oq yo'l senga!

- Qayoqqa shoshyapsan?
- Uyimga. Saxovatli Pari – oyim, qosh qoraymasdan uyga qaytib kel, deb tayinlagan edi.
- Yana bir-ikki daqiqa turgin.
- Kech qolaman.
- Faqat ikki daqiqagina.
- Axir Pari urishib beradi-da, meni!
- Urishsa urishaversin. Urishib-urishib, axiri jag'i tinadi, – dedi yaramas Pilik.
- Sen sayohatga qayerdan jo'naysan? Bir o'zingmi yo bitta-yarimta hamrohing bormi?
- «Bir o'zingmi» mish! Bizlar yuz nafardan ham ko'proqmiz.
- Piyoda jo'naysizlarmi?
- Hozir bu yerdan soyabon arava o'tadi, ajoyib mamlakatga o'sha arava olib ketadi.
- O'sha soyabon arava hozir kela qolsaydi!
- Nima qilarding?
- Qanday jo'nab ketishlaringni ko'rmoqchi edim.
- Bo'lmasa birpas kutib tur – ko'rasan.
- Yo'q, yo'q. Men uyga borishim kerak.
- Atigi ikki daqiqa!
- Haliyam ancha ushlanib qoldim bu yerda. Pari xavotir oladi.
- Sho'ri qursin Parining! Balki, sen ko'rshapalaklarga yem bo'lishdan qo'rqayotgandirsan?
- O'zing astoydil ishonasanmi? – deb surishtira boshladi Pinokkio, – o'sha mamlakatda hech qanaqa maktab yo'qligiga?
- Maktab u yoqda tursin, otiyam yo'q!
- O'qituvchilar-chi?

– Kunduz kuni chiroq yoqib ham topolmay-san?

– O'sha mamlakatda hecham o'qish shart emas, degin?

– Sira-sira!

– Qoyilmaqom mamlakat ekan! – dedi Pinnokkio, hatto og'zidan so'lagi ham oqib ketdi.

– Qanday ajoyib mamlakat-a! U mamlakatga hech bormagan bo'lsam ham uni juda yaxshi tasavvur qilyapman.

– Sen ham biz bilan ketavergin-da, bo'lmasam!

– Gapimga ko'ndiraman deb ovora bo'lmay qo'ya qol! Endi men saxovatli Pariga, yaxshi bola bo'laman, deb so'z berganman, o'zing bilasan, bergan so'zimdanda hech qaytmayman.

– Mayli, o'zing bilasan, xayr bo'lmasa! Agar yo'lingda maktablar, gimnaziyalar, bilim yurtlari uchrasa, ularga mendan ko'pdan-ko'p salom aytib qo'y!

– Xayr, Pilik! Oq yo'l, senga, maza qilib ayshingni sur, o'rtoq, lekin ba'zi-ba'zida yor-do'stlaringni ham eslab tur!

Shu gapdan keyin yog'och bola uyiga yo'l oldi. Biroq ikki qadam qo'yishi bilan yana to'xtadi-da, orqasiga o'girilib, do'stidan so'radi:

– Lekin sen, o'sha mamlakatda har bir hafta olti payshanba-yu, bir yakshanbadan iborat ekaniga qat'iy ishonasanmi?

– Mutlaqo ishonaman.

– Undan keyin, kuzgi ta'til birinchi yandardan boshlanib, o'ttiz birinchi dekabrda tugashiga ham qat'iy ishonasanmi?

– Ishonchim komil!

– Judayam ajoyib mamlakat ekan! – dedi yana Pinokkio va huzur qilib, chirtillatib tufladi. Keyin u qat’iy bir qarorga kelib, shoshqaloqlik bilan: – Xo’p, yaxshi bor, bo’lmasa! Safaring bexatar bo’lsin! – dedi.

– Yaxshi qol!

– Qachon jo’naysizlar?

– Hozirning o’zida.

– Esiz! Agar yana bir soatdan keyin jo’naydigan bo’lganlaringda, ketguninglarcha kutib turishga rozi edim.

– Pari nima bo’ladi?

– Endi, baribir, kechikdim... Uyga bir soat oldin qaytdim nima-yu, bir soat keyin qaytdim – nima, farqi yo’q endi!

– Bechora Pinokkio! Pari seni urishsa-chi?

– Urishsa urishaversin. Baribir, joniga tekkanidan keyin, tinchib qoladi.

Bu orada kech kirib, zim-ziyo tun boshlandi. Shu payt ikki o’rtoqning ko’ziga uzoqda «lip-lip» qilayotgan chiroq ko’rinib, quloqlariga qo’ng’iroqchalarning jarangi-yu, mis karnayning mayin sadosi eshitildi.

– Bu o’sha! – deya chinqirdi Pilik va dik etib, o’rnidan turdi.

– Kim? – deb pichirladi Pinokkio.

– Men jo’naydigan soyabon arava. Xo’sh, ketasanmi men bilan yo yo’qmi?

– O’sha mamlakatda hech kim o’qimasligi haqiqatdan to’g’rimi? – deb so’radi yog’och bola.

– To’g’ri, to’g’ri, to’g’ri.

– Judayam ajoyib mamlakat ekan, judayam qoyilmaqom mamlakat ekan.

**XXXI. Pinokkio besh oy muttasil
beg‘amlilik bilan baxtiyor yashaganidan
keyin bundoq o‘ylab qarasa...**

Nihoyat soyabon arava yaqinlashdi, yaqinlashgandayam, mutlaqo tovushsiz yaqinlashdi, chunki uning g‘ildiraklariga latta-puttalar o‘ralgan edi.

Aravaga bir xil kattalikdagi, ammo har xil tUSDagi o‘n ikki juft jajji-jajji xo‘tiklar qo‘shilgan edi. Ba‘zi xo‘tiklar bo‘zrang, ikkinchilari – oq, uchinchilarining terisida xuddi murch va tuz sepilgandek, mayda-mayda xollar bor edi, to‘rtinchilarining terilari xuddi zebranikiga o‘xshash yo‘l-yo‘l edi.

Lekin eng ajablanadigan tomoni shunda edi-ki, yigirma to‘rtta xo‘tikning hamma oyoqlariga, odatda yuk tashuvchi hayvonlarda bo‘lganidek, taqa qoqilmagan, balki ular xuddi odamlarga o‘xshab, charmdan tikilgan oq etikchalar kiygan edilar.

Xo‘sh, aravakash kim edi?

Yuzi qizil olmani eslatuvchi, labi muttasil jilmayib turuvchi, ovozi xuddi bekasidan biron mazali ovqat so‘rayotgan mushuknikiga o‘xshagan chiyildoq, xo‘ppa semiz, xuddi kuvda pishilgan saryog‘dek dumaloqqina, yumshoqqina xo‘jayinchani ko‘z oldingizga keltiring – aravakash shunday odam edi.

Hamma bolalar uni ko‘rishgan zahoti mahliyo bo‘lib qolishar va tezroq soyabon aravaga

chiqib olish uchun «kim o'zdi»ga yugurishardi, chunki geografiya xaritasida «Taralabedod mamlakati» degan jozibali nom bilan qayd etilgan chinakam saodatli mamlakatga faqat shu aravada borish mumkin edi.

Chindan ham, soyabon arava sakkiz yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalarga liq to'lgan edi. Ular anjirday ezilib, nafasлари qaytib, dimiqib o'tirishgan bo'lsa ham, birontasi zorlanmas, «voy-voy»lamasdi. Yana bir necha



soatdan keyin kitoblari ham, maktablari ham, o'qituvchilari ham bo'lmagan ajoyib mamlakatda bo'lamiz, degan shirin umid bu bolalarni shu qadar xushbaxt, xushnud qilgan ediki, endi ular uchun har qanday qiyinchilik, har qanday mashaqqat ham hech gap emas edi, ular, hatto ovqat yeyishni ham uxlashni ham xohlamas edilar.

Soyabon arava kelib to'xtashi bilan xo'jayincha tinmay qiyshanglab, nozlanib jilmaygan-cha Pilikka murojaat qildi:

– Xo'sh, tasadduq, sen ham biz bilan ketmoqchimisan saodatli mamlakatga?

– Bo'lmasam-chi.

– Lekin shuni aytishim kerakki, tasadduq, soyabon aravada joy qolmadi. Ko'rib turibsan, arava liq-liq to'lgan.

– Ahamiyati yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Pilik, – aravada joy yo'q bo'lsa, yakka shotiga minib ham ketaveraman.

– Xo'sh, sen-chi, qoqindiq, – dedi xo'jayincha yaltoqlik bilan Pinokkioga. – Sen nima istaysan? Biz bilan ketasanmi yo shu yerda qolasanmi?

– Qolaman, – deb javob qildi Pinokkio. – Men uyimga borishim kerak. Hamma odobli bolalardek, maktabga qatnab, yaxshi o'qishni xohlayman.

– Omadingni bersin!

– Pinokkio, – deb gapga aralashdi Pilik, – xo'p de, biz bilan ketaver, maza qilib yashaymiz.

– Yo'q, yo'q, yo'q!

– Yursang-chi, biz bilan ayshimizni surib yashaymiz! – deb qichqirishdi soyabon aravadagi to‘rt bola baravariga.

– Yur biz bilan, ayshimizni surib yashaymiz! – deb jo‘r bo‘ldi ularga yuz nafar bolaning hammasi.

– Agar sizlar bilan ketsam, saxovatli Pari nima deydi? – deb so‘radi ikkilana boshlagan yog‘och bola.

– E, nima qilasan uni o‘ylab! Sen erta-yu kech shataloq otib, maza qilib o‘ynaydigan mamlakatga ketyapsan – yaxshisi, shu to‘g‘rida o‘ydasang-chi.

Pinokkio bu gapga javob qilmay, xo‘rsinib qo‘ydi. Keyin u yana bir marta, undan keyin yana bir marta xo‘rsindi. U uch marta xo‘rsinganidan keyin nihoyat:

– Bo‘pti, sal surilinglar. Men ham boraman, – dedi.

– Hamma joylar bandi, – dedi unga xo‘jayincha, – lekin, biz bilan jo‘nashingdan xursand bo‘lganimizni isbotlash uchun, o‘z o‘rnimni senga bo‘shatib berishim mumkin,

– O‘zingiz-chi?

– Men aravaning yonida piyoda ketaveraman.

– Yo‘q, bunga rozi bo‘lolmayman, yaxshisi, manavi xo‘tiklardan biriga minib ola qolaman, – dedi Pinokkio.

Shu gapdan keyin u aravaga qo‘shilgan oldindagi bir juft xo‘tikning oldiga borib, o‘ng tomonda turganiga sakrab minmoqchi bo‘lgan edi, lekin xo‘tik Pinokkio tomonga o‘girilib,

uning qorniga zarb bilan kalla qo'ydi. Natijada, yog'och bola oyog'i osmondan kelib, yerga gursillab yiqildi.

Bu manzarani ko'rgan bolalar qotib-qotib kulishdi.

Lekin xo'jayincha kulmadi. U qaysar xo'tikning oldiga kelib, uni o'pmoqchi bo'lganday engashdi-da, o'ng qulog'ini g'archcha tishlab, yarmini uzib oldi.

Bu orada, jahli chiqib ketgan Pinokkio «dik» etib o'rnidan turdi-da, chaqqonlik bilan sakrab, sho'rlik jonivorning ustiga minib oldi. U shunday aniq va chiroyli sakradiki, buni ko'rgan bolalar kulishdan to'xtab: «Yashasin, Pinokkio!» – deb qichqirishdi va jon-jahdlari bilan qarsak chala boshlashdi.

Lekin, xo'tik orqa oyoqlarini ko'tarib irg'ishlayverib, oxiri yog'och bolani ustidan uloqtirib tashladi. Pinokkio uchib borib, yo'l yoqasiga to'kilgan bir uyum shag'al ustiga tushdi.

Bu payt yana qattiq kulgi ko'tarildi. Lekin xo'jayincha kulmadi, balki hurkong'ich xo'tikka nisbatan chunonam mehri tovlanib ketdiki, uni o'pib turib, chap qulog'ining yarmini tishlab uzib oldi. Keyin u yog'och bolaga:

– Minib ol, hech qo'rqma. Bu xo'tik o'zi shunaqa tantiqroq. Lekin uning qulog'iga bir gapni pichirlab, aytib qo'ydim, endi u muloyim, yuvosh bo'ladi, – dedi.

Pinokkio xo'tikka mindi, soyabon arava yo'lga tushdi. Lekin xo'tiklar jon-jahdlari bilan chopib, arava tosh yo'lda taraqlab borayot-

ganida, yog'och bolaning qulog'iga allakimning zo'r-bazo'r aytgan zaif ovozi eshitildi:

– Eh, sho'rpehana tentak bola, o'zboshimchalik qilding, hali bu qilmishingga ming-ming pushaymon bo'lasan!

Pinokkio cho'chib ketdi va kim gapirganini bilolmay, atrofiga olazarak bo'lib qaradi. Lekin ko'ziga hech kim ko'rinmadi: xo'tiklar yeldek uchishar, soyabon arava g'izillab borar, aravadagi bolalar uxlab qolishgan, Pilik bo'lsa, dong qotib xurрак otar, xo'jayincha o'tirgan yerida qo'shiq xirgoyi qilardi:

*Kechasi uxlaydi hamma dong qotib,
Faqat men, faqat men uyg'oqman...*

Ular yana yarim chaqirimcha yo'l bosib o'tishgach, Pinokkio yana boyagi zaif ovozni eshitdi:

– Yodingda bo'lsin, xomkalla! Faqat o'yinqa-roqlik, ko'ngilxushlik bilan vaqt o'tkazish niyatida, ilm olishdan bosh toblagan, kitoblar-u maktab-u o'qituvchilaridan yuz o'g'irgan bolalar, oxir-oqibat sharmanda bo'ladilar... Buni men o'z boshimdan kechirganman... shuning uchun senga gapiryapman. Bir kun emas, bir kun sen ham xuddi menga o'xshab ko'z yoshi to'kasan... lekin o'shanda kech bo'ladi.

Odam nutqidan ko'ra ko'proq yaproqlarning shitirlashiga o'xshab ketuvchi bu so'zlarni eshitgan yog'och bola qattiq qo'rqib ketdi, yerga sakrab tushib, xo'tikning tumshug'idan ushladi.

Shunda u xo'tikning yig'layotganini... xuddi go'dak boladek duv-duv ko'z yosh to'kib yig'layotganini ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi.

– Hoy, janob xo‘jayincha! – deb chaqirdi Pinokkio soyabon arava egasini. – Yangilikdan xabaringiz bormi? Manavi xo‘tik yig‘layapti-ku!

– Yig‘layversin; hali, vaqti kelganida, ho‘ng-raydi ham.

– Nahotki, siz uni gapirishga o‘rgatgan bo‘lsangiz?

– Yo‘q. Uning o‘zi bir nechta so‘zni o‘rganib olgan, chunki u uch yil mobaynida o‘rgatilgan itlar bilan birga yashagan edi.

– Voy, jonivor-ey!

– Qani, bo‘l tez, – deb shoshirdi uni xo‘jayincha, – biz eshakning ko‘z yoshini tomosha qilamiz deb vaqtni bekor o‘tkaza olmaymiz. Xo‘tikka min, jo‘naymiz! Tun salqin, yo‘l olis.

Pinokkio buyruqqa so‘zsiz itoat etdi. Soyabon arava yana yo‘lga tushdi va ular tong chog‘ida eson-omon Taralabedod mamlakatiga yetib oldilar.

Bu mamlakat dunyodagi hech bir mamlakatlarga o‘xshamas edi. Uning aholisi faqat bolalardan iborat edi. Ularning eng kattasi o‘n to‘rt yoshda, eng kichigi sakkiz yoshda edi. Ko‘chako‘yda bo‘layotgan o‘yin-kulgi, shovqin-surondan jinni bo‘lib qolish hech gap emasdi. Hamma yoqda ishyoqmas, takasaltang bolalar gala-gala bo‘lib yurishardi. Ular: yong‘oq o‘ynashar, tosh otishar, to‘p tepishar, velosiped minib yurishar, yog‘och otda chopishardi, bekinmashoq, quvlashmashoq o‘ynashar, masxarabozlardek kiyinib, zir yugurishar, og‘izlariga olov tiqishar, she‘rini ifodali o‘qishar, qo‘shiq aytishar, umbaloq oshishar, kamondan o‘q otishar, qo‘llarida yurishar, gildirak dumalatishar, qog‘ozdan

dubulg'a kiyib, qalin qog'ozdan shamshir taqib, xuddi generallardek sayr qilishar, qotib-qotib kulishar, baqirib-chaqirishar, chapakvozlik qilishar, hushtak chalishar, tovuq bo'lib qa-qag'lashardi. Qisqasi, bu mamlakatda shunaqangi dahshatli suron ko'tarilgan ediki, kar bo'lib qolmaslik uchun, albatta quloqqa paxta tiqib olish kerak bo'lardi.

Bu yerdagi har bir maydonda uncha katta bo'lmagan tomoshaxonalar qurilgan, ular ertalabdan kechgacha bolalar bilan gavjum edi. Hamma uylarning devorlariga ko'mir bilan juda alomat gaplar, masalan: «Yashasen qug'irchola!» («Yashasin qo'g'irchoqlar» deyishmoqchi), «Biza maxtapga borishni xolamimiza» («Bizlar maktabga borishni xohlamaymiz!» deyishmoqchi), «Yuqolsin matematika!» («Yo'qolsin matematika!» deyishmoqchi), degan shiorlar yozilgan edi.

Pinokkio ham, Pilik ham, xo'jayincha bilan kelgan qolgan hamma bolalar ham, shaharga qadam qo'yg'an zahoti, bu yerning aholisi bilan apoq-chapoq do'st bo'lib ketishdiki, buni o'zingiz ham, jajji kitobxonlar, ko'z oldingizga keltirayotgan bo'lsangiz kerak.

Dunyoda bu bolalardan baxtliroq, xushchaqraqroq yana kim bor?

Mana shunday turli-tuman o'yin-kulgi vaqtichog'liklar bilan kunlar, haftalar ko'z ochib yumguncha «g'uv» etib, o'tib ketaverdi.

– Oh, qanday qoyilmaqom bu turmush!
– derdi Pinokkio har gal Pilik bilan tasodifan uchrashib qolgan paytlarida.

– Ana, ko'rding, men haq bo'lib chiqdim! – derdi Pilik. – Sen bo'lsang, kelishni xohlama-gan eding! Shunday quling o'rgilsin mamlakat-ga kelish o'rniga o'sha Parining oldiga borib, umringni xazon qilib ilm olmoqchi bo'luvding!.. Bugungi kunda sen befahm kitoblardan, be-farosat maktabdan qutulgan ekansan, buning uchun mendan minnatdor bo'lishing, bergan maslahatlarim, qilgan harakatlarim uchun rahmat deyishing kerak! Tushunyapsanmi? Faqat eng qaardon do'stning qo'lidan keladi bunday yaxshilik!



– Bu gaping to‘g‘ri, Pilik. Men bugun baxtiyor yashayotgan ekanman, faqat sen tufayli shunday bo‘ldi. Bilasanmi, o‘qituvchimiz sen haqingda nima degan edi? U nuqul menga: «Anavi daydi Pilik bilan o‘rtoq bo‘lma! U yomon bola, bu yaxshilikka olib bormaydi», – der edi.

– Voy, sho‘rlik-ey! – deb boshini sarak-sarak qildi Pilik. – O‘zim ham juda yaxshi bilaman; u meni o‘lgudek yomon ko‘rar, men to‘g‘rimda har xil bo‘lmag‘ur gaplarni aytib yurardi. Lekin, kek saqlaydigan odam emasman, kechirib yuborganman uni.

– Sen oliyjanob odamsan! – dedi Pinokkio va do‘stini samimiy mehr bilan quchoqlab, peshanasidan o‘pdi.

Mana shunday o‘yin-kulgi, safsata sotish bilan, bironta ham kitobning betiga qaramay, maktab degan so‘zni mutlaqo unutib yuborgan bolalar takasaltanglik qilib, rosa besh oy vaqtni o‘tkazishgach, bir kun ertalab Pinokkio uyqudan ko‘zini ochib, kutilmagan ko‘ngilsiz bir voqeaning shohidi bo‘ldiki, bu voqea uning kayfiyatini mutlaqo buzib yubordi.

**XXXII. Pinokkioning boshidan bir
juft eshak quloq o‘sib chiqadi, keyin
u haqiqiy eshakka aylanib hangray
boshlaydi**

Qanday ko‘ngilsiz voqea edi u? Hozir sizlarga hammasini gapirib beraman, mening aziz jajji kitobxonlarim. Bir kun ertalab Pinokkio uyqudan uyg‘onganida, to‘satdan boshi qichisha

boshladi. Shunda u boshiga qo'lini olib bordi-yu, birdan qo'li bir narsaga...

Sizlar nima deb o'ylaysizlar, bolalar, Pinokkioning qo'li nimaga tekkan edi?

U o'z quloqlarining to'rt enlik cho'zilganini sezdi, sezdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi.

O'zingiz bilasiz, bolalar, yog'och bolaning qulog'i tug'ilgandan buyon kichkinagina edi – ko'zoynak taqib tikilib qaralmasa, ko'rinmasdi ham. Mana endi, bir kechaning o'zida o'sha quloqlari xuddi ikkita supurgidek tikka-yib qolsa-ya... Buni payqagan sho'rlik Pinokkio qanday ahvolga tushganini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring, bolalar.

Pinokkio nima bo'lganini o'z ko'zi bilan ko'rish uchun, darrov ko'zgu qidira boshladi. Lekin ko'zgu topolmay tovoqqa suv quydi-da, engashib, o'z aksiga qaradi... Qaradi-yu, suvda shunday bir qiyofani ko'rdiki, bunday musibat hech kimning boshiga tushmasin! U suvda o'z aksini ko'rdi: boshidan bir juft ajoyib eshak quloq turtib, chiqib turardi. Shundan keyin bechora Pinokkioning qanchalik tashvishga, umidsizlikka tushganini, uyatdan yerga kirib ketgudek bo'lganini o'zingiz ham tasavvur qilayotgandirsiz, bolalar.

U yig'lar, dag'-dag' qaltirab, boshini devorga urar edi. Lekin uning ruhi tushgan sari, quloqlari yana ham uzayaverdi, sal vaqt o'tmay quloqlarining uchi, hatto tuklar bilan qoplandi.

Uning ayyuhannos solib, chinqirganini eshitib, yuqori qavatda yashaydigan yoqimtoygina jajji Sug'ur kirdi. U yog'och bolaning oldiga yugurib kelib, ahvolini ko'rdi-da, mehribonlik bilan:

– Senga nima bo‘ldi o‘zi, qo‘shnijon? – deb so‘radi.

– Men kasalman, azizim Sug‘urjon, dardim juda og‘ir... Shunchalik og‘irki, o‘ylasam rahimim keladi. Sen tomir urishiga qarab kasalni aniqlay olasanmi?

– Oz-moz.

– Bo‘lmasam, iltimos, tomirimni ushlab ko‘r, bezgak bo‘lmadimmikin?

Sug‘ur oldingi o‘ng panjasi bilan Pinokkioning tomirini ushlab ko‘rdi-da, chuqur xo‘rsinib qo‘yib:

– Qadrdon do‘stim, ming afsuski, senga ko‘ngilsiz gap aytishga majburman, – dedi.

– Ya‘ni?

– Sen eng og‘ir dardga chalinibsan.

– Qanaqa dard ekan?

– Darding – eshak bezgagi deyiladi.

– Tushunmadim, – dedi Pinokkio, lekin aslida, juda yaxshi tushunib turgan edi.

– Unday bo‘lsa, yaxshilab tushuntiraman senga, – deb davom etdi Sug‘ur.

– Shuni bilib qo‘yginki, sen yana ikki yo uch soatdan keyin yog‘och bola qiyofangni yo‘qotasan-u, lekin haqiqiy o‘g‘il bola ham bo‘lmaysan...

– Bo‘lmasa kim bo‘laman?

– Ikki yo uch soatdan keyin sen haqiqiy eshakka, aravaga qo‘shiladigan, ustiga karam, sabzi, piyoz ortib bozorga boradigan eshakka aylanasan.

– Voy, buncha sho‘rpeshana bo‘lmasam! Buncha baxti qora bo‘lmasam! – dedi Pinokkio

umidsizlikka tushib, keyin ikki qo'li bilan ikkala qulog'ini changallab, ularni hech ayamay jon-jahdi bilan tortqilay boshladi.

– Sadag'ang ketay, – deb taskin bermoqchi bo'ldi unga Sug'ur, – nachora! Bu taqdir taqozosi. Zero hikmatli kitoblarda yozilishicha, kitoblardan, muallimlaridan yuz o'girib, erta-yu kech vaqtlarini faqat o'yinqaroqlik, bekorchilik bilan o'tkazuvchi hamma yalqov bolalar bir kun emas, bir kun, albatta, eshakka aylani-sharkan.

– Rostdan ham shunaqa bo'larkanmi? – deb ho'ngrab yubordi yog'och bola.

– Afsuski, rost. Oh-voh qilganingdan endi foyda yo'q. Bu haqda oldinroq o'ylash kerak edi.

– Lekin ayb menda emas! Gapimga ishon. Sug'urjon, hammasiga Pilik sababchi.

– Pilik deganing kim?

– Maktabdosh o'rtog'im. Men uyimga bormoqchi, odobli bola bo'lib o'qishni davom ettirmoqchi, «a'lo» baholar olmoqchi edim. lekin Pilik g'alamislik qilib: «Ilm bilan boshingni qotirib nima qilasan? Maktabni boshingga urasanmi? Yaxshisi, yur, men bilan Taralabedod mamlakatiga! U yerda biz sira o'qimaymiz, ertalabdan kechgacha maza qilib dam olamiz, o'ynab-kulamiz!» – deb yo'ldan ozdirdi.

– Nega endi sen o'sha bevafo, yomon o'rtog'ingning gapiga kirding?

– Nega deysanmi?.. Negaki, men, Sug'urjon, aql-farosati... qalbi ham yo'q yog'och odaman. Oh, agar zig'irdakkina qalbim bo'lgani-

dami, meni o'z tuqqan bolasidek ardoqlagan va juda ko'p yaxshilik qilgan saxovatli Parini aslo tashlab ketmagan bo'lardim!.. Unda men hozir yog'och bola emas, hamma qatori, haqiqiy o'g'il bolaga aylanardim. Endi qo'limga tushsin o'sha Pilik, kunini ko'rsatib qo'yaman! Boplab po'stagini qoqmasam yurgan ekanman!

Shunday deb u eshik tomon otildi. Lekin ostonaga yetganida, eshak quloqlari eshikga tushib qolib, ko'chada bunday qiyofada ko'rinishga uyaldi. Xo'sh, keyin nima qildi, deng? U kattakon qalpoqni boshiga bostirib kiyib oldi.

Keyin u Pilikni qidirib ketdi. Ko'chalarni kezib, maydonlarga borib, kichik-kichik tomoshaxonalarga kirib qidirdi, xullas, hamma yerda bo'ldi, lekin uni hech yerdan topmadi. O'tgan-ketganlardan so'rab-surishtirdi, ammo hech kim bugun Pilikni ko'rmagan edi.

Shunda Pinokkio to'g'ri uning uyiga borib, eshigini taqillatdi.

– Kim u? – deb so'radi Pilik eshik orqasida turib.

– Menman, – deb javob qildi yog'och bola.

– Bir daqiqa kutib tur, hozir ochaman.

Yarim soatdan keyin eshik ochildi. Pinokkio qay ko'zi bilan ko'rsinki, Pilik ham kattakon qalpoqni burnining ustigacha bostirib kiyib olgan ekan!

Pinokkioning ko'zi uning qalpog'iga tushdi-yu, ko'ngli biroz yengil tortganday bo'ldi. Shu zahoti ko'ngliga: «Do'stimning kasali ham

mening kasalimdan emasmikin? U ham menga o'xshab, eshak bezgak dardiga muftalo bo'lgan bo'lsa-ya!» – degan fikr keldi.

Lekin u hech nimani sezmagandek jilmayib so'radi:

– Ishlaring qalay, qadrdon do'stim Pilik?

– Zo'r. O'zimni xuddi suvdagi baliqdek his qilyapman.

– Shu gaping jiddiymi?

– Yolg'on gapirib nima qilaman?

– Kechirasan, og'ayni, nega boshingga qalpoq kiyib, quloqlaringgacha berkitib olding?

– Tabib buyurdi, nimaga desang, tizzamni qattiq urib olgan edim. O'zing-chi, qadrdonim yog'och bola, o'zing nega qalpoqni burninggacha bostirib kiyib olding?

– Mengayam tabib buyuruvdi, chunki men tovonimni toshga urib olgan edim.

– Bechora Pinokkio!

– Bechora Pilik!

Shu gapdan keyin, ikki o'rtoq uzoq vaqt sukut saqlab, bir-birlarini istehzo bilan kuzata boshladilar. Nihoyat Pinokkio tilyog'lamalik bilan:

– Ayt-chi, menga, do'stim Pilikjon, quloq kasaliga hech chalinganmisan? – dedi.

– Menmi? Yo'q!.. Sen-chi?

– Hech qachon! Lekin bugun ertalab bitta qulog'im sal bezovta qila boshladi.

– Menda ham shunday bo'ldi.

– Senda hammi? Qaysi qulog'ing og'riyapti?

– Ikkalovi. Senda-chi?

– Ikkalovi. Bundan chiqdi, ikkovimizning dardimiz bir ekan-da?

– Shunaqaga oʻxshaydi.

– Menga bir yaxshilik qilsang, oshnam Pilikjon...

– Jonim bilan. Nima istaysan?

– Menga quloqlaringni koʻrsatolmaysanmi?

– Nimaga koʻrsatmas ekanman? Lekin oldin sening quloqlaringni koʻrsam devdim, qadr-donim Pinokkiojon.

– Yoʻq, oldin sen koʻrsat.

– Yoʻq, tasadduq! Oldin sen koʻrsat, undan keyin men koʻrsataman.

– Ha, yaxshi, – dedi yogʻoch bola, – boʻlmasam, doʻstona bitim tuzamiz.

– Eshitaylik-chi, oʻsha bitimni.

– Ikkovimiz qalpogʻimizni baravar yechamiz.

Rozimisan?

– Roziman.

– Qani, diqqat! – dedi Pinokkio va baland ovozda qichqirdi: – Bir! Ikki! Uch! U «Uch» deyishi bilan ikkala bola boshidan qalpogʻini yulib olib, shippa otdi.

Shunda birdaniga aql bovar qilmaydigan bir hol yuz berdi. Yaʼni: Pinokkio bilan Pilik kassallari bir xil ekanini bilishgach, xafa boʻlish, bir-birlaridan uyalish oʻrniga, aksincha, bir-birlariga koʻz qisa boshlashdi. Bir necha bor sakrashdi, soʻng, biroz vaqt aftlarini burishtirib turishgach, birdaniga qah-qah urib yuborishdi.

Ular ichaklari uzilgudek xaxolab kulishdi. Keyin birdan Pilik jimib, gandıraklay boshladi, rangi quv oʻchgancha doʻstiga qichqirdi.

– Pinokkio, yordam qil, yordam!

– Nima boʻldi?

– Voy, oyog'imda tik turolmayapman!

– Men ham turolmayapman! – dedi Pinokkio va gendiraklab ketib, yig'lay boshladi.

Shu gapdan keyin ikkovlari to'rt oyoqlab uy ichida u yoqdan-bu yoqqa shataloq otib yugura boshlashdi. Xuddi shu payt ularning qo'llari oyoqqa, yuzlari cho'zilib, eshakning tumshug'iga aylandi, badanlari esa, har yer-har yerida qopa dog'lari bo'lgan och-bo'zrang teriga aylandi. Lekin bu ikki baxti qora uchun eng mudhish voqea nima bo'lganini bilasizlarmi, bolalar? Bu – orqalaridan dum o'sib chiqqan payt bo'ldi. Ular qayg'u va uyatdan o'zlarini qo'yarga joy topolmay, sho'rpeshanaliklaridan zorlanib, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladilar.

Lekin, jim o'tirsalar yaxshi bo'lardi! Chunki ular yig'lash va zorlanish uchun og'iz ochganlarida, kutilmaganda eshakka o'xshab hangray boshladilar. Xullas, ikkovlari bir-birlariga jo'r bo'lishib:

– I-a, i-a, i-a! – deb hangrashdi.

Shu payt eshik taqillab, tashqaridan:

– Ochinglar! Men soyabon aravada sizlarni bu mamlakatga olib kelgan xo'jayincha bo'lamen. Hoziroq ochinglar, bo'lmasa ta'ziringlarni berib qo'yaman, – degan ovoz eshitildi.

XXXIII. Pinokkio haqiqiy eshakka aylanib qolganidan so'ng, uni sotgani bozorga olib boradilar. Eshakni sotib olgan sirk direktori uni raqs tushishga, gardishdan sakrab o'tishga o'rgatadi. Lekin bir kun kechqurun tomosha paytida Pinokkioning oyog'i lat yeb, oqsoqlanib qoladi. Uni boshqa bir xaridorga sotib yuboradilar. Lekin bu xaridor Pinokkioning terisidan do'mbira yasamoqchi bo'ladi

Ha deganda javob bo'lavermagach, xo'jayincha uni oyog'i bilan tepib ochdi. U xonaga kirdi va har galgi odati bo'yicha miyig'ida kulib, Pinokkio bilan Pilikka:

– Barakalla, bolalar! Hangrashlaring chakki emas, ovozlaringni eshitgan zahoti tanidim. Shuning uchun, g'irillab yetib keldim, – dedi.

Ikkala xo'tik xo'jayinchani ko'rishdi-yu, darrov yuvosh tortib, jim bo'lib qolishdi. Endi ular dumlarini qisib, boshlarini egib, quloqlarini osiltirib turishardi.

Xo'jayincha birinchi navbatda ularni silab, siypalay boshladi. Keyin qashlag'ichni olib, xo'tiklarni hafsala bilan tozalashga kirishdi. Nihoyat, ikkala xo'tikning terisi xuddi ikkita oynadek yaraqlab ketdi, shunda xo'jayincha ularni no'xtalab, durustroq pullash uchun bozorga yetaklab ketdi.

Darrov xaridorlar ham topila qoldi. Pilikni, bir kun oldin eshagi o'lib qolgan bir dehqon sotib oldi, Pinokkio bo'lsa, masxarabozlar va dorbozlar truppasining direktoriga pullandi.

Direktor uni qo'l ostidagi boshqa hayvonlar bilan birga raqs tushishga, gardishdan sakrashga o'rgatmoqchi edi.

Xo'jayinchaning kasb-korini endi tushungandirsizlar, qadrli jaji kitobxonlarim? Yuziko'zi yoqimtoygina bo'lib ko'ringan bu yaramas pakana odam, o'zining soyabon aravasida vaqti-vaqti bilan dunyo kezar va yo'l-yo'lakay, maktab-u kitoblar joniga tekkan yalqov bolalarga xushomad qilib, quruq va'dalar bilan ularning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, al-dab-suldab, soyabon aravasiga ortardi-da, Taralabedod mamlakatiga olib kelardi. Shu mamlakatga kelgan bolalar butun vaqtlarini



o'yinqaroqlik, sho'xlik, bekorchilik bilan o'tkazishardi. Keyin esa, xo'jayinchaning gaplariga laqqa ishongan bola faqirlar erta-yu kech o'yinkulgi, bekorchilik bilan mashg'ul bo'lib, bora-bora eshak qiyofasiga kirib qolishardi. Oqibat, pakana aravakash xursand bo'lganidan og'zi qulog'iga yetib, sho'rliklarni mol bozorlariga yetaklab borib sotardi. Shu zaylda u bir necha yil ichida juda ko'p pul jamg'argach haddan ortiq boyib, davlatmand bo'lib olgan edi.

Pilikning bundan keyingi holi nima kechganini sizlarga aytolmayman. Lekin Pinokkioning ahvolidan xabarim bor: u sirkka kelgan dastlabki kunlaridanoq juda og'ir, mashaqqatli hayot kechira boshladi.

Yangi xo'jayin uni otxonaga yetaklab kirib, oxuriga bir quchoq poxol soldi. Lekin Pinokkio poxolni kavshab ko'rib, shu zahoti tuflab tashladi.

Shunda xo'jayini bir nimalarni to'ng'illab, oxurga pichan soldi, lekin endigina eshak qiyofasiga kirgan Pinokkioga pichan ham yoqmadi.

– Iy-ye, hali senga pichan ham yoqmaydimi? – dedi xo'jayin achchiqlanib. – Xotiring jam bo'lsin, xo'tikjon, hali bir esingni kiritib qo'yayki!

So'ng xo'tikning esini kiritib qo'yish uchun uning oyoqlariga qamchi bilan urdi.

Pinokkio og'riq alamidan yig'lab yubordi, so'ng hangray boshladi:

– I-a, i-a, men poxolni hazm qilolmayman.

– Bo'lmasa, pichan kavsha! – dedi xo'jayini, chunki u eshaklar tiliga yaxshi tushunar edi.

– I-a, i-a, pichan yesam qornim og'riydi!

– Iy-ye, balki seni tovuq jigari-yu xo‘roz go‘шти bilan boqishimni kutayotgandirsan? – dedi batar fig‘oni chiqqan xo‘jayin va yana xo‘tikni qamchilay boshladi. Sho‘rlik xo‘tik ikki marta qamchi yeganidan keyin, indamaslikni afzal ko‘rib, shundan keyin «churq» etmay turaverdi.

Xo‘jayin og‘ilxonani berkitib, chiqib ketdi, Pinokkio yolg‘iz qoldi. U ko‘pdan beri tuz ham totmagan edi, shuning uchun ochlikka chiday olmay, og‘zini katta ochib, hangray boshladi.

Shundan so‘ng u oxurida hech qanday yegulik topmagach, xo‘jayini tashlab ketgan pichanni hafsala bilan chaynay boshladi? Obdan chaynab tobiga yetkazgach, ko‘zini chirt yumib, yutib yubordi.

«Pichan ham chakki emas ekan, – dedi u shunda o‘ziga o‘zi, – lekin agar o‘qishni davom ettirsam bundan yaxshiroq bo‘lardi, hatto judayam yaxshi bo‘lardi!.. Ana unda, hozir pichan o‘rniga, yangi yopilgan nonni qovurilgan go‘sht bilan huzur qilib yegan bo‘lardim! Oh, oh, oh!..»

U ertasi kuni ertalab uyg‘onib, oxuridan pichan axtara boshladi, lekin bir tutam ham pichan qolmagandi, chunki u kechasi bor pichanning hammasini yeb bo‘lgan edi. Shunda u jodida qirqilgan poxolga og‘zini to‘ldirib, chaynay boshladi. U kavshanarkan, bu poxol degani Milanning guruch qurtiga ham, Neapolning makaroniga ham sira-sira o‘xshamas ekan, degan qat‘iy qarorga keldi.

– Sabr qilish kerak! – dedi u poxol kavshashda davom etib. – Koshkiydi boshimga tush-

gan bu baxtsizliklar, hech boʻlmasa, quloqsiz, yalqov bolalar uchun ibrat boʻla olsa! Sabr qilish kerak!.. Sabr-qanoat!..

– Sabr-qanoat! Ol-a! – deb dag‘dag‘a qildi xuddi shu payt og‘ilxonaga kirib kelgan xo‘jayin. – Seni, xo‘tikjonim, faqat yedirib-ichirish uchun sotib olgan emasman – buni xayolingga ham keltirma aslo! Yo‘q, men seni rosa ishlatib, jaraq-jaraq pul topgani sotib olganman. Qani, men bilan sirkka yur-chi. Senga gardish ichidan sakrab o‘tishni, keyin qog‘oz bochkalarni teshishni, orqa oyoqlaringda turib, raqsga tushishni o‘rgataman.

Bechora Pinokkio xohlasa-xohlamasa shu murakkab yumushlarning hammasini o‘rganishga majbur edi. Shu tariqa u uch oy mobaynida behisob qamchi yeb, saboq oldi.

Nihoyat, bir kun kelib, xo‘jayin nihoyatda ajoyib tomosha ko‘rsatishi haqida elga ovoza qildi. Shaharning hamma gavjum yerlariga rang-barang afishalar yopishtirildi. Afishalarga bunday so‘zlar yozilgan edi:

TANTANAVOR KATTA TOMOSHALAR

Bugun kechqurun siz ajoyib va g‘aroyib sakrashlarni, shuningdek, barcha artistlar hamda truppamiz otlari tomonidan ijro etiladigan turli antiqa chiqishlarni tomosha qilaszilar. Bulardan tashqari muhtaram jamoa e‘tiboriga «Raq s yulduzi» deb nom qozongan mashhur XO‘TIK PINOKKIO tavsiya etiladi.

TEATRIMIZ CHAROG‘ON YORITILGAN

Turgan gapki, shu kuni kechqurun tomosha boshlanmasdan bir soat oldin sirk tomoshabinlarga liq to'lgan edi. Na parterdan, na lojadan, hatto qo'shimcha qo'yilgan stuldan oltinga ham joy olib bo'lmadi.

Sirk pillapoyalari, mashhur Pinokkioning raqs tushishini ko'rish ishtiyoqida kelgan katta-kichik o'g'il va qiz bolalarga to'lib ketgandi.

Tomoshaning birinchi bo'limi tugagach, maydon o'rtasiga sirk direktori chiqdi. U eg-niga qora frak, oq sirma shim, oyog'iga qo'nji tizzasidan ham baland ko'n etik kiygan edi. U ikki bukilib ta'zim qilgach, quyidagi tuturuqsiz nutqni tantanavor ohangda viqor bilan so'zladi:

– Muhtaram jamoa, xonimlar va janoblar! Menkim, quyida imzo chekuvchi, yo'l-yo'lakay o'tib ketayotib, sizlarning muhtasham poytaxtingizda va sizkim, donishmand aziz tomoshabinlarga, Yevropadagi eng yirik qasrlarning barida, jamiki imperator a'lo hazratlari huzurida raqs tushish sharafiga muyassar bo'lgan mashhur xo'tikni zo'r mamnuniyat bilan tavsiya etish sharafiga erishganimdan xursandman. Bizlardan muruvvatingizni darig' tutmassiz va sizlarning ilhombaxsh ishtirokingizni mudom his etamiz, degan umiddaman!

Bu betayin nutq gurra ko'tarilgan kulgi va qarsaklar bilan qarshi olindi. Ammo xo'tik Pinokkio davraga chiqqanida, qarsaklar yana avjga chiqib, gulduros qarsakka aylandi. Xo'tik juda bejirim yasatilgan edi, tumshug'iga bo'yalgan charmdan yangi no'xta kiydirilgan, tuyoqlaridagi taqalari ham, abzalining to'qalari ham

misdan edi. Uning quloqlari ostiga bir juft kameliya¹ guli taqilgan, yollari shoyi tasmalar bilan qo'shib mayda o'rilgan, qorniga oq-sariq yaltiroq sharf bog'langan, dumi esa, qirmizi va zangori rang duxoba tasma bilan kapalak nusxa qilib eshilgan edi. Xullas, bu xo'tikni bir ko'rish-dayoq, yaxshi ko'rib qolish turgan gap edi.

Direktor uni tomoshabinlarga tanishtirgach, yana qisqacha nutq so'zladı:

– Muhtaram tinglovchilarim! Hozir men sizlarga, yaqin-yaqinlarda jazirama oftobdan qovjirab yotgan tropik vodiylarda beg'am, betashvish sakrab yurgan mazkur sut emizuvchi hayvonni o'zimga itoat ettirish uchun ne-ne qiyinchiliklarni boshimdan kechirganim haqida gapirib o'tirmoqchi emasman. Uning ko'zlaridagi yovvoyilik alomatlariga e'tibor bering-a! Bu mahluqni madaniyatli to'rt oyoqli hayvon qiyo-fasiga keltirish uchun qo'klangan barcha vositalar naf bermagani sababli, kamina ko'pincha u bilan sinalgan tilda, ya'ni qamchi tilida gaplashishimga to'g'ri keldi. Biroq, unga qancha mehribonlik qilmay, u menga mehr qo'yish o'rniga, kuni sayin ko'proq mendan nafratlana boshladı. Shunga qaramay, men Gallesning ilmiy usuli bo'yicha uning kallasida shunday bir ko'z ilg'amas gajakchani topdimki, uni, hattoki Parijdagi tibbiyot fakulteti ham raqs san'atida eng yuksak mahoratdan dalolat beruvchi belgi deb e'tirof etdi. So'ngra men bu kashfiyotim-

¹ Kameliya – doim yashil buta. Uning xushbo'y oq, qizil yirik gullari bor.

dan foydalanib, uni raqs tushishga, shuningdek, gardish va qog'oz bochka ichidan sakrab o'tishga o'rgatdim. Sizlar oldin ajablaninglar! Keyin fikr yuritinglar! Lekin, hozir tomoshani boshlashimdan oldin, janoblar, ijozatingiz bilan, sizlarni ertaga kechqurun bo'ladigan tomoshalarimizga taklif etmoqchiman. Bordi-yu, yomg'ir yog'ib, ob-havoga ta'sir ko'rsatgudek bo'lsa, tomosha kechqurundan ko'chirilib, tushdan keyingi soat o'n birda boshlanadi.

Shundan keyin direktor yana ikki bukilib ta'zim qildi-da, Pinokkioga o'girilib:

– Olg'a, Pinokkio! Siz o'z san'atingizni zo'r mahorat bilan namoyish qilishingizdan oldin bu yerga kelgan muhtaram jamoa – xonimlar-u janoblar-u bolalar bilan salomlashing! – dedi.

Pinokkio itoatkorlik bilan oldingi oyoqlarini bukib, tiz cho'kdi va to direktor qamchi sharaqlatib, buyruq bermaguncha shu alpozda bosh egib turaverdi.

– Qadamlab yuring!

Xo'tik to'rt oyog'iga turib, sirk maydoni atrofiga yura boshladi.

Yana bir daqiqadan keyin direktor buyurdi:

– Yo'rtib yuguring!

Shundan so'ng Pinokkio itoatkorlik bilan yo'rtib chopa boshladi.

– Sakrab choping!

Pinokkio sakrab-sakrab chopa boshladi.

– Yelib-yuguring!

Endi Pinokkio xuddi shamoldek yelib chopa ketdi. Shu payt direktor birdan qo'lini ko'tarib, quroldan havoga o'q uzdi.

Xo'tik o'q ovozi eshitgan hamonoq go'yo yaralanganday, yerga o'likdek cho'zilib yotib oldi.

So'ng u gulduros qarsaklar ostida yana o'rni-dan turdi va turgan gapki, o'ynining atrofdagi tomoshabinlarga qanday ta'sir ko'rsatganini bilish uchun boshini ko'targan edi... lojalardan birida o'tirgan chiroyli bir xonimga ko'zi tushdi. U xonimning bo'ynida qalin tilla zanjir bo'lib, zanjirga medalyon osilgan edi. Medalyonda esa yog'och bolaning surati bor edi.

«Iy-ye, mening suratim-ku!.. Bu xonim – Pari!» – dedi o'ziga o'zi Pinokkio. U bir qarash-dayoq Parini tanigan edi. Shunda u sevingani-dan terisiga sig'may, uni:

– O mening Parim, o mening Parim! – deb chaqirmoqchi bo'ldi.

Lekin bunday yoqimli so'zlarni aytish o'rniga, beixtiyor baland ovozda cho'zib-cho'zib hang-rab yubordiki, buni eshitgan tomoshabinlar, ayniqsa, bolalar, ichaklari uzilgudek qotib-qo-tib kulishdi.

Direktor qamchi dastasi bilan Pinokkioning tumshug'iga tushirdi, bu bilan u shuncha xalq oldida hangrash odobdan emasligini tushun-tirmoqchi bo'lgan edi.

Bechora xo'tik tilini chiqarib, sal kam besh daqiqa tumshug'ini yalab turdi. Ehtimol shu yo'l bilan u og'riqni qoldirmoqchi bo'lgandir.

Keyin u ikkinchi marta boshini ko'tarib, yana o'sha lojaga ko'z tashladi-yu, hang-mang bo'lib qoldi: Pari g'oyib bo'lgan edi.

U dunyoda eng baxtsiz bola ekanligidan zorlanib, achchiq-achchiq yig'lay boshladi, ko'zlari g'ilt-g'ilt yoshga to'ldi. Lekin buni hech kim payqamadi, direktor-ku mutlaqo sezmedi. U qamchisini sharaqlatib qichqirdi:

– Qani, Pinokkio, bo'la qoling! Endi siz janob tomoshabinlarga gardish ichidan qanday chiroyli sakrashingizni namoyish qilasiz.

Pinokkio ikki, uch marta unnab ko'rdi. Lekin har gal gardish oldiga yugurib kelganida, birdan to'xtab, uning ichidan sakrab o'tish o'rniga, tagidan yugurib o'taverdi.

Nihoyat, u gardish ichidan sakradi ham, ammo baxtga qarshi, keyingi oyoqlari gardishning chetiga ilinib, sho'rlik bir qop bug'doydek yerga «gurs» etib yiqildi.

U o'rnidan turganida, oyog'i lat eganini payqadi, so'ng o'z oxuri oldiga atak-chechak qilib zo'rg'a yetib oldi.

– Pinokkio chiqsin! Bizga xo'tikni ko'rsatinglar! Xo'tikni olib chiqinglar! – deb qichqirishardi pastki qatorda o'tirgan bolalar, chunki bu jajji jonivorga judayam rahmlari kelgan edi.

Lekin o'sha kuni kechqurun ular xo'tikni boshqa ko'rishmadi.

Ertasi kuni ertalab tabib kelib, xo'tikni ko'rdida, bu jonivor umrbod cho'loq bo'lib qoladi, deb xulosa chiqardi.

Shunda direktor otboqarga:

– Cho‘loq eshakni boshimga uramanmi? Ovqatning zavoli, xolos. Bozorga olib borib sotib kel, – dedi.

Bozorda darrov xaridor ham topila qoldi.

– Cho‘loq eshagingga qancha so‘raysan? – dedi u otboqarga.

– Yigirma lira.

– Bir lira beraman. Ochig‘i, mening eshaklik ishim yo‘q. Menga uning terisi kerak. Terisi pishiq, chiroyli ekan, men undan do‘mbira yasamoqchiman.

O‘zining do‘mbira bo‘lishi daragini eshitgan Pinokkioning ne ahvolga tushganini bir tasavvur qilib ko‘ring-a!



Axiri savdolasha-savdolasha xaridor xo'tikni bir liraga oldi-da, uni to'g'ri dengiz bo'yiga yetaklab ketdi. U yerda sho'rlik jonivorning bo'yniga xarsang tesh osdi, oyog'iga arqon bog'lab, arqonning ikkinchi uchini qo'lga mahkam o'radi-da, birdan xo'tikni suvga itarib yubordi.

Bo'yniga xarsang tosh bog'langan Pinokkio shu zahoti dengiz ostiga cho'kib ketdi. Xaridor esa, arqonning ikkinchi uchini mahkam ushlaganicha bir tosh ustiga o'tirdi-da, xo'tikning suv ostida nafasi qaytib o'lishini kuta boshladi. Xo'tik o'lgach, uni tortib olib, terisini shilishi kerak edi.

XXXIV. Dengizda Pinokkioni baliqlar yeb ketadi, oqibat u yana avvalgidek yog'och bolaga aylanib qoladi. Lekin xaridordan jon saqlab, suvda suzib ketayotganida, uni dahshatli nahang yutib yuboradi

Xo'tikning suvga cho'ktirilganiga salkam ellik daqiqa bo'lganida, uni sotib olgan odam o'ziga uni:

– Sho'rlik cho'loq xo'tigimning joni uzilib bo'lgan bo'lsa kerak endi. Demak uni suvdan tortib, terisidan chiroyli do'mbira yasashga kirishsam ham bo'ladi, – dedi.

Shundan keyin u arqonni torta boshladi. U tortaverdi, tortaverdi, tortaverdi, tortaverdi, axiri suv betiga... nima qalqib chiqdi deng. Suv betida o'lik xo'tik emas, tirik yog'och bola paydo bo'ldi, u xuddi ilonbaliqdek to'lg'anar, bilanglardi.

Sho'ring qurg'ur xaridor yog'och bolani ko'r-di-yu, tush ko'ryapman, shekilli, deb o'yladi, keyin og'zi lang ochilib, ko'zlari qinidan chiqib ketgudek baqrayib qoldi.

Birozdan so'ng sal o'ziga keldi va xiqillab yig'lagan cha duduqlanib:

– Men dengizga itarib yuborgan xo'tik qani?
– dedi.

– O'sha xo'tik – menman, – kulib javob qildi yog'och bola.

– Sen-a?

– Ha, men!

– Voy, muttaha-ey! Hali meni mayna qilmoqchimisan, a?

– Nega endi sizni mayna qilarkanman? Si-rayam-da, otaxon. Jiddiy gapiryapman.

– Axir qanday qilib, hozirgina xo'tik bo'lgan maxluq suvga tushgandan keyin bir zumning ichida yog'och bolaga aylanib qolishi mumkin?

– Chamasi, dengiz suvining ta'siri bo'lsa kerak. Dengiz hazilni yaxshi ko'radi.

– Evi bilan, hoy yog'och bola, evi bilan!.. Agar mening pulimga vaqtichog'lik qilishni ko'zlagan bo'lsang, yanglishasan. Sen jahlimni chiqarma, jahlim chiqsa, kuningni ko'rsatib qo'yaman!

– Menga qarang, otaxon, yaxshisi, keling, sizga o'z boshimdan kechirganlarimni aytib beray. Oyog'imni yechib qo'ying, keyin so'zlab beraman hammasini.

Tentak xaridorning sinchkovligi qo'zib, arqonni yechdi, Pinokkio o'zini qushday erkin his qilib, hikoyasini boshladi:

- Qisqasi, gap shundaki, ilgari men xuddi hozirgidek yog'och bola bo'lgan edim. Men bu yorug' dunyodagi ko'pchilik bolalarga o'xshagan haqiqiy bola bo'lishni juda-juda xohlardim. Lekin o'qishni xohlamaganim sababli yomon bolalarning ta'siriga berilib, uydan qochib ketgan edim... Natijada kunlarning birida uyqudan ko'zimni ochib qarasam, uzun quloq, dumi uzun eshakka aylanib qolibman. Voy, uyalganimdan o'zimni qo'yarga joy topolmadim, men sizga aytsam! Sizni avliyo Antoniyning o'zi asrasin bunday sharmandalikdan. Meni eshak bozoriga yetaklab borib, bir sirk direktoriga pullashdi. Qarangki, direktorning miyasiga kamini raqqos, dorboz qilish fikri kelipti. Lekin, bir kuni kechqurun tomosha paytida yiqilib, oyog'im oqsab qoldi. Shunda direktor oqsoq eshakdan qanday foydalanishni bilmay, bozorga olib borib sotishni buyurdi. Siz meni sotib oldingiz.

- Bozorga borganimga pushaymonman! Seni bir liraga sotib olgan edim. Xo'sh, endi kim qaytarib beradi menga o'sha halol mehnat bilan topgan pulimni?

- O'zi meni nega sotib oluvdingiz? Terimdan do'mbira yasamoqchimingiz?

- Afsuski, shunday. Endi qayoqdan olaman boshqa eshak terisini?

- Hech tashvish tortmang, otaxon. Bu dunyoda nima ko'p - eshak ko'p.

- Xo'sh, surbet bola, hikoyang tugadimi?

-Yo'q, - deb javob qildi yog'och bola. - Yana bir necha og'iz gapim qoldi. Siz meni sotib olganingizdan keyin, bu yerga yetaklab keldingiz.

G'oyat zo'r insonparvarlik ko'rsatib, bo'ynimga og'ir tosh bog'ladingiz-da, dengizga itarib yubordingiz. Bunday oliyjanobligingiz bilan siz ko'p izzat-hurmatga loyiqsiz. Men sizdan bu yaxshiligingiz uchun umrbod minnatdor bo'lib yuraman. Lekin, qimmatli otaxon, bu gal siz Parini hisobga olmagan edingiz.

– Yana qanaqa Pari?

– Mening onam. O'z bolalarini jonidan ortiq yaxshi ko'ruvchi, ulardan hamisha ko'z-quloq bo'lib turuvchi, hattoki ahmoqlik, odobsizlik qilgan bolalari ustida parvona bo'luvchi hamma onalarga o'xshagan mehribon onam. Ana shu saxovatli Pari suvga cho'kayotganimni ko'rib, oldimga bir gala baliqlarni yuboripti, ular meni o'lik deb hisoblab, xomtalash qilib yeya boshlashdi! Baliqlar terimni shilib, ochofatlik bilan chaynamay yutishdi! Men baliqlarning bunchalik ochko'z bo'lishini bilmagan ekanman... Ular mening aftimni, bo'ynimni kemirishdi, yolimni, oyog'imning, gardanimning terisi hashpash deguncha yeb yuborishdi... bitta jimitdek rahmdil baliq bor ekan, deng, u dumimni eb tashladi.

– Bugundan e'tiboran, – dedi xaridor jirkanib, – men Xudo xohlasa, hech qachon baliq go'shti yemayman! Axir bironta laqqa yo zog'ora balig'ining qornidan eshakning dumi chiqsa, rosa ko'ngling aynisa kerak!

– Fikringizga to'la-to'kis qo'shilishaman, deb kulib yubordi yog'och bola. – Xullas, boshqalar mening hamma yog'imni o'rab olgan eshak terisini yeb bo'lishgach, turgan gapki, suyakka... yoki, aniqroq qilib gapiradigan bo'lsak,

yog'ochga tish botirishdi, chunki, o'zingiz ko'rib turipsiz. Men axir asil, eng pishshiq yog'ochdan yasalganman. Lekin ochofat baliqlar yog'ochga tishlari o'tmasligini tushunishdi-yu, badhazm ovqatdan, ya'ni mendan ko'ngillari qolib, hatto rahmat ham demasdan, «zuv» etib, har tomonga suzib ketishdi. Mana, arqoningizga bog'langan eshak o'rniga suvdan meni – yog'och bolani tortib chiqarganingizning sababini sizga tushuntirib berdim.

– Bu uydirmalaring men uchun bir pul! – deb baqirdi jahli chiqqan xaridor. – Men sen uchun bir lira haq to'lab qo'yanman, shu haqimni qaytarib olmasam, yurgan ekanman. Seni nima qilishimni aytaymi? Seni yana bozorga olib boraman-da, o'tin sifatida sotib yuboraman.

– To'g'ri qilasiz, soting meni. Aslo qarshi emasman bunga, – dedi Pinokkio.

Shunday deb turib, g'izillab borib, dengizga sakradi. U chaqqon-chaqqon quloch otib, sohildan uzoqroqqa suzib ketarkan, omadi yurmagan xaridorga ovozining boricha qichqirdi:

– Yaxshi qoling, otaxon! Do'mbira yasashingiz uchun teri kerak bo'lgan paytlarda meni eslab turing! Shunday deb u yana nariga suzib ketaverdi. Bir daqiqadan keyin yana orqasiga o'girilib, yanayam balandroq qichqirdi:

– Yaxshi qoling, otaxon! Olov yoqish uchun birozgina quruq o'tinga muhtoj bo'lgan paytlarda, meni eslab turing!

U hash-pash deguncha sohildan judayam uzoqlab ketgan edi. Endi u suv sathida xuddi kichkina nuqtadek bo'lib ko'rinarkan, dam

to'lqinlar orasida g'oyib bo'lib, dam delfinga o'xshab yana suv betiga qalqib chiqardi.

Pinokkio bu ochiq dengizda tavakkal qilib boshi oqqan tomonga suzib borarkan, to'satdan bir oq marmar qoyani ko'rib qoldi. Qoya cho'qqisida jajjigina, yoqimtoygina bir uloqcha turar va muloyim ovoz bilan ma'rab, buyoqqa suzib kel, demoqchi bo'lganday Pinokkioga ishora qilardi.

Qizig'i shunda ediki, uloqchanning terisi hamma echkilarnikiga o'xshagan oq ham, qora ham, hatto olachipor ham emas, balki zangori rangda – zangori bo'lganda ham, xuddi go'zal qizchanning sochlariga o'xshagan yaltiroq, moviy-zangori rangda edi.

Buni ko'rgan Pinokkioning yuragi qanday gursillab ura boshlaganini tasavvur qilayotgandirsiz! U butun kuchini ishga solib, oq qoya tomon jadal suzib ketdi. Oradagi masofaning yarmiga borganida, suv ostidan kutilmaganda dahshatli bir dengiz maxluqining boshi ko'tarildi. Maxluq Pinokkio tomon suzib kela boshladi. Uning lang ochilgan og'zi xuddi kattakon o'pqqonga o'xshardi. Dengiz maxluqining tishlari uch qator bo'lib, judayam dahshatli edi, bu tishlarning, hatto surati ham odamning yuragini yorishi mumkin edi.

Bilasizlarmi, bolalar, bu qanday maxluq edi? Bu dengiz maxluqi, bizning hikoyamizda avval bir necha marta tilga olingan o'sha bahaybat nahang edi: u shu qadar yebto'ymas maxluq ediki, dengizdagi hamma jonivorlarni qiyratardi, o'zining ana shu yeb to'ymas-ochofatligi

uchun, baliqlar ham, baliqchilar ham uni «Ola-bo'ji» deyishardi.

Turgan gapki, Pinokkio bu maxluqni ko'rib, judayam qo'rqib ketdi. U chap berib, qochib qolmoqchi bo'ldi va qarama-qarshi tomonga suza boshladi. Lekin nahangning kattakon ochilgan og'zi nuqul Pinokkioning yo'lini to'sib chiqar edi.

– Tezroq suz, Pinokkio, kuching boricha tezroq! – deb ma'rardi chiroyli uloqcha.

Pinokkio ham qo'llari, oyoqlari, ko'ksini ishlatib, astoydil harakat qilardi.

– Tezroq bo'l, Pinokkio! Maxluq senga yaqinlashib qoldi!

Shunda Pinokkio butun kuchini ishga solib ikki baravar tezroq suzib ketdi.

– Ehtiyot bo'l, Pinokkio! Hozir tutib oladi seni!.. Ana u!.. Tezroq, tezroq suz! Bo'lmasa, o'lding!

Endi Pinokkio suv betida suzmas, balki o'qday uchib borardi. Mana, u axiri qoyaga yetib ham oldi, ana, uloqcha engashib, Pinokkioni suvdan tortib olmoqchi bo'lib, unga tuyoqchasini uzatdi...

Lekin kech bo'lgan edi! Yaramas maxluq yog'och bolaga yetib oldi. Odam tovuq tuxumini teshib, uni qanday so'rsa, maxluq ham dengiz suvini shunday ichiga tortdi va suv bilan birga bechora yog'och bolani ham yutib yubordi. Nahang suvni shunaqa ochofatlik bilan shimirdiki, Pinokkio nahangning to'g'ri oshqozoniga dumalab tusharkan, og'ziga suv kirib, u yerda chorak soat behush yotdi.

Nihoyat hushiga kelib, ko'zini ochdi, lekin o'zining qayerda yotganini darhol angalay olmadi. Tevarak-atrofi zim-ziyo qorong'i bo'lganidan, u o'zini xuddi bir bochka siyohga sho'ng'igandek his qildi. Pinokkio quloq soldi, lekin atrofda «tiq» etgan tovush eshitilmadi. Faqat o'qtin-o'qtin yuziga kuchli shamol kelib urilardi. Avvaliga u shamolning qayerdan esayotganini tushunmadi, lekin keyin bilsa, bu shamol dengiz maxluqining o'pkasidan otilib chiqayotgap ekan. Gap shundaki, nahang astma¹ bo'lib qolgan edi, shuning uchun, nafas olganida, ichida xuddi shimol shamoliga o'xshagan bo'ron ko'tarilardi.

Pinokkio avvaliga o'zini dadil tutishga urindi. Lekin dengiz maxluqining qorniga tushib qolganini aniq bilganidan keyin, ho'ng-ho'ng yig'lab:

– Yordam beringlar! Yordam beringlar! O, sho'rim quridi! Nahotki, menga yordam bera-digan bironta jonzod topilmasa bu yerda! – deb yordamga chaqira boshladi.

– Kim ham senga yordam bera olardi, o, sho'rlik bola? Qorong'ilikdan xuddi sozi buzilgan gitaraga o'xshab do'rillagan, bo'g'iq ovoz eshitildi.

– Kim gapiryapti? – deb so'radi Pinokkio, qo'rqib ketganidan uning a'zoyi badanini sovuq ter qoplagan edi.

– Bu men, sho'rpeshana Tunesman². Nahang meni ham sen bilan qo'shib yutib yubordi. o'zing qanaqa baliqsan?

¹ Astma – nafas qisish kasali.

² Tunes – Olabug'a

– Men hech qanaqa baliq emasman. Men yog‘och bola bo‘laman.

– Baliq, bo‘lmasang, nima qilib o‘zingni dengiz maxluqiga yutdirib o‘tiribsan?

– Men sira ham yutdirganim yo‘q. Uning o‘zi yutib yubordi meni! Endi nima qilamiz bu qorong‘ilikda?

– Qachon nahang bizni hazm qilarkin, deb kutib utiraveramiz.

– Lekin men hazm bo‘lishni hech ham xohlamayman! – deb chinqirdi Pinokkio va yana yig‘lashga tushdi.

– Men ham hazm bo‘lishni xohlamayman, – dedi Tunes, – lekin men faylasufman, shuning uchun, o‘zimga o‘zim: «Tunes bo‘lib tug‘ilgan ekansan, umringni tovada qovurilib emas, suvda tugalla», deb taskin beraman.

– Safsata! – dedi Pinokkio.

– Bu mening shaxsiy mulohazam, – deb e‘tiroz bildirdi Tunes – siyosatdon tuneslarning ta‘kidlashicha, shaxsiy mulohazani qadrlash kerak.

– Nima bo‘lganda ham, men bu yerdan ketishni... qochib qutulishni istayman...

– Mayli, agar qo‘lingdan kelsa qochib qol.

– Bizni yutgan bu nahang kattami? – deb so‘radi yog‘och bola.

– Gavdasining uzunligi, dumini hisoblama-ganda, bir chaqirim keladi – buyog‘ini o‘zing tasavvur qilaver.

Ular qorong‘ida suhbatlashayotgan paytda, birdan Pinokkioning ko‘ziga uzoqda qandaydir chiroq g‘ira-shira miltillagandek bo‘ldi.

– Ho‘v anavi yoqda, uzoqda miltillayotgan narsa nima bo‘ldi ekan? – dedi Pinokkio ajablanib.

– U ham bizga o‘xshab hazm bo‘lishini kutib o‘tirgan bir sho‘rnesiona bo‘lsa kerak.

– Men uning oldiga boraman. Ehtimol u keksa baliqchidir, balki u bu yerdan qanday chiqib ketish yo‘lini ko‘rsatar menga.

– Shu gapingning rost bo‘lib chiqishini chin dildan istardim, o, azizim yog‘och bola.

– Xayr, Tunes amaki!

– Xayr, yog‘och bola. Senga omad tilayman!

– Yana diydor ko‘risharmikinmiz?

– Kim biladi?.. Yaxshisi, bu haqda o‘ylamaslik kerak.

XXXV. Bu bobni o‘qisangiz, Pinokkio nahangning ichida kimni uchratganini bilib olasiz

Pinokkio mehribon do‘sti Tunes bilan shu tarzda xayrlashib, qorong‘ida gandiraklab yurib ketdi.

U uzoqda miltillab ko‘rinayotgan xiragina shu‘la tomon nahangning zim-ziyo ichida bita-bitta qadam bosib ketib borardi. U yaqinroq borgan sari miltillab turgan shu‘la ham aniqroq ko‘zga tashlana boshladi. Nihoyat u uzoq yo‘l bosib, axiri ko‘zlagan yeriga yetdi. U yerda nima ko‘rdi deng? O‘ylaganinglar bilan hech ham topa olmaysizlar! U bir xontaxtani, uning ustida yonib turgan shamni ko‘rdi. Sham yashil rang shisha og‘ziga o‘rnatilgan

edi. Xontaxta yonida soqol-mo'ylovi qordek yo sutdan olingan qaymoqdek oppoq bir chol tirik baliqchalarni kavshab o'tirardi. Baliqchalar shunday sho'x, shunday tiyrak edilarki, cholning og'zidan «g'ilt-g'ilt» etib, chiqib ketishardi.

Bu manzarani ko'rgan Pinokkioning quvonchi ichiga sig'may, ko'ngli kunday yorishib ketdi. Uning ham kulgisi, ham yig'lagisi, ham to'xtovsiz gapirgisi keldi. Lekin shunga qaramay u faqat bir nechta uzuq-yuluq, poyintar-soyintar so'zni zo'rg'a duduqlanib ayta oldi, xolos.

Ammo saldan keyin, sevinchdan boshi osmonga yetgan bu bola nihoyat, qiyqirib yuborib, yugurib borib cholning bo'ynidan mahkam quchoqlab olarkan, chiyillab:

– Voy, aziz dadajonim! Axiri sizni qidirib topdim-a! Endi men sizni sira-sira yolg'iz tashlab ketmayman! – dedi.

– Demak, yanglishmabman! – dedi chol ko'zlarini uqalarkan. – Demak, sen chindanam mening erkam Pinokkiosan?

– Ha, ha, bu menman, Pinokkioning o'zginasiman! Siz mening hamma sho'xliklarimni kechirgansiz-a, to'g'rimi? Voy, mening dadajonim-ey, biram yaxshisizki!.. Men bo'lsam aksincha, yomonman... Oh, dadajon, boshingane-ne baxtsizliklar, ne-ne kulfatlar tushganini bilsangiz edi. Sizga aytsam, bechora dadajonim, meni maktabga borib o'qisin, deb kamzulingizni sotib, alifbe olib kelgan kuningiz maktabni unutib, qo'g'irchoq teatriga mahliyo bo'lgandim. Teatr xo'jayini qo'zichoq go'shtini kaboh qilish uchun o'tin topolmay, meni o'choq-

qa qalamoqchi bo'ldi-yu, lekin keyin rahmi kelib, otangga olib borib ber, deb menga besh oltin tanga berdi, ammo ko'chada tulki bilan mushukka duch keldim. Ular meni Qizil qisqichbaqa mehmonxonasiga boshlab borishib, ochofat bo'rilarday rosa ovqat yeyishdi, shunda men, yarim kechada bir o'zim sho'ppayib ketayotganimda, qaroqchilarga ro'para kelib, ura qocha boshladim, ular orqamdan quvaverishdi, oldinda qochaverdim, ular quvaverishdi, qochaverdim, ular nuqul quvaverishdi, nuqul shataloq otib qochaverdim, axiri yetib olib meni katta eman daraxtining shoxiga osib qo'yishdi. Shu desangiz, zangori sochli chiroyli qizcha meni dordan tushirib, izvoshta o'z uyiga ol-dirib ketib, tabiblarga ko'rsatgan edi, ular bir qarashdayoq: «Agar u o'lmagan bo'lsa, demak hali tirik», – deyishdi. Shunda men tilimni tiya olmay, yolg'on gapirib qo'yg'an edim, birdan burnim cho'zila boshladi-yu, eshikdan chiqa olmadim. Shuning uchun, keyin yana tulki bilan mushukning gapiga kirib, to'rt oltin tangamni yerga ko'mdim, nega to'rt tanga, desangiz, bir tangani mehmonxonada sarflagan edim, shuning uchun to'ti meni mazax qilib, kula boshladi. Oqibat, ikki ming tanga u yoqda tursin, hech vaqo topa olmadim. Shunda pulimni o'g'irlab ketishgani haqida qoziga arz qilsam, u o'g'rilarni xursand qilish uchun shu zahoti meni qamatib qo'ydi, qamoqdan chiqib bir uzumzorga borib qoldim-u, hil-hil pishgan chiroyli uzum boshlariga mahliyo bo'lib qopqonga tushib qoldim. Natijada bog'bon haqli ravishda

bo'ynimga it tasma-sini bog'lab, tovuqxonasi-ga qo'riqchi qilib qo'ydi. Lekin keyin u guno-him yo'qligini tushunib, yana ozod qilib yubor-gan edi, dumi tutab turgan bir ilon qotib-qotib kulganidan, ko'krigidagi bir tomiri chirt uzilib o'lib qoldi. Shunda men yana chiroyli qizning uyiga yo'l oldim, bilsam, u o'lib qolipti, yig'lab o'tirganimni ko'rgan kaptar: «Otang seni qidirib topish uchun o'ziga kichkina bir qayiq yasayot-gan edi», – dedi. Unga: «Koshkiydi, mening ham senga o'xshab qanotim bo'lsa!» – degan edim, u mendan: «Otangni ko'rishni xohlarmiding?» – deb so'radi. Men unga: «Judayam xohlardim-u, lekin ilojim yo'q-da», – degan edim, u shu za-hoti: «Men seni olib boraman», – dedi. «Qanday qilib?» – deb so'ragan edim, u: «Yelkamga minib ol», – dedi. Keyin biz kechasi bilan uchdik-da, ertalab dengizga tikilib turgan baliqchilar: «Ho'v anavi yoqda kichkina qayiqda suzib ket-gan odam cho'kyapti», deyishgandi, uzoqdan bo'lsayam sizni darrov tanidim, chunki o'sha odam siz ekanligingiz ko'nglimga keldi. Keyin sohilga qayting, demoqchi bo'lib nuqul sizga qo'l siltayverdim.

– Men ham seni tanigan edim, – dedi Jeppet-to, – judayam orqamga, sohilga qaytgim keluvdi. Lekin qanday qilib qaytardim? Dengiz to'liqinla-nayotgan edi, shunda bitta katta to'liqin yopi-rilib kelib qayiqchamni to'nkarib yubordi. Ayni shu payt, sal nariroqda suzib yurgan dahshat-li nahang meni payqab qoldi. U men tomonga otildi-yu tilini chiqarib, xuddi bir doriday yutib yubordi.

– Bu yerda qamalib o'tirganingizga ko'p bo'ldimi?.. – deb so'radi Pinokkio.

– O'sha kundan beri. Yaqinda ikki yil bo'landi. Shu ikki yil, tasaddug'ing ketay, Pinokkio, menga xuddi ikki asrdek bo'lib tuyildi.

– Qanday kun kechirdingiz bu yerda? Shamni qayerdan oldingiz? Gugurtni kim berdi sizga?

– Hammasini aytib beraman. Buni qaraki, o'sha kuni to'lqin mening qayiqchamdan boshqa yana bir savdo kemasini ham halokatga uchratgan ekan. Hamma matroslar qutulib qolipti-yu, lekin kema suv ostiga cho'kipti, o'sha kuni o'lgudek och bo'lgan mana shu nahang cho'kkan kemani ham yutib yuboripti.

– Rostdanmi? Shundoq katta kemani butunligicha-ya? – deb hayron bo'ldi Pinokkio.

– Ha, butunligicha. Faqat machtasini tuflab tashladi, nega desang, u xuddi biz baliq yeganimizda qiltig'i tishga kirib qolganday, tishining orasiga kirib qolgan edi. Baxtinga, kemada go'sht ham, qotgan non-u yangi yopilgan kulchalar ham, shishalarda may-u qop-qop mayna deysanmi, shveysar pishlog'i-yu, qahva va qand deysanmi, yana shamlar-u quti-quti gugurtlar ham bor ekan. Mana shular mening kunimga yarab, shu tobgacha yashab keldim. Lekin endi kema ombori bo'm-bo'sh, manavi sen ko'rib turgan sham – oxirgisi.

– Keyin nima bo'ladi?

– Keyin, bolam, ikkalamiz ham qorong'ida qolamiz.

– Unaqa bo'lsa, aziz dadajonim, – dedi Pinokkio, – biz bu yerda qo'l qovushtirib o'tirmaylik.

Hozirning o'zida bu yerdan qochish haqida bosh qotirishimiz kerak.

– Qochish? Qanday qilib?

– Biz nahangning og'ziga chiqib, u yerdan dengizga sakrashimiz kerak.

– Bu – aytishga oson, jonim bilan bajarardim, Pinokkio. Gap shundaki, men suzishni bilmayman.

– Buyog'ini o'ylamang!.. Siz yelkamga opichib olasiz. Men suvda juda zo'r suzaman, qirg'oqqacha sog'-salomat yetkazaman sizni.

– Bu ish senga hozir osondek ko'rinyapti, – deb e'tiroz bildirdi Jeppetto va boshini sarak-sarak qilib alamli kulimsiradi. – Nahotki, jimitdek yog'och bola bo'la turib, meni opichlab suvda suzishingga ko'zing yetsa?

– Oldin sinab ko'ring, keyin bilasiz. Agar peshanamizga o'lish yozilgan bo'lsa, har holda, ikkalamiz birga o'lamiz-ku.

Shundan keyin, Pinokkio darhol olg'a yura boshladi va otasiga:

– Mening orqamdan yuravering, hech qo'rq-mang, – dedi.

Shu yo'sinda ular uzoq yurishdi, nahangning butun oshqozonini, uning uzundan-uzun gavdasini boshdan-oyoq bosib o'tishdi. Nihoyat, ular dengiz maxluqining halqumiga yetishganda ehtiyotkorlik yuzasidan to'xtashib, qochish uchun eng qulay fursat kelishini kuta boshlashdi.

Shuni aytib o'tish kerakki, nahang juda keksayib qolgan, buning ustiga, nafas qisish dardiga chalingan, yuragi ham chatoq bo'lganidan doim og'zini ochib uxlardi. Shu tufayli pastda,

halqumga kiraverishda turib, atrofni kuza-tayotgan Pinokkio yulduzlar charaqlab turgan osmonning bir bo'lagini va oydin tunni ko'rish-ga muyassar bo'ldi.

– Qochish uchun qulay payt hozir, – deb pichirladi u otasining qulog'iga. – Nahang mast uyquda, dengiz bo'lsa, sokin, tun oydin. Orqamdan yuring! Hademay, ozod bo'lamiz.

Ular darhol ishga kirishishdi. Dengiz max-luqining halqumidan yuqoriga o'rmalab chi-qishib, uning juda bahaybat og'ziga kirishdi, so'ng uning xiyobondagi yo'lga o'xshash keng va uzun tili ustidan oyoq uchida yurib o'tish-di. Lekin ular endigina dengizga sakramoqchi bo'lib turishganida birdan nahang aksa urib yuborsa bo'ladimi. Aksa urganida u boshini shunday keskin orqasiga siltadiki, natijada, Pi-nokkio bilan Jeppetto yana uning oshqozoniga dumalab tushib ketishdi.

Buning natijasida sham o'chib, ota-bola qorong'ida qolishdi.

– Endi nima qilamiz? – deb so'radi Pinokkio jiddiy ohangda.

– Endi adoyi tamom bo'ldik, bolam.

– Nega endi adoyi tamom bo'larkanmiz? Qani, qo'lingizni bering, dada, faqat toyg'anib ketmang.

– Yana qayoqqa boshlamoqchisan meni?

– Biz yana bir urinib ko'ramiz. Yuravering men bilan, hech qo'rqmang.

Pinokkio otasining qo'lidan ushlab oldi, ular yana oyoq uchida dengiz maxluqining halqu-

midan yuqoriga chiqib, tilining u boshidan bu boshigacha bosib o'tishdi, uch qator terilgan katta-katta tishlari orasidan ham bir amallab o'tishdi. Shunda yog'och bola dengizga sakrash oldidan otasiga:

– Menga opichib, mahkam ushlab oling. U yog'ini menga qo'yib bering, – dedi.

Jeppetto Pinokkioning yelkasiga yaxshilab joylashib oldi, shunda o'ziga qat'iy ishongan yog'och bola dengizga sakradi-yu, shosha-pisha nahangdan nariga suzib ketdi. Dengiz sathi xuddi yog'dek silliq edi, oy charaqlab, yog'du sochar, nahang bo'lsa dong qotib uxlardi. U shu qadar qattiq uxlardiki, hozir zambarak otib ham uyg'otib bo'lmas edi.

XXXVI. Nihoyat yog'och bola – Pinokkio haqiqiy o'g'il bolaga aylanadi

Pinokkio katta-katta quloch otib, olg'a suzib ketaverdi, ketaverdi, lekin birozdan keyin, yelkasiga minib, oyog'ini tizzasigacha suvga tushirgan otasining xuddi bezgak xuruj qilgan odamdek dag'-dag' titray boshlaganini sezdi.

U sovuqdan qaltirayotganmikin, yo qo'rquvdanmi? Buni bilib bo'lmasdi. Ehtimol, unisi ham, bunisi hamdir. Lekin Pinokkio, otam dahshatdan qaltirayapti, deb o'ylab unga dalda bera boshladi:

– Bardam bo'ling, dada! Yana bir necha daqiqadan keyin eson-omon quruqlikka chiqib olamiz.

– Lekin qani o‘sha aytgan quruqliging? – deb so‘radi chol, u tobora ko‘proq hayajonlanar, xuddi ignaga ip o‘tkazayotgan tikuvchidek uzoq-uzoqqa astoydil tikilib qarardi.

– Men atrofga tikilib qarayapman, lekin osmon bilan dengizdan boshqa hech nimani ko‘rmayapman.

– Ammo men qirg‘oqni ko‘ryapman, – dedi yog‘och bola, – ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, dada, mening ko‘zim mushuknikiga o‘xshaydi, kechasiyam kunduziday ko‘raveraman.

Oqko‘ngil Pinokkio o‘zini juda dadil qilib ko‘rsatishga urinardi, holbuki uning dovyurakligi tobora so‘nib borardi. Uning sillasi qurib, hansirab nafas ola boshladi. U ortiq suzishga darmoni qolmaganini seza boshladi, qirg‘oq bo‘lsa hali ham ko‘rinmasdi.

U nafasi qaytib ketguncha suzdi. Keyin Jeppettoga o‘girilib, hansiragancha:

– Dadajon... yordam bering... o‘lib qolaman! – dedi.

Ota bilan bola o‘limni bo‘yinlariga olgan shu paytda birdan allakimning xuddi sozi buzilgan gitaraga o‘xshab, xirillagan ovozi eshitildi:

– Kim ekan o‘layotgan?

– Men bilan sho‘rlik dadam.

– Bu ovoz menga tanish-ku. Sen Pinokkiosan!

– To‘ppa-to‘g‘ri. O‘zing-chi?

– Men Tunesman, sening hamdard o‘rtog‘ing bo‘laman – nahang qornida birga yotganmiz.

– Iy-ye, qanday qochib chiqding?

– Sendan o‘rnak oldim. Qanday qutulish yo‘lini sen ko‘rsatding, men sizlarga ergashib qochib qoldim.

– O, azizim Tunesjon, juda vaqtida kelding. Jajji-jajji bolalaring haqi, yolborib so‘rayman sendan: yordam ber bizga, bo‘lmasa o‘lib ketamiz.

– Bir og‘iz so‘zing, jonim bilan yordam qilaman! Qani, dumimdan ushlab olinglar. To‘rt daqiqadan keyin qirg‘oqda bo‘lasizlar.

O‘zingiz tushungan bo‘lsangiz kerak, bolalar, Pinokkio bilan Jeppetto darhol taklifni qabul qilishdi. Lekin ular baliqning dumidan ushlab o‘rniga, uning yelkasiga chiqib o‘tirib olishdi – shu qulayroq ko‘rindi ularga.



– Og‘rilik qilmayapmizmi? – deb so‘radi Pinokkio.

– Be, nima deyapsan? Zig‘ircha ham og‘rimasizlar! Nazarimda, yelkamda ikkita chig‘anoq yotganga o‘xshaydi, – deb ota-bolaning ko‘nglini ko‘tarib qo‘ydi Tunes, chunki u ikki yoshlik buqachadek kuchli edi.

Qirg‘oqqa yetishgach, Pinokkioning o‘zi quruqlikka sakrab tushdi, so‘ng otasiga ko‘maklashdi. Shundan keyin u Tunesga o‘g‘irilib, hayajon bilan:

– Aziz do‘stim, sen otamni o‘limdan qutqarding. Senga qanday minnatdorlik bildirishga tilim lol... Shuning uchun... shu minnatdorigim isboti sifatida, hech bo‘lmasa, seni bir o‘pishga ruxsat ber, – dedi.

Tunes tumshug‘ini suvdan chiqardi. Pinokkio cho‘k tushib, baliqning naq og‘ziginasidan samimiy bir o‘pich oldi. Shunda, bunday nazokatli muomalaga odatlanmagan oq ko‘ngil Tunes, chunonam ta‘sirlandiki, ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketganini hech kimga ko‘rsatmaslik uchun, shu zahoti suv ostiga sho‘ng‘ib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Bu orada tong otdi.

Pinokkio tizzalari qaltirab, zo‘rg‘a oyoqda turgan otasi Jeppettoga qo‘l uzatib:

– Menga suyanib oling, dadajon, yo‘lga tushamiz. Biz xuddi shilliqqurtdek sekin-sekin ketaveramiz, charchasak, yo‘l yoqasiga o‘tirib dam olamiz, – dedi.

– Qayoqqa boramiz? – deb so‘radi Jeppetto.

– Birona uy yo kulba topilib qolar, zora, ochdan o‘lmasligimiz uchun bizga bir burdagina non sadaqa qilishsa-yu, yotib uxlashimiz uchun bir quchoq poxollarini ayashmasa. Ular hali yuz qadam ham yurishmagan edi, yo‘l chetida tilanchilik qilib turgan ikkita badbas-hara nusxani uchratishdi.

Ular mushuk bilan tulki ekan, lekin ular tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketishgan edi. Gap shundaki, hamisha o‘zini ko‘rlikka solib yurgan mushuk bora-bora rostakamiga so‘qir bo‘lib qolgan, qarib, tullab, butunlay tuki to‘kilib ketgan tulki dumidan ham judo bo‘lgan edi. Bu voqea bunday bo‘lgan edi: bu yaramas o‘g‘ri kunlarning birida juda qiynalib qolib, muhtojlikdan o‘zining chiroyli dumini arshinmolchiga sotgan, arshinmolchi u dumdan pechkaning kulini tozalaydigan supurgi yasab olgan edi.

– Oh, Pinokkio! – dedi tulki alamzada ovoz bilan. – Biz sho‘rlik majruhlarga ozgina bo‘lsayam xayr qil!

– Xayr qil! – deb takrorladi mushuk.

– Xayr, tilyog‘lamachilar! – deb javob qildi ularga yog‘och bola. – Sizlar meni bir marta aldab ketgan edinglar, ikkinchi marta laqillatib bo‘libsiz.

– Rost aytyapmiz, Pinokkio, endi biz qashshoqmiz, baxtsizmiz.

– Baxtsizmiz! – deb takrorladi mushuk.

– Qilmishingizga yarasha qashshoq bo‘lgansiz. Qilmish-qidirmish, deydilar. «O‘g‘rilik mol

– umrga zavol», degan maqolni eslanglar. Xayr, ikkiyuzlamachilar!

– Rahmingiz kelsin bizga!

– Bizga!

– Xayr, tilyog'lamachilar! «Halol bug'doy osh bo'lar, o'g'rilik don – tosh bo'lar», degan maqolni eslanglar.

– Muruvvat qiling!

– Qiling! – deb takrorladi Mushuk.

– Xayr, tilyog'lamachilar! «O'g'rilik qilma hargiz, ko'milasan kafansiz», degan maqolni eslanglar.

Shu gaplardan keyin Pinokkio bilan Jeppetto o'z yo'llarida bernalol ketaverdilar. Ular yana yuz qadamcha yurib, so'qmoq yo'lining etagida, ekinzorning o'rtasida qad ko'targan chiroyli qamish kulbani ko'rdilar.

– Bu kulbada biron odam bo'lsa kerak, – dedi Pinokkio, – yuring, yaqin borib, taqillatib ko'ramiz.

Mana, ular kulba oldiga borib, uning eshigini taqillatishdi.

– Kim u? – degan ovoz eshitildi ichkaridan.

– Yeyishga bir burda noni ham, yotishga boshpanasi ham yo'q bir bechora ota bilan o'g'il, – deb javob qildi yog'och bola.

– Kalitni burasangiz, eshik ochiladi, – dedi ichkaridagi ovoz.

Pinokkio kalitni buragan edi, eshik ochildi. Ular kulba ichiga kirib, har tomonga alanglab qarashdi, lekin hech kimni ko'rishmadi.

– Qayerda o'zi uy egasi? – deb ajablandi Pinokkio.

– Men bu yoqda, tepadaman!

Ota bilan o'g'il boshlarini ko'tarib shiftning to'sinida turgan gapiruvchi qora chigirtkani ko'rishdi.

– O mening jonginam, jajjigina qora chigirtkam! – deb g'oyat zo'r nazokat bilan salom berdi unga Pinokkio.

– Endi sening jonginang, jajjigina qora chigirtkang bo'lib qoldimmi, a? Esingdami, shu «jonginang, jajjigina qora chigirtka»ni uyingdan quvib chiqarish uchun menga yog'och bolg'a otganing?

– Gaping to'g'ri, mening jonginam, jajjigina qora chigirtkam! Meni ham uyingdan haydab yubor... Menga ham yog'och bolgacha ota qol! Lekin faqat shu bechora otamga rahm qilsang bo'lgani!

– Men otangga rahm qilaman, shuningdek, uning o'g'liga ham. Lekin undan oldin sening hech kimga ro'yixushi bermaslik odatingni yuzingga solmoqchiman, toki sen bu dunyoda, iloji boricha, hamma bilan do'stona munosabatda bo'lish lozimligini, shundagina, o'zing mushkul ahvolga tushgan paytingda, hamma senga ham do'stona munosabatda bo'lishi mumkinligini tushunib olgin.

– Gaping to'g'ri, o mening jonginam, jajjigina qora chigirtkam, ming karra haqsan, bu bergan ibratli sabog'ing endi o'la-o'lgunimcha esimdan chiqmaydi. Lekin, ayt-chi, bunday chiroyli uy-chaga qanday ega bo'lding?

– Bu uychani kecha menga ajoyib zangori-havorang yungli bir latofatli echki taqdim etdi.

– Hozir qayerda o'sha Echki? – deb so'radi Pinokkio qattiq hayajonlanib.

– Bilmayman.

– Bu yerga u yana qachon keladi?

– Bu yerga u hech qachon qaytib kelmaydi. U bu yerdan butunlay jo'nab ketdi, ketayotib ma'yus ohangda: «Bechora Pinokkio! Endi uni hech qachon ko'rolmayman. Sho'rlikni nahang yutib yubordi!» – deb o'ksindi.

– U rostdanam shunday dedimi?.. Demak, bu shubhasiz o'sha!.. Bu o'sha!.. Mening azizim, jonajon Parim! – deb Pinokkio piq-piq yig'lay boshladi, uning ko'zlaridan duv-duv yosh oqa boshladi.

U yig'lab-yig'lab ko'nglini bo'shatgach, kexsa Jeppetto uchun poxoldan yumshoq to'shak to'shadi. Keyin gapiruvchi qora chigirtkadan so'radi:

– Menga aytolmaysanmi, jajjigina qora chigirtka, otam bechoraga bir kosagina sutni qayerdan topsam bo'ladi?

– Bu yerdan uch paykal narida Janjo degan polizchi yashaydi, uning uchta sog'in sigiri bor. Sen o'shaning oldiga bor, nima kerak bo'lsa, u yerdan hammasini topasan. Pinokkio g'irillagancha polizchi Janjonikiga yugurib bordi.

– Qancha sut kerak senga? – deb so'radi polizchi.

– Bir kosa.

– Bir kosa sut bir soldo turadi. Oldin menga bir soldo ber, keyin sut olasan.

– Menda bir soldo u yoqda tursin, bir chentezimo¹ ham yo'q, – dedi Pinokkio xijolat bo'lib.

¹ Chentezimo – mayda chaqa pul.

– Ishing chatoq ekan, yog‘och bola, – dedi polizchi. – Hatto chentezimong ham yo‘q bo‘lsa, senga bir angishvona ham sut berolmayman.

– Hay, iloj qancha, – dedi Pinokkio va orqasiga qaytmoqchi bo‘ldi.

– Qani, shoshma-chi, – dedi Janjo. – Kelishib olarmiz, balki. Chig‘ir aylantirishga rozimisan?

– «Chig‘ir» deganingiz nima o‘zi?

– Shunday bir qurilma bor, uni aylantirish yo‘li bilan quduqdan suv chiqarilib, polizdagi sabzavotlar sug‘oriladi.

– Urinib ko‘raman.

– Yaxshi. Unda sen quduqdan yuz chelak suv tortib chiqarsang, bir kosa sut olasan.

– Roziman.

Janjo yog‘och bolani polizga boshlab borib, unga chig‘irni qanday aylantirishni ko‘rsatdi. Pinokkio shu zahoti ishga kirishdi. Lekin u yuz chelak suvni quduqdan tortib chiqarguncha boshdan oyoq qora terga botib ketdi. U umrida hech qachon bunchalik ko‘p mehnat qilmagan edi.

– Shu choqqacha, – dedi polizchi, – bu ishni xo‘tigim bajarar edi. Lekin hozir u o‘lar holatda yotipti.

– O‘sha xo‘tingizni ko‘rsam maylimi? – deb so‘radi yog‘och bola.

– Mayli, ko‘ra qol.

Pinokkio otxonaga kirib, poxol ustida ochlik va og‘ir mehnatdan chalajon bo‘lib yotgan yoqimtoygina bir xo‘tikni ko‘rdi. Pinokkio uni diqqat bilan ko‘zdan kechirgach, o‘zicha qay-

g'urib: «Bu xo'tik ko'zimga issiq ko'rinyapti. Men uni ilgari ko'rgandayman», – deb o'yladi.

So'ng u xo'tikning tepasiga engashib, undan eshaklar lahjasida so'radi:

– Kimsan?

Jon berayotgan xo'tik bu savolni eshitib, ko'zini ochdi va o'sha lahjada zo'rg'a g'o'ldirab:

– M-men... Pi...i...li...ik...man... – dedi.

Shu gapdan keyin u yana ko'zini yumdi-yu, joni uzildi.

– Oh, bechora Pilik! – deb g'o'ldiradi Pinokkio.

U bir tutam poxol olib, xo'tikning ko'zidan oqqan yoshni artdi.

– Buncha qayg'urmasang bu eshakka, axir unga puling kuymagan-ku! – deb ajablandi polizchi. – Uni naqd pulga sotib olgan men nima qilishim kerak?

– Sababini sizga tushuntirib beraman...

U mening do'stim edi.

– Sening do'sting?

– Ha, maktabdosh o'rtog'im edi.

– Nima? – deb baqirdi Janjo va xandon otib kuldi. – Nima deb vaysayapsan o'zi? Nima, sen eshaklar bilan birga maktabga borganmisan?.. Unda sen eshaklar maktabida ko'p antiqa darslarni o'tgan bo'lishing kerak!

Bu kesatiqdan qattiq xijolat bo'lgan yog'och bola hech nima demadi, u bir kosa yangi sog'ilgan sutni olib kulbaga qaytdi.

Mana shu kundan boshlab, besh oy davomida u har kuni tongda turib, betob otasiga bir kosa sut ishlab topish uchun chig'ir aylantirgani borardi. Faqat bugina emas: shu vaqt

ichida u bug'doy poyasidan katta-kichik savatlar to'qishni o'rgandi. Keyin u savatlarni sotib, yiqqan pulini juda oqilona xarajat qila boshladi. Bundan tashqari, u o'zi qo'sh g'ildirakka o'rnatilgan bejirim kursi yasab, havo ochiq bo'lgan paytlarda, toza havodan nafas olsin, deb otasini sayr qildirib yurdi.

U kechqurunlari o'qish va yozishni mashq qila boshladi. Qo'shni qishloqdan u bir necha soldoga boshi ham, oxiri ham yirtilib ketgan qalin bir kitobni sotib oldi va shu kitob orqali o'qishni o'rgandi. Yozish uchun esa qalam o'rniga, bug'doypoya uchini o'tkirlashtirdi. Lekin siyohi ham, siyohdoni ham bo'lmaganidan, xurmachaga olcha ezib solib, siyoh qildi.

Shu yo'l bilan u faqat bemor otasining betashvish yashashiga imkon yaratibgina qolmay, o'ziga yangi kamzul sotib olish uchun yana qirq soldo pul ham jamg'arib qo'ydi.

Bir kuni ertalab u otasiga:

– Men bozorga borib o'zimga kamzul, qalpoqcha, poyabzal olmoqchiman. Uyga qaytib kelganimda, – dedi u kulib, – shunaqangi yasangan bo'lamanki, siz meni ko'rib, basavlat janob deb o'ylaysiz.

U uydan chiqdi va quvonganidan terisiga sig'may sakrab-sakrab yugura ketdi. Birdan kimdir uning otini aytib chaqira boshladi. U orqasiga o'girilib, buta ostidan o'rmalab chiqayotgan chiroyligina shilliq qurtga ko'zi tushdi.

– Meni tanimay qoldingmi? – deb so'radi shilliq qurt.

– Ha... yo'q... bilmadim!

– Zangori sochli Parining uyida xizmat qilgan shilliq qurt esingda yo‘qmi? Boshimda sham bilan zinadan tushib, senga eshik ochganimni, bir oyog‘ing eshikka siqilib qolganini nahotki unutgan bo‘lsang?

– Voy, nega unutarkanman! – deb chinqirib yubordi Pinokkio. – Tezroq gapir, o sohibjamol jajji shilliq qurt: mening saxovatli Parimni qayerda qoldirding? Uning ahvoli qalay? Meni kechirganmi? Men to‘g‘rimda eslab tura-dimi o‘zi? Meni hali ham yaxshi ko‘radimi? Uni ko‘rishim mumkinmi?

Pinokkioning ustma-ust berayotgan savoliga shilliq qurt o‘z tabiatiga xos imillab javob qaytardi:

– Azizim Pinokkio, sho‘rlik Pari bu yerdan sal nariroqdagi kasalxonada yotipti.

– Kasalxonada?

– Ha, afsuski, shunday! U bechora ko‘p g‘am chekdi, endi juda og‘ir kasal bo‘lib yotipti, sho‘rlikning bir burda non sotib olishga ham qurbi yetmay qolgan.

– Nahotki, shu rost bo‘lsa?.. Yuragimni ezib yubording-ku! Oh, mening bechora Parim, mening sho‘rpehana Parim!.. Agar hozir million soldo pulim bo‘lganida, hammasini Pariga olib borib bergan bo‘lardim... Lekin, afsus, atigi qirq soldo pulim bor... Mana. Bugun o‘zimga yangi kamzul sotib olmoqchi bo‘luvdim. Sen, shilliq qurt, shu pulni olib darhol mening saxovatli Parimga eltib ber!

– Yangi kamzuling nima bo‘ladi?

– Nima qilaman hozir yangi kamzulni! Men Pariga yordam qilish uchun egnimdagi manavi

uvadalarni ham jon-jon deb sotgan bo'lardim! Bora qol, shilliq qurt, shoshil! Lekin ikki kundan keyin shu yerga yana qaytib kel, ungacha, ehtimol yana ikki-uch soldo ishlab topib qo'yarman. Shu choqqacha men otamni parvarish qilish uchun ishlayotgandim. Bugundan boshlab, saxovatli Pariga qarashish uchun har kuni yana besh soatdan ortiqcha ishlayman. Yaxshi bor, shilliq qurt. Ikki kundan keyin kutaman seni!

Shilliq qurt endi o'z odatiga butunlay teskari ish tutib, jazirama yozdagi kaltakesakdek pildirab chopib ketdi.

Pinokkio uyga qaytib kelganida otasi undan:

– Yangi kamzuling qani? – deb so'radi.

– O'zimga munosibini topa olmadim. Keyingi safar yana qarab ko'rarman.

Shu kuni kechqurun Pinokkio, har galgidek soat o'nda emas, yarim kechada uxlagani yotdi. Shu kuni u sakkizta emas, o'n oltita savat to'qidi. Shundan keyingina u o'rniga yotdi. U tushida Parini ko'rdi. Parining go'zal jamolidan ko'z qamasharmish. U jilmayib turib yog'och bolani o'pibdi-da:

– Barakalla, Pinokkio! Dili pok bola bo'lganing uchun, shu kungacha qilgan barcha qilg'iliqlaringni kechiraman. Ota-onasiga yordam qilib, ularning og'irini yengil qilgan bolalar, garchi itoatgo'ylikda, yaxshi xulq-atvorda ibrat bo'lolmasalar ham, baribir zo'r maqtov va ulkan hurmatga loyiqdirlar. Bundan buyon aql-idrokli bo'l, shundagina baxtli hayot kechirasani! – debdi.

Shu yerga kelganda, Pinokkio uyqudan uyg'onib, ko'zini katta ochdi.

U uygʻonib, oʻzini endi yogʻoch bola emas, balki hamma bolalarga oʻxshagan haqiqiy oʻgʻil bola qiyofasida koʻrib, shunaqangi hang-mang boʻlib qoldiki, buni, bolalar, oʻzingiz tasavvur qilib koʻrishingiz mumkin! U atrofga koʻz yugurtirib chiqib, oʻzini qamish kulbada emas, muhtasham yorugʻ bir xonada koʻrdi. U karavotdan sakrab tushdi-yu, koʻzi chiroyli yangi kamzul, yangi qalpoq, xuddi oʻz oyogʻiga moslab tikilganday yangi charm poyabzalga tushdi.

U shosha-pisha yangi kiyimlarni kiydi va turgan gapki, birinchi navbatda qoʻllarini shimini-ning choʻntagiga tiqdi. U choʻntagidan fil suyagidan yasalgan kichkinagina hamyoncha oldi. Hamyoncha ustiga shunday soʻzlar yozilgan edi: «Zangori sochli Pari oʻzining suyukli Pinokkiosiga uning qirq soldo pulini qaytarib, mehribonchiligi uchun minnatdorlik izhor etadi». U hamyonchani ochib, uning ichida qirq soldo mis chaqa urniga qirqta yap-yangi oltin sexinning¹ koʻzni qamashtirgudek yaraqlayotganini koʻrdi...

Keyin u koʻzguga qarab, oʻzini taniy olmay qoldi. U endi koʻzguda avvalgi qoʻgʻirchoq – yogʻoch bolani emas, balki qoʻngʻir sochli, moviy koʻzli, chehrasi kulib turgan, quvnoq, aqlli, chiroyli bola – tirik bolani koʻrdi.

Pinokkio ketma-ket sodir boʻlayotgan bu moʻjizali hodisalar paytida oʻzining uygʻoqligini ham, ochiq koʻz bilan uxlayotganini ham aniq bilmas edi.

«Dadam qayerda qoldi?» – deb oʻyladi u birdan. Soʻng qoʻshni xonaga oʻtib, u yerda kekxa Jep-

¹ Sexin – qadimgi Vinetsiyada muomalada boʻlgan pul.

pettoni sog‘-salomat, tetik holda ko‘rdi, chol hech qachon hozirgidek yaxshi kayfiyatda bo‘lmagan edi. U yana qo‘liga asbobini olib, ayni Pinokkio kirgan paytda, surat uchun ajoyib ramka yasab, uning hoshiyasiga yaproqlar, gullar va har turli hayvonlarning tasvirini o‘yib ishlayotgan edi.

Pinokkio Jeppettoni quchoqlab, uni mehr bilan o‘parkan:

– Qimmatli dadajon, birdan yuz bergan bu o‘zgarishlarning sababini tushuntirib bera ol-maysizmi? – deb so‘radi.

– Uyimizda kutilmaganda yuz bergan bu tasodiflar – yolg‘iz sening xizimatingdir, – deb javob qildi Jeppetto.

– Nega endi meniki bo‘larkan?

– Negaki, odobsiz bolalar, yaxshi bola bo‘lish-ganda, o‘z atrofidagi barcha narsalarni yangilash va go‘zallashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

– Oldingi yog‘och Pinokkio qayoqqa ketdi?

– Mana, turipti, – deb javob qildi Jeppetto va stulga tirab qo‘yilgan kattakon yog‘och qo‘g‘ir-choqqa – yog‘och odamga ishora qildi.

Qo‘g‘irchoqning boshi bir tomonga qiysha-yib ketgan, qo‘llari shalvirab osilgan, bir-biriga chalishgan oyoqlari esa, shu qadar bukilgan edi-ki, uning qanday qilib tik turishini hech tasavvur qilib bo‘lmasdi.

Pinokkio qo‘g‘irchoqqa astoydil tikilib qaradi. Bir daqiqacha shunday qattiq tikilib turgandan keyin, chuqur xo‘rsinib:

– Yog‘och bola bo‘lganimda judayam alo-mat bo‘lgan ekanman! Lekin endi haqiqiy bola bo‘lganimdan juda-juda baxtiyorman! – dedi.

Aleksey Tolstoy

Buratino

va uning sarguzashtlari

Bolalik chog'larimda – ko'p yillar avval, bir kitob o'qigandim. U «Pinokkioning boshidan kechirganlari» deb atalar edi (Buratino – italyanchada yog'och qo'g'irchoq degan ma'noni bildiradi).

Yosh do'stlarimga Buratino sarguzashtlarini tez-tez hikoya qilib berardim. Kitob esa allaqachon yo'qolib ketgandi. Shunday bo'lsa-da, men har safar kitobda bo'lmagan yangi sarguzashtlarni o'ylab topardim.

Bugun eski qadrdonim Buratinoni esladim. Jajji do'stlarimga uning g'aroyib sarguzashtlari haqida hikoya qilib berish orqali qahramonimning sarguzashtlaridan yoshi kitobxonlarni ham xabardor qilishni maqsad qildim.

Muallif





I. Duradgor Juzepning qo'liga odam tilida chiyillaydigan g'o'la tushib qoladi

Qadim zamonda O'rta dengizi bo'yidagi bir shaharchada Ko'k Burun laqabli Juzeppe degan keksa duradgor yashar ekan.

Kunlardan bir kun uning qo'liga bitta g'o'la, qishda o'choqqa yoqiladigan oddiy g'o'la tushib qoladi.

– Tuppa-tuzuk g'o'la ekan, – dedi o'ziga-o'zi Juzeppe, – undan stol oyog'i yo shunga o'xshash biror buyum yasasa bo'larkan...

Juzeppe shalag'i chiqqan ko'zoynagini taqdi-da, – g'o'laning u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi va bolta bilan uni tekislab chopa boshladi.

U g'o'lani endi bolta bilan chopa boshlagan ham ediki, allakim juda ingichka ovozda:



– Voy-voy, sekinroq iltimos! – deb chiyillab yubordi.

Juzeppe ko'zoynagini burnining uchiga surib, ustaxonasining u yoq-bu yog'iga qaradi – hech kim yo'q.

U dastgoh ostiga qaradi, u yerda ham hech kim yo'q...

Payrahalar solingan savatga qaradi, unda ham hech kim yo'q...

Eshikni ochib ko'chaga mo'raladi, ko'chada ham hech kim ko'rinmadi.

– Nahotki menga shunday tuyilgan bo'lsa? – deb o'yladi Jezepe. – Kim chiyilladi ekan-a?..

U boltasini yana qo'liga oldi, bolta g'olaga tegishi bilanoq;

– Voy, axir og'riyapti-ku! – nola qildi chiyilgan tovush.



Bu gal Juzeppe hech hazili yo‘q, qo‘rqib ketdi, hatto ko‘zoynagi xiralashib qoldi... U uyning har bir burchagini ko‘zdan kechirib chiqdi, hatto boshini o‘choqqa tiqib, mo‘ri ichiga uzoq tikildi.

– Hech kim yo‘q...

«Yoqmaydigan biror nima ichib qo‘ydim-u, qulog‘im shang‘illayaptimikan?» – deb o‘yladi o‘zicha Juzeppe.

Yo‘q, bugun u yoqmaydigan hech nima ichgani yo‘q... Biroz esini yig‘ib, Juzeppe randasini qo‘liga oldi, randaning tig‘i sal chiqsin uchun

uning orqasdan bir urib qo'ydi-da, g'o'laga randa soldi...

– Voy-voy, voy-voy, nimaga chimchilaysiz? – deb jon-jahdi bilan chiyilladi ingichka tovush.

Juzeppe qo'lidagi randasini tushirib yubordi, orqasiga tisarilib, yerga o'tirib qoldi. U chiyillagan ovoz g'o'laning ichidan chiqayotganini fahmlagan edi.

II. Juzeppe gapiradigan g'o'lani do'sti Karloga hadya qiladi

Shu payt Juzeppe ning oldiga uning eski qadrdon do'sti, Karlo degan sharmankachi kirib qoldi.

Bir vaqtlar Karlo soyaboni keng shlyapa kiyib, ajoyib sharmanka bilan shahar aylanib yurar, ashula aytib va musiqa chalib, o'ziga bir burda non topardi.

Hozir Karlo qarib qolgan, dardman edi, sharmankasi ham allaqachon buzilib qolgandi.

– Salom, Juzeppe, – dedi u ustaxonaga kirib kelar ekan.

– Nega yerda o'tiribsan?

– Bitta kichkinagina burama mixni yo'qotib qo'ydim... Bor-ey, yo'qolsa-yo'qolar! – javob qildi Juzeppe, o'zi esa g'o'laga ko'z qirini tashlab qo'ydi. – Xo'sh, ahvollaring qalay, qariya.

– Yomon, – dedi Karlo. – Nima qilsam, bir burda non topaman, deb o'ylaganim-o'ylagan... Sen ham yordam qilay demaysan, juda bo'lmasa biror maslahat ham bermaysan-a...

– Bundan ham oson ish bormi, – dedi quvnoqlik bilan Juzeppe, o'zi esa: «Mana bu badbaxt

g'oladan qutulay», deb o'yladi. – Bundan ham oson ish bormi: dastgoh ustida turgan anavi g'olani ko'ryapsanmi, Karlo, o'sha g'olani uyingga olib keta qol...

– Eh-ha, – dedi g'amginlik bilan Karlo, – xo'sh undan keyinchi? G'olani uyimga ham olib ketdik deylik, kulbamda uni yoqadigan o'choq ham yo'q-ku.

– Rost aytyapman, Karlo... qo'lingga pichoq ol-u g'oladan qo'g'irchoq kesib ol, so'ng har xil qiziq gaplarni, ashula aytish va o'yinga tushishni o'rgatib qo'y, uni hovlima-hovli olib yurib tomosha ko'rsat. Ana shunda bir burda non uchun ham, bir qadah may uchun ham pul topasan.

Shu payt g'ola turgan dastgohdan quvnoqlik bilan chiyillagan tovush eshitildi:

– Yashang, juda yaxshi maslahat berdingiz Ko'k Burun!

Juzeppe yana qo'rqib ketdi, qalt-qalt titray boshladi, Karlo esa tovushning qayerdan eshitilganini bilolmay hayron bo'lib, tevarak-atrofga ko'z yugurtira boshladi.

– Xo'p, Juzeppe, maslahating uchun rahmat. Mayli, g'olangni beradigan bo'lsang, bera qol.

Juzeppe bu gapni eshitishi bilanoq, darrov g'olani olib, o'rtog'ining qo'liga tutqazdi. Juzeppe qo'pollik qildimi, yo boshqa bir sabab bo'ldimi, har holda, g'ola bir sapchib kelib, Karloning boshiga qars etib tegdi.

– Iy-ye, menga bergan sovg'ang shu bo'ldimi hali! – deb qichqirdi xafa bo'lgan Karlo.

– Kechir, do'stim, seni men urganim yo'q.

– Demak, o‘z boshimga o‘zim uribman-da?

– Yo‘q, do‘stim, menimcha seni g‘o‘lning o‘zi urgan.

– Bo‘lmagan gap o‘zing urding...

– Yo‘q, men urganim yo‘q...

– Sening piyonista ekaningni bilardim-u, Ko‘k Burun, lekin yolg‘onchiligingni bilmas ekanman, – dedi Karlo.

– Iy-ye, hali so‘kinasanmi? – qichqirdi Juzeppe. – Qani, beriroq kel-chi!

– O‘zing beriroq kel, burningdan ushlab olib bir tortayki!..

Ikkala chol ham chiranishib, bir-birinig ustiga tepsinib kela boshladi. Karlo Juzeppe ning ko‘k burnidan ushlab oldi. Juzeppe Karloning quloqlari tepasidagina o‘sgan oppoq sochlari-dan ushlab oldi.

Shundan so‘ng ikkalasi ham bir-birining ta‘zirini bera boshlashdi. Dastgoh ustidan chiyillagan ovoz ularni bir-biriga gijgijlardi.

– Boplang uni! Boplang uni!

Nihoyat chollar charchashdi, harsillab qolishdi. Juzeppe dedi:

– Kel, yarashaylik...

– Xo‘p, – dedi Karlo. – Yarashsak yarasha qolaylik...

– Chollar o‘pishishadi. Karlo g‘o‘lani qo‘ltig‘iga urdi-da, uyiga ketdi.

III. Karlo yog'ochdan qo'g'irchoq yasaydi va uning ismini Buratino deb qo'yadi

Karlo zina ostidagi hujrachada yashardi, eshik qarshisidagi devordagi o'choqdan boshqa hech narsa yo'q edi.

Lekin chiroyli o'choq ham, o'choqdagi olov ham, olov ustida qaynab turgan qozoncha ham rostakam emas – eski bir kanop lattaga solingan rasm edi.

Karlo hujrasiga kirdi, oyog'i yo'q stolning yonida turgan bitta-yu bitta stulga o'tirdi-da, g'o'laning u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rgach, pichoq bilan qirqib-qirqib, undan qo'g'irchoq yasay boshladi.



«Otini nima qo'ysam ekan?» – deb o'ylar edi Karlo. – Buratino deb qo'ya qolay. Bu ism menga baxt keltiradi. Bir vaqtlar men bir oilani bilardim – hammasining oti Buratino, bolalarning oti ham Buratino... Hammalari betashvish, shod-xurram yashar edilar...

Avval g'oladan qo'g'irchoqning sochini qirqdi, keyin peshonasini, keyin – ko'zini...

Birdan hali bitmagan qo'g'irchoqning ko'zlari o'z-o'zidan ochilib, unga baqrayib qarab qoldi...

Karlo cho'chiganini zarracha ham bildirmadi, lekin:

– Hoy, yog'och ko'zchalar, nega menga bunday g'alati qaraysiz? – deb muloyimlik bilan. Lekin qo'g'irchoq javob bermas edi, shunday bo'lishi ham kerak edi, sababi, hali uning og'zi yo'q edi. Karlo qo'g'irchoqning betini yasadi, keyin oddiygina qilib, burun qirqdi...Birdan qo'g'irchoqning burni cho'zilib, o'sib keta boshladi, oxiri shunday uzun va qirra burun bo'lib qoldiki, Karlo hayron bo'lganidan, hatto tomoq ham qirib qo'ydi:

– Yaxshi emas, juda uzun bo'lib ketdi...

Keyin burunning uchini qirqmoqchi bo'ldi. Lekin qayoqda deysiz!

Burun pichoqqa chap berib qochardi. U axiri shundayligicha, uzun har narsaga qiziqib tiqilaveradigan, qirra burunligicha qoldi.

Karlo qo'g'irchoqqa og'iz yasashga kirishdi. Uning lablarini endi yasab bo'lgan ediki, og'iz birdan ochilib ketdi:

– Xi-xi-xi, Xa-xa-xa!

So'ng ingichka qip-qizil tilini chiqarib, masxara qildi.



Karlo uning qiliqlariga ahamiyat bermay: qirqdi, yo'ndi, o'ydi.

Qo'g'irchoqning og'zini, bo'ynini, yelkalarini, gavdasini qo'llarini yasadi...

Buratio Karloning kal boshiga mushtlari bilan qarsillatib tushirdi, uni chimchilay va qitiqlay boshladi.

– Menga qara, – dedi Karlo jiddiy, seni hali yasab bitirganim ham yo'g'-u, halittan sho'xlik qilasan... Keyinchalik shunday bo'ladi-a?..

Shunday dedi-da, u Buratinoga qovog'ini solib qarab qo'ydi. Buratio esa, sichqonniki singari dum-dumaloq ko'zlarini javdiratib, Karlo otaga qarab turardi.

Karlo chiqitga chiqqan tarashalardan unga tovoni katta-katta uzun oyoq yasab berdi. Shu bilan ishini tugatib, yog'och bolaga yurishni o'rgatish uchun uni yerga qo'ydi.

Buratinov ingichka oyoqlarini yerga bosib, chayqalib-chayqalib turdi-da, bir qadam bosdi, so'ng yana bir qadam bosdi. Keyin sakrab-sakrab, to'g'ri eshik oldiga keldi, ostonadan o'tib, ko'chaga chiqib ketdi.

Karlo ham xavotirlanib uning ketidan ko'chaga chiqdi:

– Hoy bebosh, orqangga qayt!..

Qayerda deysiz! Buratinov ko'chada quyondek chopib borardi, faqatgina toshga urilayotgan yog'och poshnalarining taq-taqi eshitilib turardi...

– Ushlanglar uni! – deb qichqirdi Karlo.

O'tkinchilar qochib kelayotgan Buratinonni bir-birlariga ko'rsatib kular edilar. Chorrahada uchburchak shlyapa kiygan, shop mo'ylov, gavdali politsiyachi turar edi.

Qochib kelayotgan kichkinagina yog'och odamni ko'rib qolib, u oyoqlarini kerib butun ko'chani to'sib turar edi. Buratinov uning oyoqlari ostidan o'tib ketmoqchi bo'lgan edi, u bolaning burnidan mahkam ushlab oldi-da, to Karlo ota yetib kelguncha shunday ushlab turdi...

– Shoshmay tur hali, bir ta'ziringni berib qo'ymasammi! – deb po'pisa qildi halloslab Karlo va Buratinonni nimchasining cho'ntagiga solib qo'ymoqchi bo'ldi...

Buratinov shunday xursandchilik kunda butun xalq oldida oyog'ini osmondan qilib nimchanning cho'ntagida yotishni istamadi. U epchillik bilan Karloning cho'ntagidan chiqib ketdi, shaq etib tosh ko'chaga yiqilib tushdi-yu, o'zini o'lgang solib yotaverdi.

– Obbo, – dedi politsiyachi, – ish chatoqqa oʻxshaydi!

Oʻtkinchilar toʻplana boshladi. Ular yerda choʻzilib yotgan Buratinoga qarab, bosh chayqar edilar.

– Bechora, – deyishardi baʼzilar, – ochdan oʻlganga oʻxshaydi...

– Karlo uni oʻlasi qilib kaltaklabdi, – deyishardi boshqalari, – bu qari sharmankachi oʻzini yaxshi odam qilib koʻrsatmoqchi boʻladi-yu, aslida yomon odam...

Buni eshitib, shop moʻylovli politsiyachi bechora Karloning yoqasidan olib, politsiya boʻlimiga sudradi.

Karlo boshmoqlarini sudrab, kuyib-pishib borar va oh-voh qilardi:

– Oh, bu yogʻoch bolani yasab, boshimga balo ortiribman-da!

Koʻcha boʻshab qolgach, Buratino burnini koʻtarib, atrofni koʻzdan kechirdi-da, uyga qarab chopdi...

IV. Gapiradigan qora chigirtka Buratinoga yaxshi maslahat berdi

Zina tagidagi hujraga yetib kelgach, stol oyogʻi oldiga oʻzini tappa tashladi.

– Yana nimani oʻylab topsam ekan?

Buratinoning dunyoga kelganiga hali bir kun ham boʻlmaganini esdan chiqarmanglar. Uning aqli hali juda kam, fikrlari kalta edi.

Shu payt allaqayerdan:

– Chi-r-r, chi-r-r, chi-r-r, – etgan tovush eshitildi.

– Buratino alanglab, hujrani koʻzdan kechira boshladi.

– Hoy, kim bu?

– Bu men, chir-r-r...

Buratino suvarakka oʻxshash bir hasharotni koʻrib qoldi, lekin uning boshi chigirtkanikiga oʻxshar edi. U oʻchoq tepasida, devorda turardi va turtib chiqqan oynadek koʻzlari bilan unga qarab chi-r-r, chir-r-r qilib sekingina chirillar, moʻylovlarini qimirlatardi.

– Hoy, sen kim boʻlasan?

– Men gapiradigan qora chigirtkaman, – deb javob berdi boyagi narsa, – mana yuz yildan ham oshdiki, shu hujrada turaman.

– Bu joyda men xoʻjayinman, yoʻqol bu yerdan!

– Xoʻp, hozir ketaman, yuz yildan beri yashab kelgan uydan ketish qiyin boʻlsa ham ketaman, – dedi gapiradigan qora chigirtka, – lekin ketishimdan oldin senga bir maslahat berib ketaman.

Qari qora chigirtkaning maslahatiga juda koʻzim uchib turuvdi...

– Eh, Buratino! – dedi qora chigirtka, – hadeb shoʻxlik qilaverma, Karloning gaplariga quloq sol, boʻlar-boʻlmasga uydan chiqib ketaverma, ertadan boshlab maktabga qatna. Boʻlmasa turli balolarga uchraysan, boshing qoʻrqinchli sarguzashtlardan chiqmay qoladi. Hayoting toʻqqiz pulga qimmat boʻlib qoladi.

– Nima uchun? – deb soʻradi Buratino.

– Nima uchunligini oʻshanda koʻrsan, – dedi gapiradigan qora chigirtka.



– Ol-a, esini egan chirilloq chigirtka-yey! – deb qichqirdi Buratino. – Dunyoda qo‘rqinchli sarguzashtlardan ham qiziq mavjudot bormi? Ertaga vaqtli turib, chiqib ketaman, devorlarga tirmashib chiqaman, qushlarning inini buzaman, bolalarni masxara qilaman, kuchuklar va mushuklarning dumidan sudrab yuraman. Bu hali nima bo‘libdi, bundan ham qiziqclarini topaman!..

– Attang, Buratino, attang, senga achinyapman, hali ko‘p ko‘z yoshlarini to‘kmasang edi.

– Nima uchun? – deb so‘radi yana Buratino.

– Chunki sen yog‘och, nodon kallasan.

Buratino sakrab, stolga chiqdi-da, stol ustida turgan bolg‘ani olib, gapiradigan qora chigirtkaning boshini mo‘ljallab otdi.

Aqlli qari qora chigirtka og'ir xo'rsinib, mo'ylovlarini qimirlatib qo'ydi-da, o'choq orqasiga qarab o'rmaladi – u bu uydan butunlay bosh olib ketdi.

V. Buratino yengiltakligi uchun o'lishiga sal qoldi. Karlo ota unga guldor qog'ozdan kiyim qilib beradi va alifbe olib beradi

Gapiradigan qora chigirtka ketib qolgandan keyin zina tagidagi bu hujraga kishini zeriktirib yuboradigan jimlik cho'kdi. Kun biram cho'zilib ketdi-yey! Buratinoning qorni ham hujra singari bo'm-bo'sh edi.

U ko'zini yumgan edi, to'satdan bir likopcha qovurilgan tovuq go'shtini ko'rdi.

Darrov ko'zini ochgan edi – likopchadagi tovuq yo'q bo'lib qoldi.

U yana ko'zini yumgan edi, ko'ziga yarmiga malina qiyomi, yarmiga bo'tqa solingan likopcha ko'rinib ketdi.

Ko'zini ochgan edi – yarmida malina qiyomi, yarmida bo'tqa solingan likopcha yo'q bo'lib qoldi.

Buratino shundan keyingina o'lgudek qorni ochligini bilib qoldi.

U chopganicha o'choq oldiga bordi-da, burnini olov ustida qaynab turgan qozonchaga tiqdi, lekin Buratinoning burni qozonchani teshib yubordi, chunki, boya aytganimizdek o'choq ham, olov ham, tutun ham, qozoncha ham shunchaki surat edi, bechora Karlo bir parcha eski kanop matoga ularning rasmini solgan edi.

Buratino burnini tortib oldi-da, teshikdan mo'ralab qaradi, kanop matoning orqasida kichkinagina eshikka o'xshagan bir narsa ko'rindi, lekin u yerni o'rgimchak iplari qoplagan edi, hech nimani anglab bo'lmasdi.

Buratino hujraning butun burchak-burchaklarini titkilab ko'ra boshladi. Zora, biror narsa topsa, non uvog'i bo'lsa ham, mushuk chala kemirgan tovuq suyagi bo'lsa ham mayli.

Eh, bechora Karloning uyida ovqat bo'ladigan hech narsa, mutlaqo hech narsa yo'q edi!

Birdan u payrahalar solib qo'yilgan savatda turgan tovuq tuxumini ko'rib qoldi. Darrov tuxumni olib, deraza tokchasiga keltirib qo'ydi-da, burni bilan tiq-tiq urib, tuxumni teshdi.

Tuxumning ichidan:

– Rahmat, yog'och odamcha! – deb chiyillagan ovoz eshitildi.

Siniq tuxum ichidan patlari momiqqina va ko'zlari javdiragan jo'ja chiqdi.

– Xayr! Hovlida ona tovuq meni anchadan beri kutib turibdi, – dedi jo'ja va Buratino esini yig'ib olguncha lip etib, derazadan hovliga tushib ketdi.

– Voy-voy! – deb qichqirdi Buratino, – qornim ochib ketyapti!..

Nihoyat kun kech bo'ldi. Hujraga g'ira-shira qorong'i tushdi.

Buratino olov rasmi oldida o'tirar va qorni nihoyatda ochib ketganidan sekin-sekin hiqichoq tutardi.

Bunday qarasa, zina ostidagi pol kavagidan kattakon kalla ko'rindi. U kavakdan chiqib,

atrofni hidlab ko'rdi. Keyin oyoqlari katta kulrang bir jonivor chiqib keldi.

U hech shoshmasdan payraha solingan savat oldiga keldi, savatning ichiga tushib, payrahalarni titkilab va hidlab ko'rdi va jahl bilan payrahalarni shitirlatdi. Aftidan u Buratino sindirgan tuxumni qidirayotgan edi.

Keyin u savatdan chiqib, Buratinoning oldiga keldi. Qora burnining ikki tomonidan to'rt-tadan o'sib chiqqan mo'ylovlarini qimirlatib, Buratinoni hidlab ko'rdi. Buratinodan yegulikning hidi kelmadi, shuning uchun uzun in-gichka dumini sudragancha indamay uning oldidan o'tib ketdi.

Shunday qiziq dumdan ushlab tortmay bo'lar-midi! Buratino darrov dumni ushlab tortdi.



Bu qari shum kalamush Shushara ekan.

U qo'rqib ketganidan, Buratinoni ham orqasidan sudraganicha kavakka o'zini urmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin dumiga yopishib olgan yog'ochdan yasalgan bitta tirmizak bola ekani ni ko'rib qoldi va shartta orqasiga qayrildi-da, Buratinoning kekirdagini g'ajib tashlash uchun g'azab bilan unga otildi.

Endi Buratinoning kapalagi uchib ketdi. U kalamushning muzdek dumini qo'yib yubordi-yu, bir sakrab stol ustiga chiqib oldi, kalamush ham stul ustiga otildi.

Buratino stuldan deraza tokchasiga sakradi. Kalamush ham uning ketidan sakradi.

Buratino deraza tokchasidan hujraning narigi burchagidagi stol ustiga sakrab o'tdi. Kalamush ham sakradi. U Buratinoni xuddi ana shu yerda ushlab oldi, stol ustiga ag'dardi-da, hiqildog'idan tishlab olganicha pastga olib tushdi va zina ostidagi kavakka sudray boshladi.

Buratino esa jon holatda:

– Karlo ota! – deb qichqira oldi, xolos.

– Men shu yerdaman! – degan baland ovoz eshitildi.

Eshik lang ochilib, Karlo ota kirib keldi. Oyog'idagi yog'och kavushini yechib, kalamushga qarab otdi.

Shushara yog'och bolani tashlab, tishlarini g'ichirlaganicha qochib qoldi.

– Hadeb sho'xlik qilaversang, shunaqa bo'ladi! – deb to'ng'illab qo'ydi Karlo ota, Buratinoni yerdan ko'tarib olar ekan. Uni qo'lga olib hech qayeriga zarar qilmadimikan deb u yoq-bu

yog'ini aylantirib qaradi. Keyin tizzasiga o'tqazib qo'ydi-da, cho'ntagidan piyoz oldi va uni tozalab, Buratinoga berdi.

– Ma, ye!..

Och qolgan Buratino lablarini chapillatib, piyozni qirs-qirs chaynay boshladi, yeb bo'lgach, Karlo otaning cho'tkaga o'xshagan betiga boshini ishqay boshladi.

– Men endi, juda aqlli bola bo'laman, Karlo ota, mo'min-qobil bola bo'laman... Gapiradigan qora chigirtka menga maktabga borgin, – dedi.

– Yaxshi gap aytibdi, bola...

– Karlo ota, qip-yalang'ochman-ku, yana o'zim yog'ochdanman, – maktabda bolalar meni masxara qilib kulishadi-da!

– E, ha, – dedi Karlo va yuzini qashib qo'ydi. – Gaping to'g'ri, bolakay!

U jin chiroqni yoqdi, qaychi, yelim, va gulli qog'oz topib keldi. Jigarrang qog'ozdan qirqib nimcha, oq ko'k qog'ozdan shalvar qilib berdi. Eski etigining qo'njidan poyabzal va eski paypog'idan popukli qalpoq yasab berdi.

Bularning hammasini Buratinoga kiygizib qo'ydi.

– Buyursin, kiyaver!

– Karlo ota, – dedi Buratino, – alifbesiz qanday qilib maktabga boraman?

– E, ha, to'g'ri aytasan, bolakay...

Karlo ota ensasini qashib, o'ylanib qoldi. Keyin bitta-yu bitta nimchasini yelkasiga tashlab, ko'chaga chiqib ketdi.

U tezda qaytib keldi, lekin yelkasida nimchasi yo'q edi. Qo'lida hrflari katta-katta, ajoyib rasmlar bilan to'la kitob bor edi.



– Mana senga alifbe. O‘qiyver endi.

– Karlo ota, qani sening nimchang?

– Nimchani sotib yubordim... Qo‘yaver, nimchasiz ham bir amallarman... Sen omon bo‘lsang bas.

Buratino erkalanib, Karlo otaning saxiy qo‘llarini burniga tekkizdi.

– O‘qib odam bo‘laman, katta bo‘lganimdan keyin senga mingta yangi nimcha olib bera-man...

Buratino umrida birinchi bor shu oqshom gapiradigan qora chigirtka aytganidek qilib, sho‘xlik qilmay hayot kechirmoqchi bo‘ldi.

VI. Buratino alifbeni sotib, qo'g'irchoq teatriga chipta oladi

Erta tongda Buratino alifbeni qo'tig'iga qistirib, sakrab-sakrab g'izillagancha maktabga qarab chopdi.

Yo'lda u do'konlardagi shirin-shirin pishi-riqlarga – asal qo'shib yopilgan sedanali non-larga, mazali somsalar, xo'rozqandlarga qay-rilib ham qaramadi.

Varrak uchirayotgan bolalarga qaragisi ham kelmadi.



Ko'chani kesib, ola mushuk Bazilio o'tib qoldi, Buratino uning dumidan ushlab tortishi mumkin edi. Lekin u bundan ham o'zini tiydi.

U maktabga yaqinlashib kelgani sari O'rta dengizi sohili tomonda chalinayotgan sho'x musiqa sadolari tobora baland jaranglardi.

- Chi-chi-chi, – deb chiyillar edi fleyta.¹
- G'i-g'i-g'i, – qilib kuylar edi g'ijjak.
- Jang-jung, – qilib jangillardi mis likopchalar.
- Dum! Dum! – qilib gumburlardi do'mbira.

Maktabga borish uchun o'ngga burilish kerak edi, musiqa sadolari esa chapdan eshitilardi. Buratino qoqilib-qoqilib keta boshladi. Oyoqlari o'z-o'zidan dengiz tomonga burilib ketaverdi. U yerdan esa hamon musiqa tovushi eshitilardi:

- Chi-chi, chi-chi, chi-chi...
- Jang-g'i-g'i..., jung-g'i-g'i...
- Dum!

- Maktabga borish qochmaydi-ku, – dedi ovozini baland qo'yib o'ziga-o'zi Buratino, – boraman-u, birpas musiqa eshitaman, so'ng darrov maktabga chopaman.

U jon-jahdi bilan dengiz sohiliga yugurdi. Buratinoning ko'zi tomosha ko'rsatadigan chodirga tushdi, chodir har xil rangdagi bayroqchalar bilan bezatilgan edi, bayroqchalar dengizdan esgan shabadadan hilpirardi.

Chodirning tepasida musiqa ohangiga muqom qilib to'rtta musiqachi o'z asboblarini chalar edilar.

Pastda esa semiz bir xola tirjaygancha chipta sotib o'tirardi.

¹ Fleyta – naysimon musiqa asbobi.

Chodirga kiriladigan eshik oldida olomon to'plangan edi, bular ichida o'g'il bolalar bilan qiz bolalar, askarlar, sharbat sotuvchilar, bolalarni yetaklab kelgan enagalar, o't o'chiruvchilar, xat tashuvchilar bor edi, ularning hammasi katta bir afishani o'qishardi. Afishada esa:

QO'G'IRCHOQ TEATRI

Faqat bitta tomosha ko'rsatiladi

Shoshilinglar!

Shoshilinglar!

Shoshilinglar!

deb yozib qo'yilgan edi.

Buratino bitta bolaning yengidan tortdi:

– Siz bilmaysizmi, chipta necha pul turarkan?

Bola hech shoshmay, istamaygina javob berdi:

– To'rt soldo turadi, yog'och odamcha.

– Bilasizmi, hoy bola, karmonim uyda qolipti...

Menga to'rt soldo qarz berib turolmaysizmi?..

Bola uni masxara qilib, hushtak chalib qo'ydi:

– Ahmoqni topding!..

– Qo'g'irchoq teatrini juda ham ko'rgim kelyapti-da! – dedi Buratino yig'lamoqdan beri bo'lib. – To'rt soldoga meni mana bu ajoyib nimchamni olsang-chi, a?..

– Qog'oz nimchaga to'rt soldomi? Ahmog'ing bozorga ketgan.

– Bo'lmasa, ajoyib qalpoqchamni ola qoling...

– Qalpog'ing itbaliq tutishdan boshqa Buratinoning burnigacha muzdek bo'lib ketdi – teatrga juda ham kirgisi kelgan edi.

– Hoy bola, bo'lmasa to'rt soldoga yangi alifbe kitobimni ola qoling...

– Surati bormi?

– Juda ajoyib suratlari bor, harflari ham katta-katta.

– Xo'p, bera qol, – dedi va alifbeni olib, istamaygina to'rt soldo sanab berdi.

Buratino chopganicha tirjayib o'tirgan semiz xola oldiga bordi-da chiyilladi:

– Menga qarang, qo'g'irchoq teatrining bir martagina qo'yiladigan tomoshasiga birinchi qatordan bitta chipa bering.



VII. Tomosha paytida qo'g'irchoqlar Buratinoni tanib qolishdi

Buratino birinchi qatorga borib o'tirdi va sahnani to'sib turgan pardani zavq bilan tomosha qila boshladi.

Pardaga o'yinga tushayotgan har xil qo'g'irchoqlarning rasmi solingan edi, unda qora niqob kiygan qizlar, yulduzli qalpoq kiygan sersoqol dahshatli qizlar, burni va ko'zlari chalpakka o'xshash quyosh, yana har xil ajoyib rasmlar bor edi.

Uch marta jom chalindi-da, parda ochildi.

Qalin qog'ozdan qilingan daraxtlar turardi. Daraxtlarning tepasida oymomoga o'xshagan chiroq osig'liq bo'lib, uning shu'lasi oynada aks etib turardi, unda paxtadan qilingan oltin tumshuqli oltin oqqush suzib yurardi.

Qalin qog'ozdan qilingan daraxt orqasidan yenglari uzun-uzun, o'zi ham uzun oq ko'ylak kiygan bir qo'g'irchoq chiqib keldi.

Uning betiga upa chaplangan edi.

Qo'g'irchoq tomoshabinlarga ta'zim qildi-da, g'amgin ohangda dedi:

– Salom, mening otim Pyero... Biz hozir sizlarga «Zangori sochli qiz yoki o'ttiz uch tarsaki» degan komediyani ko'rsatamiz. Meni tayoq bilan savalashadi, tarsaki bilan solishadi va kallamga mushtlashadi. O'zi juda qiziq komediya...

Sahnaning ikkinchi tomonidan yasama daraxt orqasidan a'zoyi badani shaxmat taxtasiga o'xshab katak-katak boshqa bir qo'g'irchoq chiqib keldi.

U hurmatli tomoshabinlarga ta'zim qildi:

– Salom, men Arlekin bo'laman! – dedi u.

So'ng Pyeroga o'girilib, uning betiga ikki tarsaki soldi, urganda ham shunaqangi qarsillatib urdiki, Pyeroning oyoqlaridan upa to'kildi.

– Nega hiqillab golding, tentak?

– Xotin olgim kelayapti, shuning uchun xafaman, – dedi Pyero.

– Nega uylanmading bo'lmasa?

– Chunki men olmoqchi bo'lgan qiz qochib ketdi...

– Ha, ha, ha, – deb qah-qah urib kuldi Arlekin, – ko'rdilaringmi uning tentakligini!..

U qo'liga tayoq olib, Pyeroni kaltakladi.

– O'sha qizning oti nima?

– Sen boshqa urmaysanmi?

– Iy-ye, kaltaklashni endi boshladim-ku.

– Bo'lmasa aytay, uning oti Malvina yoki zangori sochli qiz.

– Ha, ha, ha! – deb yana kula boshladi Arlekin va Pyeroni kallasiga uch marta musht soldi. – Gapini qarang-a, muhtaram tomoshabinlar... Zangori sochli qiz ham bo'ladimi, axir?

Lekin u tomoshabinlarga o'girilib qaradi-yu, birdan oldingi qatorda o'tirgan burni uzun og'zi qulog'iga yetadigan, popukli qalpoq kiygan yog'och bolaga ko'zi tushib qoldi...

– Qaranglar, qaranglar, bu Buratino-ku! – deb qichqirib yubordi Arlekin, uni barmoqlari bilan ko'rsatib.

– Tirik Buratino o'tiribdi-ya! – deb hayqirib yubordi Pyero uzun yenglarini silkitib.

Qalin qog'ozdan qilingan, daraxtlar orasidan bir to'da qo'g'irchoqlar, qora niqob kiygan qizlar, qalpoq kiygan dahshatli sersoqol kishilar, munchoq ko'zli paxmoq itlar, burni bodringga o'xshagan bukrilar chiqib kelishdi...

Ular sahnaga qator qilib yoqib qo'yilgan shamlar oldiga keldilar-da, unga qarab biriga-biri so'z bermay qichqira ketdilar:

– Bu Buratino-ku! Buratino-ku! Bu yoqqa chiqib, chiq bu yoqqa, obbo xushchaqchaq hiylakor-ey!

Shunda Buratino joyida o'tirolmadi, bir sakrab suffyor xonasiga, undan sahnaga chiqdi.

Qo'g'irchoqlar uni ushlab olishdi, o'z holiga qo'ymay quchoqlab, o'pib, chimchilay boshlashdi. Keyin hamma qo'g'irchoqlar «qushlar raqsi» ni boshlab yubordilar:

*Erta tongda o'tloqda
Qushcha o'ynar polka¹ga
Bu Karabas polkasi, –
Burun chapga, dum o'nga.*

*Ikki qo'ng'iz dap chalar,
Cho'lbaqa kontrabas²ni
Burun chapga, dum o'ngga, –
Bu Barabas polkasi*

*Qush polkaga o'ynaydi, –
Chunki juda xursand u.*

¹ Polka – polyak xalq raqsi.

² Kontrabas – skripkaga o'xshash cholg'u asbobi.

*Burun chapga, dum o'ngga, –
Shunday polka edi u.*

Tomoshabinlar ta'sirlanib ketishdi. Bitta enaga, hatto ko'z yoshi ham qilib oldi. Bitta o't o'chiruvchi ho'ng-ho'ng yig'lay boshladi.

Faqat orqa qatorda o'tirgan bolalarning jahli chiqardi, ular to'pillatib polni tepa boshladilar.

– Shuncha og'iz-burun o'pishganingiz bo'lar, kichkina emassizlar axir, tomoshani davom ettiringlar! – deb qichqirishardi ular.

Bu shovqin-suronni eshitib qolib, sahna orqasidan bir kishi mo'raladi, u shunaqangi dahshatli ediki, bitta qarashining o'zidanoq qo'rquvdan tarashadek qotib qolishi mumkin edi.

Uning chigal bo'lib ketgan soqoli uzunligidan yerga sudralib yurar edi, ko'zlari ola-kula bo'lib ketgan, o'raga o'xshagan kattakon og'zidagi tishlari g'ijirlar edi, go'yo u odam emas, timsoh edi. Qo'lida yetti qavat qilib o'ralgan qamchisi bor edi.

Bu kishi qo'g'irchoq teatrining xo'jayini, qo'g'irchoq fanlari doktori janob Karabas Barabas edi.

– Xa-xa-xa, xe-xe-xe! – o'kirdi u Buratinoga qarab. – Mening ajoyib komediyamni buzgan senmisan hali.

U Buratinoni ushlab, teatr omboriga olib bordi-da, devordagi qoziqqa osib qo'ydi. Qaytib kelib, komediyani davom ettiringlar, deb yetti qavat qilib o'rilgan qamchisi bilan qo'g'irchoqlarga po'pisa qildi.

Qo'g'irchoqlar tomoshani nari-beri o'ynab tamom qildilar, parda yopildi, tomoshabinlar tarqalishdi.

Qo'g'irchoq fanlari doktori janob Karabas Barabas oshxonaga ovqat yegani ketdi.

Xalaqit qilmasligi uchun u soqolining uchini cho'ntagiga solib qo'ydi-da, bitta butun quyon bilan ikkita jo'ja qovurilayotgan o'choq oldiga o'tirdi.

Barmog'ini tupugi bilan ho'llab kabobning pishgan-pishmaganini bilish uchun uni ushlab ko'rdi, ovqati hali xomdek ko'rindi.

O'choqda o'tin kamroq edi. Shuning uchun u qarsillatib, uch marta chapak chaldi.

Chopishganicha Arlekin bilan Pyero kirib kelishdi.

– Haligi bechora Buratinoni olib kelinglar, – dedi janob Karabas Barabas – U quruq yog'ochdan yasalgan. Men uni yoqib yuboraman, kabobim tezroq pishadi.

Arlekin bilan Pyero uning oldida tiz cho'kishdi, bechora Buratinoni kechirishini iltimos qilishdi.

– Mening qamchirim qayerda qoldi? – deb bo'kirib berdi Karabas Barabas.

Shunda ular ho'ng-ho'ng yig'lab, omborga ketishdi, Buratinoni qoziqdan olishdi-da, oshxonaga olib kelishdi.

VIII. Buratinoni yoqib yuborish o'rniga janob Karabas Barabas unga besh tilla pul beradi va uyiga jo'natib yuboradi

Qo'g'irchoqlar Buratinoni sudramoqdan beri qilib olib kelib, o'choq oldiga tashlaganlarida janob Karabas Barabas gulduros bilan burnini tortib, otashkurak bilan cho'g' titayotgan ekan.

Birdan uning ko'zlariga qon quyilib qizardi, keyin burni, burnidan keyin butun yuzi tirishib ketdi. Aftidan burniga ko'mir kirib ketgan edi.

– Aap...app...app... ap-chshu! – deb aksa ura boshladi Karabas Barabas. – Aap-chshu.

U shunday qattiq aksa urdiki, o'choqdagi kul to'zg'ib ketdi.

Qo'g'irchoq fanlari doktori bir aksa ura boshlasa, hech to'xtamas, ellik martagacha, ba'zan yuz martagacha ketma-ket aksa uraverardi.

Bu xilda g'alati aksa urishdan uning tinkasi qurib qolar va ko'ngli ancha yumshar edi.

– Aksa urayotganida, u bilan bir gaplashib ko'rsang-chi...– dedi Pyero Buratinoga sekingina.

– Aap-chshu! Aap-chshu! – Karabas Barabas og'zini katta-katta ochib havo yutar va boshini silkib, oyog'i bilan polni to'killatib tepib, gulduros bilan aksa urar edi.

Oshxonadagi hamma narsa titrar, derazalar zirillar, tovalar va qoziqlarga osilib qo'yilgan idishlar chayqalardi.

Karabas Barabas aksa urar ekan, Buratino mungli ingichka tovush bilan chiyillab, oh-voh qila boshladi:

– Voy men bechora, sho'rim qursin mening, menga hech kim achinmaydi!

– O'chir ovozingni! – deb baqirdi Karabas Barabas. – Menga xalaqit qilayapsan... Aap-chshu!

– Salomat bo'ling, janob, – dedi burnini tortib, piqillab Buratino.

– Rahmat... ha, ota-onang tirikmi? Aap-chshu!

– Mening hech qachon onam bo'lgan emas, janob. Oh, sho'rim qursin mening! – dedi-da, Buratino shunday qattiq chinqirib yubordiki, Karabas Barabasning quloqlari shang'illab ketdi.

Yer tepinib do'q qilib berdi.

– Jim boʻl deya pman senga! Aap-chshu! Otang-chi, otang omonmi?

– Bechora otam hali tirik, janob.

– Seni yoqib, quyon bilan ikkita joʻja pishirganimni bilganda otang ne holatga tushishini bilib turibman... Aap-chshu!

– Bechora otam shundoq ham yaqin orada ochlik va yalangʻochlikdan oʻlib ketadi. Qarigan chogʻidagi bitta-yu bitta ishongani, koʻzining oq-u qorasi menman. Qoʻyib yubora qoling meni, janob.

– Nima, nima! – deb boʻkirdi Karabas Barabas. – Zigʻircha ham rahm qilmayman. Quyon bilan joʻjalarimni qovurishim kerak.

– Kir oʻchoq ichiga. Janob, buni bajara olmayman.

– Nima uchun? – deb soʻradi Karabas Barabas. U buni Buratino hadeb chiyillayverib garang qilmasin, toʻgʻrilikcha gapirsin deb soʻradi.

– Janob, men bir marta oʻchoqqa burnimni tiqib koʻrgan edim, lekin oʻchoqni teshib qoʻydim, xolos.

– Nimalar deb valdirayapsan! – deb hayron boʻldi Karabas Barabas. – Burun bilan ham oʻchoqni teshib boʻlarkanmi?

– Shuning uchun teshib qoʻydimki, janob, oʻchoq bilan qozoncha eski kanop matoga solingan rasm ekan.

– Aap-chshu! – deb Karabas Barabas shunaqangi qattiq aksa urib yubordiki, Pyero chap tarafga, Arlekin oʻng tarafga ketdi, Buratino esa turgan yerida gʻir-gʻir aylanib qoldi.

– Eski lattaga solingan o‘choqni, olovni va qozonchani qayerda ko‘rding?

– Otam Karloning hujrasida.

– Karlo sening otangmi hali! – deb Karabas Barabas o‘rnidan turib ketdi, qo‘llarini shiddat bilan silkitdi, soqolining uchi bir tomonga uchib ketdi. – Yashirin yo‘lga hali qari Karloning hujrasidan kirilar ekan-da...

Lekin Karabas Barabas allaqanday bir sirni ochib qo‘ymaslik uchun ikki mushti bilan og‘zini berkitib oldi. Shu tarzda u o‘choqdagi o‘cha boshlagan olovga qarab, ancha vaqt o‘tirib qoldi.

– Xo‘p, – dedi u nihoyat, – men pishmagan quyon va xom jo‘jalar bilan qorin to‘yg‘aza qolaman. Men seni yoqib yubormayman, Buratino. Buning ustiga... – dedi-da, soqoli ostiga qo‘l tiqib, nimchasining cho‘ntagidan besh tilla pul chiqardi va Buratinoga uzatdi...

– Buning ustiga... Mana bu pulni ham ol-da, Karloga oborib ber. Unga mendan salom ayt. Unga mendan salom aytginki, ochlik va yalang‘ochlikdan aslo o‘la ko‘rmasin, eng muhimi, eski kanopga o‘choq rasmi solingan hujrasidan hech qayoqqa ko‘chmasin. Bor endi, yaxshilab uxlab ol-da, erta bilan vaqtli turib, uyingga yugur.

Buratino besh tilla pulni cho‘ntagiga solib qo‘ydi-da, hurmat bilan ta‘zim qildi:

– Rahmat, janob. Pulning juda ham ishonchli cho‘ntakka tushganiga ishonavering...

Arlekin bilan Pyero Buratinoni qo‘g‘irchoqlar yotoqxonasiga boshlab bordilar, qo‘g‘irchoqlar qanday qilib o‘limdan qutulib qolgani no-

ma'lum bo'lgan Buratinoni yana o'rtaga olib quchoqladilar, o'pdilar, chimchiladilar, so'ng yana o'pdilar.

Buratino esa qo'g'irchoqlarga:

– Bunda bir sir bor, – der edi shivirlab.

**IX. Buratino uyga ketayotganida,
ikki tilanchi – Bazilio mushuk bilan
Alisa tulkini uchratadi**

Ertasiga ertalab Buratino pulni sanab ko'rdi, tilla pullar bir qo'lda nechta barmoq bo'lsa, xuddi shuncha roppa-rosa beshta edi.

Tilla pullarini mushtumiga qisib, uyiga qarab choparkan, xirgoyi qilardi:

– Karlo otaga yangi nimcha, ko'pgina sedana nonlar, xo'rozqandlar olib beraman.

Qo'g'irchoq teatrining chodiri va uning tepasida hilpirab turgan bayroqlar orqada qolgach, u ko'chada zo'rg'a oyog'ini bosayotgan ikki tilanchiga duch keldi. Bulardan biri uch oyoqlab oqsoqlanib yurgan Alisa tulki, ikkinchisi ko'r mushuk Bazilio edi.

Bu mushuk Buratino kecha ko'chada ko'rgan mushuk emas, boshqasi edi, lekin bunisining oti ham Bazilio va o'zi ola mushuk edi. Buratino indamay o'tib ketmoqchi edi-yu, lekin Alisa tulki juda muloyimlik bilan Buratinoga murojaat qildi:

– Salom, oliyjanob Buratino! Bunchalik shoshib qayoqqa ketayapsan?

– Uyga, Karlo otaning oldiga.

Tulki oh tortib, yana ham muloyimlik bilan dedi:

– Bechora Karloni tirik ko‘rarmikansan, och-va yalang‘och qolib sho‘rlikning juda mazasi qochib qoldi...

– Mana buni ko‘rib qo‘y, hoy! – dedi Buratino va kaftidagi besh tilla tangani ko‘rsatdi.

Pulni ko‘rib, tulki panjasini beixtiyor unga uzatdi, mushuk esa o‘zining ko‘r ko‘zlarini shunday katta ochib, pulga qaradiki, ko‘zlari ikkita ko‘k chiroqqa o‘xshab yonib ketdi.

Lekin Buratino bu o‘zgarishlardan bittasini ham sezmadi.

– Mehribon, asil yigit Buratino, bu pullarni nima qilmoqchisan?

– Karlo otamga yangi nimcha olaman... Yangi alifbe olaman...

– Alifbe-ya, alifbe, eh, attang! – dedi Alisa tulki bosh chayqab. – Shu o‘qishni deb boshingga balolar yog‘ilmasa edi... Bitta o‘qigan menmi, o‘qib erishgan martabamni ko‘rdingmi, – uch oyoqlab oqsab yuribman.

– Alifbe emish-a! – deb to‘ng‘illadi Bazilio mushuk va jahl bilan xirillab qo‘ydi. – Shu la‘nati o‘qishni deb ko‘r bo‘ldim...

Yo‘l bo‘yidagi qurib qolgan daraxt shoxiga qari bir qarg‘a qo‘nib o‘tirar edi. U bularning gapiga quloq solib turdi-da, birdan:

– Yolg‘on, yolg‘on, – deb qag‘illab yubordi.

Bazilio mushuk yuqoriga sakradi, qarg‘aga chang soldi, qarg‘a sho‘rlik dumining yarmisini mushuk changalida qoldirib, zo‘rg‘a qochib qutuldi. Mushuk esa yana ko‘rga o‘xshab qoldi.

– Nega bunday qildingiz, Bazilio mushuk? – deb so‘radi hayron bo‘lib Buratino.

– Ko‘zlarim ko‘r emasmi, – deb javob berdi mushuk, – daraxtda kuchuk bola o‘tirgandek tuyildi...

Uchovlari chang yo‘ldan keta boshladi.

– Aqlli, idrokli Buratino, puling o‘n hissa ko‘pa-yib ketishini xohlaysanmi? – deb so‘radi tulki.

– Albatta, xohlayman! Qanday qilib ko‘payti-raman?

– Juda oson. Yur biz bilan.

– Qayoqqa?

– Ahmoqlar mamlakatiga.

Buratino biroz o‘ylab oldi.

– Yo‘q bormayman, yaxshisi hozir uyga keta-man.

– Bormasang borma, nima birov bo‘yningga arqon solib sudrayaptimi? – dedi tulki. – O‘zing-ga qiyin.

– O‘zingga qiyin, – deb to‘ng‘illadi mushuk.

– O‘z foydangni bilmas ekansan, – dedi tulki.

– O‘z foydangni bilmas ekansan, – deb to‘ng‘il-ladi mushuk.

– Besh tilla pulingni bir xalta qilib kelar-ding-a...

Buratino to‘xtadi, og‘zi ochilib qoldi-yu...

– Yolg‘on, – dedi u.

Tulki dumining tagiga bostirib o‘tirdi, lablari-ni yalab qo‘ydi:

– Hozir tushuntirib beraman. Ahmoqlar mam-lakatida bitta sehrli maydon bor, uni Mo‘jizalar maydoni deyishadi... O‘sha maydonda bitta

chuqur qaziysan, uch marta: «Kreks, feks, peks» deysan, chuqurga oltinlaringni qo'lasan-da ko'masan. Ustidan ozgina tuz sepib qo'lasan, yaxshilab suv sepan-da, yotib uxlaysan. Er-talab chuqurdan bitta kichkinagina daraxt o'sib chiqadi, uning barglari nuqul tilla pullar bo'ladi. Tushundingmi?

Buratino, hatto o'ynoqlab ketdi:

– Yolg'on!

– Yur, Bazilio, – dedi xafa bo'lib tulki, – gapi-mizga ishonmayapti, ishonmasa ishonmasin...

– Yo'q, yo'q, – deb qichqirdi Buratino, – ishondim, ishondim!.. Yuringlar tezroq Ahmoqlar mamlakatiga.

X. «Uch tanga baliq» oshxonasida

Buratino, Alisa tulki va Bazilio mushuk tog'dan pastga tushib, yo'lga ravona bo'ldilar, ko'p yurdilar, ko'p yursalar ham mo'l yurdilar – dalalardan, uzumzor bog'lardan, qarag'ayzordan o'tib, dengiz bo'yiga chiqdilar, keyin dengiz bo'yidan orqaga qaytib, yana boyagi qarag'ayzor, uzumzor bog'lar oldidan o'tdilar...

Alisa tulki xo'rsinib-xo'rsinib qo'yar va:

– Uh, Ahmoqlar mamlakatiga yetish oson emas-da, yuraverib o'lib bo'lasan... – der edi.

Kechga yaqin ular yo'l bo'yidagi tekis tomli bir eski uyga yetib keldilar, uyga kiraverishda tepaga:

«Uch tanga baliq» oshxonasi

deb yozib qo'yilgan edi.

Oshxonaga xo'jayini mehmonlarni qarshi oldi, kal boshidan bosh kiyimini yechib, egilib, bukilib ta'zim qila-qila ularni ichkariga taklif qildi.

– Quruq non yeb bo'lsa ham qorin to'yg'azmasak bo'lmaydi deyman, – dedi tulki.

– Qoq non bilan ham mehmon qilmaydi-ya hech kim, – deb quvvatladi uning so'zini mushuk.

Oshxonaga kirib, sixlar va tovalarda har xil taomlar pishirilayotgan o'choq oldiga kelib o'tirdilar.

Tulki tez-tez labini yalab qo'yardi, Bazilio mushuk esa oldingi ikki oyog'ini stol ustiga, mo'ylovdor tumshug'ini esa oyog'i ustiga qo'yib, ovqatlarga tikilganicha qoldi.

– Hoy, xo'jayin, – deb chaqirdi kekkayib Buratino, – bizga uch burda non bering...



Shunday aziz mehmonlarning quruq non so'rayotganini eshitib, xo'jayin hayron bo'lganidan chalqanchasiga yiqilib tushishiga sal qoldi.

– Farosatli, quvnoq Buratino hazillashyapti xo'jayin, – dedi qiqir-qiqir kulib tulki.

– U hazillashyapti, – dedi mushuk.

– Uch burda non bering, – dedi tulki, – yana hov ana pishirilgan qo'zichoqni, huv anavi g'ozni, sixda pishirilayotgan kaptardan ikkitasini ham olib keling, yana ozgina jigar bersangiz ham mayli...

– Karas balig'ining semiz-semizidan oltitasini olib keling, – deb buyurdi mushuk, – ozgina mayda xom baliqdan ham bera qoling.

Gapning qisqasi, ular o'choqda pishirilayotgan narsalarning hammasini olishdi, Buratino-ga esa faqat bir burda non qoldi.

Alisa tulki bilan Bazilio mushuk ovqatning hammasini suyaklarigacha qo'ymay paqqos tushirdilar, hatto suyaklarini ham kemirib qo'ydilar. Qorinlari shishib, tumshuqlari osilib qoldi.

– Biror soat dam olamiz, – dedi tulki, – rosa yarim kechada yo'lga chiqamiz. Bizni uyg'otib qo'yish esingizdan chiqmasin-a, xo'jayin...

Tulki bilan mushuk ikkita yumshoq karavotga chiqib, yotib oldilar-u, xurрак ota boshladilar. Buratino bir burchakdagi itning joyiga borib yotdi.

Tushiga barg o'rniga oltin tangalar o'sib chiqqan daraxt kirdi... Oltin barglarni olaman deb endi qo'l uzatgan edi...

– Ey, janob Buratino, turing, yarim kecha bo'ldi... – degan tovushni eshitib, uyg'onib ketdi.

Eshik taqillayotgan edi. Buratino sapchib o'rnidan turdi, ko'zlarini ishqaladi. Karavotlar bo'm-bo'sh edi, na mushuk bor edi, na tulki.

– Muhtaram do'stlaringiz ertaroq turishdi, – deb tushuntirdi unga xo'jayin, – mazali shirinlik bilan qorin to'yg'azib ketib qolishdi...

– Menga hech narsa deb ketishmadimi?

– Aytib ketishganda qandoq, «Vaqtini qo'ldan boy bermay, yo'ldan to'g'ri o'rmonga qarab borsin, bu ishni paysalga solmasin», deb ketishdi...

Buratino eshikka otildi, lekin xo'jayin uning yo'lini to'sdi, qo'llarini ikki biqiniga tirab, ko'zlarini qisib turib so'radi:

– Xo'sh, ovqatning pulini kim to'laydi?

– Voy, – dedi chiyillab Buratino, – qancha?

– Rosa bir tilla...

Buratino uning oyoqlari orasidan o'tib ketmoqchi bo'lgan edi, lekin xo'jayin qo'lga bitta sixni oldi, uning qattiq mo'ylovi, hatto qulog'i tepasidagi sochlarigacha tippa-tik bo'lib ketdi.

– Pulni to'la, ablah, bo'lmasa qorningga six tiqib olaman.

Besh tilladan bittasini to'lashga to'g'ri keldi. Alam qilganidan Buratino burnini torta-torta bu la'nati oshxonadan chiqib ketdi.

Tun qorong'i edi, qora kuyadan ham qoraroq bir tun edi. Atrof jimjit, hamma uyquda. Buratinoning tepasida Uxlaqijon degan tun qushi sharpasiz uchib yurardi.

Uxlaqijon yumshoq qanotlari bilan Buratinoning uzun burniga urib-urib qo'yar va:

– Ishonma, ishonma, ishonma! – deb takrorlard.

Buratino jahli chiqib to'xtadi-da:

– Nima deysan? – deb so'radi.

– Mushuk bilan tulkiga ishonma...

– Meni tinch qo'y.

Buratino chopganicha o'z yo'lida ketdi. Uxlaqijonning:

– Bu yo'ldagi qaroqchilardan ehtiyot bo'l, – deb qolgani qulog'iga chalindi.

XI. Buratinoga qaroqchilar hujum qiladi

Osmonning bir chetida ko'kish yorug'lik paydo bo'ldi – oy chiqmoqda edi.

Oldinda qorayib turgan o'rmon ko'rindi.

Buratino qadamini tezlatdi. Orqasidan kelayotgan allakim ham qadamini tezlatdi.

U chopib ketdi, ketidan kelayotgan allakim ham tovush chiqarmaslikka tirishib, sakrab-sakrab yugurib kela boshladi.

Buratino o'girilib orqasiga qaradi.

Uni ikki kishi quvib kelmoqda edi – boshiga qop kiyib olgan, faqat ko'zlarining oldida ikkitadan teshik bor edi.

Bo'yi pastrog'ining qo'lida katta pichoq yaraqlar edi, bo'yi balandrog'ining qo'lida esa uchli to'pponcha bor edi...

– Voy-voy! – deb chinqirib yubordi Buratino va ko'rinib turgan o'rmonga qarab quyondek qochib qoldi.

– To'xta-to'xta! – deb qichqirishardi qaroqchilar.

Buratinoning kapalagi uchib ketgan bo'lsa ham, har holda, esini yig'ib oldi, – qolgan to'rt tillani og'ziga tiqdi-da, yo'l bo'yida o'sib yotgan

maymunjonlar orasiga o'zini urdi... Lekin qaroqchilar uni xuddi shu yerda ushlab oldilar...

– Hamyonmi yoki jon?

Buratinno ularning talabiga go'yo tushunmas, faqat tez-tez nafas olardi. Qaroqchilar uning oyog'ini osmondan qilib, silkitib ko'rdilar, bittasi to'pponcha o'qtalib turdi, ikkinchisi uning cho'ntaklarini titib chiqdi.

– Puling qani? – dedi xirillab baland bo'yli.

– Pul qani, pul yaramas! – dedi pishillab past bo'yli.

– Parchalab tashlayman!

– Kallangni kemiraman!

Buratinno qo'rqqanidan shunday qaltiray boshladiki, og'zidagi tilla pullar jaranglab ketdi.

– Yashirgan joyini qara! – deb uvillab yubordilar qaroqchilar. – Og'zida ekan...

Bittasi Buratinonning oyog'idan, ikkinchisi boshidan ushlab oldilar-da, uni osmonga ota boshladilar. Lekin u tishini mahkamroq qisib oldi.

Qaroqchilar Buratinonning oyog'ini osmondan qilib, boshini taq-taq yerga ura boshladilar. Lekin bu ham foyda bermadi.

Bo'yi pastroq qaroqchi qo'lidagi katta pichog'i bilan Buratinonning tishlari bir-biridan ajratmoqchi bo'ldi. Mana, tishlari ochilay-ochilay deb qoldi... Lekin shu payt Buratinno epchillik bilan qaroqchining qo'lidan chiqdi-yu, jon achchig'ida uning qo'lini g'archcha tishlab oldi... Lekin u qo'l emas, mushukning oyog'i ekan. Qaroqchi faryod qilib yubordi. Buratinno vaqt g'animatda kaltakesakdek chaqqonlik

bilan qochib qoldi, tikanli maymunjon tomon otildi, o'zini uning ichiga urdi, maymunjonning tikanlari nimchasi bilan ishtonini o'zib-yirtib yuborganiga ham parvo qilmay, narigi tomonga o'tib oldi-da, o'rmonga qarab chopdi.

O'rmon chetida qaroqchilar unga yana yetib oldilar. U bir sakrab, siltanib turgan shohga osilib oldi-da, daraxt ustiga chiqib ketdi. Qaroqchilar ham uning ketidan chiqa boshladilar. Lekin ularga boshlariga kiyib olgan qoplari xalaqit berardi.

Daraxtning uchiga chiqib olgach, Buratino shoxni tebratib turib, sakrab narigi daraxtga o'tib ketdi. Qaroqchilar ham shunday qilishdi...

Lekin ularning ikkalasi ham yerga yiqilib tushishdi.

Qaroqchilar oh-voh qilib, u yoq-bu yog'ini uqalab olguncha, Buratino daraxt ustidan lip etib, sakrab tushdi-da, shunaqangi qochdiki, hatto oyog'i ham yerga tegmadi.

Oy nurida daraxtlar uzun-uzun soya solib turar edilar. Buning natijasida o'rmon yo'l-yo'lga o'xshab ko'rinar edi...

Buratino goh soya qorong'isida, goh oy yorug'ida uning oppoq qalpog'i lip etib ko'rinardi.

Shu taxlitda u ko'l bo'yiga yetib keldi. Oynaga o'xshab turgan ko'l tepasida oy nur sochib turardi, xuddi qo'g'irchoq teatridagi manzaraga o'xshash.

Buratino o'ng tomonga o'zini urdi – oyog'i botib ketdi. Chap tomonga yugurdi – yana

botqoq... Orqasidan esa yana shitirlagan tovushlar eshitilardi...

– Ushla, ushla uni...

Qaroqchilar yetay deb qolgan edilar, ular Buratinoning qayerdaligini ko'rish uchun ho'l o'tlar ustidan baland-baland sakrab chopib kelar edilar.

– Ana ul!

Buratinoning o'zini suvga tashlashdan boshqa iloji yo'q edi. Shu payt u sohilga yaqin yerda, boshini qanoti ichiga yashirib, uxlab yotgan oqqushni ko'rib qoldi.

Buratinno o'zini ko'lga otdi, sho'ng'ib borib, oqqushning ikki oyog'idan mahkam ushlab oldi.

– Hoy-hoy, – deb hoyhoylab qoldi oqqush uyg'onib ketib, – bu qanaqa bemaza hazil! Oyog'imni tinch qo'yinglar!

Oqqush katta-katta qanotlarini yozdi, qaroqchilar Buratinoning suvdan chiqib turgan oyoqlarini endi ushlab olay deb turganlarida, oqqush salobat bilan qanot qoqib ko'l ustidan uchib ketdi.

Ko'lning narigi sohiliga yetgach, Buratinno oqqushning oyog'ini qo'yib yubordi-da, shalop etib, yerga tushdi, darrov o'rnidan turib, qamishlar orasidan to'g'ri tepasida oy turgan adirga qarab yugurdi.

XII. Qaroqchilar Buratinoni daraxtga osib ketdilar

Nihoyatda charchab qolgan Buratinno kuz kelib, holdan toyib qolgan pashshadek zo'rg'a oyog'ini ko'tarib bosar edi.

Birdan yong'och daraxtining shoxlari orasidan u kichkinagina bir chamanzorni ko'rib qoldi, chamanzor o'rtasida oy nuriga cho'mgan to'rt derazali kichkinagina bir uycha turardi. Deraza eshiklarida quyosh, oy va yulduzlarning surati bor edi.

Uy atrofida zangori gullar o'sib yotardi.

Yo'lkalarga top-toza qum sepilgandi. Favvoradan suv otilib chiqib yotar, suvning o'rtasida goh sal ko'tarilib, goh biroz pastroq tushib bitta koptok aylanib turardi.

Buratino emaklab borib, eshik ostidagi zinaga chiqdi-da, eshikni taqillatdi. Aftidan, ichkaridagilar qattiq uxlab qolgan edilar.

Shu payt o'rmon ichidan yana qaroqchilar chiqib qolishdi. Ular ko'ldan suzib o'tishgan, ho'l-shalabbo bo'lib ketgan edilar. Buratinoni ko'rishi bilan past bo'yli qaroqchi mushukka o'xshab miyovlab, baland bo'yli esa tulkiga o'xshab chiyillab qoldilar...

Buratino eshikni ham oyog'i, ham qo'li bilan taqillata boshladi:

– Yordam beringlar, yordam beringlar, hoy, yaxshilar!..

Shunda derazadan burni biroz puchuproq, sochlari jingalak-jingalak chiroylikkina bir qizning boshi ko'rindi.

Qizning ko'zlari yumuq edi.

– Hoy qiz, eshikni oching, meni qaroqchilar quvib kelishyapti!

– Behuda gapni qo'ysangiz-chi, – dedi qizcha chiroyli og'zini ochib esnarkan. – Mening uyqum kelyapti, hatto ko'zimni ham ocholmayman...

Qiz qo'lini derazadan oldi, uyqu aralash bir kerishdi-da, derazadan nari ketdi.

Nima qilishini bilmay qolgan Buratino burni bilan qum ustiga yiqildi-da, o'zini o'lganga solib yotaverdi.

Qaroqchilar yetib kelishdi:

– Ha-a, endi bizdan qochib qutulolmaysan!..

Uning og'zini ochish uchun ular nimalar qilishmadi deysiz. Buratinoning orqasidan quvib yurgan paytlarida ularning to'pponchasi bilan pichoqlari tushib qolmaganda bechora Buratino to'g'risidagi hikoyani shu yerda tugatish lozim bo'lar edi.

Hech ish chiqmagandan keyin qaroqchilar Buratinoning oyog'ini osmondan qilib osib qo'ymoqchi bo'ldilar. Uning oyog'iga arqon bog'ladilar, birpasdan keyin bechora Buratino eman daraxtining shoxiga osilib qoldi... Qaroqchilar ho'l dumlarini tuzatib eman ostiga o'tirib oldilar-da, Buratinoning og'zidagi tilla pullarning yerga tushishini kuta boshladilar...

Tongga yaqin shamol qo'zg'aldi, eman daraxtining barglari shitir-shitir qila boshladi. Buratino shamolda bir parcha tarashadek tebralar edi. Ho'l dumlarini cho'zib o'tiraverish qaroqchilarning joniga tegdi...

– Ertalabgacha osilib tur, do'stim, – dedilar g'azab bilan. Qaroqchilar yo'l bo'yanidan biror oshxona topgani ketdilar.

XIII. Zangori sochli qiz Buratinoni qutqaradi

Buratino osilib yotgan eman daraxti ortida tong otdi.

Chamanzordagi o'tlar ham zangori tus oldi, zangor rang gullarda shabnam tomchilari yaltiradi.

Jingalak zangori sochli qiz yana derazadan ko'rindi, uyquga to'ygan chiroyli ko'zlarini ishqalab-ishqalab katta ochdi

Bu qiz janob Karabas Barabasning qo'g'irchoq teatridagi eng chiroyli qo'g'irchoq edi.

U xo'jayinining qo'pol muomalasiga toqat qilolmay, teatrdan qochib ketgan va bir chetda bo'lgan zangori chamanzor o'rtasidagi uychaga joylashib olgan edi.

Hayvonlar, qushlar va ba'zi hasharotlar uni juda yaxshi ko'rib qolgan edilar, buning sababi, aftidan, uning yaxshi tarbiyalangani va yuvoshligi edi.

Hayvonlar unga yashash uchun zarur bo'lgan hamma narsani keltirib berardilar.

Ko'r sichqon ovqat bo'ladigan ildizlar keltirardi.

Sichqonlar – qand, pishloq va dudlangan go'sht bo'laklari olib kelishar edi.

Vafodor kuchugi – pudel¹ Artemon non olib kelar edi.

Zag'izg'on unga bozordan kumush qog'ozlarga o'ralgan shirinliklar o'g'irlab kelar edi.

Qurbaqalar yong'oq po'choqlarida sharbat keltirishardi.

Qirg'iy qovurilgan parranda go'shti olib kelardi.

¹ Pudel – yangi jingalak xonaki it.

Tilla qo'ng'izlar – har xil mevalar.

Kapalaklar u upa qilib qo'yishi uchun gullarning changini tashlab ketardilar.

Kapalak qurtlari u tishini tozalashi va g'ichirlama eshiklarini yog'lashi uchun o'z yog'laridan berardilar.

Qaldirg'ochlar uy atrofida paydo bo'lgan arilar bilan chivinlarni qirardilar.

Shunday qilib, zangori sochli qiz, ko'zlarini ochishi bilan oyog'idan osib qo'yilgan Buratinoni ko'rib qoldi.

U kaftlarini yuziga bosib:

– Voy-voy-voy! – deb qichqirib yubordi.

Deraza ostida quloqlarini ding qilib, vafodor pudel Artemon paydo bo'ldi. U har kungi ishini – dumg'aza qismidagi yunglarini qirtishlab tashlagan edi. Gavdasining old qismidagi jingalak yunglari yaxshilab taralgan, dumining uchida qoldirilgan yungi oldiga qora band taqilgan edi, oldingi barmog'ida esa kumush soat.

– Men tayyorman.

Artemon burnini bir tomonga burdi va yuqori labini ko'tarib, oppoq tishlarini ko'rsatdi.

– Bitta-yarimtani chaqir, Artemon! – dedi qiz.

– Bechora Buratinoni daraxtdan yechib olish va uyga olib kelib, doktor chaqirish kerak...

– Xo'p, xo'p!

Artemon xizmatga tayyorligidan shunday yugurib qoldiki, orqa oyoqlari ostidan atrofga ho'l qum sochildi...

U chumolilar iniga qarab yugurdi, vovullab butun chumolilarni uyg'otdi-da, Buratinò osib

qo'yilgan arqonni kemirib uzib tashlash uchun ulardan to'rt yuztasini yubordi.

To'rt yuzta abjir chumoli saf tortib, tor yo'lakdan yo'lga tushdilar, eman daraxtiga chiqib, arqonni kemirib uzdilar.

Tushib kelayotgan Buratinoni Artemon oldingi oyoqlari bilan ilib oldi va uyga olib ketdi... Buratinoni karavotga yotqizib qo'ydi-da, o'rmonga yugurdi. Changalzordan mashhur boyqushni, feldsher cho'lbaqani va quruq cho'pga o'xshagan xalq tabibi beshiktervatarni olib keldi.

Boyqush Buratinoning ko'kragiga qulog'ini qo'yib ko'rdi.

– Bemor tirikdan ham ko'ra, ko'proq o'likka o'xshaydi, – dedi va u boshini bir yuz sakson daraja orqaga burib oldi.

Cho'lbaqa nam panjasi bilan Buratinoni rosa ezg'ilab ko'rdi. U bemorning ahvoli to'g'risida o'ylar ekan, baqraygan ko'zlari bilan chor atrof-ga qarar edi.

– Bemor o'likdan ham ko'ra ko'proq tirikka o'xshayapti... – dedi u, katta og'zini kappa-kappa ochib.

Xalq tabibi beshiktervatar qurib qolgan o'tga o'xshagan qo'llari bilan Buratinoning u yoq-bu yog'ini ushlab ko'ra boshladi.

– Ikkovidan biri, – dedi u, – bemor yo tirik, yo o'lib qolgan. Agar u tirik bo'lsa, u tirik qoladi yo o'ladi. Agar u o'lik bo'lsa, uni yo tiriltirib bo'ladi yo tiriltirib bo'lmaydi.

– Sharmandalik-ku, – dedi Boyqush va mayin qanotlarini qoqib, timqorong'i chordoqqa uchib chiqib ketdi.

Jahli chiqib ketganidan Cho'lbaqaning bo'y-nidagi pufaklari shishib ketdi.

– Bu qa-qa-qanday yaramaslik! – deb qurillab yubordi u va qornini yerga shapillatib urgani-cha sakrab-sakrab, zax yerto'laga tushib ketdi.

Beshiktervatar har ehtimolga qarshi, qurib qolgan cho'pga o'xshab oldi-da, o'zini derazadan tashqariga tashladi.

Qiz chiroyli qo'llarini paxsa qilib so'radi:

– Aytsangiz-chi, endi qanday davolashim kerak uni, baraka topgurlar?

– Surgi dori bilan, – deb qurilladi yerto'ladan turib cho'lbaqa.

– Surgi dori bilan-a! – dedi nafrat bilan chor-doqdan turib boyqush.

– Yo surgu bilan, yo boshqa narsa bilan, – dedi deraza ostida yotgan beshiktervatar.

– Shunda hamma yog'i timdalanib, shilinib va momotaloq bo'lib ketgan bechora Buratino inqillab:

– Surgu dorining keragu yo'q, men o'zimni yaxshi qilyapman! – dedi.

Zangori sochli qiz mehribonlik bilan uning tepasiga engashdi:

– Buratino o'tinaman sendan – ko'zingni yum, burningni berkitib tur-da, ichib yubor.

– Ichmayman, ichmayman, ichmayman!..

– Men senga bir chaqmoq qand beraman...

Qiz shunday deyishi bilanoq, karavotda oq sichqon paydo bo'lib qoldi, u bir chaqmoq qand olib kelgan edi.

– Gapimga quloq solsang, shu qandni beraman, – dedi qiz.

– Bitta qandning o'zini...

– Tushunsang-chi, dorini ichmasang, o'lib qolishing mumkin-a...

– Surgi dori ichgandan ko'ra, o'lganim yaxshi.

Lekin qiz endi katta odamlardek sipolik bilan dedi:

– Burningni berkit, shipga qara! Bir, ikki, uch.

U surgu dorini Buratinoning og'ziga qo'ydi-da, ketma-ket darhol qandni tiqdi va uni o'pib qo'ydi.

– Ana, bo'ldi...

Har ishni o'rinlatib bajarishni yaxshi ko'rgan vafodor Artemon o'zining dumini tishlab oldi-da, deraza oldida shunday chirillab aylana boshladiki, go'yo mingta oyoq, mingta quloq, mingta yaltiragan ko'z aylanayotgandek edi.

XIV. Zangori sochli qiz Buratinoga tarbiya bermoqchi

Ertalab Buratino hech narsa ko'rmagandek, shod va tetik bo'lib turdi.

Zangori sochli qiz uni bog'da, ustiga qo'g'ir-choqlarning idish-tovoqlari yoyib qo'yilgan kichkinagina stol oldida kutib o'tirardi.

Qiz yuzini endigina yuvgan edi, puchuqqi-na burnining ustida va yonoqlarida gullarning changi ko'rinardi.

Buratinoni kutib o'tirar ekan, u xira kapalaklarni quvar edi:

– Birpas o'z holimga qo'ysalaring-chi...

Yog'och bolani boshdan oyoq kuzatib chiqdi-da, peshonasini tirishtirdi. Unga stol yoniga o'tirishni buyurdi va kichkina piyolachaga qahva quyib berdi.

Buratino oyoqlarini bukib, stol oldiga o'tirdi. Bodomli somsalarni bir butunligicha og'ziga tiqar va chaynab ham o'tirmay yutardi.

Qiyom solingan likopchaga to'ppa-to'g'ri qo'lini tiqib, barmoqlarini maza qilib so'rar edi.

Qiz qari sassiq qo'ng'izga bir-ikki bo'lak non bermoqchi bo'lib o'girilganda, Buratino chinni qahva idishni olib, ichidagi butun qahvani jo'mragidan ichib qo'ydi.

Qalqib ketib, qahvani dasturxonga to'kib yubordi.

Shunda qiz unga jiddiyat bilan dedi:

– Oyog'ingizni stol tagiga uzatib o'tiring. Qo'lingiz bilan ovqat yemang, buning uchun qoshiq va sanchqi degan narsalar bor.

Jahli chiqib ketganidan qizchaning ko'zlari pirpirar edi.

– Sizga kim tarbiya beradi o'zi?

– Ba'zi vaqtda Karlo otam tarbiya beradi, boshqa vaqtda – hech kim.

– Endi sizga men tarbiya beraman, bundan xotiringiz jam bo'lsin.

«Rosa sho'rim quriydigan bo'ldi-ku!» deb xayolidan o'tkazdi Buratino.

Pudel Artemon qushlarni quvib, uy atrofi-da o'sgan o't ichida yugurib yurardi. Qushlar daraxtga kelib qo'nganda, u boshini baland ko'tarib va sakrab-sakrab, uvillab hurardi.

«Qushlarning toza dodini berar ekan», – deb o'yladi havasi kelib Buratino.

Qiz aytgandek qilib o'tiraman deb, uning beli qotib qoldi, butun badaniga igna sanchganday bo'ldi.

Nihoyat unga shuncha azob bergan nonush-ta tugadi. Qiz unga burniga tekkan qahvani ar-tib olishni buyurdi. Ko'ylagining bukilgan joy-larini va sochini tuzatib qo'ydi-da, tarbiya ber-gani Buratinoni uyga yetaklab ketdi.

Sho'x pudel Artemon esa o't ichida chopib yurar va hurardi; qushlar undan zarracha qo'r-qishmas, shodlik bilan sayrashardi; daraxtlar tepasida shabada esib turardi.

– Egningizdagi bu eski-tuski kiyimlaringizni yeching, sizga yaxshi kiyim-bosh berishadi, – dedi qiz.

To'rtta bichiqchi kelib, unga qizning eski ko'ylaklaridan chiroyli o'g'il bolalar kiyim-boshi-ni tikib berishdi, bu mashinachilar badqovoq yakkaxol usta – qisqichbaqa Sheptallo, kokilli Qizilishton, Shoxdor degan katta qo'ng'iz, Li-zetta degan sichqon edi. Sheptallo bichib berdi, Qizilishton tumshug'i bilan teshib tikdi, Shox-dor orqa oyoqlari bilan ipni pishitib berib turdi, Lizetta iplarning uchini uzib turdi.

Buratino qizning eski-tuskilaridan tikilgan kiyimni kiyishga uyalsa ham, har holda kiy-di. U burnini torta-torta yangi nimchasining cho'ntagiga to'rt tillasini yashirib qo'ydi.

– Endi o'tiring, qo'lingizni oldingizga qo'ying. Bukchaymay, qaddingizni rostlang, – dedi qiz va qo'lga bir bo'lak bo'r oldi. – Matematikadan saboqlarni boshlaymiz... cho'ntagingizda ikkita olma bor.

Buratino ayyorlik bilan ko'z qisib qo'ydi.

– Yolg'on bitta ham yo'q...

– Men choʻntagingizda ikkita olma bor deb faraz qilaylik demoqchiman, – dedi qiz chidam bilan. – Birov bittasini olib qoʻysa, nechta olma qoladi?

– Ikkita.

– Yaxshilab oʻylang.

– Buratinoning peshonasi tirishdi, – u ana shunday zoʻr berib oʻylardi.

– Ikkita...

– Nima uchun?

– Oʻlsam ham birovga olmamni bermayman!

– Matematikaga hecham qobiliyatingiz yoʻq ekan, – dedi qiz xafa boʻlib. – Boʻlmasa diktant yozamiz.

U chiroyli koʻzlarini shipga tikdi.

– Yozing: «Ari asal yaladi». Yozdingizmi? Endi shu gapni teskarisiga oʻqing.

Buratinoning umrida patqalam va daftar koʻrmagani bizga maʼlum.

Qiz: «Yozing», – deyishi bilanoq u uzun burnini siyohdonga tiqdi, burnidan qogʻozga siyoh tomgan edi. Bu qiligidan oʻzi juda qoʻrqib ketdi.

Qiz jahli chiqqanidan qoʻlini siltab yubordi va, hatto, uning koʻzlariga yosh keldi.

– Siz toʻpolonchi, yaramas bola ekansiz, bir jazoyingizni berib qoʻyish kerak!

U derazadan boshini chiqardi-da:

– Artemon, Buratinoni qorongʻi hujraga qamab qoʻy! – deb buyurdi.

Vafodor Artemon oppoq tishlarini koʻrsatib eshik oldida paydo boʻldi. U Buratinoning nimchasidan tishlab oldi-da, orqasi bilan yurib, uni

qorong'i hujraga sudrab ketdi, qorong'i hujraning burchak-burchaklaridagi o'rgimchak uyalarida katta-katta o'rgimchaklar osilib yotar edi.

Qizcha qo'g'irchoqlarga xos to'qima karavotiga o'zini tappa tashlab, yog'och bolani shunday qattiqqo'llik bilan jazolagani uchun yig'lab yubordi. Lekin tarbiya berishga kirishgan ekan, bu ishni oxiriga yetkazish kerak edi.

Buratino qorong'i hujrada to'ng'illab o'tirar edi:

– Obbo, tentak qiz-ey... Sendaqa tarbiyachidan xafa bo'ldim. Kallasi chinnidan-u, ichiga paxta tiqilgan-u, tag'in menga tarbiya bermoqchi bo'ladi-ya...

Qorong'i hujrada allakim mayda tishlarini g'ijirlatgandek bo'ldi:

– Quloq sol, quloq sol...

Buratino siyohga bo'yalib, iflos bo'lib qolgan burnini yuqori ko'targan edi, boshini pastga osiltirib, shipga yopishib yotgan ko'rshapalaka ko'zi tushdi.

– Nima deysan?

– Qorong'i tushishini kut, Buratino.

– Sekin, sekin, – deb shivirlashardi burchak-burchakdan o'rgimchaklar, – to'rimizni qimir-latmanglar, chivinlarimizni qochirib yubormanglar...

Buratino siniq tuvak ustiga o'tirib, qo'lini iyagiga tirab oldi. U bundan battar ishlarni ham ko'rgandi, lekin adolatsizlikdan achchig'i chiqardi.

– Bolaga shunday tarbiya beradilarmi?.. Bu tarbiya emas, azob-ku... Bunday o'tirma, bun-

day ovqat yema... Ehtimol, bola hali alifbeni ham o'qimagandir. U bo'lsa to'ppa-to'g'ri siyohdondan ish boshlab yuripti-ya... Iti hoynahoy hozir ham qushlarni quvib yurgan bo'lsa kerak – undan nima ketipti...

Ko'rshapalak yana chiyillab qoldi:

– Qorong'i tushishini kut, Buratino, men seni Ahmoqlar mamlakatiga boshlab boraman, u yerda seni do'stlaring – mushuk bilan tulki, baxt va shod-xurramlik kutadi. Qorongi tushishini kut.

XV. Buratino Ahmoqlar mamlakatiga tushib qoladi

Zangori sochli qiz qorong'i hujra eshigi oldiga keldi.

– Buratino, do'stim, qilmishingizga pushaymonmisiz endi?

Buratinoning juda jahli chiqib o'tirardi, buning ustiga niyati ham bo'lakcha edi.

– Zarur kelibdi-da, pushaymon bo'lib! Kutmay ham qoling...

– Bo'lmasa hujrada ertalabgacha o'tirasiz...

Qiz chuqur xo'rsinib qo'ydi-da, qaytib ketdi.

Kech kirdi. Chordoqda o'tirgan Boyqush aksa ura boshladi. Cho'lbaqa oying ko'lmaq suvdagi aksi ustida shalop-shalop qilib sakrab yurish uchun yerto'ladan chiqdi.

Qiz uxlash niyatida to'qima karavotga cho'ziladi va uzoq vaqt xafa bo'lib burnini tortib yotdi.

Artemon tumshug'ini dumi tagiga tiqib, eshik tagida uxlab yotardi.

Uydagi osma soat yarim kecha bo'lganidan darak berib, zang urdi.

Shipga yopishib yotgan ko'rshapalak joyidan ko'chdi.

– Vaqt bo'ldi, Buratino, qoch endi! – deb chiyilladi u, Buratinoning qulog'i ostiga kelib. – Hujraning burchagida yerto'laga tushadigan kalamush teshigi bor... Seni chamanzorda kutaman.

Ko'rshapalak tuynukdan uchib chiqib ketdi. Buratino hamma yog'iga o'rgimchak inlarini ilashtirib, o'zini burchakka urdi. O'rgimchaklar uning ketidan g'azab bilan pishillab qolishdi.

Buratino kalamush teshigidan yerto'laga tomon emaklab keta boshladi.

Teshik borgan sari torayib bordi. Buratino endi yer ostida zo'rg'a emaklab borardi. Lekin birdan boshi bilan pastga sho'ng'ib ketdi-yu, yerto'laga tushib qoldi.

Yerto'ladagi kalamushga qo'yilgan qopqonga ilinib qolishiga sal qoldi, oshxonadagi xurmachadan endigina sut ichib kirgan sariq ilonning dumini bosib oldi, so'ng mushuk kirib-chiqib yuradigan tuynukdan chamanzorga otildi.

Ko'rshapalak zangori gullar ustida sharpasiz uchib yurardi.

– Yur orqamdan, Buratino, Ahmoqlar mamlakatiga boramiz!

Ko'rshapalaklarning dumi bo'lmaydi, shuning uchun ular qushlarga o'xshab to'g'ri ucholmaydilar, bo'g'in-bo'g'in qanotlarini yozib bir yuqoriga chiqib, bir pastga tushib uchadi-

lar; vaqtni qo'ldan bermay, yo'lda uchragan chivin va tungi kapalaklarni tutish, tishlash, yutib yuborish uchun ko'rshapalakning og'zi doim ochiq bo'ladi.

Buratino bo'ynigacha o't ichiga ko'milib, ko'rshapalak ketidan chopib borar edi, shabnamda ho'l bo'lib qolgan yo'ng'ichqalar betiga kelib urilardi.

Birdan ko'rshapalak osmonda ko'rinib turgan to'lin oy tomonga ko'tarilib ketdi-da, u yerdan turib allakimga:

– Olib keldim! – deb qichqirdi.

Buratino birdan yumaloq yostiq bo'lib jarga ag'darilib ketdi. Dumalab-dumalab borib, shalop etib, to'ng'iztaroqlar ustiga tushdi.

Hamma yog'i shilingan, og'ziga qum to'lib, ko'zlari olayib ketgan Buratino yerga o'tirdi.

– Iy-ye, uni qarang-a!..

Uning ro'parasida Bazilio mushuk bilan Alisa tulki turar edi...

– Jasur va mard Buratino, oydan qulab tushdi shekilli, – dedi tulki.

– O'lmay qolganiga hayronman, – dedi to'ng'illab mushuk.

Mushukning oldingi o'ng oyog'iga latta bog'lanib qolgani va tulkining dumiga botqoq loyqasi yopishib yotgani biroz shubhali tuyilsa ham, Buratino eski do'stlarini ko'rib, xursand bo'ldi.

– Har ishning ham bir xosiyati bo'ladi, – dedi tulki, – mana, sen ham Ahmoqlar mamlakatiga kelib qolding...

Shunday dedi-da, tulki oldingi oyog'i bilan qurib qolgan soy ustiga qurilgan buzuq ko'prik-

ni ko'rsatdi. Soyning narigi betidagi uyum-uyum axlatlar orasidan xaroba uylar, shoxlari sinib yotgan qurigan daraxtlar va har tarafga qiyshayib qolgan qo'ng'iroqxona ko'rinib turardi...

– Bu shaharda Karlo otaga loyiq, quyon terisidan tikilgan ajoyib nimchalar sotiladi, – deb to'xtovsiz javrar edi, tulki labini yalab, – chiroyli rasmlari bor ahifbe kitoblar... Undagi somsalar bilan xo'rozqandlarning shirinligini aytmaysanmi! Pulingni yo'qotib qo'yganing yo'qmi, azamat Buratino?

Alisa tulki Buratinoga yordamlashib, o'rnidan turg'izdi; oldingi oyog'ini tupugi bilan ho'llab, uning nimchasini tozalab qo'ydi-da, buzuq ko'prikdan olib o'ta boshladi.

Bazilio mushuk qovog'ini solgancha keyinda kelar edi.

Tun yarim bo'lgan, lekin Ahmoqlar shahrida hali hech kim uxlagan emas edi.

Qing'ir-qiyshiq iflos ko'chada qovurg'alari sanalib yotgan, ustini to'ng'iztaroq bosgan itlar sang'ib yurishar va ochlikdan:

– E-he, e-he... – deb homuza tortishardi.

Yunglari tagigacha qirib olingan echkilar yo'lak chetida o'sib yotgan chang o'tlarni chimdib yurishar va yulib-yulingan dumlarini silkitib-silkitib qo'yardilar:

– Ba-a-a-lolar ichida qoldik...

Suyaklari turtib chiqqan bir sigir boshini quyi solib turardi.

– Mu-u-uncha azob, – deb takrorlar edi u, o'ygga tolib.

Uyilib yotgan axlatlar ustida pati yulinib qip-yalang'och qilib qo'yilgan chumchuqlar qo'nib o'tirishardi, ular hech qayoqqa uchmas, bosib olsang ham parvo qilmaydiganday edilar...

Dumi yulingan tovuqlar nihoyatda tinkasi quriganidan gandraklab yurardilar...

Ammo chorrahalarda qaddini g'oz tutib, boshiga uchburchak shapka kiygan va bo'yniga tasma bog'lagan zotdor itlar – politsiyachilar turardilar. Ular ochlikdan madori qurigan va qo'tir bo'lib qolgan aholiga qarab:

– Tezroq yur-r-r! O'ngdan yur-r-r! Tezr-r-roq qimir-r-rla!.. – deb irillardilar.

Tulki Buratinoning qo'lidan ushlaganicha borgan sari nari sudrab ketaverdi. Ular shlyapa kiygan mushukoyimlarni qo'ltiqlab, oydinda sayr qilib yurgan tilla ko'zoynakli semiz-semiz mushukboylarni ko'rdilar.

Shahar hokimi baqaloq tulki ham gerdayib sayr qilib yurardi, uni tungi binafsha ko'targan kekkaygan bir tulkinisa qo'ltiqlab olgan edi.

Alisa tulki Buratinoning qulog'iga:

– Bu sayr qilib yurganlar Mo'jizalar maydoniga pul ekkan odamlar... Bugun pul ekishning oxirgi kechasi. Ertalab birtalay pul yig'ib olasan-u, xohlagan narsangni sotib olaverasan... Yur tezroq... – deb shivirladi.

Tulki bilan mushuk Buratinoni siniq tuvaklar, yirtiq boshmoqlar, teshik kalishlar va lattputtalar sochilib yotgan bir xiyobonga olib keldilar... Keyin ular bir-birining so'zini bo'lib bobillab gapira ketdilar.

– Chuqurcha qazi.

– Tillani sol.

– Tuz sep.

– Ko‘lmakdagi suvdan keltirib quy, yaxshilab sug‘or.

– «Kreks, feks, peks» deyish ham esingdan chiqmasin...

Buratino siyohga qorishgan burnini qashib qo‘ydi.

– Lekin sizlar nariroq borib turinglar...

– Xudoyo tavba, biz tillangni qayerga ko‘mi-shingni ko‘rishni ham istamaymiz! – dedi tulki.

– Xudo saqlasin! – dedi mushuk.

Ular nariroq ketib, bir to‘da axlat orqasiga yashirinib oldilar.

Buratino chuqurcha qazidi. Shivirlab uch marta: «Kreks, feks, peks», – dedi-da, to‘rt tilla-sini chuqurga ko‘mdi, cho‘ntagidan jindek tuz olib, ustiga sepd. Ko‘lmakdan bir hovuch suv olib kelib quydi.

So‘ng daraxt o‘sib chiqishini kuta boshladi...

XVI. Politsiyachilar Buratinoni ushlab ketadilar va o‘zini oqlash uchun bir og‘iz so‘z aytishiga ham yo‘l qo‘ymaydilar

Alisa tulki Buratino endi uxlagani ketar deb o‘ylagan edi, lekin Buratino burnini cho‘ziltirib, hamon axlat to‘dasi ustida sabr bilan kutib o‘tirardi.

Shunda Alisa tulki mushukka uni poylab turishni topshirib, o‘zi eng yaqin politsiya bo‘limiga yugurdi. Politsiya bo‘limining tamaki tutuniga to‘lib ketgan bir xonasidagi ustiga siyoh



to'kilgan stol oldida navbatchi it baralla xurрак tortib, uyquni urmoqda edi.

Tulki unga nihoyatda muloyimlik bilan:

– Jasur navbatchi janoblari, bitta ota-onasiz o'g'ri bolani ushlab kelishning iloji yo'qmikan-a? Bu shaharning boy-badavlat va izzat-ikromli kishilari katta xavf ostida qoldilar-da, – dedi.

Navbatchi it uyqu aralash shunday vovullab berdiki, qo'rqib ketganidan tulkining tagi ho'l bo'lib ketdi.

– O'g'r-r-ri! V-vov!

Tulki xavfli o'g'ri – Buratino yalanglikda ekanini aytdi.

Navbatchi irillay-irillay, qo'ng'iroq chaldi. Xonaga hech vaqt uxlamaydigan, hech kimga ishonmaydigan, hatto jinoiy niyatimiz bo'lmasin yana, deb o'zlaridan ham gumon qilib yuradigan ikkita izquvar iskovuch it kirib keldi.

Navbatchi ularga xavfli jinoyatchini – xoh tirik, xoh o'lik bo'lsa ham, farqi yo'q, politsiya bo'limiga tutib kelishni buyurdi.

Iskovuchlar qisqagina qilib:

– V-vov! – deb javob berdilar.

So'ng maxsus yugurish usuli bilan orqa oyoqlarini bir yoniga tashlab-tashlab, xiyobon tomon chopdilar.

So'nggi yuz qadam yo'lni ular qorinlari bilan sudralib bosib o'tdilar-da, baravariga Buratining ustiga tashlandilar, uning qo'ltig'idan olib, politsiya bo'limiga sudrab ketdilar.

Buratino oyoqlarini silkitar: «Meni nima uchun ushlab ketyapsizlar, nima uchun axir?», – deb so'rar edi.

Iskovuchlar unga:

– Borganda bilasan... – deb javob berdilar.

Tulki bilan mushuk vaqt g'animatda to'rt tillani kavlab oldilar. Tulki pulni shunday boplab bo'ldiki, natijada mushukka bitta, o'ziga uchta tilla tegdi.

Mushuk indamay-netmay, shartta uning basharasiga chang soldi.

Tulki uning belidan mahkam ushlab qisdi. Shu tarzda ular ikkalasi bir qancha vaqt xiyobonda dumalashib olishdi. Oydin kechada to'zg'ib ketgan tulki va mushukning yunglari uchib yurardi.

Bir-birini rosa ezg'ilashgach, tulki bilan mushuk tillani baravar bo'lishib oldilar-da, o'sha kechasiyoq shahardan g'oyib bo'ldilar.

Bu orada iskovuchlar Buratinoni politsiya bo'limiga olib keldilar. Navbatchi it turib, uning oldiga keldi-da, Buratinoning cho'ntaklarini o'zi tintidi.

Bir chaqmoq qand bilan yarimta bodom somsadan boshqa hech narsa topolmagach, navbatchi it ko'zlariga qon quyilib irilladi:

– Sen uchta jinoyat qilding, ablah, sen – boshpanasiz, hujjatsiz va ishsizsan. Buni olib borib, shahar chetidagi ko'lga cho'ktirib yuboringlar.

Iskovuchlar:

– V-vov! – deb javob berishdi.

Buratinno Karlo ota haqida va o'zining boshidan kechirganlari to'g'risida gapirib bermoqchi bo'ldi. Qayda! Iskovuchlar oyog'ini yerga tekkizmay shahar chetiga olib chiqdilar va ko'prikdan turib, qurbaqalar, zuluklar va suv qo'ng'izlari tuxumi bilan to'la chuqur iflos ko'lga uloqtirdilar.

Buratinoni shalop etib, suvga tushdi, ustini shu zahotiy oq baqato'ni qopladi.

XVII. Buratinoni yog'ochdan yasalganligini esdan chiqarmagan bo'lsangiz kerak, shuning uchun ham u cho'kib ketmadi.

Shunday bo'lsa ham u juda qo'rqib ketdi va a'zoyi badaniga ko'm-ko'k baqato'ni yopishgan holda suv ichida uzoq yotib qoldi.

Uning atrofiga ko'lda yashovchilar to'plandi, bular – esi pastligi bilan hammaga ma'lum bo'lgan qop-qora itbaliqlar, orqa oyog'i eshakka o'xshagan suv qo'ng'izlari, zuluklar, to'g'ri kelgan narsani, hatto o'zlarini ham yeb qo'yishdan toymaydigan lichinkalar va nihoyat har xil mayda infuzoriyalar edi.

Itbaliqlar qattiq lablari bilan Buratinoni qitqlar va qalpog'idagi popukni maza qilib yamlay edilar. Zuluklar nimchasining cho'ntagiga kirib oldilar. Bitta suv qo'ng'izi suv ustiga baland chiqib turgan Buratinoning burniga chiqib, u yerdan bir necha marta suvga kalla tashladi.

Mayda infuzoriyalar bilang-bilang qilib, oyoq-qo'l o'rnida xizmat qiladigan ipchalarini shosha-pisha tebratib, ovqat bo'ladigan biror yemish axtarishar, biroq o'zlari suv qo'ng'izi lichinkalariga yem bo'lar edilar.

Nihoyat bu bemazagarchiliklar Buratinoning joniga tegdi, u tovonni bilan suvni shaloplata boshladi:

– Qoch nari hammang! Men sizlarga harom qotgan mushuk emasman.

Hovuzda yashovchilar to‘rt tomonga o‘zini urdi. Buratino qornini pastga qilib ag‘darildi-da, suzib ketdi.

Oydinda suv nilufarining shapaloq-shapaloq barglari ustida og‘zi katta qurbaqalar Buratinoga qarab, baqrayib o‘tirishardi.

– Allaqanday bir maymoq oyoq mavjudot suzib kelyapti, – deb vaqilladi bittasi.

– Burni laylakning tumshug‘iga o‘xshar ekan, – deb vaqilladi ikkinchisi.

– Bu dengiz qurbaqasi, – deb qurilladi uchinchisi.

Birpas nafasini rostlab olish uchun Buratino kattakon nilufar bargi ustiga chiqib oldi. Oyoqlarini yig‘ib o‘tirdi-da, sovqotganidan tishlarini takillatib:

– Hamma bolalar sut ichib olib, issiqqina karavotchalarida uxlab yotishipti, yolg‘iz men ho‘l barg ustida o‘tiribman... Qurbaqalar, yeydigan biror yegulik bersanglar-chi, – dedi.

Ma‘lumki, qurbaqalar juda sovuqqon bo‘ladi. Lekin ularni bag‘ritosh deb o‘ylash xato bo‘lar edi. Buratino sovuqdan tishlarini takillatib, o‘zining boshidan kechirgan ko‘rgiliklarini so‘zlab bera boshlaganda, qurbaqalar birin-кетин o‘zlarini suvga otdilar, orqa oyoqlarini ishga solib, hovuz tagiga sho‘ng‘ib ketdilar.

Ular suv tagidan bitta o‘lik qo‘ng‘iz, bir bo‘lak qurbaqa sallasi, bir dona qisqichbaqa ikrasi va bir necha kesim chirigan po‘choq olib chiqdilar.

Qurbaqalar topib chiqqan ozuqalarning hammasini Buratinoning oldiga qo'yib, yana suv nilufarlarining barglari ustiga chiqib oldilar-da, boshlarini yuqori ko'targancha ko'zlarini baqraytirib, tosh qotganday o'tirib oldilar.

Buratino qurbaqalar olib chiqqan noz-ne'matlarni hidlab, mazasini tatib ko'rdi.

– Ko'nglim aynib ketdi, – dedi u, – buncha bemaza narsalar ekan!..

Buni eshitgan qurbaqalar yana o'zlarini shalop etib, suvga otdilar.

Ko'l yuzini qoplab yotgan baqato'ni qimirlab ketdi-da, suv yuzida kattakon, qo'rqinchli ilon kallasi paydo bo'ldi. U Buratino o'tirgan bargga tomon suzib kela boshladi.

Buratinoning qalpog'idagi popuk tippa-tik bo'lib ketdi. Qo'rqib ketganidan suvga tushib ketishiga sal qoldi.

Lekin bu ilon emas edi. Bu ko'zlari xiralashib qolgan mo'min-qobil qari toshbaqa Tortila edi.

– Obbo, miyasi yo'q, aqli kalta laqma bolayey! – dedi Tortila. – Uyingda tinchgina o'tirib, o'qishga zo'r bersang bo'lmasmidi! Ahmoqlar mamlakatida nima bor edi senga!

– Axir men Karlo otamga ko'proq pul topib bermoqchi edim-da... Men j-j-j-juda esli-hushli bolaman...

– Pullaringni mushuk bilan tulki o'g'irlab ketdi, – dedi toshbaqa. – Ular ko'l bo'yidan o'tib ketishayotib, suv ichgani to'xtashdi, shunda men pullaringni qanday kavlab olishganini, ik-

kalasi pul talashib urishishgani to'g'risida maqtanib gaplashganini eshitib qoldim... Obbo, miyasi yo'q, aqli kalta laqma bola-yey!

– Hadeb urishaverishning nima keragi bor, – deb to'ng'illadi Buratino, – yordam berish kerak... Endi nima qilaman-a? Voy-voy-voy!.. Karlo otaning betiga qanday qarayman? Voy-voy-voy!

U mushtlari bilan ko'zini ishqar va shunday xo'rliqi kelib yig'lar ediki, qurbaqalar unga qarab turib, baravariga uh tortib yuborishdi.

– Uh-uh.. Tortila, bechoraga yordam bersang-chi!

Toshbaqa oyga uzoq tikilib qoldi, allanarsalarni o'yladi...

– Bir vaqt men bir odamga yordam qilgan edim, u bo'lsa, buvim bilan bobomning kosasidan taroq yasadi, – dedi u. So'ng yana oyga uzoq tikilib qoldi. – Nima ham derdim, sen shu yerda o'tirib tur, men bir ko'lning tagini aylanib chiqay-chi, biror foydali narsa topib chiqsam ham ajab emas.

U ilonnikiga o'xshagan boshini ichiga tortdi-da, shoshilmasdan suv ostiga sho'ng'ib ketdi.

– Toshbaqa Tortila buyuk bir sirni biladi, – deb shivirlashdi qurbaqalar.

Ancha vaqt o'tdi. Oy adirlar orqasiga og'ib qoldi... Ko'l yuzidagi baqato'ni yana qimirladi va kichkinagina oltin kalit tishlagan toshbaqa chiqib keldi.

U kalitni o't ustiga, Buratinoning oyog'i oldiga tashladi.

– Miyasi yo‘q, aqli kalta laqma tentakvoy! – dedi Tortila. – Tulki bilan mushuk pullaringni olib qo‘yganiga xafa bo‘lma! Men senga mana bu kalitni beraman. Uni ko‘lga uzun soqol bir kishi tushirib yuborgandi, uning soqoli shunday uzun ediki, yurishga xalaqit qilmasligi uchun bir uchini cho‘ntagiga solib qo‘yardi. Shu kalitni topib ber, deb mendan biram iltimos qildiki, asti qo‘yaverasan!..

Tortila uh tortdi, birpas jim turdi, keyin yana shunday bir uh tortdiki, suvda pufakchalar paydo bo‘ldi...

– Lekin men unga yordam bermadim, chunki men bobom bilan buvimning kosasidan taroq qilishgani uchun odamlardan juda xafa edim. Soqoli uzun kishi bu oltin kalit to‘g‘risida juda ko‘p gaplar aytgan edi, lekin hozir bittasi ham esimda yo‘q. Faqat shunisi esimdaki, bu kalit bilan allaqanday bir eshikni ochish kerak ekan, shunda ochgan odamning baxti ochilar ekan...

Buratinoning yuragi tez-tez urib, ko‘zlari yonib ketdi. U o‘z boshiga tushgan kulfatlarni birpasda esdan chiqarib yubordi. Nimachasi-ning cho‘ntagidan zuluklarni olib tashlab, o‘rniga kalitni solib qo‘ydi, toshbaqa Tortila bilan qurbaqalarga odob bilan tashakkur bildirdi-da, o‘zini suvga tashladi va sohilga qarab suzib ketdi. U qirg‘oqqa chiqib olib, endi ko‘zdan yo‘qolay deganda qurbaqalar uning orqasidan:

– Buratino, kalitni yo‘qotib qo‘yma! – deya qurillashib qolishdi.

XVIII. Buratino Ahmoqlar mamlakatidan qochadi, do'sti va kulfatdoshiga duch keladi

Toshbaqa Tortila Ahmoqlar mamlakatidan qaysi yo'l bilan chiqib ketishini ko'rsatib yubormagan edi.

Buratino to'g'ri kelgan tomonga qarab, yugurib ketaverdi. Qorayib turgan daraxtlar tepasida yulduzlar miltirardi. Yo'l chekkasida katta-katta qoyatoshlar qad ko'tarib turardi. Vodiyni tuman qoplagan edi.

Birdan Buratinoning old tomonidan bir ko'k mavjudot sakrab-sakrab o'tib qoldi. Ketma-ket itning hurigani eshitildi.

Buratino qoyatosh orqasiga yashirinib oldi. Uning oldidan g'azab bilan burun tortib, Ahmoqlar shahridagi politsiya itlaridan ikkitasi yugurganicha o'tib ketdi.

Haligi narsa yo'ldan bir chetga – qiyalikka o'zini urdi. Itlar ham o'sha yoqqa burildilar.

To'pir-to'pir bilan hurish tovushlari uzoqlashib ketgach, Buratino shunday qochdiki, osmondagi yulduzlar daraxtlarning qorayib turgan shoxlari tepasidan tez suzib o'ta boshladi.

Birdan ko'k narsa yo'lni yana kesib o'tib qoldi. Buratino uning ko'k quyon ekanini, ustida esa uning uzun quloqlaridan mahkam ushlab olgan, rangi quv uchib ketgan bitta kichkina odam minib o'tirganini ko'rdi.

Qiyalikdan mayda tosh to'kildi, quyonning ketidan halloslaganicha yugurib kelayotgan itlar yo'lni kesib o'tishdi, keyin yana hamma yoq jimjit bo'lib qoldi.

Buratino endi shunday tez chopib ketdiki, osmondagi yulduzlar ham daraxtlarning qora-yib turgan shoxlari ustidan esini yo'qotgandek tez chopa boshladilar.

Ko'k quyon yo'lni uchinchi marta kesib o'tib qoldi. Unga minib olgan kichkina odamcha daraxt shoxlariga ilinib qoldi-da, shunday Buratining oyog'i ostiga qulab tushdi.

– Rr-r-r-vov! Ushla uni! – deganlariga politsiya itlari ko'k quyonning ketidan quvib o'tib ketishdi: ular g'azabdan ko'r bo'layozgan edilar. Shuning uchun na Buratini, na rangi uchib ketgan kichkina odamchani ko'rmay o'tib ketaverdilar.

– Alvido, Malvina, manguликка xayr! – dedi chiyillab, yig'i aralash boyagi odamcha.

Buratinoga engashib qaradi-yu, hayron bo'lib qoldi, bu odam yenglari uzun oq ko'ylak kiygan Pyero ekanini darrov tanidi.

U arava g'ildiragi chuqur iz qoldirib ketgan yerga muk tushib yotar va aftidan, o'zini o'ldirgan deb hisoblar edi, shuning uchun o'lishdan oldin: «Alvido, Malvina, manguликка xayr!» deb chiyillagan edi.

Buratino uni turtib-turtib ko'rdi, oyog'idan tortdi, Pyero qimir etmadi. Keyin Buratino cho'ntagining bir burchagida yashirinib qolgan bitta zulukni topib, nafas olmay yotgan odamning burniga qo'ydi.

Zuluk uzoq o'ylab o'tirmay, uning burnini qattiq tishladi. Pyero dik etib o'rnidan turib, o'tirib oldi, kallasini sarak-sarak qildi, burnidan zulukni olib tashladi va oh-voh qilib, dedi:

– Oh, men hali tirik ekanman-ku!

Buratino uning kukun kabi oppoq yuzidan ushlab, o'pa-o'pa so'radi:

– Bu yerlarga qanday kelib qolding? Nima uchun ko'k quyon minib chopib yuribsan?

– Buratino, Buratino, – deb javob berdi Pyero, qo'rqib atrofga alanglar ekan, – tezroq bir joyga berkit meni... Axir itlar ko'k quyonni emas, meni quvib yurishgan edi... Janob Karabas Barabas kecha-yu kunduz meni quvib yuripti. U ahmoqlar shahriga politsiya itlarini yo'lladi, endi meni xoh o'lik, xoh tirik qo'lga tushirishga qasam ichgan.

Uzoqdan yana itlarning hurgani eshitilib qoldi. Buratino Pyeroning yengidan ushlab mimoz o'simliklari o'sib yotgan chakalak ichiga boshlab kirdi.

Pyero chakalak ichida, mog'or hidi kelib turgan barglar ustida yotib, o'z boshiga tushgan ishlarni Buratinoga shivirlab, hikoya qilib bera boshladi.

– Buratino, bir kun kechasi shamol qo'zg'aldi, yomgir chelaklab quygandek yog'ar edi, bildingmi?

XIX. Pyero qanday qilib ko'k quyon mingga holda Ahmoqlar mamlakatiga kelib qolganini hikoya qilib beradi

– Kunlardan bir kun, Buratino, kechasi shamol qo'zg'aldi, chelakdan quygandek yomg'ir yog'ar edi, bildingmi, janob Karabas Barabas o'choq oldida tamaki chekib o'tirar edi. Barcha qo'g'irchoqlar allaqachon uxlab qolishgan edi.

Faqat men uyg'oq, edim. Men zangori sochli qiz to'g'risida xayol surib yotar edim...

– Voy ahmog'-ey, xayol surgani topgan odamingni qara-ya! – deb uning so'zini bo'ldi Buratino. – Men kecha kechqurun o'sha qizdan zo'rg'a qochib qutuldim-ku – o'rgimchaklar in solib olgan hujradan...

– Nima, nima? Sen zangori sochli qizni ko'rdingmi? Sen mening Malvinamni ko'rdingmi, hali?

– Ol-a, nimasiga buncha hovliqasan! O'lgudek yig'loqi qiz, xiraligini aytmaysanmi.

Pyero qo'llarini silkitib, sakrab o'rnidan turib ketdi.

– Yur, ketdik, meni uning oldiga boshlab bor... Agar Malvinani topishga yordam bersang, men senga oltin kalitning sirini aytib beraman...

– Nima deding?! – deb qichqirib yubordi Buratino shodlik bilan. – Oltin kalitning sirini bilasanmi hali?

– Kalitning qayerdaligini ham, uni qanday qilib qo'lga tushirishni ham bilaman, hatto u bilan bitta eshikni ochish kerakligini ham bilaman... Men bu sirni eshitib qoldim, shuning uchun ham janob Karabas Barabas meni politsiya itlari bilan qidirib yuribdi.

Buratino, o'sha sirli kalit mening cho'ntagimda hozir, deb juda-juda maqtangisi kelib qoldi. Aytib yubormaslik uchun boshidan qalpog'ini yechib, og'ziga tiqdi.

Pyero: «Meni Malvinaning oldiga olib bor», – deb zorlanardi. Buratino bu tentakka hozir qorong'i, yo'l xavfli, tong otishi bilan qizning

oldiga yuguramiz deb barmoqlari bilan zo'rg'a gap tushuntirdi.

Pyeroni mimoza tagiga yashirinishga majbur qilib, Buratino og'ziga qalpoq tiqilgani uchun g'oldirab dedi:

– Gapiy enni...

– Shunday qilib, kunlardan bir kun kechasi shamol qo'zg'aldi...

– Puni gapiykan eting...

– Shunday qilib, – deb davom etdi Pyero, – men uxlay olmay o'tirgan edim, bildingmi, birdan allakim derazani qattiq-qattiq taqillatib qoldi.

– Kim u, shunday bemahalda izg'ib yurgan? – deb to'ng'illadi janob Karabas Barabas.

– Bu men – Duremarman, – deb javob berdi tashqaridagi kishi, – zulukfurushman. Ruxsat etsangiz – olovda kiyimlarimni quritib olsam.

Zulukfurushlarning qanaqa bo'lishini ko'rgim kelib ketdi, bildingmi? Men pardaning bir chetini sal qiya ochib, kallamni tiqdim. Nima ko'rding degin?

Janob Karabas Barabas kursidan turdi, odatdagidek soqolini bosib oldi-da, so'kina-so'kina borib, eshikni ochdi.

Ichkariga novcha, yomg'irdan ivib, shalab-bosi chiqib ketgan kichkina yuzi bir xil qari qo'ziqorinlarga o'xshab, burishib-tirishib ketgan bir kishi kirib keldi. U egniga eski ko'k palto kiygan edi, belbog'iga ombur, ilmoq va to'g'nag'ichlarni osib olgan. Qo'lida tunuka bankachasi bilan ko'rpa-to'shagi bor.

– Agar qorningiz og'riyotgan bo'lsa, agar boshingiz qattiq og'riyotgan bo'lsa yoki qulog'in-

giz shang'illayotgan bo'lsa, men qulog'ingizning orqasiga ajoyib zuluklardan solib qo'yishim mumkin, – dedi u go'yo bel o'rtasidan sinib ketgandek ikki bukilib ta'zim qilib.

– Jin ursin, zuluklaringiz o'zingizga siylov! Keragicha isinib, kiyimlaringizni quritib olavering, – deb g'udrandi janob Karabas Barabas.

Duremar o'choqqa orqasini qilib turib oldi.

– Paltosidan darhol bug' ko'tarila boshladi va xonada suv o'tining isi anqidi. Zuluk savdosi-ning mazasi yo'q, – dedi u yana tilga kirib, – Agar suyaklaringiz zirqirab og'riyotgan bo'lsa, bir kesim go'sht bilan bir qadah may bersangiz, soningizga oliy sifat zuluk solib qo'yishim mumkin...

– Zuluklaringizni pishirib yeng! – deb baqirib berdi Karabas Barabas. – Go'sht yeb, mayni ichavering.

Duremar go'sht yeya boshladi, uning basharasi rezinaga o'xshab yig'ilar va cho'zilar edi. Go'shtni yeb, mayni ichib bo'lgach, u bir dona tamaki so'radi.

– Janob, qornim to'ydi, badanimga issiq o'tdi, – dedi u. – Mehmondo'stligingizga tashakkur bildirish uchun men sizga bir sirni aytib beraman.

Janob Karabas Barabas tamakisini jahl bilan tortib, javob berdi:

– Dunyoda men bilmoqchi bo'lgan faqat bitta sir bor. Boshqa sirlarning hammasi ham menga bir pul.

– Janob, – dedi yana Duremar, – men buyuk bir sirni bilaman. Uni menga toshbaqa Tortila aytib berdi.

Bu soʻzlarni eshitib, Karabas Barabasning koʻzlari ola-kula boʻlib ketdi, sakrab oʻrnidan turdi, soqoli oyogʻiga oʻralashib, gandiraklab ketdi, oʻzini qoʻrqib ketgan Duremar ustiga otdi, uni qorniga bosib quchoqladi va buqadek boʻkirib yubordi:

– Azizim Duremar, qimmatli Duremar, gapir, gapir tezroq, toshbaqa Tortila senga nima dedi?

Shunda Duremar unga quyidagilarni hikoya qilib berdi:

«Men Ahmoqlar shahri oldidagi bir eski koʻlda zuluk tutayotgan edim. Bir kunga toʻrt soldo toʻlashga bir kambagʻal kishini yollagan edim, – u yechinib boʻynigacha suvga tushar va to butun yalangʻoch etiga zuluklar kelib yopishmaguncha suv ichida turar edi.

Zuluklar kelib, unga yopishgach, u suvdan chiqardi, men uning badaniga yopishib qolgan zuluklarni yigʻib olardim-da, yana suvga tushirardim.

Shu usulda biz lozim boʻlganicha zuluk yigʻib olganimizda, birdan suv yuzida ilon kallasi koʻrindi.

– Hoy, Duremar! – dedi boyagi kalla, sen ajoyib koʻlimizda yashovchilarni qoʻrqitib yubor-ding, suvni loyqatding, ovqatdan keyin dam olgani menga xalaqit beryapsan... Qachon tugaydi bu bemazgarchilik?..

Bunday qaragam, u oddiy bir toshbaqa ekan, shuning uchun pinagimni ham buzmay javob berdim:

– Iflos koʻlingizdagi barcha zuluklarni tutib olgumimcha ahvol shu...

– Buning evaziga senga haq to'lashga ham tayyorman. Duremar, lekin bizning ko'lni tinch qo'ysang va boshqa hech bezovta qilmasang bas.

Men esa uni masxara qila boshladim:

– Obbo, suzib yuradigan eski jomadon, ahmoq Tortila xola-ey, menga nima ham to'lar eding? Boshing bilan oyoqlaringni yashirib oladigan kosangni berarmiding... Kosang taroqchilarga sotishdan boshqa nimaga ham arzirdi...

Toshbaqa g'azablanganidan ko'm-ko'k ko'ka-rib ketdi-da, menga qarab:

– Hovuz ostida bitta sirli kalit bor... Men bir kishini bilamanki, u o'sha kalitni qo'lga kiritish uchun har ishni qilishga ham rozi, – dedi...

Duremar hikoyasining shu yeriga kelganda, Karabas Barabas ovozing boricha baqirib yubordi:

– O'sha odam men bo'laman. Men! Men! Men! Azizim Duremar, nima uchun toshbaqadan kalitni darrov olmading?

– Ana xolos! – deb javob berdi Duremar va basharasini shunday bujmaytirib yubordi-ki, basharasi qaynatilgan qo'ziqoriga o'xshab qoldi. – Ana xolos! – eng oliy sifat zuluklarni allaqanday bir kalitga alishtirib esimni yebmanmi!.. Qisqasi, biz toshbaqa ikkovimiz urishib qoldik, shundan keyin u oldingi oyog'ini suvdan chiqarib dedi: «Qasamyod qilamanki, sen ham, boshqa biror kimsa ham – hech kim sehrli kalitni qo'lga kiritolmaydi. Qasamyod qilamanki, unga butun ko'lda yashovchilarni mendan buni iltimos qildirishga ko'ndirolgan odamgina ega bo'ladi...» Toshbaqa oldingi oyog'ini ko'targanicha suvga sho'ng'ib ketdi.

– Bir daqiqani ham qo‘ldan bermay Ahmoqlar mamlakatiga borish kerak! – deb baqirib qoldi Karabas Barabas, shoshib-pishib soqolin-ing uchini cho‘ntagiga tiqib, shapkasi bilan jin chirog‘ini qo‘liga olarkan. – Men ko‘ning labiga o‘tirib olaman. Men muloyimlik bilan jilmayib o‘tiraman. Toshbaqadan iltimos qilinglar deb qurbaqalarga, itbaliqlarga, suv qo‘ng‘izlariga yalinib-yolboraman... Men ularga eng semiz pashshadan bir yarim milliontasini tutib berishni va‘da qilaman. So‘qqabosh sigirdek ho‘ngrab yig‘layman, kasal tovuqdek oh-voh qilaman, timsohdek ko‘z yoshi to‘kaman. Eng kichkina qurbaqa oldida ham tiz cho‘kaman... Kalit meniki bo‘lishi kerak! Shaharga borib, bitta uyga kiraman, zina ostidagi bir hujraga kiraman... Men kichkinagina bir eshikni topaman, – hamma uning oldidan o‘tib yuradi, lekin hech kim e‘tibor bermaydi. Kalitni qulflab solaman-u...

– Shu payt bilsang, Buratino, – deb hikoyasini davom ettirdi Pyero mimoza ostidagi chirigan barglar ustida o‘tirganicha, – men juda qiziqib ketganimdan parda orqasidan butun gavdamni baralla chiqarib qaradim. Janob Karabas Barabas meni ko‘rib qoldi.

«Sen quloq solib turganmiding hali ablah!» – dedi-da, meni ushlab olovga tashlamoqchi bo‘lib yugurdi, lekin oyog‘i yana soqoliga o‘ralashib qolib, kursilarni har tarafga taqiratuqur ag‘darib, gumburlaganicha polga yiqilib tushdi.

Men qanday qilib eshikka chiqib qolganimni, qanday qilib to'siqdan oshib o'tganimni eslay olmayman. Qorong'i kechada shamol quturar va yomg'ir urib turar edi.

Chaqmoq chaqqan edi, tepadagi qop-qora bulutlar orasi yorishdi, shunda men o'n qadamcha narida chopganicha kelayotgan Karabas Barabas bilan zulukfurushni ko'rib qoldim... «O'ldim endi», deb o'yladim, qoqilib ketdim-u, allaqanday yumshoq va issiq narsa ustiga yiqilib tushdim, allakimning qulog'i qo'limga tushib qoldi...

Bu ko'k quyon edi. Quyon qo'rqib ketganidan bir sakradi, gir-gir aylandi, lekin men qulog'idan mahkam ushlab olgan edim, biz qorong'i zimistonda g'izillaganicha dalalar, uzumzor bog'lar, polizlar orqali qochib qoldik. Quyon charchab, xafalik bilan og'zini qimirlatganicha o'tirib qolganda, men uning peshanasidan o'par edim.

– Yana jindek, quyonjon, yana biroz chopaylik, bo'la qol endi... – derdim.

Quyon bir xo'rsinib qo'yardi-da, biz yana yeldek uchib ketardik, goh chapga, goh o'ngga qarab, o'zimizni urardik...

Bulutlar o'tib ketib, oy chiqqandan keyin qaragam, tog' etagidagi qo'ng'iroqxonalarini har tarafga qiyshayib qolgan bir shaharcha oldidan chiqib qolibmiz.

Shaharga olib boradigan yo'lda Karabas Barabas bilan zulukfurush chopib ketmoqda edilar.

– Ana xolos, quyonlarning baxti shu-da! – dedi quyon. – Ular politsiya itlarini yollagan Ahmoqlar shahriga ketishyapti. Tamom, xarob bo'ldik endi!

Quyoning ruhi tushib ketdi. U burnini osiltirib, quloqlarini shalpaytirib oldi. Men zorlanib iltimos qildim, yig'ladim oyoqlariga yiqildim. Quyoning qimirlamadi ham.

Lekin shahardan oldingi o'ng oyog'iga qora latta bog'lab olgan ikkita kuchuk it yugurganicha chiqib kelayotganini ko'rgach, go'yo dir-dir titray boshladi, men ustiga minib olganimni bilaman – o'rmonga qarab chunonam qochdiki...

Qolganini o'zing ko'rding, Buratino.

Pyero hikoyasini tugatdi, keyin Buratino undan ehtiyotkorlik bilan:

– Kalit ochadigan o'sha eshik qaysi uyda, qaysi zinaning ostidagi xonada ekan? – deb so'radi.

– Karabas Barabas buni hali aytganicha yo'q edi... E-e, kalit ko'lning tagida bo'lgandan keyin baribir emasmi... Biz hech baxt ko'rmaymiz... .

– Mana buni ko'rdingmi? – deb qichqirdi Buratino uning qulog'iga. So'ng, kalitni cho'ntagidan chiqardi. Pyeroning burni oldiga keltirib, ko'z-ko'z qilib ko'rsatdi. – Mana u!

XX. Buratino bilan Pyero Malvinaning oldiga keladilar, lekin Malvina va pudel Artemon bilan birga darrov bu yerdan qochishga majbur bo'ladilar

Tog' cho'qqilaridan quyosh ko'tarilgandan keyin Buratino bilan Pyero chakalak orasidan chiqdilar va kecha ko'rshapalak Buratinoni zangori sochli qizning uyidan Ahmoqlar mamlakatiga boshlab kelgan dala orqali chopganicha yo'lga tushdilar.

Pyeroga qaragan kishining kulgisi qistar edi, u Malvinani ko'rishga shunchalik shoshilar edi.

– Menga qara, Buratino, – deb so'rar edi u, har o'n besh daqiqada, – u meni ko'rib xursand bo'larmikin? Shunga nima deysan?

– Men qaydan bilay...

O'n besh daqiqadan keyin yana so'rardi:

– Menga qara Buratino, birdan u xursand bo'lmasa-ya?

– Men qaydan bilay...

Nihoyat derazasining eshigiga quyosh, oy va yulduzlarning rasmi solingan oq uy ko'rindi.

Uyning mo'risidan tutun chiqib turardi. Tundandan balandroqda mushukning kallasiga o'xshagan bir parcha bulut suzib yurar edi.

Pudel Artemon eshik tagidagi zinada o'tirar va har zamon-har zamonda o'sha bulutga qarab hurib qo'yar edi.

Buratino zangori sochli qizning oldiga qaytgisi ham yo'q edi-yu, lekin qorni och edi, pishgan sutning hidini u uzoqdanoq ochko'zlik bilan hidlay boshladi.

– Agar o'sha qiz yana bizga tarbiya berishga tushadigan bo'lsa, sut ichib olganimizdan keyin o'lsam ham bu yerda turmayman.

Shu payt Malvina uydan chiqib qoldi. U bir qo'lida chinni qahva idish, ikkinchi qo'lida shirinlik solingan savatcha ko'tarib olgan edi.

Ko'zlarida hali ham yosh bor edi, u Buratini kalamushlar tortib ketib, yeb qo'yishgan deb qattiq ishonar edi.

U qum to'kilgan yo'lkaga qo'yilgan stol oldiga o'tirishi bilanoq, zangori gullar qimirlab qoldi, kapalaklar gullar tepasida oq va sariq barglarga o'xshab aylanib ucha boshladi-da, uning oldida Buratino bilan Pyero paydo bo'ldi. Malvina hayron bo'lganidan ko'zlarini shunday katta ochib ularga qarab turar ediki, ikkala yog'och bola ham uning ko'zlari ichiga sakrab kirib ketsa bo'lardi.

Pyero Malvinani ko'rish bilananoq shunday poyma-poy va ahmoqona gaplarni gapira boshladi-ki, biz bu yerda uning so'zlarini keltirmaymiz.

Buratino esa hech gap bo'lmagandek:

– Mana, men Pyeroni boshlab keldim – tarbiyalayvering... – dedi.

Malvina buning tush emasligiga nihoyat ishonadi.

– Oh, qanday baxt! – deb shivirladi u, lekin darhol kattalardek jiddiy qo'shib qo'ydi: – Bolalar, darrov borib yuvinib va tishingizni tozalab kelinglar. Artemon, bolalarni quduqqa boshlab bor.

– Ko'rdingmi? – dedi to'ng'illab Buratino, – ozodalik jinnisi u – qachon qarasang yuvinishdan-u, tish tozalashdan gapiradi! O'lib qolsang ham tozalikni pesh qilaveradi...

Har holda, ular yuvinishdi. Artemon dumining uchidagi yungi bilan ularning nimchalari- ni cho'tkalab qo'ydi...

Keyin stol oldiga o'tirishdi. Buratino ikkala lunjini to'ldirib, ovqatni tushirdi. Pyero shirlikdan ozgina ham tatib ko'rmadi; u Malvinaga shunday qilib qarar ediki, go'yo Malvina bodom mag'izidan qilingan edi.

Nihoyat bu Malvinaning joniga tegdi.

– Ha? – dedi Malvina Pyeroga, – mening yuzimda nima bor ekan? Undan ko‘ra tinchgina ovqatingizni yesangiz-chi!

– Malvina, – dedi Pyero, – men anchadan beri hech narsa yemayman, men she‘r yozadigan bo‘lganman...

Buratino kulaverib, qotib qoldi.

Malvina hayron bo‘lib, yana ko‘zlarini katta ochdi.

– Bo‘lmasa she‘rlaringizdan o‘qib bering.

U chiroyli qo‘llarini iyagiga tiradi va chiroyli ko‘zlarini mushukning kallasiga o‘xshash bututga tikib oldi.

Pyero chuqur quduq ichida o‘tirgandek baqirib she‘r o‘qiy boshladi:

*Qochib ketdi Malvina o‘zga ellarga,
Malvina yo‘qoldi, mening sevganim...
Dardimni ne qilsam, borsam qaylarga...
Yo qo‘g‘irchoq jonimdan kechaymi?*

Pyero she‘rini o‘qib tugatolmadi, o‘ziga yoqqan bu she‘rni Malvina ham maqtay olmadi – qum yotqizilgan yo‘lkada cho‘lbaqa paydo bo‘ldi.

U ko‘zlarini ola-kula qilib:

– Bugun kechasi esini yegan toshbaqa Tortila oltin kalit to‘g‘risidagi bor gapni Karabas Barabasga aytib qo‘ydi... – deb xabar qildi.

Malvina hech narsa tushunmagan bo‘lsa ham, qo‘rqqanidan qichqirib yubordi. Barcha shoirlar kabi xayoli parishon bo‘lgan Pyeroning og‘zidan bir necha poyma-poy xitob chiqdiki, biz ularni bu yerda keltirmaymiz. Ammo

Buratino darhol o'rnidan sakrab turdi-da, shoshib-pishib cho'ntaklariga turli pishiriq va xo'rozqandlarni solib ola boshladi.

– Tezroq qochaylik bu yerdan. Politsiya itlari bu yerga Karabas Barabasni boshlab kelishsa, biz halok bo'lamiz.

Malvina oq kapalak qanotidek oppoq oqarib ketdi. Pyero qizni o'lib qolyapti, deb o'ylab qahvali idishni uning boshiga ag'dardi; Malvinaning chiroyli ko'ylagi qahvaga bo'yaldi. Qattiq-qattiq vovullagancha yugurib kelgan Artemon Malvinaning ko'ylaklarini yalardi. U Pyeroning yoqasidan tishlab oldi va Pyero duduqlanib:

– Bas endi, bo'ldi... – demaguncha rosa siltaladi.

Cho'lbaqa bularning barcha to'poloniga ko'zlarini baqraytirib qarab turdi-da, yana tilga kirdi:

– Karabas Barabas bilan politsiya itlari o'n besh daqiqadan keyin bu yerga yetib kelishadi...

Malvina boshqa ko'ylagini kiyib chiqqani yugurdi. Pyero nima qilishini bilmay, zo'r berib qo'llarini qirsillatar edi, u hatto qum yotqizilgan yo'lkaga muk tushib yotib olmoqchi ham bo'ldi. Artemon ro'zg'or buyumlari o'ralgan tugunlarni sudrab chiqmoqda edi. Eshiklar taraqlab ochilib yopilardi. Daraxt shoxlaridagi chumchuqlar zo'r berib chirqillashardi. Qaldirg'ochlar yerga tegay-tegay deb uchar edilar. Boyqush battarroq vahima solish uchun chor-doqdan turib, qah-qah urardi.

Faqat Buratino o'zini yo'qotib qo'ymadi. U eng zarur narsalarni ikki tugun qilib bog'lab,

Artemonning ustiga ortdi. Tugunlar ustiga chiroyli safar ko'ylagini kiyib chiqqan Malvinani o'tqazib qo'ydilar. Pyeroga itning dumidan ushlab olishni buyurdi. O'zi oldinga tushdi:

– Hech qanday vahima bo'lmasin! Qochdik!

Ular, ya'ni itning oldiga tushib shaxdam qadamlar bilan yo'l boshlab ketayotgan Buratino, tugunlar ustida silkinib o'tirgan Malvina va orqada kelayotgan, miyasiga aql o'rniga bema'ni she'rlarni quyib olgan Pyero, qalin o'sgan o'tlar orasidan tep-tekis dalaga chiqishganda, o'rmon ichidan Karabas Barabasning to'zg'ib ketgan soqoli ko'rindi. U qo'li bilan ko'zini oftobdan pana qilib, atrofni kuzatmoqda edi.

XXI. O'rmon yoqasidagi dahshatli jang

Janob Karabas Barabas bog'log'liq ikkita politsiyachi itni ushlab turardi. Ochiq dalada ketayotgan qochqinlarni ko'rib qolganidan keyin og'zini ochib baqirdi.

– Aha! – dedi u va itlarni bo'shatib yubordi.

Quturgan itlar oldin orqa oyoqlari bilan yer kavlay boshladilar. Ular, hatto irillamasdilar ham, qochqinlar tomonga qaramasdilar ham, ular boshqa tomonga qarab turar edilar – o'z kuchlariga ana shunday ishonardilar.

Keyin itlar shoshmasdan Buratino, Artemon, Pyero va Malvinalar qo'rqib ketib, to'xtab qolgan joyga qarab yurdilar.

Endi hangoma tamom, deb o'ylash mumkin edi. Karabas Barabas politsiya itlari ketidan ayiq yurish qilib kelardi. Uning soqoli daqiqa

sayin nimchasining cho'ntagidan chiqib ketar va oyog'iga o'ralashar edi.

Artemon dumini qisib, g'azab bilan irillardi. Malvina qo'llarini bir-biriga urib:

– Qo'rqaman, qo'rqaman! – derdi.

Pyero yenglarini osiltirib olib, ishning xarob bo'lganiga ishongan holda Malvinaga qarab turardi.

Hammadan oldin Buratino es-hushini yig'ib oldi.

– Pyero, – deb qichqirdi u, – anavi qizning qo'lidan ushlab ol, ko'lga, oqqushlar yurgan joyga chopinglar!.. Artemon, yuklarni tashla, soatingni yech, urishasan!..

Malvina bu mardona buyruqni eshitishi bilanoq Artemon ustidan sakrab tushdi-da, ko'ylagining etagini yig'ishtirib olib, ko'l tomonga chopib ketdi. Pyero uning ketidan yugurdi.

Artemon ustidagi yuklarni yerga tashladi, oldingi oyog'idagi soat bilan dumidagi bantni yechib qo'ydi. Oppoq tishlarini tirjaytirdi, muskullarini yozib olish uchun chapga bir, o'ngga bir sakradi-da, u ham orqa oyog'i bilan yerni kavlab, orqasiga tuproq ota boshladi.

Buratino dalaning o'rtasida bir o'zi qaqqayib turgan, yelimi oqib yotgan italyan qarag'a-yining tepasiga chiqib olib, ovozining boricha shovqin-suron ko'tarib chiyilladi:

– Hayvonlar, qushlar, hasharotlar! Biznikilarni urishyapti! Hech bir aybi bo'lmagan yog'och odamchalarni qutqaringlar!..

Politsiya itlari Artemonni go'yo endigina ko'rib qolgandek, birdan uning ustiga otildilar.

Epchil pudel chaqqonlik bilan chap berdi va o'tkir tishlari bilan bitta itning kalta qilib kesilgan dumidan, ikkinchisining sonidan g'archcha tishlab oldi.

Itlar beso'naqaylik bilan orqaga burilib, yana pudel ustiga otildilar. U yuqoriga bir sakrab, itlarni tagidan o'tkazib yubordi-da, bu gal ham bittasining orqasini, bittasining biqinini tishlab oldi.

Itlar uchinchi marta uning ustiga otildilar. Shunda Artemon dumini o't ustiga osiltirib olib, politsiya itlarini o'ziga goh juda yaqinlashtirib, goh ularning shunday tumshug'i ostidan bir irg'ish bilan chetga olib, dalani gir aylanib qochdi...

Puchuq itlar endi juda rostakamiga g'azablandilar, pishqirib Artemonning ketidan yugura boshladilar, ular shoshmasdan, qaysarlik bilan quvardilar, ular har nima qilib bo'lsa ham, o'lib qolsalar ham shu epchil pudelning tomog'idan g'ajib tashlash payiga tushdilar.

Bu orada Karabas Barabas italyan qarag'ayi oldiga keldi-da, daraxtning tanasidan ushlab, silkita boshladi:

– Tush, tush deyapman!

Buratino daraxt shoxiga oyoq, qo'li, tishlari bilan mahkam yopishib oldi. Karabas Barabas daraxtni shunday qattiq silkitdiki, hatto uning butun yong'oqlari silkinib ketdi.

Italyan qarag'ayining yong'oqlari tikanakli va qovundek katta-katta bo'ladi. Bunday yong'oq bilan birovning boshiga tushirib qolsang bormi – eh-ha!

Buratino silkinayotgan shoxga yopishib olib, o'zini zo'rg'a ushlab turardi. U charchab qolgan

Artemon qip-qizil tilini lattadek osiltirib, borgan sari chopishini sekinlatayotganini ko'rib turardi.

– Ber kalitni! – deb bo'kirdi og'zini karrakdek ochib Karabas Barabas.

Buratino bir shoxga tirmashdi-da, yong'oqlaridan birining oldiga yetib oldi va tishini ishga solib, yong'oqning bandini g'ajiy boshladi. Karabas Barabas daraxtni qattiqroq silkitgan edi, bir yong'oq uzilib ketdi va paq etib, to'ppa-to'g'ri uning o'radek og'ziga borib tushdi.

Karabas Barabas, hatto yerga o'tirib qoldi.

Buratino yana bitta yong'oqni uzib tashladi, yong'oq gup etib, to'ppa-to'g'ri Karabas Barabasning boshiga kelib tegdi.

– Biznikilarni urishyapti! – deb qichqirdi yana Buratino, – hech bir aybi bo'lmagan yog'och odamchalarga yordam beringlar!

Eng oldin strijlar¹ uchib kelishdi, ular pastlab borib, itlarning tumshug'i oldidan uchib o'tib, ularni alahsira boshladilar. Itlar ularni ushlab olish uchun tishlarini takillatib, og'iz ochib yopishar edi, lekin strijlar pashsha emas: bu kulrang qushchalar itlarning shunday tumshug'i tagidan yashin tezligida viz-z-viz-z o'tib ketardilar!

Mushukning boshiga o'xshash bulut ichidan o'qday otilib, kalxat chiqib keldi, bu Malvinaga go'sht olib keladigandi; u to'ppa-to'g'ri borib, o'tkir tirnoqlari bilan bir politsiya itiga tashlandi, baquvvat qanotlarini qoqib, itni balandga olib chiqdi-da, tashlab yubordi...

¹ Strij – qaldirg'ochsimon kichkina qush.

It angillaganicha oyog'i osmondan bo'lib yiqilib tushdi. Artemon bir itga yon tomondan hujum qildi, ko'kragi bilan urib yiqitdi-da, g'archcha uzib oldi, so'ng yana qochib ketdi...

Keyin dalaning o'rtasida qaqqayib turgan yolg'iz qarag'ay atrofidan aylanib qochayotgan Artemonni quvib, toza ham ezg'ilangan va jarohatlangan politsiya itlari yugura boshladilar.

Artemonga yordamga cho'lbaqalar kelmoqda edilar. Ular qarib, ko'r bo'lib qolgan ikkita sariq ilonni sudrab kelardilar. Ilonlar ko'p o'tmay yo chirigan bir to'nka tagida, yo bo'lmasa qarqaraning oshqozonida baribir o'lib ketgan bo'lar edilar. Cho'lbaqalar ularni qahramonlarcha halok bo'lishga ko'ndirgandilar.

Vafodor Artemon endi ochiq jangga kirishga qaror qildi.

U dumining ustiga o'tirib oppoq tishlarini irjaytirdi.

Itlar unga tashlandilar, shundan so'ng uchchalasi ham bir-birini yerga qorishtira boshladilar.

Artemon dushmanlarini tishlar, tirnoqlari bilan timdalardi, itlar uning tishlashiga ham, timdalashiga ham e'tibor qilmay, bir narsaning – Artemonning toraog'ini g'ajib tashlashning payida edilar. Butun dalani qiy-chuv to'polon bosgan edi.

Artemonga yordamga urug'-aymog'i bilan tipratikanning erga tegmagan ikki xolasi va kichkina tipratikanchalar kelmoqda edilar.

Semiz-semiz qora baxmalga o'xshagan tukli arilar g'o'ng'illab uchib kelishdi. G'o'ng'illagancha qovoqarilar ham kelib qolishdi. O'rmalagan-

cha tunda uchadigan zaharli sassiq qo'ng'izlar bilan uzun mo'ylovli chaqadigan qo'ng'izlar ham yetib kelishdi.

Butun hayvonlar, qushlar, va hasharotlar mardlik bilan baravariga yaramas politsiya itlari ustiga hujum boshladilar.

Tipratikan, uning xotini, qaynonasi, uning erga tegmagan ikki xolasi va ikki kichkina tipratikanchalar g'ujanak bo'lib olishar va yashin tezligida borib, itlarning tumshug'iga ignalarini sanchishar edi.

Tukli arilar bilan qovoqarilar ularning tepasida uchib, zaharli nishlarini tiqishar edi.

Qovog'ini solib olgan chumolilar hech shoshmasdan bamaylixotir ularning burni ichiga kirib olib chaqar va zaharli chumoli sirkasini to'kar edilar.

Qo'ng'izlar ularning kindigidan chaqardilar.

Kalxat ilmoqqa o'xshagan tumshug'i bilan goh bir itning, goh ikkinchisining miyasidan cho'qir edi. Kapalaklar bilan pashshalar bulutday yopirilib uchib, itlarning ko'z oldini to'sishar edi.

Cho'lbaqalar qahramonona halok bo'lishga rozilik bildirgan ikkita sariq ilonni tayyor qilib ushlab turishar edi.

Mana, itlardan biri burniga to'lib ketgan, zaharli chumolini sirkasini qoqib tashlash uchun aksa urmoqchi bo'lib, og'zini ochdi, lekin shu zahotiyiq qarib ko'zdan qolgan sariq ilon uning og'ziga o'zini urdi va vintga o'xshab, buralib-buralib itning qorniga kirib ketdi.

Ikkinchi it ham xuddi shu ahvolga tushdi: yana bir sariq ilon uning ichiga kirib ketdi.

Chekka-chekkadan rosa kaltak yegan, hamma yog'i chaqib tashlangan, timdalangan ikkala it ham, charchab nafasi og'ziga tiqilib, yerda umbaloq osha boshladilar.

Vafodor Artemon jangda g'olib chiqdi.

Bu orada Karabas Barabas hovuzdek katta og'ziga tiqilib qolgan qarag'ay yog'ochini olib tashladi.



Boshiga kelib tushgan yong‘oq ko‘zlarining soqqasini o‘ynatib yuborgan edi. Gandiraklab kelib, u yana italyan qarag‘ayiga yopishdi. Shamol uning soqolini uchira boshladi.

Daraxtning eng uchiga chiqib olgan Buratino bunday qarasa, Karabas Barabasning shamol uchirib yotgan soqolining uchi shira oqayotgan daraxt tanasiga yopishib qolibdi.

Buratino bitta shoxga osilib oldi-da:

– Amakijon, ushlay olmaysan, amakijon, ushlay olmaysan!.. – deb chiyillay boshladi.

So‘ng bir sakrab, yerga tushib oldi-da, qarag‘ay atrofida gir aylanib yuguraverdi. Karabas Barabas uni ushlab olish uchun qo‘lini cho‘zib, gandraklaganicha daraxt atrofida aylana boshladi.

Daraxt atrofini bir-bir aylandi, chopib yurgan bu tirmizak bolani ushlab olishga sal qolganday bo‘ldi, daraxt atrofidan yana bir marta aylandi, keyin yana bir marta...

Soqoli esa daraxtning yelimiga borgan sari battarroq yopishaverdi.

Karabas Barabasning butun soqoli daraxt yelimiga yopishib, burni daraxtga tiralib qolgach, Buratino uzun tilini chiqarib, uni masxara qildi-da, Malvina bilan Pyeroni axtargani Oqqush ko‘liga qarab chopdi.

Ezg‘ilangan Artemon bir oyog‘ini yig‘ib olib, uch oyoqlab cho‘loqlanib, uning ketidan lo‘killardi.

Dalaning o‘rtasida hayoti, aftidan, bitta o‘lik pashshaga ham arzimaydigan ikki politsiyachi, soqoli qarag‘ay daraxtiga yopishgan, dovdirab qolgan qo‘g‘irchoq fanlari doktori janob Karabas Barabas qoldilar.

XXII. G'orda

Malvina bilan Pyero qamishlar orasidagi iliq, nam do'ngda o'tirishar edi.

Ularning tepasida ninachi qanotlari va qoni so'rib tashlangan chivinlar osilib yotgan o'rgimchak inlari soya solib turar edi.

Kichkina-kichkina zangori qushlar qamishdan-qamishga uchib o'tib, achchiq-achchiq yig'layotgan qizga hayron bo'lib qarar edilar. Uzoqdan zo'r qiy-chuv va shovqin-suron eshilib turar edi, Artemon bilan Buratino aftidan, osonlikcha jon bermoqchi emasdilar.

– Qo'rqaman, qo'rqaman! – deb takrorlar edi va u otquloq bargi bilan ho'l bo'lib ketgan betini berkitar edi.

Pyero uni she'r o'qib ovutmoqchi bo'lardi:

*O'tiribmiz do'nglikda,
Atrof gulzor – kenglikda.
Sariq, pushti atirgul,
Xushbo'y hidli bo'lar ul.
Hammamiz shu do'nglikda,
Yozi bilan yashaymiz.
Hamma hayron qoladi,
Oh, biz yolg'iz yashaymiz!*

Malvina yer tepinib, unga o'shqirdi:

– Siz jonimga tegdingiz, jonimga tegdingiz hoy bola!.. Menga otquloq bargidan olib bering, ko'rma-yapsizmi axir, bunisi ho'l bo'lib, teshilib ketdi.

Birdan uzoqdagi qiy-chuv jim bo'lib qoldi. Malvina sekingina qo'llarini bir-biriga qarsillatib urdi:

– Artemon bilan Buratino halok bo'lishdi... – Keyin do'ng tepasini qoplagan mox ustiga mukka tushib yotib oldi.

Pyero nima qilishini bilmay, uning tepasida qaqqayganicha qoldi. Shamol qamishlarni sekin-asta shitirlatib o'ynardi.

Nihoyat, oyoq tovushlari eshitildi. Shubhasiz, bu dag'allik bilan Malvina va Pyeroni ushlab, chuqur cho'ntaklariga tiqib qo'yish uchun kelayotgan Karabas Barabas bo'lishi kerak. Qamishlar orasi ochildi-da, burnini yuqori ko'tarib va og'zining tanobini qochirib, Buratino paydo bo'ldi. Uning ketidan oqsoqlanib, ustiga ikkita tugun ortilgan Artemon kelar edi...

– Men bilan urishmoqchi bo'lishganiga hayronman, – dedi Buratino, Malvina bilan Pyeroning shodlanib ketishganiga parvo ham qilmay. – Menga mushuk ham, tulki ham, politsiya itlari ham, hatto Karabas Barabasning o'zi ham pisand emas! Hoy qiz, itning ustiga minib ol, hoy bola, sen dumidan ushlab ol. Yuringlar, ketdik...

Shunday dedi-da, u tirsagi bilan qamishlarni nari-beri surib, ko'lni aylanib o'tish uchun do'ngliklardan yurib ketdi...

Malvina bilan Pyero, hatto politsiya itlari bilan bo'lgan jang nima bilan tugadi, nima uchun Karabas Barabas bizni quvib kelmayapti, deb so'rashga ham botinolmadilar.

Ko'lning narigi sohiliga chiqishgach, vafodor Artemon uvlab, juda ham oqsoqlanib qoldi. Uning yaralarini bog'lash uchun bir yerda to'xtash kerak edi. Bir tepalikning yon bag'rida o'sgan kattakon bitta qarag'ayning ildizlari

orasidagi g'orga ko'zlari tushib qoldi. Tugunlar-ni o'sha g'orga sudrab kirishdi, Artemon ham sudralib, o'sha yerga kirdi.

Vafodor it oldin oyoqlarini tozalab yalar, so'ng Malvinaga uzatar edi. Buratino Malvinaning eski ko'ylagini yirtib, doka qilar, Pyero dokani ushlab turar, Malvina esa itning yaralarini bog'lardi.

Yaralarini bog'lab bo'lgach, Artemonning haroratini o'lchashdi, – keyin it tinchib uxlab qoldi.

– Pyero, yugur, ko'ldan suv olib kel, – dedi Buratino.

Pyero she'r o'qib, qoqilib-suqilib, uning buyrug'ini bajargani ketdi, yo'lda choynakning qopqog'ini yo'qotib, tagida jindek suv olib, keldi.

– Malvina, chopqillab borib, gulxanga o'tin yig'ib kel, – dedi Buratino.

Malvina Buratinoga ta'na bilan qaradi, yelkasini qisib qo'ydi-da, borib bir necha dona quruq shox terib keldi.

– Bunday tarbiyasi zo'r odamlar bilan qolsang holingga maymunlar yig'larkan-da... – dedi Buratino.

So'ng o'zi suv olib keldi, o'zi shox-shabba va qarag'ay yong'oqlari yig'ib keldi, g'or oldida o'zi gulxan yoqdi, shunday katta gulxan yoqdi-ki, baland qarag'ayning tepasidagi shoxlarigacha qimirlab ketdi... Suv qaynatib, o'zi qahva pishirdi.

– Ovqatga kelinglar! Tez...

Shu vaqtgacha Malvina labini tishlab, jim o'tirdi. Lekin ish shu yerga kelganda qat'iy qilib kattalardek dedi:

– Buratino, itlar bilan urishib va g‘olib kelganingiz, bizni Karabas Barabasdan qutqazganingiz va undan keyin ham o‘zingizni mardona tutganingiz ovqat yeyishdan oldin qo‘lingiz bilan tishingizni yuvishdan sizni ozod qilmaydi, bunday deb o‘ylamay qo‘ya qoling...

Buratino hayron bo‘lganidan ko‘zlarini baqraytirib o‘tirib qoldi: ana xolos! Mana bu qizning temir tabiatini qarang-a. Malvina g‘ordan chiqib, bir chapak urdi:

– Kapalaklar, kapalak qurtlari, qo‘ng‘izlar, cho‘lbaqalar...

Oradan bir daqiqa ham o‘tmasdan gul changiga qorishgan katta-katta kapalaklar uchib keldilar. O‘rmalagancha kapalak qurtlari bilan qovog‘i soliq gung qo‘ng‘izlar yetib keldilar.

Qorinlarini shapillatganча sakrab-sakrab, cho‘lbaqalar keldilar.

Kapalaklar g‘orning ichi chiroyli bo‘lsin, ovqat ustiga tepadan qum to‘kilmasin deb, qanotlarini yoyib g‘orning devorlariga qo‘nib oldilar.

Go‘ng qo‘ng‘izlar g‘or ichidagi butun axlatni dumalatib, tashqariga chiqarib tashlay boshladilar.

Semiz kapalak qurti o‘rmalab Buratinoning boshiga chiqdi, burnida osilib turib, bola tishini tozalasın uchun yog‘idan siqib berdi. Buratino chor-nochor tishini yuvishga majbur bo‘ldi.

Boshqa bir kapalak qurti Pyeroning tishini yuvib qo‘ydi.

Uxlayverib qovoqlari shishib ketgan, junli cho‘chqa bolasiga o‘xshagan bo‘rsiq paydo bo‘ldi... U jigarrang kapalak qurtlarining

yog'ini siqib chiqarib, dumi bilan barcha oyoq kiyimlarni – Malvinanikini ham, Buratinonikini ham, Pyeronikini ham yaraqlatib moylab berdi.

Ishini tugatgach: «A-ha-xe», deb bir esnadi-da, lapanglaganicha chiqib ketdi.

Har safar biror nimaga hayron bo'lganda boshidagi qizil tarog'i yoyilib ketadigan tinib-tinchimagan ola sassiqpopishak uchib, kirib keldi.

– Kimning sochini tarab qo'yay?

– Mening sochimni, – dedi Malvina. – Tarab va o'rib qo'ying, sochlarim to'zg'ib ketdi.

– Menga qarang, jonim oynangiz qani?

Shunda ko'zlarini baqraytirib turgan cho'lbaqalar:

– Biz topib kelamiz... – deyishdi.

O'nta cho'lbaqa qorinlarini shapillatganicha sakrab-sakrab ko'l tomonga ketdilar.

Oyna o'rniga ular qorni oynadek yaraqlab turadigan karp balig'ini sudrab keldilar, baliq shunday semiz va shunday uyquchi ekanki, qanotlaridan ushlab olib, sudrab ketayotgalariga sira ham parvo qilmadi.

Baliqni Malvinaning oldiga dumi bilan tik turg'azib qo'ydilar. Nafasi tiqilib qolmasin uchun og'ziga choynakdan suv qo'yib turdilar.

Kuydi-pishdi sassiqpopishak Malvinaning sochini tarab va o'rib qo'ydi. Devorga qo'nib o'tirgan kapalaklardan bittasini ehtiyotlik bilan olib, qizning burniga upa qo'ydi.

– Tayyor, jonim... – dedi u va pir etib, g'ordan uchib chiqib ketdi.

Cho'lbaqalar qorni oynadek yaraqlab turgan karp baliqni qayta ko'lga sudrab ketdilar.

Buratino bilan Pyero chor-nochor qo'llarini, hatto bo'yinlarini ham yuvdilar.

Malvina ovqatlanishga ruxsat berdi.

Ovqatlanib olishgach, Malvina etagiga to'kilgan non ushoqlarini qoqib tashladi-da:

– Buratino, do'stim, o'tgan safar biz diktantga kelib to'xtagan edik. Darsni davom ettiramiz, – dedi.

Buratinoning g'ordan chiqib, boshi oqqan tomonga qochib ketgisi keldi. Lekin o'rtoqlari bilan kasal itni tashlab ketib bo'larmidi!

– Qog'oz-qalam olganimiz yo'q-ku... – deb to'ng'illab qo'ydi u.



– Yolgʻon, olganmiz, – dedi Artemon ingrab. Soʻngra tugunlar oldiga sudralib bordi-da, tishi bilan bittasini yechib, ichidan siyoh solingan shisha, qalamdon, daftar va, hatto, bitta kichkinagina globus oldi.

– Pat qalamni qattiq ushlamang, uchiga juda ham yaqin joyidan ushlamang, boʻlmasa barmoqlaringizni siyoh qilib olasiz, – dedi Malvina. U chiroyli koʻzlarini gʻorning shipidagi kapalaklarga tikdi va...

Shu payt shox-shabбалarning qirsillab singani, odamlarning gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir gaplashgani eshitildi, gʻor oldidan zulukfurushtur Duremar bilan oyogʻini zoʻrgʻa koʻtarib bosayotgan Karabas Barabas oʻtib ketdilar.

Qoʻgʻirchoq teatri direktorining peshanasida kattakon koʻk gʻurra koʻrinib turardi, burni shishib ketgan, soqoli toʻzgʻib, daraxt yelimiga qorishgandi.

U oh-voh qilib borar ekan:

– Ular uzoqqa ketib qolgani yoʻq. Shu orada, oʻrmonda boʻlishlari kerak, – der edi.

XXIII. Buratino qanday qilib boʻlsa ham Karabas Barabasdandan oltin kalitning sirini bilib olishga ahd qiladi

Karabas Barabas bilan Duremar gʻor oldidan shoshmasdan oʻtib ketishdi.

Jang paytida zulukfurushtur qoʻrqqanidan chakalak ichiga yashirinib oʻtirgan edi. Jang tamom boʻlgach, u Artemon bilan Buratino qalin oʻrmon orasiga kirib ketguncha qarab turdi-da, shundan keyingina kelib, qiynala-qiyna-

la bir amallab Karabas Barabasning soqolini italyan qarag'ayi yelimidan ajratib oldi.

– Bola tushmagur sizni rosa boplapti-ku! – dedi Duremar. – Bo'yingizga ikki eng a'lo navli zuluklardan solmasak bo'lmaydi...

– Zuluklaringizni pishirib yeng! – deb bo'kir-di Karabas Barabas. – Darrov anavi ablahlarning ketidan quvish kerak!..

Karabas Barabas bilan Duremar qochqinlarning izidan ketdilar. Ular qo'llari bilan o't orasini ochib qarashar, har bir shoxning tagini, har bir do'ngni ko'zdan kechirishardi.

Ular qari qarag'ay daraxtining ildizlari oldida tutab yotgan gulxan qoldig'ini ko'rdilar, ammo yog'och odamchalarning shu g'orga yashirigani, hatto gulxan ham yoqqani ularning xayoliga ham kelmadi.

– O'sha ablah Buratinoni qalamtarosh bilan tilka-tilka qilmasammi, – deb to'ng'illardi Karabas Barabas.

Qochqinlar g'or ichida jim bo'lib qoldilar.

Endi nima qilish kerak? Qochish kerakmi? Lekin mahkam dokalab tashlangan Artemon qattiq uxlab yotar edi. Yaralari bitib ketishi uchun it yigirma to'rt soat uxlashi lozim edi.

Nahotki vafodor itning bir o'zini g'orga tashlab ketishga to'g'ri kelsa?

Yo'q, yo'q, qutulsak birga qutulib ketamiz, halok bo'lsak ham birga halok bo'lamiz...

Buratin, Pyero va Malvina g'orning ichkarisiga tiqilib olib, shivirlashib, rosa masla-

hat qilishdi va gapni bir yerga qo'yishdi: tong otguncha shu yerda kutib turishadi, g'orning og'zini shoh-shabbalar bilan to'sib, niqoblab qo'yishadi va tezroq tuzalsin uchun Artemonga quvvatlantiruvchi dorilar berishadi.

– Men qanday qilib bo'lsa ham, oltin kalit bilan ochiladigan eshikning qayerdaligini Karabas Barabasdan bilib olishga harakat qilib ko'raman. U yerda juda ajoyib, qiziq bir narsa bo'lishi kerak... o'sha narsa bizga baxt keltirishi kerak...

– Siz ketib qolsangiz men qo'rqaman, qo'rqaman, – deb nolidi Malvina.

– Pyero qoladi-ku!

– Eh, u faqat she'r o'qishni biladi...

– Men Malvinani sherdek himoya qilaman, – dedi Pyero, yirik yirtqich hayvonlardek xirillab, mening kimligimni hali bilmaysizlar...

– Yasha, Pyero, bormisan! So'ng Buratino Karabas Barabas bilan Duremarning ketidan yugurdi.

Ko'p o'tmay ularni ko'rdi. Qo'g'irchoq teatrining direktori soy bo'yida o'tirar, Duremar esa uning boshidagi g'urruga otquloq bargidan tayyorlangan malham qo'ymoqda edi.

O'lgudek och bo'lganidan Karabas Barabasning qorni quldur-quldur qilayotgani va undan ham ochroq bo'lgan zulukfurushning qorni shildirshildir qilayotgani uzoqdan eshitilib turardi.

– Janob, biz qorin to'ydirib olishimiz kerak, – derdi Duremar, – u yaramaslarni o'ldirish yarim kechagacha cho'zilishi mumkin.

– Men-ku, hozir butun boshli bitta cho'chqa bolasi bilan ikkita o'rdakni yeb qo'rgan

bo'lardim-a, – deb javob berdi to'ng'illab Karabas Barabas.

Ikkala og'ayni «Uch tanga baliq» oshxonasi-ga qarab yo'l oldilar, tepa yon bag'ridan oshxonaning tepasidagi yozuv ko'rinib turardi. Lekin Buratino, ko'rib qolmasinlar uchun qalin o'sgan o't ustiga engashib, Karabas Barabas bilan Duremardan avvalroq o'sha tomonga qarab yugurdi.

Oshxona oldiga kelganda, Buratino yashirib, o'sha yerda aylanib yurgan kattakon dakang xo'roz yoniga keldi; xo'roz biror don yoki jo'janing tashlandiq ichak-chavog'inimi topib, qip-qizil tojini g'urur bilan baland ko'targancha oyoqlari bilan yer titib, shosha-pisha:



– Qu-qu-qu!.. – deb tovuqlarni ziyofatga chaqirardi.

Buratino bodomli shirinlik uvoqlarini kaftiga solib, xo‘rozga uzatdi:

– Qani, olsinlar, janob bosh qo‘mondon!

Xo‘roz yog‘och bolaga jiddiy qaradi-yu, lekin o‘zini tiyib turolmay, uning qo‘lidagi uvoqlarni cho‘qiy boshladi.

– Qu-qu-qu!..

– Janob bosh qo‘mondon, men oshxonaga kirib olishim kerak edi, lekin buni xo‘jayin ko‘rmasligi shart. Men sizning ajoyib olachipor dumingiz tagiga yashirinib olaman, so‘ng siz meni shunday o‘choqning oldiga olib borib qo‘yasiz. Xo‘pmi? Qu-qu! – dedi yana ham g‘urur bilan xo‘roz.

U hech narsa tushunmadi, lekin o‘zining hech narsa tushunmaganini bildirmaslik uchun g‘urur bilan oshxonaning ochiq eshigiga qarab keta boshladi. Buratino uning qanoti ostida yashirinib, dumi bilan niqoblendi-da, oyoq uchida yurib, oshxonaga kirdi va oshxonaning kal xo‘jayini six va tovalar oldida ivirsilayotgan o‘choq oldigacha yetib oldi.

– Qoch nari, ha sho‘rvaga tushgur! – deb qichqirdi xo‘jayin va xo‘rozni shunday bir tepdiki, bechora xo‘roz qo-qoq-qoq-qoq! – deb dodlaganicha, qo‘rqib ketgan tovuqlarini oldiga chiqib ketdi.

Buratino xo‘jayinga ko‘rinmay lip etib, uning oyog‘i ostidan o‘tdi-da, sopol ko‘zaning orqasiga yashirindi.

Shu payt Karabas Barabas bilan Duremarning tovushi eshitilib qoldi.

Xo'jayin ikki bukilib, ularni kutib olgani chiqdi. Buratino ko'zaning ichiga tushib, yashirinib oldi.

XXIV. Buratino oltin kalitning sirini bilib oladi

Karabas Barabas bilan Duremar qovurilgan go'sht bilan qorin to'ydira boshladilar. Xo'jayin qadahlarga may quyib turdi.

Karabas Barabas cho'chqa bolasining oyoq'ini so'ra turib, xo'jayinga:

– Bu may yaramas ekan, menga huv anavi ko'zadagi maydan quyib ber! – deb buyurdi-da, qo'lidagi suyagi bilan Buratino yashirinib olgan ko'zani ko'rsatdi.

– Bu ko'zada hech narsa yo'q, janob, – deb javob berdi xo'jayin.

– Aldama, ko'rsat-chi.

Shunda xo'jayin ko'zani ko'tarib, ag'darib ko'rsatdi. Buratino yiqilib tushmaslik uchun kuchining boricha qo'l-oyoqlarini ko'zaning ikki chetiga tirab turib oldi.

– Ichida allanarsa qorayib ko'rinyapti-ku, – deb xirilladi Karabas Barabas.

– Ichida allanarsa oqarib ko'rinyapti, – deb uning so'zini quvvatladi Duremar.

– Janoblar, o'lay agar, yolg'on gapirayotgan bo'lsam, tilim kesilsin – ko'zada hech narsa yo'q!

– Bo'lmasa uni stol ustiga qo'y, biz unga suyak tashlaymiz.

Ichiga Buratino yashirinib olgan ko'za qo'g'irchoq teatrining direktori bilan zulukfurushning o'rtasiga qo'yildi. Buratinoning boshiga

g'ajilgan suyaklar bilan non ushoqlari yog'ila boshladi.

Karabas Barabas ko'p may ichdi, keyin yopishib qolgan qarag'ay yelimi erib oqib ketishi uchun soqolini o'choqqa yaqin tutdi.

– Buratinoni mana bu kaftimga qo'yaman-da, bu kaftim bilan bir uraman, pachoq bo'lib ketadi, – deb maqtanardi u.

– Shunday qilsangiz u ablahga munosib jazo bergan bo'lasiz, – deb uning gapini ma'qullardi Duremar, – lekin oldin unga zuluk solsak, butun qonini so'rib olgan bo'lardi,

– Yo'q! – dedi Karabas Barabas musht bilan stolni bir urib. – Oldin undan oltin kalitni tortib olaman...

Suhbatga oshxona xo'jayini aralashdi. U yog'och odamlarning qochib ketgani to'g'risidagi gaplardan xabardor edi.

– Janob, siz ularni qidirib o'zingizni charchatib yurmang. Men hozir ikki nafar epchil yigitni yuboraman, siz to may ichib bo'lganingizcha ular butun o'rmonning tit-pitisini chiqarib, Buratinoni birpasda topib kelishadi...

– Mayli, yubora qol, – dedi Karabas Barabas, kattakon poshnalarini olovga tutib. U juda mast bo'lib qolgan edi, shuning uchun ovozini baland qo'yib, ashula boshladi:

*Mening xalqim g'alati,
Ahmoq, yog'och avlodi.
Qo'g'irchoqlarga hokimman,
Mana, ko'ring, men kimman.
Qahrli Karabaskan,*

*Shonli Barabasman.
Hamma qo'g'irchoq oldimda,
Turar doim ta'zimda.
Sen bo'lsang ham chiroyli –
Menda bordir bir qamchi.
Udir yetti o'ramli,
Udir yetti o'ramli.
Qamchini sal silkitsam,
Mening sabrli xalqim.
Ashulalar aytishar,
Chaqa pullar yig'ishar,
Cho'ntagim to'ldirishar,
Cho'ntagim to'ldirishar.*

Shu payt ko'zaning ichida Buratino chiyillab qoldi:

– Sirni och, hoy badbaxt, sirni och!..

Hayron qolganidan Karabas Barabas tomog'ini qirib, baqrayganicha Duremarga qarab qoldi.

– Bu senmi?

– Yo'q, men emas...

– Bo'lmasa, sirni och degan kim?

Duremar xurofotlarga ishonadigan odam edi; buning ustiga hozir juda ko'p may ichgandi. Qo'rquvdan uning betlari ko'm-ko'k ko'karib va qo'ziqorindek tirishib qoldi.

Unga qarab, Karabas Barabas ham dag'-dag' titray boshladi.

– Sirni och, – deb chiyillab qoldi yana sirli to'vush ko'za ichidan, – bo'lmasa, o'tirgan joyingdan turolmaysan, hoy badbaxt.

Karabas Barabas sakrab turib ketmoqchi edi, lekin qimirlay olmadi.

– Qa-qa-qanday si-si-sirni? – deb so‘radi u duduqlanib.

– Toshbaqa Tortilaning sirini, – deb javob berdi sirli tovush.

Qo‘rqib ketgan Duremar stol tagiga o‘zini urdi. Karabas Barabasning chakagi osilib qoldi.

– Eshik qayerda, eshik qayerda! – deb ketma-ket so‘radi yana boyagi tovush, qishda g‘uvillab kelib, mo‘riga urilgan shamoldek chi-yillab...

– Aytaman, aytaman, jim, jim! – dedi shivirlab Karabas Barabas. – Eshik – qari Karloning hujrasida, o‘choqning surati orqasida...

U shu so‘zlarni aytib bo‘lishi bilanoq oshxonana xo‘jayini keldi.

– Mana bular juda ishonchli yigitlar, pul bo‘lsa bas, shaytonni ham tutib kelishadi.

Shunday deb u eshik oldida turgan Alisa tulki bilan Bazilio mushukni ko‘rsatdi. Tulki hurmat bilan boshidagi eski shlyapasini yechdi.

– Janob Karabas Barabas, biz kambag‘al-bechoralarga o‘nta oltin pul bersalar bo‘lgani, biz shu turgan yerimizdan qimirlamasdanoq ablah Buratinoni qo‘lingizga topshiramiz.

Karabas Barabas soqoli ustiga qo‘l tiqib, kamzulining cho‘ntagidan o‘nta oltin pul chiqardi.

– Mana pul, xo‘sh, Buratino qani?

Tulki pulni bir necha marta qaytarib sandi, yarmisini mushukka berayotib, xo‘rsinib qo‘ydi-da, oldingi oyog‘i bilan ko‘zani ko‘rsatdi:

– U anavi ko‘zaning ichida, janob, shunday burningizning tagida...

Karabas Barabas stol ustidan ko'zani ko'tarib olib, g'azab bilan oshxonaning tosh poliga uloqtirdi. G'ajib tashlangan katta-kichik suyaklar orasidan irg'ib, Buratino chiqdi. Hang-mang bo'lib qolgan odamlar to esini yig'ib olguncha, u o'qdek otilib oshxonadan tashqari chiqdi-da, qaddini mag'rur tutib, goh bir ko'zi, goh ikkinchi ko'zi bilan o'lib yotgan bir qurtga qarab-qarab qo'yayotgan xo'roz oldiga yugurdi.

- Sen aytib berding-a, bo'yning uzulgur! - dedi jahl bilan burnini cho'chchaytirib Buratino xo'rozga. - Qani, endi kuching boricha g'izilla...

Shunday dedi-yu, u generalning dumiga yopishib oldi. Hech narsaga tushuna olmagan xo'roz qanotlarini yozib, shunaqangi yugurdiki, asti qo'yaverasiz! Unga yopishib olgan Buratino ham g'izillaganча tepaga chiqdi, tepadan yo'lga, yo'ldan dalaga, daladan o'rmonga yetib oldi.

Karabas Barabas, Duremar va oshxona xo'jayini nihoyat es-hushini yig'ib olib, Buratino-ning ketidan chopib tashqari chiqdilar. Lekin har qancha qidirsalar ham Buratinodan darak topolmadilar, faqat uzoqdan chalajon holatda yugurib ketayotgan xo'roz ko'zga tashlanar edi. Lekin xo'rozning o'lgudek ahmoq parranda ekanligi hammaga ma'lum bo'lgani uchun unga hech kim e'tibor qilmadi.

XXV. Buratino umrida birinchi marta nima qilarini bilmay qoladi, lekin hamma ish ko'ngildagidek tugaydi

Esi past xo'roz juda charchab qoldi, u tumshug'ini ochib, zo'rg'a chopib borardi. Nihoyat Buratino uning eggilangan dumini qo'yib yubordi.

– Tovuqlaring oldiga bor endi, general...

Xo‘rozga javob berib yuborib, u daraxt shoxlari orasida yarqillab ko‘rinib turgan Oqqush ko‘li tomon yo‘l oldi.

Mana, tepa yon bag‘ridagi qarag‘ay, mana, g‘orga ham yetib keldi. Atrofda siniq shox-shab-balar sochilib yotibdi. O‘t ustiga arava g‘ildiragi-ning izi tushib qolibdi.

Buratinoning yuragi gupillab urib ketdi. U tepa yon bag‘ridan jon holatda chopib tush-di-da, daraxtning ildizlari orasiga qaradi.

G‘or bo‘m-bo‘sh edi!

Malvina ham, Pyero ham, Artemon ham yo‘q.

Yerda faqat ikkita allaqanday latta yotar edi. Buratino ularni qo‘liga olib qaradi. Bu lattalar Pyeroning uzib tashlangan yenglari edi.



Do'stlarini allakim ushlab ketipti! Ular halok bo'lipti! Buratino muk tushib yotib oldi, burni yer tagiga kirib ketdi.

Do'stlarining qanchalik aziz ekaniga u endigina tushundi. Malvina tarbiya bersa ham, Pyero ming martalab she'r o'qisa ham mayli edi, do'stlarini yana bir marta ko'rish uchun Buratino oltin kalitni berishga ham rozi edi.

Uning boshi oldidagi yumshoq tuproq qimirlab ketdi, oyoqlari pushti, o'zi baxmaldek mayin ko'r sichqon chiqib keldi, chiyillab uch marta aksa urdi-da, Buratinoga dedi:

- Mening ko'zim ko'r, lekin qulog'im juda yaxshi eshitadi. Bu yerga ikkita qo'y qo'shilgan arava keldi. Aravada Ahmoqlar shahrining gubernatori tulki bilan iskovuch itlar keldilar. Gubernator iskovuchlarga:

- Mening eng yaxshi politsiyachilarimni o'z vazifasini o'tayotgan paytda tutib olib urgan ablahlar ushlansin! - deb buyruq berdi. - Ushlanglar ularni!

Iskovuchlar:

- Vov!.. - deb javob berdilar.

So'ng g'or ichiga otildilar, g'or ichida ur-yiqit boshlandi. Do'stlaringni oyoq-qo'lidan bog'lab, tugunlar bilan birga aravaga ortib olib ketdilar.

Burunni yerga tiqib, muk tushib yotgandan nima foyda! Buratino sakrab o'rnidan turib, arava izidan yugurdi. Ko'lni aylanib o'tib, qalin o't o'sgan daladan chiqdi.

Ketaverdi, ketaverdi... Miyasida hech qanday reja yo'q edi. Do'stlarini qutqarishi kerak - butun fikr-yodi shu edi.

O'tgan kuni kechasi yumaloq-yostiqlik bo'lib qu-loq ustiga yiqilib tushgan jar tepasidan chiqib qoldi. Pastda toshbaqa Tortila yashaydigan iflos ko'l ko'rinib turardi. Ko'l oldidan o'tadigan yo'ldan pastga bir aravacha tushib kelmoqda edi. Aravachani og'irligidan quruq suyak bo'lib qolgan, yunglari titilib ketgan ikki qo'y tortib kelardi.

Aravani oltin ko'zoynak taqqan, ikki yuzi dum-dumaloq semiz mushuk haydab kelmoqda edi, u gubernator huzurida uning qulog'iga sirli gaplarni quyib turuvchi bo'lib xizmat qilardi. Aravada savlat to'kib gubernator tulki o'tirardi... Orqada tugunlar orasida Malvina, Pyero va a'zoyi-badani doka bilan o'rab tashlangan Artemon yotar edilar, Artemonning doim tarab, tozalab qo'yiladigan dumi hozir osilib yotar va yo'l tuprog'iga qorishib kelar edi.

Aravaning ketidan ikkita iskovuch it kelar edi.

Birdan iskovuchlar tumshuqlarini yuqori ko'tarib, jar tepasida turgan Buratinoning oppoq qalpoqchasini ko'rib qoldilar.

Iskovuch itlar tez-tez sakrab, tik yerdan tepaga chiqa boshladilar. Lekin ular jar tepasiga yetib chiqquncha Buratino – uning na qochadigan, na yashirinadigan joyi yo'q edi – qo'llarini kallasi tepasiga ko'tardi-da, ko'm-ko'k shilimshiq suv o'tlari o'sib yotgan iflos ko'lga kalla tashladi.

U osmonda yoysimon chiziq hosil qilib pastga uchib tusha boshladi, agar kuchli shamol urib turmagan bo'lganda, Tortila xolaning himoyasiga sig'ingan bo'lar edi, albatta.

Esib turgan kuchli shamol yengilgina yog'och Buratinoni uchirib ketdi, mo'ljallagan joyidan chetga chiqib ketgan Buratino gubernator tulkingining boshiga kelib urildi.

Tilla ko'zoynak taqqan semiz mushuk qo'rqib ketganidan aravadan yiqilib tushdi, o'zi o'lgudek yaramas va qo'rqqoq bo'lganidan, o'zini hushidan ketib qolganga soldi.

Undan ham battar qo'rqqoq bo'lgan gubernator tulki dodlab, jar yoqalab qochib qoldi va yo'lda uchrab qolgan bo'rsiq iniga o'zini urdi. Inda ham rosa sho'ri quridi: bo'rsiqlar unga o'xshagan chaqirilmagan mehmonlarni siylab o'tirishmasdi.

Qo'ylar o'zlarini bir chetga urdilar, arava ag'darilib ketdi. Malvina, Pyero va Artemon tunganlar bilan birga jar tagida o'sgan otquloqlar orasiga yiqilib tushdilar.

Bu ishlar shunday tez yuz berdiki, qimmatli o'quvchilar, bu vaqt ichida siz bitta qo'lingizdagi barmoqlaringizni ham sanab chiqolmagan bo'lardingiz.

Iskovuch itlar katta-katta sakrab, pastga yugurdilar. Ag'darilib yotgan arava oldiga kelib, ular hushidan ketib yotgan mushukni ko'rdilar. Otquloqlar orasida ag'anab yotgan yog'och odamchalar bilan doka bilan o'rab tashlangan pudelini ham ko'rdilar. Lekin gubernator tulki hech qayerda ko'rinmas edi.

U g'oyib bo'lgan edi, iskovuch itlar ko'z qorachig'idek saqlashi lozim bo'lgan gubernator yer yorilib, ichiga tushib ketgandek yo'q bo'lib qolgan edi.

Bitta iskovuch it tumshug'ini yuqori ko'tarib ulidi.

Ikkinchi iskovuch ham sherigiga ergashdi.

– Voy-voy-voy-u-u-u!..

Ular to'rt tomonga izg'ib, jar yoqasini rosa axtarishdi. Keyin yana ulib qolishdi, chunki ularning ko'ziga qamchin bilan temir panjarali qamoqxona ko'rinib ketdi.

Ular dumlarini qisgan holda, gubernator go'yo tirikdayin narigi dunyoga o'tib ketdi, degan xabar berish uchun politsiya bo'limiga jo'nashdi. Ular o'zlarini oqlash uchun yo'lda ana shunday bahona topishgan edi.

Buratino ehtiyotlik bilan u yoq-bu yog'ini ushlab ko'rdi. Uning oyoq-qo'li butun edi. U otquloqlar tomonga emaklab borib, Malvina bilan Pyeroning oyoq-qo'lini yechdi.

Malvina hech narsa demasdan Buratinoning bo'ynidan quchoqlab oldi, lekin uni o'polmadi. Sababi bolaning uzun burni xalaqit berdi.

Pyeroning yengi tirsagigacha yirtib olingan edi, betidagi oq upalar to'kilib ketgan va u shoirtabiat bo'lishiga qaramay, beti oddiy bolalarning oddiy betiga o'xshagan – qip-qizil bo'lib qolgan edi.

– Men juda qattiq olishdim, – dedi u shoirlarnikiga o'xshamagan dag'al tovush bilan. – Oyog'imdan chalib yuborishmaganda, meni hech kim qo'lga tushirolmas edilar.

Malvina uning gapini tasdiqladi:

– U sherdek olishdi.

Qiz Pyeroni mahkam quchoqlab, ikki betidan o'pib oldi.

– Boʻldi, boʻldi, hadeb ogʻiz-burun oʻpishaver-manglar, – deb toʻngʻilladi Buratino, – qochish kerak. Artemonni esa dumidan sudrab ketamiz.

Ular uchivlashib bechora itning dumidan sudrab, jarning yuqorisiga tirmashib chiqa boshladilar.

– Qoʻyinglar, men oʻzim chiqaman, bunaqada mening xoʻrligim kelayapti, – deb nolidi bechora it.

– Yoʻq, yoʻq, sen hali juda zaifsan.

Ammo ular endi jarning yarmiga chiqqan edilarki, yuqorida, Karabas Barabas bilan Duremar koʻrinib qoldi. Alisa tulki oldingi oyogʻi bilan ularni koʻrsatib turar, Bazilio mushuk esa moʻylovlarini hurpaytirib, mingʻillar edi.

– Xa-xa-xa, anavini qaranglar! – deb xaxo-lab yubordi Karabas Barabas. – Oltin kalit oʻz oyogʻi bilan yurib kelyapti-ya!

Buratino bu yangi balodan qanday qilib qutulsak ekan, deb oʻylay boshladi. Pyero Malvinani mahkam quchoqlab oldi, u osonlik-cha jon bermoqchi emasdi. Bu gal qutulishdan sira umid yoʻq edi.

Jar yoqasida turgan Duremar:

– Janob Karabas Barabas, yarador it pudelni menga berasiz, men uni zuluklarim semirishi uchun koʻlga tashlayman, – deb hiringlardi.

Semiz Karabas Barabas qiya jardan pastga tushgani erindi, u xasipga oʻxshagan barmoqlari bilan qochqinlarni imlar edi:

– Kelinglar, kelinglar bu yoqqa, bolalarim...

– Qimirlamanglar! – deb buyurdi Buratino doʻstlariga. – Oʻladigan boʻlsak – shodlik bilan

o'laylik! Pyero, sen eng yaramas she'rlaringni o'qi. Malvina, ovozing boricha xaxolab kul...

Ba'zi kamchiliklari borligiga qaramay Malvina yaxshi o'rtoq edi. U ko'z yoshlarini artdi-da, jar tepasida turganlarning jonini chiqaradigan qilib masxaralab, xaxolab kula boshladi.

Pyero darrov bitta she'r to'qib, yoqimsiz to'vush bilan o'qiy boshladi:

*Alisa tulki sho'rlik
Kaltak yeydi – ko'rgilik.
Bazilio-mosh gadoy –
Zoti o'g'ri o'lguday.
Zulukfurush, tentakvoy,
Jikkak va beso'naqay.
Sen, Karabas Barabas,
Hech qo'rqmaymiz sendan, bas...*

Buratino esa har xil qiliqlar bilan, yuqoridagilarni masxara qilardi:

– Hoy, qo'g'irchoq teatrining direktori, qari bochka, tentaklik bilan to'ldirilgan jonli qop, tush, tush bu yoqqa, iflos soqolingga bir tupuray!

Bunga javoban Karabas Barabas g'azab bilan o'kirdi, Duremar ingichka qo'llarini osmonga ko'tardi.

Alisa tulki tirjayib:

– Ruxsat eting, bu yaramaslarning ta'zirini berib qo'yay, – deb qo'ydi.

Yana bir daqiqadan keyin butun hangoma tugashi mumkin edi... Birdan qaldirg'ochlar uchib kelib qolishdi, ular:

– Shu yerda, shu yerda, shu yerda! – deb qattiq-qattiq chug'urlashar edi.

Karabas Barabasning tepasidan shovqin solib, zag'izg'on uchib o'tdi:

– Tezroq, tezroq, tezroq!..

Keyin jar tepasida qari Karlo ota paydo bo'ldi. Uning yengi shimarilgan edi, qo'lida katta tayoq, qoshlari chimirilgan...

U yelkasi bilan Karabas Barabasni bir tomonga, tirsagi bilan Duremarni ikkinchi tomonga turtib yubordi, qo'lidagi tayoq bilan Alisa tulkini bir tushirdi, Bazilio mushukni bir tepib uchirib yubordi...

Keyin jar yoqasiga kelib engashib, pastga yog'och odamchalar turgan tomonga qaradi va shodlik bilan qichqirdi:

– Buratino, o'g'lim, ha tinmagur, eson-omon bormisan? Kel darrov, bu yoqqa!

XXVI. Nihoyat, Buratino Karlo ota, Malvina, Pyero va Artemon bilan birga uyga qaytib keladi

Kutilmaganda Karloning paydo bo'lib qolishi, uning qo'lidagi tayog'i va chimirilgan qoshlari yaramaslarning o'takasini yorib yubordi.

Alisa tulki qalin o'sgan o't orasiga kirib shunaqangi qochdiki, asti qo'yaverasiz, u kaltak zarbidan mayishib qolgan beliga sal-pal dam berish uchungina har zamonda bir to'xtar edi. Tepki zarbidan o'n qadamcha joyga uchib ketgan Bazilio mushuk g'azabidan mix kirgan velosiped g'ildiragidek pishillar edi.

Duremar ko'k paltosining etagini yig'ishtirib oldi-da:

– Menda ayb yo‘q, menda ayb yo‘q... – deb jordan pastga tushib keta boshladi.

Lekin jarning tik joyiga kelib qolgach, yiqilib ketdi-da, yumaloq-yostiqlik bo‘lib borib, shalop etib, ko‘lga tushdi.

Karabas Barabas turgan joyida qaqqayganicha turib qoldi. Faqat bo‘yni ichiga kirib ketgandi, soqoli esa kamondek osilib yotardi.

Buratino, Pyero va Malvina yuqoriga chiqdilar. Karlo ota ularni bitta-bittadan qo‘liga olar va:

– Ha, tinib-tinchimaganlar, sizlarnimi! – deb barmog‘i bilan po‘pisa qilgan bo‘lardi-da, qo‘yniga tiqardi.



Keyin u jar tepasidan bir necha qadam pastga tushdi, bechora itning tepasida tiz cho'kdi. Vafodor Artemon tumshug'ini ko'tarib, Karlo otaning burnini yaladi. Buratino darrov Karloning qo'ynidan boshini chiqardi:

– Karlo ota, biz Artemonni tashlab hech qa-yoqqa ketmaymiz.

– Eh-he, – dedi Karlo, – bu juda qiyin ish-da, mayli, itingizni bir amallab olib ketaman.

U Artemonni yelkasiga ortib oldi va og'ir yuk ostida inqillab-sinqillab jar tepasiga chiqdi, u yerda yelkasini qisib va ko'zlarini baqraytirib, hamon Karabas turar edi.

– Qo'g'irchoqlar meniki... – dedi u to'ng'illab.

Karlo ota unga qovog'ini solib, quruqqina javob berdi:

– He, barakalla! Qarigan chog'ingda orttirgan oshnalaringni qara-ya! Hammaga ma'lum qal-loblar – Duremar, mushuk, tulki. Go'daklarni xafa qilibsizlar! Uyat, doktor!

So'ng Karlo shaharga qarab ketdi.

Karabas Barabas yelkasini qisib, uning ketidan kelar edi.

– Qo'g'irchoqlar meniki, ber ularni!..

– Bermang! – deb chug'urlab qoldi Karloning qo'ynidan kallasini chiqarib Buratino.

Shunday ketaverdilar, ketaverdilar. Xo'jayini ikkala qo'li bilan tovada pishirayotgan shirin-shirin taomlarni ko'rsatib, eshik oldida ikki bukilib turgan «Uch tanga baliq» oshxonasi oldidan o'tdilar. Dumi yulingan xo'roz eshik oldida, u yoqdan-bu yoqqa yurib, g'azab bilan Buratinoning bezo-

riligi to'g'risida tovuqlarga gapirib bermoqda edi. Tovuuqlar unga achinib qoqolashardi:

– Qoq-qoq-qoq, unga boq! Oh, oh, bizning xo'roz!

Karlo tepalik ustiga chiqdi, u yerdan dengiz, shamol haydab kelgan to'liqlar hosil qilgan oppoq ko'piklar, qizdirib turgan quyosh ostida mudrab yotgan sohildagi kulrang shaharcha va qo'g'irchoq teatrining chodir tutilgan tomi ko'rindi.

Karlodan uch qadam orqada turgan Karabas Barabas:

– Qo'g'irchoqlarni menga sot, yuz tilla bera-man, – deb to'ng'illadi.

Buratino, Malvina va Pyerolarning nafasi ichiga tushib, Karloning nima deyishini kutib jim qolishdi.

– Yo'q, – deb javob berdi Karlo. – Agar sen yaxshi odam bo'lganingda, mayli edi, berardim. Lekin sen timsohdan ham battarsan. Sotmayman ham, bermayman ham, jo'na.

Karlo tepadan pastga tushdi, Karabas Barabasga zarracha ham e'tibor qilmay, shaharga kirib bordi.

Shahardagi bo'm-bo'sh bir maydonchada qimir etmay bir politsiyachi turar edi. Issiqdan tinkasi quriganidan uning mo'ylovlari osilgan, kipriklari yopishib qolgan, uchburchak shlyapasi ustida pashshalar uchib yurar edi.

Karabas Barabas birdan soqolini cho'ntagiga tiqdi-da, orqadan kelib, Karloni mahkam ushlab oldi va butun maydonchani boshiga ko'tarib, bo'kirdi.

– Ushlanglar o‘g‘rini, u mening qo‘g‘irchoqlarimni o‘g‘irlagan!..

Lekin issiqdan tinkasi qurigan politsiyachi qimirlamadi ham. Karabas Barabas yugurganicha uning oldiga keldi-da, Karloni qamoqqa olishni talab qildi.

– O‘zing kimsan? – deb so‘radi erinibgina politsiyachi.

– Men qo‘g‘irchoq fanlari doktori, mashhur teatrning direktori, oliy darajali ordenlar kavaleri, Taralabedod qirolining eng yaqin do‘sti Karabas Barabas bo‘laman...

– Menga ko‘p baqiraverma, – deb javob berdi politsiyachi.

Karabas Barabas u bilan janjallashib bo‘lguncha, Karlo ota ko‘chaga yotqizilgan toshlarga hassasini to‘qillatib, tez-tez yurib, uyiga yetib keldi. Zina ostidagi qorong‘i hujrani ochdi, yelkasidan Artemonni olib, pastga karavotga qo‘ydi, qo‘ynidan Buratinoni, Malvina va Pyerolarni chiqarib, stol ustiga yonma-yon o‘tqazib qo‘ydi.

Malvina darrov gap boshladi:

– Karlo ota, eng oldin kasal itimizga qarang. Bolalar, darrov yuvinib kelinglar...

Birdan u alam bilan chinqirib yubordi:

– Voy sho‘rim! Ko‘ylaklarim qani? Yangi poyabzallarim, chiroyli tasmalarim jar tagida, otquloqlar orasida qolaveribdi!..

– Mayli, xafa bo‘lma, – dedi Karlo, – kechqurun borib, tugunlaringizni olib kelaman.

U Artemonning oyoqlaridagi dokalarni ehtiyot bo‘lib yechdi.

Uning yaralari deyarli bitib qolibdi, it juda och bo'lganidan qimirlay olmayotgan ekan.

– Bir likopcha suli sho'rva bilan bitta ilikli suyak bo'lsa bas – men yana shahardagi barcha itlar bilan ham urushaveraman.

– Eh, attang, attang, – dedi boshini chayqab Karlo, – uyda na bir burda non, na cho'ntagimda bir soldo pul bor...

Malvina zor-zor yig'lay boshladi. Pyero endi nima qilsak ekan, degandek mushti bilan zo'r berib, peshanasini ishqar edi.

– Ko'chaga chiqib she'r o'qiyman, o'tkinchilar soldolarni yog'dirib yuboradilar.

Karlo bosh chayqadi:

– Unday qilsang, sayoqlik qilding deb politsiyaga olib ketadilar.

Buratinodan boshqa hamma xafa bo'lib, jim qoldi. U esa ayyorlik bilan jilmayar, go'yo stol ustida emas, igna ustida o'tirgandek pitir-pitir qilardi.

– Hey bolalar, bo'ldi endi, ko'p xafa bo'lavermanglar! – dedi u va sakrab, yerga tushdi-da, cho'ntagidan allanarsa oldi. – Karlo ota, bolg'a topib, devordan anavi teshik rasmni olib tashlang.

Shunday deb, u cho'chchayib turgan burni bilan devorga qoqilgan eski kanob matadagi o'choq, qozoncha va tutun rasmini ko'rsatdi.

Karlo hayron bo'ldi:

– Nega, o'g'lim shunday chiroyli rasmni devordan olib tashlab nima qilasan? Qish kechalari men unga qarab, undagi olovni rostakam olov

deb, qozonchada qo'y go'shti bilan sarimsoq piyoz solingan rostakam sho'rva pishyapti deb o'ylab o'tiraman, badanimga bir oz issiq yuguradi.

– Karlo ota, chin qo'g'irchoq so'zim, o'choqda rostakam olov yonadi, rostakam cho'yan qozonchada rostakam shirin sho'rvalar pishiramyiz. Suratni olib tashlang!

Buratino bu so'zlarni shunday ishonch bilan aytdiki, Karlo ota ensasini qashib, kallasini chayqab qo'ydi-da, yo'tala-yo'tala ombur bilan bolg'ani ishga solib, rasmni ko'chira boshladi. Rasmni orqasini o'rgimchak ini bilan o'lik pashsha tutib ketganini biz yaxshi bilamyiz.

Karlo devorni o'rgimchak inlaridan yaxshilab tozaladi. Shunda qorayib ketgan kichkinagina dub eshik ko'rindi. Eshikning to'rt burchagida kulib turgan to'rtta qo'g'irchoqning rasmi bor edi, o'rtasida esa o'yin tushayotgan uzun burunli qo'g'irchoqning surati ko'zga tashlanar edi.

Eshikka yopishib qolgan changlarni tozalab tashlashgach, Malvina, Pyero, Karlo ota, hatto ochlikdan sulayib qolgan Artemon ham baravariga:

– Iy-ye, bu Buratinoning rasmi-ku! – deb gichqirib yuborishdi.

– O'zim ham shundaydir deb o'ylagan edim, – dedi Buratino, garchi aslo bunday deb o'ylamagan va o'zi ham hayron qolgan bo'lsa ham. – Mana bu esa eshikning kaliti. Karlo ota, oching eshikni...

– Bu eshik bilan oltin kalitni juda ko'p zamonlar burun biror mohir usta ishlagan bo'lsa kerak, – dedi Karlo ota. – Qani. ko'raylikchi, ichkarida nima bor ekan?

– U kalitni eshikning qulogʻiga solib buradi... Goʻyo musiqa qutidagi organ asbobi chalingandek asta-sekin yoqimli musiqa ovozi eshitildi...

Karlo ota eshikni itardi. Eshik sekin-asta gʻijirlab ochila boshladi.

Shu payt tashqaridan odamlarning shosha-pisha yurgan tovushlari va Karabas Barabasning boʻkirgani eshitildi:

– Taralabedod qiroli nomidan buyuraman, qari hiylakor Karlo qamoqqa olinsin.

XXVII. Karabas Barabas endi zina ostidagi hujraga bostirib kiradi

Karabas Barabas Karloni qamoqqa olishni talab qilib, uyqusirab turgan politsiyachi bilan rosa janjallashganini bilamiz. Hech ish chiqarolmagan Karabas Barabas koʻchada zir yugura boshladi.

Uning hilpirab uchib yurgan soqoli oʻtkinchilarning tugmachalari va soyabonlariga ilashardi. U odamlarga urilib-turtilib yurar, tishlarini gʻajirlatar edi. Bolalar uni masxara qilib, xushtak chalishar, unga irigan olmalar otishardi.

Karabas Barabas yuguranicha shahar hokimi oldiga bordi. Kun juda qizib ketgani uchun shahar hokimi faqat ichki kiyimda favvora oldida sharbat ichib oʻtirardi.

Uning oltita ogʻzi bor edi, burni qip-qizil, koʻzi ichiga botgan edi.

Orqasida, lipa daraxti tagida turgan toʻrtta qovogʻi soliq va soqolini koʻz yoshlari bilan yuvib, yigʻlay boshladi:

– Men bir bechora yetimchaman, meni xafa qilishdi, bor-yo‘g‘imni o‘g‘irlab ketishdi, tutib olib do‘pposlashdi...

– Sen bir bechora yetimchani kim xafa qildi? – deb so‘radi harsillab shahar hokimi.

– Yovuz dushmanim, qari sharmankachi Karlo xafa qildi. U mening eng yaxshi qo‘g‘irchoqlarimning uchtasini o‘g‘irlab ketdi, u mening mashhur teatrimga o‘t qo‘yib yubormoqchi, agar u darrov qamoqqa olinmasa, butun shaharni talab ketadi, hamma yoqqa o‘t qo‘yib yuboradi.

O‘z so‘zlarining to‘g‘riligini isbot qilish uchun Karabas Barabas yonidan bir hovuch tilla pul chiqarib, hokimning poyabzali ichiga solib qo‘ydi.

Gapning qisqasi, u shunday bo‘lmag‘ur gaplarni gapirib tashladiki, qo‘rqib ketgan sha-



har hokimi lipra daraxti tagida turgan politsiyachilarga:

– Bu hurmatli yetimcha bilan borib, qonun nomidan lozim boʻlgan butun choralarni koʻringlar, – deb buyurdi.

Karabas Barabas toʻrt politsiyachini boshlab, Karloning hujrasiga yugurdi, yetib kelib:

– Taralabedod qiroli nomidan buyuraman, oʻgʻri va muttaham Karloni qamoqqa olinglar! – deb boʻkirdi.

Lekin hujraning eshigi yopiq edi. Ichkari-dan hech kim javob bermadi. Karabas Barabas yana buyurdi:

– Taralabedod qiroli nomidan buyuraman – eshikni buzinglar!

Politsiyachilar baravariga bir zoʻr berishgan edi, chirib qolgan eshik tabaqalari dosh berolmadi. Toʻrtala politsiyachi qilich-qalqonlari bilan zina tagidagi hujra ichiga yiqilib tushdilar.

Bu payt Karlo engashib, yashirin eshikka kirib ketayotgan edi.

Karlo hammadan keyin ichkari kirdi. Shunda eshik jiring yetdi-da, yopilib qoldi. Sekin-as-ta chalinayotgan musiqa toʻxtadi. Zina ostidagi hujrada faqat iflos dokalar bilan devordan koʻchirib olingan eski rasm yotar edi...

Karabas Barabas yashirin eshik oldiga chopib keldi-da, qoʻl-oyoqlari bilan eshikni taqillata boshladi:

– Taq-taq-taq-taq!

Lekin eshik mahkam edi.

Karabas Barabas yugurib kelib, eshikni orqasi bilan urdi.

Eshik ochilmadi.

U yer tepinib, politsiyachilarga qarab buyurdi:

– Taralabedod qiroli nomidan badbaxt eshikni buzinglar!

Politsiyachilar esa o'zlari bilan o'zlari ovo-
ra edilar, bittasi shishib ketgan burnini silar-
di, bittasi g'urra bo'lgan peshanasini ushlab
ko'rardi.

– Yo'q, bu juda qiyin ish ekan, – deb javob
berdilar ular, – biz qonun nomidan hamma
choralarni ko'rdik, lekin qari sharmankachiga
shaytonning o'zi yordam berayotganga o'xshay-
di, deb xabar qilgani shahar hokimi oldiga
jo'nadilar.

Karabas Barabas soqolini yuldi, yerga
ag'darildi va zina ostidagi hujrada bo'kirmoqqa,
uvlamoqqa va u yondan-bu yonga dumalamoq-
qa boshladi.

XXVIII. Ular yashirin eshikdan kirib nima topadilar

Karabas Barabas hujrada quturib duma-
layotgan va soqolini yulayotgan paytda, ol-
dinda Buratino, uning ketidan Malvina, Pyero,
Artemon va eng keyinda Karlo ota tik tosh zina-
dan yer ostiga tushib bordilar.

Karlo ota qo'liga yonib bo'lay deb qolgan
sham ko'tarib olgan edi. Shamning lipillab tur-
gan shu'lası Artemonning yungdor boshi yoki
Pyeroning oldinga cho'zilgan qo'lining soyala-
rini katta-katta qilib ko'rsatar edi-yu, lekin
zinaning qop-qorong'i bo'lib yotgan pastki qis-
mini yoritolmas edi.

di, uning ketidan sakrab-sakrab Pyero tushib kelardi. Eng keyinda hadeb oyog'idan chiqib ketaveradigan yog'och boshmog'ini zo'rg'a sudrab, engashgancha Karlo ota tushib kelardi.

Pastda, tik zina adog'idagi tosh sahnda Artemon o'tirardi. U labini yalab-yalab qo'yardi. Uning oyog'i ostida bo'g'ib o'ldirilgan kalamush Shushara cho'zilib yotardi.

Buratino ikkala qo'li bilan chirib ketgan namatning bir uchini ko'tarib turardi. Namat tosh devor orasidan ochilgan katta bir teshikning og'ziga tortib qo'yilgan edi. Ichkaridan zangori nur sochilib turardi.

Teshikdan ichkari kirishganda ularning ko'ziga dastlab tashlangan narsa – quyoshning sohib turgan nuri bo'ldi. Nur gumbaz shipdagi dumaloq derazadan tushib turar edi.

Quyosh nuri uy ichida uchib yurgan chang zarralari orasidan, sarg'ish marmar toshdan ishlangan xonani yoritib turardi. Xona ichida nihoyatda chiroyli qo'g'irchoq teatri turardi. Teatrning pardasi ustida oltin hal yuritib ishlangan chaqmoq shakli yaraqlardi.

Pardaning ikki tomonida to'rtburchak shaklida ishlangan ikkita minora bor edi, minoralar shunday bo'yalgan ediki, go'yo mayda-mayda g'ishtlardan qurilganga o'xshardi. Minoralarning ko'k tunuka qoplangan baland tomi yarqirardi.

Chap tomondagi minorada millari bronzadan bo'lgan soat bor edi. Soatdagi har bir raqamning ikki tomonida kulib turgan bolalar yuzi tasvirlangan edi: ularning biri o'g'il bola, ikkinchisi qiz bola edi.

O'ng tomondagi minora tepasida har xil rangdagi oyna o'rnatilgan dumaloq deraza bor edi.

Shu deraza tepasidagi ko'k tunuka tom ustida gapiradigan qora chigirtka o'tirardi. Hammalari angrayganicha og'izlarini ochib, bu ajoyib teatr oldida turar ekanlar, chigirtka dona-dona qilib sekin gapira boshladi:

- Boshingga har xil xavf-xatarlar va qo'rqinchli sarguzashtlar tushadi degan edim-a, Buratino. Xayriyat, hammasi yaxshilikcha tugabdi, boshqacha tugashi ham mumkin edi... Ana shundaqa...

Qari chigirtkaning ovozi zaif edi, ovozidan uning biroz xafa ekani ham sezilib turardi, chunki gapiradigan qora chigirtka sho'rlik bir vaqtlar bolg'a bilan kaltak yegan edi, shuning uchun u yuzga kirganiga va tabiatan oqko'ngil ekaniga qaramay, bekordan-bekorga kaltak yeganini esdan chiqarolmagan edi. Shuning uchun u boshqa hech narsa demadi, mo'ylovlarini changdan tozalayotgandek qimirlatib qo'ydi-da, sekin-asta o'rmalab, shovqin-surondan nari qochib, bitta teshikka kirib ketdi.

- Men bo'lsam, bu yerdan juda bo'lmaganda bir xum tilla yo kumushga ega bo'lamiz deb o'ylagan edim, - dedi shunda Karlo ota, - qaranglarki, buning o'rniga nihoyati bir to'p eski o'yinchoqlarni topdik.

U minoraga o'rnatilgan soat oldiga bordi, tirnog'i bilan soatning doirasini tiqillatib ko'rdi, soatning bir yonidagi mis mixchaga osig'liq turgan kalitni olib, soatini buradi.

Soat ishlab ketdi. Millar joyidan qo'zg'aldi. Soatning katta mili o'n ikki ustiga, kichigi olti ustiga keldi. Minora ichida allanarsa pishilladi, qirsilladi-da, soat olti marta zang urdi...

Darhol o'ng tomondagi minoraning har xil oynali derazasi ochildi, u yerdan burab yurgiziladigan juda g'alati olachipor bir qushcha chiqdi-da, qanotlarini yozib, olti marta sayradi.

– Marhamat-marhamat, marhamat-marhamat, marhamat-marhamat...

Qushcha minora ichiga kirib ketdi, deraza yopildi, sharmanka chalina boshladi-da, parda ko'tarildi...

Bunday chiroyli dekoratsiyani hech kim, hatto Karlo ota ham ko'rmagan edi.

Sahnada ajoyib bir bog' tasvirlangan edi. Oltin va kumush bargli kichkina-kichkina daraxtlarda tirnoqdek-tirnoqdek maynalar yashar edi. Daraxtlardan birida no'xatdek-no'xatdek olmalar pishib yotardi. Daraxtlar tagida yurgan tovuslar bo'yinlarini cho'zib, olmalarni cho'qib-cho'qib qo'yar edilar. O'tloqda sakrashib, suzishib va shox tashlashib ikkita echki o'tlab yurardi, havoda esa ko'z ilg'amas darajada kichkina kapalaklar uchib yurardi.

Shu tarzda bir daqiqa o'tdi. Maynalar ovozi tindi, tovuslar bilan echkichalar bir chetga chiqib ketdilar. Daraxtlar sahna tagidagi yashirin joylarga tushib ketdilar.

Sahnaning ichkarisidagi to'rdan ishlangan bulutlar tarqalib keta boshladi. Qum sahrosi tepasida qip-qizil quyosh ko'rindi. Sahnaning o'ng va so'l tomonida chirmovuqning ilonga

o'xshagan poyalari ko'zga tashlandi, poyalardan birida haqiqatan ham bitta bo'g'ma ilon osilib yotar edi. Boshqa bir poyaga bir to'da maymunlar dumi bilan osilib olgan edi.

Bu Afrika edi.

Qizil quyosh nur sohib turgan sahro qumlari ustidan har xil yirtqich hayvonlar o'tib turardi.

Uch sakrab, bo'yni serjun sher o'tib ketdi - u mushuk bolasidan katta bo'lmasa ham, dahshatli edi.

Orqa oyoqlari bilan lapanglab yurib, soyabon ko'tarib olgan baxmal ayiq o'tdi.

Badbashara bir timsoh o'rmaladi. Uning kichkina-kichkina, munchoq kabi ko'zlari muloyimlik bilan qarashga urinar edi. Lekin Artemon unga baribir ishonmadi va unga qarab irilladi.

Chopganicha karkidon o'tib ketdi, bezarar bo'lsin uchun uning burnidagi o'tkir tig'iga rezina koptok kiyg'izib qo'yilgan edi. Zo'r berib bo'ynini cho'zib, shoxdor tuyaga o'xshagan yo'l-yo'l jirafa chopib ketdi.

Keyin soyali konfet ko'tarib, xartumini salanglatib, bolalarning do'sti, aqlli va oqko'ngil fil o'tdi. Hammadan oxirida yoni bilan yurib, o'lgudek iflos, yovvoyi it - chiyabo'ri o'tdi. Artemon vovullaganicha uning ustiga otildi. Karlo ota dumi-dan tortib, uni sahnadan zo'rg'a tushirib oldi.

Hayvonlar o'tib bo'ldi. Birdan quyosh so'ndi. Qorong'ida tepadan allaqanday narsalar tushdi, allaqanday narsalar sahnaning ikki yonidan surilib chiqdi. Torning simlari ustidan kamuncha yurgizgandek g'alati tovush eshitildi.

Ko'chalardan xira chiroqlar yondi. Sahnada shahar maydonchalaridan biri paydo bo'ldi. Uylarning eshigi ochilib, kichkina-kichkina odamchalar chopqillab chiqishdi-da, bir o'yinchoq tramvayga minishdi. Konduktor qo'ng'iroq chaldi, vagon haydovchisi ruchkani buradi, tramvay yurishi bilan bir bola tramvay orqasiga osilib oldi, militsioner hushtak chaldi, tramvay yon ko'chaga, baland-baland uylar orqasiga burilib ketdi.

Bir kishi g'ildiraklari qiyom solinadigan likopchaday keladigan velosiped minib o'tdi. Gazetachi yugurib o'tdi, gazetasining kattaligi devordagi taqvimning to'rt buklangan varag'iday kelardi, – gazetalarining kattaligi shunday edi.

Muzqaymoqchi aravachasini g'ildiratib o'tib qoldi. Uylarning ayvonlariga qiz bolalar chopib chiqib, unga qo'l siltashdi, muzqaymoqchi qo'llarini yozib:

– Hammasini yeb bo'lishdi, yanagi safar kelinglar, – deb javob berdi.

Keyin parda yopildi-da, undagi oltinsimon yashin shakli yana yaraqlab ketdi.

Karlo ota, Malvina, Pyero xursandlikdan o'zlarini unutib qo'ygan edilar. Buratino qo'llarini cho'ntagiga tiqib, burnini cho'chchaytirib maqtandi:

– Ko'rdinglarmi, qalay? Bundan chiqdi, Tortila xolaning oldida botqoqda bekor ivimagani ekanman... Bu teatrda o'zimiz komediya qo'yamiz, bilasizmi qanaqa komediya qo'yamiz, «Oltin kalit yoki Buratino va do'stlarining ajoyib sarguzashtlari» degan komediya qo'yamiz.

Alam qilganidan Karabas Barabasning yuragi yorilib o'ladi.

Pyero mushti bilan tirishgan peshanasini ishqalay boshladi:

– Men bu, komediyani chiroyli she'r bilan yozib chiqaman.

– Men muzqaymoq bilan chipta sotaman, – dedi Malvina. – Agar menda qobiliyat bor deb topsalaringiz, odobli qizlar rolini o'ynab ko'raman...

– Shoshmanglar, bolalar, xo'sh, o'qish qachon bo'ladi? – deb so'radi Karlo ota.

Uchalasi baravariga:

– Ertalab o'qiymiz... Kechqurun esa teatrda tomosha ko'rsatamiz... – deb javob berishdi.

– Ha, shunday bo'lsin, bolalarim, – dedi Karlo ota, – unday bo'lsa, bolalarim, men hurmatli tomoshabinlarni xursand qilish uchun sharmanka chalib turaman, agar tomosha ko'rsatish uchun Italiyada shaharma-shahar yuradigan bo'lsak, arava haydayman, sarimsoq piyoz solingan qo'y go'shtidan sho'rva pishiraman...

Artemon qulog'ini dik qilib, kallasini likillatib va yaltiroq ko'zlarini javdiratib do'stlariga qarab turib, gapga quloq soldi-da:

– Men nima qilaman? – deb so'radi.

– Artemon yasama bezak va teatr kiyim-boshlariga qaraydi, unga omborning kalitini berib qo'yamiz. Tomosha vaqtida u ichkaridan turib sherning bo'kirishini, karkidonning tapir-tupurini, timsohlarning tish g'ijirlatishini, dumini tez aylantirish bilan shamolning uvillashini va boshqa har xil zarur tovushlarni aks ettirib turadi.

– Sen-chi, Buratino, o‘zing nima ish qilasan?
– deb so‘rashdi hammalari. – Teatrda sen kim bo‘lmoqchisan?

– Voy, tentaklar-ey, komediyada men o‘z rolimni o‘ynayman va butun dunyoga dong tarataman!

XXIX. Yangi qo‘g‘irchoq teatri o‘zining birinchi tomoshasini ko‘rsatadi

Karabas Barabas ta‘bi tirriq bo‘lib, o‘choq oldida o‘tirar edi. Ho‘l o‘tin zo‘rg‘a yonmoqda. Tashqarida yomg‘ir quyib turibdi. Qo‘g‘irchoq teatrining teshik tomidan chakka o‘tardi. Qo‘g‘irchoqlarning oyoq-qo‘llari namiqib qolgan, mashq paytlarida qamchin ostida ham hech kimning ishlagisi kelmasdi. Qo‘g‘irchoqlar uch kundan beri tuz totishmas, ombor qoziqlariga osilib yotgan ko‘yi o‘zaro achchiq-achchiq shivirlashar edi.

Ertalabdan beri teatrga bitta ham chipta sotilmadi. Karabas Barabasning me‘daga tekkan tomoshalarini va och, chuvrindi artistlarini ko‘rgani kim ham kelar edi?!

Shahar minorasidagi soat oltiga zang urdi. Karabas Barabas qovog‘ini solib, tomosha zaliga kirdi – zal bo‘m-bo‘sh edi.

– Shayton ko‘tarsin, bunday hurmatli tomoshabinlarni, – deb to‘ng‘illadi u va ko‘chaga chiqdi. Ko‘chaga chiqib, qaradi-yu, kipriklarini pirpiratib, og‘zini bitta qarg‘a bemalol sig‘ib ketadigan qilib katta ochgancha angrayib qoldi.

Uning teatri qarshisidagi katta, yangi chodir oldida dengizdan nam shamol esib turganiga ham qaramay, juda ko‘p odam to‘plangan edi.

Chodirga kiriladigan eshikning tepasidagi shiyponchada qalpoq kiygan, burni uzun bir odamcha turar, qo'lidagi karnayni g'artillatib chalib, allanarsalar deb qichqirardi.

Odamlar kulishar, chapak chalishardi, ko'pchilik ichkari kirib ketmoqda edi.

Karabas Barabasning oldiga Duremar keldi, har vaqtdagidek undan suv o'tining hidi kelardi.

– Eh-he, – dedi u basharasini g'amginlik bilan burishtirib, – zulukfuruslik bilan tirikchilik o'tmay qoldi. Borib anavilarga xizmatga kirmoqchiman, – dedi Duremar yangi chodir tomon imo qilib, – sham yoqib turishmi, supurib-sidirishmi ishqilib, shunga o'xshash bir ish beringlar demoqchiman.

– Bu lan'ati teatr kimniki, qayerdan paydo bo'ldi u, – dedi xirillab Karabas Barabas.

– Qo'g'irchoqlarning o'zlari «Yashin» degan yangi qo'g'irchoq teatri tashkil qiliptilar. O'zlari she'riy pyesalar yozib, o'zlari o'ynashar ekan.

Karabas Barabas tishlarini g'ijirlatib, soqolini yuldi va yangi chodir tomonga yurdi.

Teatr eshigi tepasida Buratino qichqirar edi:

– Bugun birinchi martaba yog'och odamchalar hayotidan juda qiziq va ajoyib bir komediya ko'rsatiladi. Biz o'z dushmanlarimizni aql, jasorat va dadillik bilan qanday yenganimiz haqida voqeiy tomosha...

Teatr kirishidagi oynaband uychada zangori sochiga chiroyli tasma taqib olgan Malvina o'tirar va qo'li-qo'liga tegmay, qo'g'irchoqlar hayotidan ko'rsatiladigan xushchaqchaq komediya ko'rgisi kelganlarga chipta ulashar edi.

Yangi baxmal nimcha kiyib olgan Karlo ota sharmanka chalar va hurmatli tomoshabinlarga quvnoqlik bilan ko'z qisardi.

Artemon teatrga chiptasiz kirib ketgan Alisa tulkinining dumidan sudrab, chiqarib tashladi.

Chiptasiz kirgan, lekin ichkaridan qochib chiqishga ulgurgan Bazilio mushuk esa yomg'irda daraxt shoxida o'tirar va g'azab bilan pastga qarardi.

Buratino lunjini shishirib xirildoq karnayini chaldi-da:

– Tomoshani boshlaymiz, – deb qichqirdi.

So'ng komediyaning birinchi ko'rinishida o'ynash uchun chopganicha zinadan pastga tushib ketdi. Bu ko'rinishda kambag'al Karlo ota qilayotgan ishi o'ziga baxt keltirishini xayoliga ham keltirmay g'oladan yog'och odamcha yasagani ko'rsatilar edi.

Teatrda hammadan keyin, chetiga oltin hal yugurtirilgan chiroyli shildiroq qog'ozga yozilgan faxriy chiptani tishlab olganicha toshbaqa Tortila o'rmalab kirib ketdi.

Tomosha boshlandi. Karabas Barabas qovog'idan qor yog'ilib, o'zining bo'm-bo'sh teatruga qaytib keldi. Yetti qavat qilib o'ralgan charm qamchinni qo'liga oldi. Omborning eshigini ochdi.

– Muttahamlar, dangasalik qilishni ko'rsatib qo'yaman sizlarga! – deb bo'kirdi u g'azab bilan.
– Tomoshabinlarni qanday qilib teatrda qiziqtirish kerakligini o'rgatib qo'yaman!

U qamchinini qarsillatdi, lekin hech kim javob bermadi. Ombor bo'm-bo'sh edi. Qoziqlarda faqat uzun arqonlar osilib turar edi.

Hamma qo'g'irchoqlar – Arlekin ham yuziga qopa niqob tutgan qiz ham, yulduzlarning rasmi solingan qalpoqli jodugarlar ham, burni bodringdek bukrilar ham, firibgarlar ham, kuchuklar ham – qo'g'irchoqlarning bari Karabas Barabasdan qochib ketgan edilar.

Karabas Barabas ovozining boricha bo'kirib, ko'chaga otildi. U o'zining aktyorlaridan eng so'nggisi ko'lmak suvlar ustidan sakrab-sakrab o'tib, sho'x musiqa chalinayotgan, qah-qah va qarsak tovushlari eshitilayotgan yangi teatrga qochib ketayotganini ko'rib qoldi.

Karabas Barabas faqat ko'z o'rniga tugmachacha qadab qo'yilgan paxmoq itchani ushlab qoldi. Lekin allaqayerdan paydo bo'lib qolgan Artemon unga tashlandi-da, yerga ag'darib, itni qutqarib oldi va u bilan birga chodir ichiga kirib ketdi. Ichkarida och artistlar uchun sarimsoqpiyoz solib, qo'y go'shtidan sho'rva pishirilgan edi.

Karabas Barabas quyib turgan yomg'ir ostida, ko'lmak suvda o'tirganicha qolaverdi.



MUNDARIJA

PINOKKIONING BOSHIDAN KECHIRGANLARI

I. Usta Olchaning qo'liga xuddi kichkina boladek bir kulib, bir yig'lovchi g'o'la tushib qoladi.....	4
II. Usta Olcha g'o'lani do'sti Jeppettoga sovg'a qiladi, Jeppetto u g'o'ladan raqs tushishni, qilichbozlik qilishni, shuningdek, umbaloq oshishni biladigan alomat yog'och bola yasamoqchi bo'ladi.....	8
III. Jeppetto uyiga kelgan zahoti g'o'ladan yog'och bola yasashga kirishadi va unga Pinokkio deb nom qo'yadi. Yog'och bolaning dastlabki qadamlari	11
IV. Pinokkio bilan gapiruvchi qora chigirtka voqeasi. Bu voqeadan johil bolalar o'zidan aqlliroq kimsaning tanbehini yoqtirmasligi ma'lum bo'ladi.....	17
V. Pinokkioning qorni ochadi, u bitta tuxum topib, quymoq pishirmoqchi bo'ladi, lekin shu payt birdan quymoq uchib ketib, derazaga borib qo'nadi.....	20
VI. Pinokkio oyoqlarini cho'g' to'la manqal ustiga qo'yib, uxlab qoladi va ertalab uyg'onganida oyoqsiz qolganini ko'radi	23
VII. Jeppetto uyiga qaytadi. Bechora ota o'zi uchun nonushtaga topib kelgan yegulikning hammasini Pinokkioga beradi	25
VIII. Jeppetto Pinokkio uchun bir juft yangi oyoq yasaydi va unga alifbe sotib olish uchun kamzolini sotadi.....	30
IX. Pinokkio qo'g'irchoq teatriga kirish uchun alifbe kitobini sotadi.....	33
X. Qo'g'irchoqlar o'z ukalari – Pinokkioni tanib qolib, uni zo'r tantana bilan qarshi oladilar, lekin shodlik ayni avjiga chiqqan paytda teatrning xo'jayini Manjafoko kirib keladi-yu, Pinokkio dahshatli xavfga uchraydi.....	36
XI. Manjafoko to'xtovsiz aksira boshlaydi va Pinokkioni kechiradi. Pinokkio bo'lsa, shundan keyin do'sti Arlekinni o'limdan qutqarib qoladi	40
XII. Qo'g'irchoqboz Manjafoko, dadang Jeppettoga olib borib ber, deb Pinokkioga beshta oltin tanga beradi, lekin Pinokkio tulki bilan mushukning gaplariga laqqa ishonib, ular bilan jo'nab ketadi	44
XIII. Qizil qisqichbaqa mehmonxonasi.....	50

XIV. Pinokkio bosqinchilar qo'liga tushib qoladi. Chunki u gapiruvchi qora chigirtkaning foydali maslahatiga quloq solmagan edi	54
XV. Yo'lto'sar qaroqchilar Pinokkioni ta'qib qilib, axiri tutib oladilar va katta eman daraxtining shoxiga osib qo'yadilar	59
XVI. Zangori sochli chiroyli qizcha yog'och bolani dordan tushirishni buyuradi. Uni to'shakka yotqizib, tirik yo o'likligini bilish uchun birvarakayiga uch tabibni chaqirtiradi	62
XVII. Pinokkio qandni jon-jon deb yeydi-yu, lekin surgu dori ichishni xohlamaydi. Biroq, uni olib ketgani tobut ko'tarib kelgan quyonlarni ko'rib, darrov dorini ichib yuboradi. U yolg'on gapiradi, natijada shu yolg'onchiligi jatiga burni uzaya boshlaydi	66
XVIII. Pinokkio yana tulki bilan mushukni uchratadi va to'rt oltin tangasini sehrli dalaga ekish uchun ular bilan birga jo'nab ketadi	73
XIX. Pinokkio oltin tangalaridan judo bo'ladi, ustiga-ustak, yana to'rt oyga qamoqqa tashlanadi	79
XX. Qamoqdan ozod qilingan Pinokkio Parining uyiga qaytib bormoqchi bo'ladi, lekin yo'lda juda dahshatli ilonga duch keladi. Keyin qopqonga tushib qoladi	84
XXI. Pinokkioni dehqon tutib oladi va uni tovuqxonasi oldiga it o'rtniga bog'lab qo'yadi	87
XXII. Pinokkio o'g'rilarni tutishda ko'maklashadi va bu sadoqatli xizmati uchun ozodlikka chiqadi	90
XXIII. Pinokkio zangori sochli chiroyli qizning o'lganini bilib, unga aza tutib yig'laydi. Keyin kaptarga minib, dengiz bo'yiga boradi va otasi Jeppettoni qutqarish uchun dengizga kalla tashlaydi	94
XXIV. Pinokkio mehnatsevar asalarilar oroliga suzib chiqadi va u yerda yana Parini topadi	101
XXV. Pinokkio, endi yaxshi bola bo'laman, o'qiyman, deb Pariga so'z beradi, chunki yog'och odam bo'lib yashash uning joniga tekkan va u haqiqiy bola bo'lishni istaydi	108
XXVI. Pinokkio dahshatli nahangni ko'rish uchun o'rtoqlari bilan dengiz bo'yiga boradi	112
XXVII. Pinokkio o'rtoqlari bilan mushtlashadi, buning natijasida bolalardan biri yaralanadi. Politsiya Pinokkioni qo'lga oladi	116

XXVIII. Pinokkioni baliq deb o'ylab, tovada qovurmoqchi bo'ladilar.....	124
XXIX. Pinokkio Parining uyiga qaytadi. Pari unga, ertadan boshlab yog'och bola emas, haqiqiy o'g'il bola bo'lasan, deb so'z beradi. Bu muhim voqea sharafiga uyushtirilgan katta ziyofat	131
XXX. Pinokkio haqiqiy bola bo'lish o'rniga do'sti Pilik bilan Taralabedod mamlakatiga jo'naydi.....	141
XXXI. Pinokkio besh oy muttasil beg'amlik bilan baxtiyor yashaganidan keyin bundoq o'ylab qarasa.....	148
XXXII. Pinokkioning boshidan bir juft eshak quloq o'sib chiqadi, keyin u haqiqiy eshakka aylanib hangray boshlaydi	157
XXXIII. Pinokkio haqiqiy eshakka aylanib qolganidan so'ng, uni sotgani bozorga olib boradilar. Eshakni sotib olgan sirk direktori uni raqs tushishga, gardishdan sakrab o'tishga o'rgatadi. Lekin bir kun kechqurun tomosha paytida Pinokkioning oyog'i lat yeb, oqsoqlanib qoladi. Uni boshqa bir xaridorga sotib yuboradilar. Lekin bu xaridor Pinokkioning terisidan do'mbira yasamoqchi bo'ladi	165
XXXIV. Dengizda Pinokkioni baliqlar yeb ketadi, oqibat u yana avvalgidek yog'och bolaga aylanib qoladi. Lekin xaridordan jon saqlab, suvda suzib ketayotganida, uni dahshatli nahang yutib yuboradi	176
XXXV. Bu bobni o'qisangiz, Pinokkio nahangning ichida kimni uchratganini bilib olasiz.....	185
XXXVI. Nihoyat yog'och bola – Pinokkio haqiqiy o'g'il bolaga aylanadi.....	192

BURATINO VA UNING SARGUZASHTLARI

I. Duradgor Juzepning qo'liga odam tilida chiyillaydigan g'ola tushib qoladi.....	208
II. Juzeppe gapiradigan g'olani do'sti Karloga hadya qiladi.....	211
III. Karlo yog'ochdan qo'g'irchoq yasaydi va uning ismini Buratino deb qo'yadi	214
IV. Gapiradigan qora chigirtka Buratinoga yaxshi maslahat berdi.....	218
V. Buratino yengiltakligi uchun o'lishiga sal qoldi. Karlo ota unga guldor qog'ozdan kiyim qilib beradi va alifbe olib beradi	221
VI. Buratino alifbeni sotib, qo'g'irchoq teatriga chipta oladi.....	227
VII. Tomosha paytida qo'g'irchoqlar Buratinoni tanib qolishdi.....	231
VIII. Buratinoni yoqib yuborish o'rniga janob Karabas Barabas unga besh tilla pul beradi va uyiga jo'natib yuboradi	235
IX. Buratino uyga ketayotganida, ikki tilanchi – Bazilio mushuk bilan Alisa tulkini uchratadi	239
X. «Uch tanga baliq» oshxonasida.....	242
XI. Buratinoga qaroqchilar hujum qiladi	246
XII. Qaroqchilar Buratinoni daraxtga osib ketdilar	249
XIII. Zangori sochli qiz Buratinoni qutqaradi	252
XIV. Zangori sochli qiz Buratinoga tarbiya bermoqchi	256
XV. Buratino Ahmoqlar mamlakatiga tushib qoladi.....	261
XVI. Politsiyachilar Buratinoni ushlab ketadilar va o'zini oqlash uchun bir og'iz so'z aytishiga ham yo'l qo'ymaydilar	266
XVII. Buratino ko'lda yashovchilar bilan tanishadi, to'rt tilla tanga puldan ajralganini eshitib, toshbaqa Tortila unga oltin kalit beradi.....	270
XVIII. Buratino Ahmoqlar mamlakatidan qochadi, do'sti va kulfatdoshiga duch keladi	275
XIX. Pyero qanday qilib ko'k quyon mingan holda Ahmoqlar mamlakatiga kelib qolganini hikoya qilib beradi	277
XX. Buratino bilan Pyero Malvinaning oldiga keladilar, lekin Malvina va pudel Artemon bilan birga darrov bu yerdan qochishga majbur bo'ladilar	285

XXI. O'rmon yoqasidagi dahshatli jang.....	290
XXII. G'orda.....	298
XXIII. Buratino qanday qilib bo'lsa ham Karabas Barabasdan oltin kalitning sirini bilib olishga ahd qiladi	304
XXIV. Buratino oltin kalitning sirini bilib oladi.....	309
XXV. Buratino umrida birinchi marta nima qilarini bilmay qoladi, lekin hamma ish ko'ngildagidek tugaydi	313
XXVI. Nihoyat Buratino Karlo ota, Malvina, Pyero va Artemon bilan birga uyga qaytib keladi	321
XXVII. Karabas Barabas endi zina ostidagi hujraga bostirib kiradi	328
XXVIII. Ular yashirin eshikdan kirib nima topadilar ...	331
XXIX. Yangi qo'g'irchoq teatri o'zining birinchi tomoshasini ko'rsatadi.....	339

Adabiy-badiiy nashr

Karlo Kollodi

PINOKKIYONING BOSH DAN KECHIRGANLARI

Aleksey Tolstoy

BURATINO VA UNING SARGUZASHTLARI

Muharrir
Shahnoza RAHMONOVA

Musahhih
Sadoqat QARSHIBOYEVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 10.875. Shartli bosma tobog'i 18.27.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 67.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89;

Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**«Yangi asr avlodi» NMM 2015-yilda
«Kamolot kutubxonasi» ruknida
chop etilgan quyidagi kitoblarni taqdim etadi:**

FYODOR DOSTOYEVSKIY

«Jinoyat va jazo»

84x108 1/32 876 bet, qattiq muqova

Jahon va o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan tarkib topgan «Kamolot kutubxonasi» rukni bu gal atoqli rus yozuvchisi Fyodor Dostoevskiyning «Jinoyat va jazo» romanini taqdim etadi.

«Kambag'allik ayb emas, biroq yo'qchilik – illat. Birinchisida inson tug'ma oliyjanob fazilatlarini saqlab qola oladi, ammo yo'qchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi», asardagi personajlaridan biri bosh qahramonga bu gapni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. Universitetning sobiq talabasi bo'lgan Raskolnikov esa bu gapdan tegishli xulosa chiqara olmaydi. Natijada, yo'qchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuqori mavqega ega bo'lish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir qiladi. Fojiali jihati – qahramon o'z jinoyatini oqlaydi. Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatni jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Ruhiiy jazo jinoyatchini o'z aybiga iqrar bo'lishga majbur etadi.

IVAN TURGENEV

«Otalar va bolalar»

84x108 1/32 320 bet, qattiq muqova

Mashhur rus yozuvchisi I.S.Turgenevning o'z davrida katta shuhrat qozongan ushbu «Otalar va bolalar» romani rus adabiyotshunosligida yozuvchi ijodining cho'qqisi sifatida talqin etiladi. Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarini mujassamlantirgan. Asardagi voqealar o'sha davrda chiriy boshlagan jamiyatni

shunchaki isloh etish emas, balki poydevorini tag-tugi bilan yo'q qilib, yangisini barpo etish kerakligini ko'rsatib beradi. Turgenev Bazarovdagi nigilizmni (barcha narsalarni inkor qilish) tasvirlash orqali rus yoshlariga xos salbiy jihatlarni ham namoyon etgan. Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o'rgatuvchi ushbu asar mutolaasi kitobxonga zavq baishlaydi, degan umiddamiz.

JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI

«Odob-axloq kitobi»

84x108 1/32 192 bet, qattiq muqova

O'tgan asr boshlarida yangi tuzum maktablarining tashkil etilishi nafaqat davr farzandlarining, balki millat bolalarining ma'naviyatida tub burilishi yasadi, desak xato bo'lmaydi. Zamon ma'rifatparvarlari o'quvchilar uchun qator darsliklar yaratishdi, risolalar chop etishdi, gazeta va jurnallar ochishdi.

Bugungi o'quvchilar aynan o'sha maqolalarni, asarlarni, kitoblarni qayta-qayta o'qishi lozim, chunki ustozlarimizni, borihgki ustozlarimizning ustozlarini ma'rifatga chorlagan, ilmga oshno qilgan, ziyoli qilgan asarlar bugungi davr uchun ham qadrli, ham zarur.

Mazkur kitobda XX asr boshlaridagi adabiyot – ilm va chin insoniylikka chorlovchi asarlar jamlandi.

STENDAL

Qizil va qora

84x108 1/32 788 bet, qattiq muqova

Mashhur frantsuz yozuvchisi Stendalning «Qizil va qora» romani haqli ravishda dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan o'rin olgan.

Roman qahramoni bo'lmish Jyulen bilan de Renal xonim o'rtasidagi muhabbat shu qadar tabiiy hamda tiniq tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor ravishda ularning musaffo tuyg'ulariga maftun bo'lib qoladi.

**«Yangi asr avlodi» nashriyot matbaa markazi,
shuningdek, quyidagi kitoblarni nashrga
tayyorlamoqda:**

- Anton Chexov – «Buqalamun» – 200 bet
Janni Rodari – «Rim ertaklari» – 320 bet
Edgar Allan Po – «Hikoyalar» – 252 bet
Gabriyel Garsia Markes – «Oshkora qotillik qissasi»
– 300 bet
Teodor Drayzer – «Amerika fojiasi» 1-2-qismlar –
1400 bet
Robindranat Tagor – «Halokat» – 300 bet
Lermontov – «Zamonamiz qahramoni» – 180 bet
«XX asr o'zbek she'riyati» – 300 bet
«XX asr sharq she'riyati» – 300 bet
«XX asr rus she'riyati» – 300 bet
«XX asr jahon she'riyati» – 300 bet
Asqad Muxtor – «Opa-singillar» – 400 bet
J.Oldrij – «Dengiz shunqori» – 280 bet
O.Genri – «Ishbilarmon kishilar» – 200 bet
Jek London – «Martin Iden» – 480 bet
O'lmas Umarbekov – «Odam bo'lish qiyin» – 224 bet
Ivan Krilov – «Masallar» – 200 bet
Gogol – «Dikanka qishlog'i oqshomlari» – 220 bet
Kipling – «Maugli» – 280 bet
Nodar Dumbadze – «Men, buvim, Iliko va Illarion»
– 380 bet
Dante Aligre – «Ilohiy komediya» – 244 bet
Sadridin Ayniy – «So'dxo'rning o'limi» – 300 bet
Lev Tolstoy – «Urush va tinchlik»
Gyustav Flober – «Bovari xonim» – 520 bet
Fridrix Shiller – «Mal'r va muhabbat» – 280 bet
Rable – «Gargantyua va Pantagryuel» – 280 bet
Said Ahmad – «Yo'qotganlarim va topganlarim» –
380 bet
Gi de Mopassan – «Azizim» – 480 bet

Somerset Moem – «Chandiqli kishi» – 200 bet

Dino Butstsati – «Hikoyalar» – 200 bet

Melvill – «Mobi Dik» – 320 bet

Nozim Hikmat – «Inson manzaralari» – 380 bet

Usmon Nosir – «Yurak sensan mening sozim» – 200

bet

Erix Maria Remark – «Essizgina yoshligim» – 160 bet

Emil Zolya – «Ayol baxti» – 360 bet

Jorj Simenon – «Migre va Daydi» – 160 bet


Stefan sveyg – «Qalb besabrligi» – 240 bet

Martti Larni – «Zo'raki muttaham» 340 bet

Mixail Sholoxov – «Tinch Don» – 460 betdan 4 ta

kitob

Charlz Dikkens – «Oliver Tvistning boshidan
kechirganlari» – 340 bet



Karlo Kollodi

(1826 – 1890)

Haqiqiy ismi – Karlo Lorensini bo'lgan italiyalik yozuvchining asli kasbi jurnalist. U bolalar uchun yozilgan «Pinokkioning boshidan kechirganlari» asari bilan dunyoda shuhrat qozondi.

Aytish joizki, yozuvchining ushbu asari 300 dan ortiq tildarga tarjima qilingan. Asar dastlab «Pinokkioning sarguzashtlari: yog'och qo'g'irchoq ertagi» nomi bilan 1881-yili Italiyaning «Bolalar gazetasi»da chop etilgan. Yosh mushtariylar tomonidan iliq kutib olingan asar 1883-yili alohida kitob shaklida bolajonlarga taqdim qilingan.

Karlo Kollodi 1890-yilda vafot etgan.

Aleksey Tolstoy

(1882 – 1945)

Rus yozuvchisi, jamoat arbobi. Uning «Lirika» she'riy to'plami, «G'alati odamlar», «Oqsoq boy», «Aelita», «Injener Garinning mo'jizasi» singari asarlari, «Sarsonlik sargardonlikda» trilogiyasi, «Opa-singillar», «O'n sakkizinchi yil», «Bulutli tong», «Ulug' Pyotr» tarixiy romanlari o'quvchilar qalbidan chuqur joy olgan.

1936-yilda italyan folklori motivlari asosida «Buratino va uning sarguzashtlari» asari yozilgan.

Tolstoy 1941-yil Toshkentga keladi va shu yerda «Ivan Grozniy» dilogiyasining 1-qismini tugatib, ushbu dilogiyaning 2-qismi «Mashaqqatli yillar» va «Yovuz kuch» pyesasini yozadi. Shuningdek, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton kabi o'zbek ijodkoriari bilan ijodiy hamkorlik qiladi.

Aleksey Tolstoy 1945-yil 23-fevralda Moskva shahrida vafot etgan.